

Nargiza Erkaboyeva



- Til va yozuv tarixi
- Fonetika
- Leksikologiya
- Morfemika
- Qo‘shimchalar doirasidagi omonimlik
- Tinish belgilari
- I bosqich litsey adabiyoti
- 7-sinf adabiyoti

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTIDAN

# SAVOLLAR TO'PLAMI

I qism





## FONETIKADAN SAVOLLAR (KIRISH)

1. Og'zaki nutqning tovush tizimi qaysi bo'limda o'rganiladi?

- A) fonetikada      B) orfografiyada  
C) grafikada      D) orfoepiyada

2. Noto'g'ri fikmi aniqlang.

A) Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so'zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz

B) Harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq yozma nutqdir

C) Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq og'zaki nutq hisoblanadi

D) Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi nutq sanaladi

3. Nutq tovushlarining asosiy vazifasini toping.

- A) so'zlar tuzishda ishtirok etish  
B) so'z ma'nolarini farqlash  
C) nutq hosil qilishda ishtirok etish  
D) hammasi to'g'ri

4. **g** va **k** undoshlarining farqlovchi belgisi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) jaranglilik      B) portlovchilik  
C) til orqalik      D) shovqinlilik

5. **H** va **x** undoshlarining farqlovchi belgisi qaysi qatordagi tasnifda namoyon bo'ladi?

A) hosil bo'lish o'miga ko'ra

B) hosil bo'lish usuliga ko'ra

C) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra

D) tarkibiga ko'ra

6. Qaysi qatorda berilgan so'zda unlilar og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlik hosil qiladi?

1) komil; 2) kemtik; 3) tikuvchi; 4) kamolot;

5) cho'chimoq; 6) mudir.

A) 2, 3, 6

B) 3, 4, 6

C) 1, 3, 4, 5, 6

D) 1, 3, 4, 6

7. Noto'g'ri fikmi aniqlang.

A) Nutq tovushlarining akustik tomoni fizika fani bilan aloqador

B) Nutq tovushlarining talaffuz tomoni fiziologiya fani bilan aloqador

C) Nutq tovushlarining vazifaviy tomoni ulaming eng muhim belgisi sanaladi

D) Nutq tovushlarining inson nutq a'zolari harakati natijasida paydo bo'lishi uning akustik tomoni hisoblanadi

8. Noto'g'ri fikmi aniqlang.

A) Nutqiy faoliyat bir yoki ikki tomondan iborat bo'ladi

B) Nutqiy faoliyatda axborot uzatuvchi so'zlovchi deb nomlanadi

C) Axborotni qabul qiluvchi shaxs tinglovchi hisoblanadi

D) Nutqiy faoliyat og'zaki yoki yozma shaklda amalga oshadi

9. Fon yoki allafon ...

A) tilning fonologik sathi birligi

B) fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi

C) havo to'lqinlari orqali qulog'imiz bilan eshitiladigan barcha hodisa

D) boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan til birligi

10. Nutq tovushlarining nutq a'zolari harakati natijasida maydonga kelishi tovushning qanday tomoni hisoblanadi?

A) fiziologik B) akustik

C) lingvistik D) vazifaviy

11. Tovushning balandlik, kuch, miqdor va tembr kabi belgilarga ega bo'lishi uning qanday tomoni?

A) fiziologik B) akustik

C) lingvistik D) vazifaviy

12. Tovushning ma'lum maqsadda talaffuz etilishi va ma'lum axborot uzatishga qaratilishi uning qaysi tomoni sanaladi?

A) fiziologik B) akustik

C) talaffuz D) vazifaviy

13. Tovushning qaysi tomoni eng muhim?

A) fiziologik B) akustik

C) fizik D) vazifaviy

14. «K» tovushining talaffuz (fiziologik) tomonini toping.

1) «k»ning «g» va boshqa undoshlardan farqlanishi; 2) sof shovqindan iborat ekanligi; 3) til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi natijasida hosil bo'lishi; 4) jarangsizligi; 5) o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'lishi.

A) faqat 1 B) 2, 5

C) 2, 4, 5 D) 3, 5

15. «K» tovushining akustik tomonini toping.

1) «k»ning «g» va boshqa undoshlardan farqlanishi; 2) sof

shovqindan iborat ekanligi; 3) til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi natijasida hosil bo'lishi; 4) jarangsizligi; 5) o'pkadan chiqayotgan havoning to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'lishi.

A) faqat 2

B) 2, 4

C) 2, 4, 5

D) 3, 5

16. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar qanday belgi hisoblanadi?

A) birlashtiruvchi belgi

B) farqlovchi belgi

C) umumiy belgi

D) zidlovchi belgi

17. Zidlanayotgan ikki birlikning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar qanday nomlanadi?

A) birlashtiruvchi belgi

B) farqlovchi belgi

C) umumiy belgi

D) zidlovchi belgi

18. «D» va «t» belgilari uchun qaysi belgilar birlashtiruvchi belgi bo'la oladi?

A) til oldi

B) portlovchi

C) jarangli-jarangsizlik

D) A va B

19. Unli tovushlarning undosh tovushlardan farqli tomonlari qaysilar?

1) to'siqqa uchramay hosil bo'lishi;

2) faqat ovozdan iborat bo'lishi; 3) so'z ichida kelib, bo'g'in hosil qilishi; 4) ovoz va shovqindan iborat bo'lishi.

A) 1, 2

B) 1, 2, 3

C) 1, 2, 3, 4

D) 1, 3, 4

20. Tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini bir-biridan farqlagan olim ...

A) A.Hojjiyev

B) F.Sossyur

C) P.Pavlov

D) Sh.Rahmatullayev

21. *Soli bilan sholi* so'zlarining birinchi tovush orqali farqlanishi tovushning qaysi tomoni hisoblanadi?

- A) fiziologik      B) akustik  
C) fizik            D) vazifaviy

22. Tovushning qaysi tomoni, ya'ni belgisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi sanaladi?

- A) fiziologik      B) akustik  
C) vazifaviy      D) A va B

23. B undoshining akustik xususiyati berilgan qatorni toping.

- A) portlovchi      B) jarangli  
C) lab undoshi    D) lab-lab

24. Z undoshining akustik xususiyati qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

- A) jarangli  
B) ovoz va shovqindan iborat  
C) til oldi  
D) hammasi to'g'ri sanalgan

25. *Soch* va *sot* so'zlari bir-biridan ch va t tovushlari yordamida farqlanadi. Bu xususiyat nutq tovushining qaysi belgisi hisoblanadi?

- A) fiziologik      B) akustik  
C) fizik            D) vazifaviy

26. Bilish vositasining ikkinchi signal sistemasi deganda mashhur ruhshunos P.Pavlov qaysi sezgi a'zosini nazarda tutgan?

- A) ko'rish a'zosi  
B) nutq a'zosi  
C) eshitish a'zosi  
D) sanalganlarning hammasi

27. Til va nutq hodisasi bir-biriga qaysi xususiyatlar orqali zidlanadi?

- A) umumiylik – xususiylik  
B) imkoniyat – voqelik  
C) mohiyat – hodisa  
D) sanalganlarning hammasi to'g'ri

28. Til hodisasi uchun xos bo'lmagan xususiyat qaysi qatorda berilgan?

- A) umumiylik      B) mohiyat  
C) imkoniyat      D) voqelik

29. Bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lgan, boshqa mayda bo'laklarga bo'lish mumkin bo'lmagan nutq bo'lagi ...

- A) fonema            B) tovush  
C) so'z                D) gap

30. ... uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilargina ahamiyatli bo'ladi.

- A) fonetika            B) fonologiya  
C) leksikologiya      D) orfografiya

31. M va k tovushlarining birlashtiruvchi belgisini toping.

- A) jarangli-jarangsizlik  
B) portlovchilik  
C) sonorlik  
D) lab undoshi

32. M va k undoshlari qaysi jihatdan o'xshash?

- A) jaranglilik  
B) hosil bo'lish o'miga ko'ra  
C) hosil bo'lish usuliga ko'ra  
D) barcha javoblar to'g'ri

33. Y va f undoshlarining birlashtiruvchi belgisini toping.

- A) jarangli            B) sirg'aluvchi  
C) lab-tish undoshi    D) portlovchi

34. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatidan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi ...

- A) fonema            B) tovush  
C) so'z                D) gap

35. H tovushining fiziologik belgisi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) jarangsiz            B) bo'g'iz undoshi  
C) sirg'aluvchi        D) B va C

36. Hosil bo'lish o'mi va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega tovushlardan tashkil topgan so'z qaysi qatorda berilgan?

- A) mamnun            B) sarosar  
C) dars                D) shart



37. Hosil bo'lish o'rni, hosil bo'lish usuli, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega so'z qaysi qatorda berilgan?

- A) zamon                      B) vafo  
C) zarur                      D) sulton

38. *Har qanday go'zallik zamirida mehnat yotadi.* Ushbu gapda nechta til undoshlari ishtirok etgan?

- A) 16 ta                      B) 14 ta  
C) 20 ta                      D) 18 ta

39. **Yod – yot, sud – sut** paronim so'zlaridagi **d** va **t** tovushlarining farqlovchi belgisini toping.

- A) til yoki lab undoshi  
B) jarangli yoki jarangsiz tovush  
C) til oldi yoki til orqa undoshi  
D) portlovchi yoki sirg'aluvchi tovush

40. Qaysi qatorda ng tovushi ishtirok etgan so'zlar berilgan?

- A) kongress, yengil, shtanga  
B) kenglik, ingramoq, tungi  
C) chang, qaytingiz, tonggi  
D) singil, menga, ko'ngil

41. Qaysi qatordagi so'zlarda pastki lab bilan yuqori tishlar orasida hosil bo'ladigan tovush ishtirok etgan?

- A) avtomashina, faqat  
B) astagina, daraxt  
C) puflamoq, shirin  
D) bo'g'iz, qadrdon

42. *Tushib, bilan, bilim, sira, qiziq* so'zlarida **i** tovushiga xos takrorlanadigan umumiy belgini aniqlang.

- A) torlik va qisqalik  
B) torlik va lablanmaganlik  
C) til-oldilik va torlik  
D) til-oldilik va qisqalik

43. Til va nutqning farqi noto'g'ri izohlangan javobni belgilang.

- A) Til voqelanmagan, nutq voqelangan  
B) Til – voqelik, nutq – imkoniyat  
C) Til – mohiyat, nutq – hodisa  
D) Tilga umumiylik, nutqqa xususiylik xos

44. Fonema haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) bir fonema bir necha tovushlar orqali ro'yobga chiqadi; 2) fonemalar ikki va undan ortiq ma'noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi; 3) fonemalar so'zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomondan shakllantiradi; 4) nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi fonema sanaladi.

- A) 1, 2, 3                      B) 1, 2, 3, 4  
C) 2, 3                      D) 2, 3, 4

45. Quyidagi zidlanishlardan qaysi biri fonemaga xosligini aniqlang.

1) umumiylik; 2) xususiylik; 3) imkoniyat; 4) voqelik; 5) mohiyat.

- A) 1, 2, 3, 5                      B) 2, 4  
C) 1, 3, 5                      D) 1, 2, 3, 4, 5

46. Quyidagi zidlanishlardan qaysi biri nutq tovushiga xosligini aniqlang.

1) til birligi; 2) nutq birligi; 3) umumiylik; 4) xususiylik; 5) imkoniyat; 6) voqelik; 7) mohiyat; 8) hodisa.

- A) 2, 4, 6, 8  
B) 1, 3, 5, 7  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8  
D) 2, 3, 5, 7

47. «B» tovushining fiziologik tomoni to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) lablarning bir-biriga tegishi natijasida hosil bo'lishi va sof shovqindan iborat ekanligi

B) sof shovqindan iborat ekanligi va jarangliligi

C) lablarning bir-biriga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi

D) o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi va jarangliligi

48. Tovushlarning ma'noli til birliklari tarkibida ularni shakllantirishi

va ma'nolarni farqlashda xizmat qilishi ularning ...

- A) fiziologik belgisi sanaladi
- B) akustik belgisi sanaladi
- C) vazifaviy belgisi sanaladi
- D) fiziologik va vazifaviy belgilari sanaladi

49. Qaysi so'z tarkibida ikkita birlashtiruvchi va bitta farqlovchi belgilarga ega tovushlar qo'llangan?

- A) jafu
- B) vafo
- C) davo
- D) havu

50. Til oldilik, portlovchilik belgilari takrorlanuvchi tovushlar juftligini toping.

- A) z – s
- B) d – m
- C) d – t
- D) k – t

51. O'z jufti bilan bitta farqlovchi belgiga ega juftlik hosil qila oluvchi tovushlar qatorini toping.

- A) p, t, k, q, ch, s, sh, f
- B) p, f, t, x, s
- C) p, t, s, sh, k, f
- D) p, t, k, q

52. Hosil bo'lish o'rni va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega tovushlar yordamida farqlanuvchi so'zlar juftligini toping.

- A) band – pand
- B) band – qand
- C) tosh – bosh
- D) bilak – tilak

53. Hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlanuvchi belgiga ega tovushlar qaysi qatorda berilgan?

- A) g – k
- B) m – n
- C) d – t
- D) q – x

54. Hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega tovushlar yordamida farqlanuvchi so'zlar juftligini toping.

- A) bosh – yosh
- B) ko'z – so'z
- C) hiyla – xiyla
- D) bog' – boq

55. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega tovushlar yordamida farqlanuvchi so'zlar juftligi qaysi javobda berilgan?

- A) tanbur – tambur
- B) xol – hol
- C) kuz – suz
- D) sud – sut

56. Fonema va tovushga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

- A) fonema – til birligi, tovush – nutq birligi
- B) fonema – nutq birligi, tovush – til birligi
- C) fonema ham, tovush ham nutq birligi
- D) fonema ham, tovush ham til birligi

57. Tovushlarga xos xususiyat to'g'ri sanalgan qatorni toping.

A) havu to'lqinlari orqali qulog'imiz eshitadigan barcha hodisalarga tabiiy tovushlar deyiladi

B) tabiiy tovushlarning ham akustik, fiziologik, vazifaviy belgilari – tomonlari mavjud

C) nutq tovushlari inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi

D) tilshunoslik fani uchun nutq tovushining fiziologik va vazifaviy tomoni muhim sanaladi

58. «B» va «p» undoshlari uchun birlashtiruvchi belgi noto'g'ri berilgan qator qaysi?

- A) portlovchi-sirg'aluvchilik
- B) lab-lab
- C) jarangli-jarangsizlik
- D) A va B

59. Tilga xos xususiyatlar qayd etilgan to'g'ri javobni belgilang.

1) hali voqelanmagan imkoniyat; 2) faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til; 3) jamiyat a'zolariga barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy vosita; 4) shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'luvchi hodisa.

- A) 1, 4
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 3

60. Quyidagi gapda asosi hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega undoshlardan iborat sodda yasama so'z qaysi gap bo'lagiga bog'lanib kelgan?

Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolami, qon to'kislarni unutar, olamda mehr-u saxovat, poklik va ezgulik g'olib bo'lar.

- A) kesim                      B) hol  
C) ega                         D) to'ldiruvchi

61. Qaysi qatorda asosi hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega undoshlardan tuzilgan o'timsiz fe'llar berilgan?

- A) yozmoq, so'ramoq  
B) o'tirmoq, turmoq  
C) yugurmoq, chopmoq  
D) yurmoq, uxlamoq

62. Qaysi qatorda hosil bo'lish usuli va hosil bo'lish o'miga ko'ra birlashtiruvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra farqlovchi belgiga ega tovushlar juftligi berilgan?

- A) d – n                      B) m – b  
C) z – s                      D) r – t

63. Qaysi qatorda hosil bo'lish o'rni hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra birlashtiruvchi, hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlovchi belgiga ega tovushlar juftligi berilgan?

- A) d – t                      B) z – r  
C) g' – q                      D) n – l

64. Qaysi qatordagi gapda hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega undoshlardan tuzilgan payt ravishi qatnashmagan?

- A) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.  
B) Avval o'yla, keyin so'yla.  
C) Hozir u yerga borishning iloji yo'q.  
D) Ko'p so'zlama, oz so'zla, oz so'zlasang ham doimo soz so'zla.

65. Fonemalar yordamida farqlanmagan so'zlarni aniqlang.

- A) Hasan – Husan, katta – kalta  
B) olam – odam, vafo – vabo  
C) sur'at – surat, she'r – sher  
D) bot – bod, nufus – nufuz

66. Yuqori tor unililarning o'zaro almashinishi yangi ma'no anglatmaydigan so'z qaysi gapda mavjud?

- A) O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!  
B) Shafaq qon rangida lovullar, go'yo u yuragim parchasi.  
C) Bir ishni qilishga astoydil tutin.  
D) Onasi sirti butun, ichi tutun ayollardan edi.

67. 1) bajarmoq; 2) qo'llamoq; 3) bildirmoq; 4) ko'rilmog; 5) turlamoq; 6) belgilamoq.

Berilgan qaysi so'zlarda unililarning og'iz ochilish darajasiga ko'ra barcha turi bor?

- A) 3, 4, 6                      B) 4, 6  
C) 1, 2, 5                      D) 1, 4

68. Qaysi qatordagi so'z unli va artikulyatsion belgilari har binda takrorlanadigan undoshlardan tashkil topgan?

- A) fizika                      B) talaffuz  
C) vazifa                      D) zararli

69. Qaysi unli(lar)ni talaffuz qilganda og'iz ozgina ochilib, tilning o'rtasi yuqori tanglayga qarab ko'tariladi?

- A) u, o'                      B) i, u  
C) i, o                      D) i, a

70. Yod – yot, sud – sut paronim so'zlaridagi «d» va «t» tovushlarining farqlovchi belgisini toping.

- A) portlovchi yoki sirg'aluvchi tovush  
B) jarangli yoki jarangsiz tovush  
C) til yoki lab undoshi  
D) til oldi yoki til orqa undoshi

71. Qaysi so'zlarda «n» va «g» alohida tovush hisoblanadi?

- 1) onangga; 2) shudring; 3) menga;  
4) tutunga; 5) ko'ngil.  
A) 3, 4, 5                      B) 1, 2, 5  
C) 3, 4                      D) 2, 3

72. Unililarni talaffuz qilganda asosiy vazifani qaysi nutq a'zolari bajaradi?

- A) un paychalari, til va lablar  
B) tishlar, lablar va un paychalari  
C) un paychalari, tanglay, til



D) og'iz bo'shlig'i, bo'g'iz, un paychalari  
73. Undosh tovushlarning hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega nutq a'zolarini belgilang.

- A) bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i, til
- B) til, tovush paychalari, lablar
- C) burun, kichik til, og'iz bo'shlig'i
- D) til, lablar, bo'g'iz bo'shlig'i

74. *Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz baxt, ayolsiz muhabbat yo'q, onasiz qahramon ham, shoir ham tug'ilmaydi.* Ushbu gapda akustik tomoniga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega undoshlardan tuzilgan nechta so'z bor?

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) bunday so'z yo'q

75. Fonemalar haqidagi noto'g'ri hukmni toping.

A) fonemalar ikki va undan ortiq ma'noni bir-biriga zidlash orqali hosil qilinadi

B) fonemalar so'zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomondan shakllantiradi

C) bir fonema bir tovush orqali ro'yobga chiqadi

D) so'z tarkibida fonemalarning joylashish tartibi muhim rol o'ynaydi

76. Tovushning akustik tomonlariga nimalar kiradi?

1) balandlik; 2) kuch; 3) tembr; 4) uzunlik; 5) miqdor.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 3, 5
- C) 1, 3, 5
- D) 1, 2, 3, 4, 5

77. «O'zbek tilida urg'u» nomli tilshunoslikka doir muhim asar yozgan olim nomini toping.

- A) Ayub G'ulomov
- B) Mazluma Asqarova
- C) Hamid Ne'matov
- D) Azim Hojiyev

78. «O'zbek tilida kelishiklar», «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi», «O'zbek tilida tarixiy so'z yasaliş muammolari» nomli ilmiy asarlar muallifi kim?

A) Shavkat Rahmatullayev

B) Hamid Ne'matov

C) Ayub Gulomov

D) Iristoy Qo'chqortoyev

79. *Yer yuzining buyuk saltanatlari sen qurmadingmi?* Ushbu gapdagi tarkibida akustik jihatdan birlashtiruvchi belgiga ega undoshlar qatnashgan so'z qanday til undoshlaridan tuzilgan?

1) til oldi undoshi; 2) til o'rta undoshi; 3) til orqa undoshi; 4) chuqur til orqa undoshi.

- A) 1, 2
- B) 2, 3
- C) 1, 2, 3
- D) 1, 3, 4

80. Nutq tovushlarining artikulyatsion belgilari uning qaysi tomonini hosil qiladi?

- A) akustik
- B) fiziologik
- C) vazifaviy
- D) akustik va fiziologik

81. Berilganlardan fonologiya uchun muhim sanalgan xususiyat(lar)ni belgilang.

1) **d** va **t** tovushlari til oldilik belgisiga ega; 2) **d** va **t** tovushlari portlovchilik belgisiga ega; 3) **d** jaranglilik, **t** jarangsizlik xususiyatiga ega.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2
- C) faqat 3
- D) faqat 1

82. Berilganlardan fonetika uchun muhim sanalgan xususiyat(lar)ni belgilang.

1) **d** va **t** tovushlari til oldilik belgisiga ega; 2) **d** va **t** tovushlari portlovchilik belgisiga ega; 3) **d** jaranglilik, **t** jarangsizlik xususiyatiga ega.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2
- C) faqat 3
- D) faqat 1

83. **R** tovushining artikulyatsion belgilarini aniqlang.

1) til oldi undoshi; 2) sonor (ovozdor); 3) sirg'aluvchi; 4) jarangli; 5) ovoz va shovqindan tuzilgan.

- A) 2, 4, 5
- B) 1, 3
- C) 1, 2, 3
- D) 1, 2, 3, 4, 5

84. Noto'g'ri fikrni aniqlang.

A) Bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash, zidlash tashkil etadi

B) Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli

C) Fonetika uchun ikki tovushning o'zaro farqli va umumiy bo'lgan barcha belgilari muhim sanaladi

D) Fonetika uchun ham, fonologiya uchun ham faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli

85. Tovushlarning akustik tomoniga xos sifat belgilarini juftlab yozing.

1) balandlik; 2) kuch; 3) miqdor; 4) tembr.  
a) uzunlik; b) tezlik.

A) 2-a, 3-b      B) 1-b, 2-a

C) 2-b, 3-a      D) 1-a, 2-b

86. *Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,*

*Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.* Ushbu parchada hosil bo'lish o'mi va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?

A) aniqlovchi      B) to'ldiruvchi

C) ega      D) kesim

87. Qaysi so'z asosida ikki jarangli undosh orasida keng unli kelgan?

A) kitobxon      B) bormoqda

C) puldor      D) bilimdon

88. *Ko'z ochganda kezib yetti bahri ummon,*

*Yetti tilda so'zlashgan biz tili biyron.*

*Vatanida Tojmahallar tiklar sulton –*

*Boburlari, Behzodlari, ilm istang.*

Ushbu she'riy parchada barcha undoshlari jarangli-jarangsizligiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan so'zlar soni nechta?

A) 6 ta      B) 3 ta

C) 5 ta      D) 4 ta

89. *Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,*

*Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.* Ushbu parchada hosil bo'lish o'mi va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan so'z qaysi gap bo'lagiga tobelangan?

A) aniqlovchiga      B) to'ldiruvchiga

C) egaga      D) kesimga

90. *Nomingni qaro degan – paxtaginam, senmisan, Lo'ppideya yutganim – laxtaginam, senmisan, Avaxtada bosh urgan laxtaginam, senmisan?! Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

Ushbu parchada tagiga chizilgan so'zlarda so'z ma'nosini farqlashga xizmat qilgan undosh tovushlarning birlashtiruvchi belgisi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) hosil bo'lish o'miga ko'ra

B) shovqinli yoki sonor ekanligiga ko'ra

C) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra

D) hosil bo'lish usuliga ko'ra

91. Berilgan so'zlardan qaysi birida bir ovozdor ikkinchi ovozdor o'mida talaffuz qilinib ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega?

A) soldat

B) la'nat

C) shanba

D) nonvoy

92. *Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,*

*Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.* Ushbu parchada hosil bo'lish o'mi va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan so'z bog'langan gap bo'lagi qaysi gap bo'lagiga bog'langan?

A) aniqlovchiga

B) to'ldiruvchiga

C) egaga

D) kesimga

93. *Shundan beri inson tinmayin, Yer uzra ter to'kar hamon.*

*Yerni go'zal qilgani sayin,*

*Go'zal bo'lar o'zi ham inson.*

Ushbu she'riy parchada tarkibidagi barcha undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega nechta so'z ishtirok etgan?

- A) 7 ta                      B) 6 ta  
C) 8 ta                      D) 9 ta

94. *Nomingni qaro degan – laxtaginam, senmisan, Lo'ppi deya yutganim – laxtaginam, senmisan, Avaxtada bosh urgan laxtaginam, senmisan?! Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.*

Ushbu parchada tagiga chizilgan so'zlarda so'z ma'nosini farqlashga xizmat qilgan undosh tovushlarning birlashtiruvchi belgisi noto'g'ri berilgan javobni toping.

- A) hosil bo'lish o'rniga ko'ra  
B) shovqinli yoki sonor ekanligiga ko'ra  
C) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra  
D) hosil bo'lish usuliga ko'ra

95. Nuqtalar o'rniga og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega unililar so'z ma'nosini farqlashi mumkin bo'lgan barcha so'zlar ko'rsatilgan javobni belgilang.

- 1) bur...sh; 2) t...r; 3) s...rmoq;  
4) m...lk.  
A) 1, 2, 3                      B) 2, 3  
C) 1, 2, 3, 4                      D) 1, 3

96. Qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga yonma-yon og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan unililarni qo'yish mumkin?

- 1) m...sh; 2) t...m; 3) m...llim; 4) s...t;  
5) ok..n.  
A) 1, 2, 3, 4, 5                      B) 1, 2, 4, 5  
C) 1, 2, 4                      D) 1, 2, 3, 4

97. *Tur, tos, bosh, tosh, zor, bos, tor, bog', qosh*

Berilgan so'zlardan nechtasi tarkibida kelgan unilini o'rta keng unliga almashtirilsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?

- A) 8 tasini                      B) 5 tasini

- C) 6 tasini                      D) 7 tasini

98. Qaysi javobdagi so'zlarda faqat unililar orqali ma'no farqlangan?

- A) san'at-sanat                      B) tub-tup  
C) tekin-to'kin                      D) til-dil

99. *Bitta o'g'limni qoldirishni xohlamayapman-u, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shahar-ga ketamiz?*

Ushbu gapda munosabat shakllari tarkibida ishtirok etgan undoshlarning hech biriga xos bo'lmagan tasnifni aniqlang.

- A) jarangli juftiga ega bo'lgan portlovchi til undoshi  
B) shovqinlilar guruhiga kirmaydigan jarangli portlovchi undosh  
C) jarangli portlovchi til orqa undoshi  
D) jarangsiz juftiga ega bo'lgan sirg'aluvchi til undoshi

100. Qaysi juftlikdagi paronimlar ma'nosini farqlovchi undoshlar faqat ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra farqlanadi?

- A) tub-tup                      B) yaroqli-yarog'li  
C) afzal-abzal                      D) xol-hol

101. *Tur, tor, tosh, tot, tog', tol, tut, tush*

Berilgan so'zlardan nechtasi tarkibida kelgan til oldi portlovchi undoshni jarangli, portlovchi, lab undoshiga almashtirilsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?

- A) 8 tasini                      B) 5 tasini  
C) 6 tasini                      D) 7 tasini

102. *Ilmdorlar juda ko'pdir jahonda. Ortdaman deb hayallama armonda. Tez ilm ol sen hozirgi zamonda, Yur, o'g'lonim, yurtini ko'tarish uchun.*

Ushbu she'riy parchada ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan undoshlar va unililardan iborat nechta so'z bor?

- A) 10 ta                      B) 9 ta  
C) 8 ta                      D) 11 ta

103. Quyidagi nechta so'zdan tilning qayerida hosil bo'lishiga ko'ra bir



guruhga mansub undosh bilan ma'nosi farqlanuvchi paronim juftlik hosil qilish mumkin?

1) sof; 2) dars; 3) rux; 4) yaroqli; 5) ganch; 6) solih

A) 6 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 5 ta

104. *Tol, tor, toy, tars, tur, tong, tog', tom, ton*

Berilgan so'zlardan nechtasi tarkibidagi jarangsiz undosh(lar)ni jarangli jufti bilan almashtirib yangi so'z hosil qilish mumkin?

A) 7 B) 10 C) 8 D) 9

105. Quyida berilgan nechta so'zda portlovchi undosh o'rnida sirg'aluvchi undosh so'z ma'nosini farqlab, paronim juftlikni yuzaga keltiradi?

*nufus, qarz, sop, yonilg'i, siqim, yaroqli, abzal, xol*

A) 3 B) 5 C) 6 D) 4

106. Qaysi qatordagi so'zlarda til oldi undosh tovushlari qo'llangan?

A) xohish, sunbul

B) dada, shinni

C) qoqi, handasa

D) bobo, jo'ja

107. Qaysi javobda hosil bolish usuliga ko'ra farqlanuvchi tovushlar orqali paronim juftlik hosil qila oladigan so'z(lar) ko'rsatilgan?

1) afzal; 2) adib; 3) hiyla; 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur.

A) 1 B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 6 D) 2, 3, 4, 5, 6

108. *O'rxun yozuvlari – ko'zimizga ziyo,*

*Bobolardan qolgan tabarruk meros.*

*Siz bitgan toshni aylab to'tiyo,*

*Ming bora ko'zlarga surtsak-da, bu oz!*

Ushbu she'riy parchada unli(lar) va sirg'aluvchi undosh(lar)dan iborat nechta so'z bor?

A) 4 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 5 ta

109. **n** va **ng** undoshlari qaysi jihatiga ko'ra farqlanadi?

A) jarangli-jarangsizligiga ko'ra

B) tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra

C) shovqinli yoki sonor ekanligiga ko'ra

D) hosil bo'lish usuliga ko'ra

110. **g** va **ng** undoshlari qaysi jihatiga ko'ra farqlanadi?

A) jarangli-jarangsizligiga ko'ra

B) tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra

C) shovqinli yoki sonor ekanligiga ko'ra

D) hosil bo'lish usuliga ko'ra

111. **x** va **g'** undoshlari qaysi jihatiga ko'ra farqlanadi?

A) jarangli-jarangsizligiga ko'ra

B) tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra

C) shovqinli yoki sonor ekanligiga ko'ra

D) hosil bo'lish usuliga ko'ra

112. *Tol, tosh, tor, toy, tot, tong, toq, toj, tok, top*

Berilgan so'zlardan nechtasi tarkibidagi jarangsiz til oldi portlovchi undosh o'rniga jarangli shovqinli lab-lab undoshni almashtirib yangi so'z hosil qilish mumkin?

A) 8 B) 9 C) 7 D) 10

113. To'g'ri hukmni aniqlang.

A) jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub

B) jarangsiz jufti yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub

C) ovozdor undoshlarda shovqin ishtirok etmaydi

D) jarangli jufti yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi

114. Berilgan so'zlardan nechtasida portlovchi undosh o'rnida sirg'aluvchi undosh kelsa, so'z ma'nosini farqlab paronim juftlikni yuzaga keltiradi?

qarz, sop, yonilg'i, siqim, yaroqli, adib, burch

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

115. Qaysi so'zdagi barcha undosh tovushlar hosil bo'lish o'rni va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega?

A) qadam B) sharoit  
C) vafo D) zaruriyat

116. Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak.

Ushbu gapdagi nechta so'zda unlilar tabllarning ishtirokiga ko'ra umumiylik hosil qilgan?

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2 ta

117. Maosh, okean, taomil, said, shoir, muallif

Berilgan so'zlarning nechtasida yonma-yon kelgan unlilar og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega?

A) 3 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta

118. Bu – men tug'ilgan tuproq. Ha, tug'ilgan tuproq,

Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq.

Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar,

Qishda qalin qordan oq, kuzdachi paxtadan oq.

Ushbu she'riy parchadagi tarkibi unli va hosil bo'lish o'rniga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan undoshlardan tuzilgan nechta ot bor?

A) 8 ta B) 5 ta  
C) 6 ta D) 7 ta

119. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ushbu she'rda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga kiruvchi sirg'aluvchi tovushlardan tarkib topgan so'z necha o'rinda qo'llangan?

A) 4 B) 5 C) 2 D) 1

120. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ushbu she'rda ham hosil bo'lish o'rniga, ham hosil bo'lish usuliga ko'ra bir umumiy guruhga kiruvchi undoshlardangina tarkib topgan so'zlar necha o'rinda qo'llangan?

A) 2 ta B) 1 ta  
C) 3 ta D) 4 ta

121. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ushbu she'rda hosil bo'lish usuliga ko'ra bur umumiy guruhga mansub undoshlardan tashkil topgan so'zlar qaysi bo'lak vazifasini bajargan?

A) aniqlovchi  
B) aniqlovchi, egaga  
C) aniqlovchi, kesim  
D) kesim

122. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ushbu she'rda hosil bo'lish usuliga ko'ra bur umumiy guruhga mansub undoshlardan tashkil topgan so'zlar qaysi bo'lakka bog'langan?

A) aniqlovchiga  
B) egaga  
C) kesimga  
D) aniqlovchi va egaga

123. Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ushbu she'rda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bur umumiy guruhga mansub undoshlardan tashkil topgan so'zlar qaysi bo'lak vazifasini bajargan?

A) aniqlovchi

B) aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi

C) aniqlovchi, ega, kesim

D) kesim

124. *Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,*

*Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.*

Ushbu she'rda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bur umumiy guruhga mansub undoshlardan tashkil topgan so'zlar qaysi bo'lakka bog'langan?

A) aniqlovchiga

B) egaga

C) ega va kesimga

D) aniqlovchi va egaga

125. Qaysi so'zlardagi jarangli undosh jarangsiz juftiga almashtirilsa, yangi so'zlar hosil bo'ladi?

A) bir, bol, tong, sut

B) bayt, band, dori, dog'

C) dil, dor, ozod, bob

D) darz, sud, a'zo, yod

126. Berilgan so'zlardan nechtasi tarkibidagi barcha undoshlar hosil bo'lish o'mi va usuliga ko'ra bir umumiy guruhga mansub undoshlar sanaladi?

1) mangu; 2) jumat; 3) sahifa; 4) guliston;  
5) zarba; 6) vafo; 7) ulug'

A) 2 tasi

B) 3 tasi

C) 4 tasi

D) 5 tasi

## FONETIKADAN SAVOLLAR (UNDOSH VA UNLILAR TASNIFI BO'YICHA)

1. Qaysi qatorda **ng** tovushi ishtirok etgan so'zlar berilgan?

A) shudring, yanga, dengiz

B) singil, menga, ko'ngil

C) kongress, yengil, shtanga

D) kenglik, ingramoq, tungi

2. Quyidagi so'zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlining cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi?

1) ma...no; 2) san...at; 3) mo'...tadil;  
4) in...om; 5) shu...la.

A) 1, 2, 3, 4, 5

B) 1, 5

C) 1, 3, 5

D) 2, 5

3. Quyidagi so'zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalash uchun qo'yiladi?

1) qat...iy; 2) da...vo; 3) mo'...jiza;  
4) sur...at; 5) e...lon.

A) 1, 4

B) 2, 3, 5

C) 1, 3, 4, 5

D) 2, 5

4. Qaysi harf til oldi, portlovchi, jarangli undoshni ifodalaydi?

A) ch

B) sh

C) j

D) k

5. **Shudring** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

A) 3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari

B) 4 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari

C) 4 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari

D) 3 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari

6. **Kongress** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

A) 2 ta til orqa, 2 ta til oldi undoshlari

B) 2 ta til orqa, 4 ta til oldi undoshlari

C) 2 ta til orqa, 3 ta til oldi undoshlari

D) 1 ta til orqa, 1 ta chuqur til orqa, 4 ta til oldi undoshlari

7. So'z tarkibida **n** harfi qaysi harflardan oldin kelganida ba'zan **m** tarzida talaffuz qilinadi?

A) b, m

B) v, p

C) f, t

D) k, sh

8. Qaysi qatordagi so'zda **n** harfi **m** tarzida talaffuz qilinadi?

A) o'n bir

B) tandir

C) o'n so'm

D) tomonda

9. **Jo'ja** va **jirafa** so'zlaridagi **j** tovushlari qaysi jihatdan o'zaro farqlanadi?



- A) til qismlarining harakatiga ko'ra
- B) jarangli va jarangsizligiga ko'ra
- C) portlovchi va sirg'aluvchiligiga ko'ra
- D) talaffuzida labning ishtirokiga ko'ra

10. 1) tinmay; 2) o'n besh; 3) qamchin; 4) qantarmoq; 5) manmanlik; 6) sunbul.

Berilgan qaysi so'zlarda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?

- A) 1, 2, 5, 6
- B) 1, 3, 4, 5
- C) 2, 4, 6
- D) 3, 5, 6

11. So'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelgan n harfi m holida o'qiladi, lekin n yoziladi?

- A) b va p
- B) d va t
- C) b va m
- D) v va f

12. Qaysi harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi?

- A) ng
- B) sh
- C) ch
- D) bunday harflar birikmasi mavjud emas

13. Qaysi qatorda unli va sirg'aluvchi undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

- A) saxovat, xususiylashtirish, g'azal
- B) vazifa, serhafsala, xo'roz
- C) suyanish, jirafa, sarosima
- D) xushbichim, vazifa

14. Qaysi qatorda unli va portlovchi undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

- A) abadiy, telpak, qadriyat
- B) odob, botiq, qanoat
- C) dudutlatdi, qobiliyat, qorabayir
- D) tekintomoq, qanoat, vazifa

15. **Dengiz** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

- A) 3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari
- B) 2 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari
- C) 2 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari
- D) 3 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari

16. Qaysi so'zda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

- A) norasida
- B) mabodo
- C) qarg'a
- D) ko'rmana

17. Qaysi so'zda hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

- A) suzuvchi
- B) bedarak
- C) havoyi
- D) dabdabali

18. Qaysi so'zda hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

- A) zaruriy
- B) sozuvchi
- C) kitobxon
- D) xushbichim

19. L, n tovushlari qaysi jihatdan bir guruhga mansub emas?

- A) sirg'aluvchi undoshlar
- B) jarangli undoshlar
- C) til oldi undoshlari
- D) jarangli va til oldi undoshlari

20. 1) yonbosh; 2) ko'nmaslik; 3) tutunsimon; 4) bo'yinturuq; 5) o'n besh.

Berilgan qaysi so'zlarda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?

- A) 1, 2, 4, 5
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 2, 5
- D) 1, 4

21. K undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping.

- A) til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush
- B) til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush
- C) til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush
- D) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush

22. Qaysi so'zda til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

- A) manmanlik
- B) qamchin
- C) ingichka
- D) tartib

23. Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganuvchi bo'lim ...

- A) fonetika
- B) grafika
- C) orfografiya
- D) orfoepiya

24. 1) manba; 2) yonma-yon; 3) tandir; 4) qalampir; 5) tanbal; 6) yonbosh.

Ushbu so'zlarning qaysi birida talaffuzda tovush o'zgarishi yuz beradi?

- A) 1, 2, 5, 6      B) 1, 3, 4, 6  
C) 2, 3, 4, 5      D) 3, 4, 5, 6

25. **Qol, qor, qot** so'zlarining ma'nolarini farqlashga xizmat qilayotgan tovushlarni aniqlang.

- A) bo'g'iz undoshi  
B) chuqur til orqa undoshi  
C) til oldi undoshi  
D) til orqa undoshi

26. Berilgan qaysi gap tarkibidagi so'zda fonetik jihatdan til oldi, sirg'aluvchi, jarangli birgina tovushdan tashkil topgan qo'shimcha mavjud?

- A) Birdan osmon guldurab, sharros yomg'ir quydi-yu tinchidi.  
B) Mehmonlarning quvnoq qah-qahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi.  
C) Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz – do'stini.  
D) Ishlar shuncha ko'payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo'q.

27. Faqat jarangsiz undoshlardan tashkil topgan so'zni toping.

- A) taraqqiyot      B) tafakkur  
C) shovqin      D) huquq

28. **A** unlisi **o** unlisi kabi aytiladigan so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) tonna, choynak, kombayn  
B) savob, zamon, bahor  
C) qaynoq, sanoq, dumaloq  
D) tomosha, somon, muomala

29. **X** undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping.

- A) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush  
B) bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush  
C) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush  
D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush

30. **Ona tili – bu millatning ruhidir.** Undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra miqdori to'g'ri berilgan qatomi belgilang.

- A) 10 ta til oldi, 2 ta lab-lab, 1 ta til orqa, 1 ta bo'g'iz  
B) 11 ta til oldi, 2 ta lab-lab, 1 ta til orqa, 1 ta bo'g'iz  
C) 10 ta til oldi, 2 ta lab-lab, 1 ta til orqa, 1 ta chuqur til orqa  
D) 9 ta til oldi, 2 ta lab-lab, 1 ta til o'rta, 1 ta til orqa, 1 ta bo'g'iz

31. Qaysi gapdagi undalmada faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan?

- A) Nima deysan, ey g'ayur inson? G'iybatlaring qildi meni qon.  
B) Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim.  
C) Ey charx, dilimni bo'yla g'amnok etding.  
D) Ko'ngil olding, begim, yoshurmog'ing ne?

32. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda **ng** tovushi qo'llangan?

- A) tongga, nonga, keng  
B) o'nga, donga, o'tinga  
C) maymunga, yurganga, borganga  
D) tongga, mingga, zangga

33. Hozirgi o'zbek adabiy tilida jarangsiz juftiga ega jarangli undoshlar nechta?

- A) 7 ta      B) 8 ta  
C) 9 ta      D) 10 ta

34. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari jarangli lab undoshlaridan iborat?

- A) beibo, beva, vabo  
B) ibo, bambuk, bevafo  
C) ivi, bibi, vafo  
D) bob, bobo, betob

35. Qaysi so'zlarning aytilishida tovushlarning o'ri almashishi mumkin?

- A) kitob, daftar      B) ahvol, la'nat  
C) zarur, maktab      D) tartib, odob

36. **Q** va **g'** qaysi jihatdan farqlanmaydi?  
A) tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra

C) ch, k                      D) d, t

53. Qaysi qatordagi so'zlarda faqat jarangsiz undoshlar bor?

- A) gilos, rayhon, gulkaram
- B) sochpopuk, shafqat, ko'kat
- C) ziynat, ko'hlik, libos
- D) ko'makdosh, inson, ko'rgazma

54. Unli va jarangli undoshlardan hosil bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.

- A) mashq, kitob, so'z
- B) paxta, xalq, choynak
- C) maydon, dor, gul
- D) maktab, sabab, maqol

55. To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovushlarni toping.

- A) b, m, p                      B) l, n, r
- C) m, n, ng                      D) i, e, o

56. Qaysi jarangli undoshlar so'z oxirida jarangsiz jufti singari talaffuz etiladi?

- A) b, d                              B) b, z
- C) b, d, z                          D) d, z

57. Qaysi qatordagi so'zlarda faqat jarangli undoshlar bor?

- A) pastak, ko'ksulton, ko'lmak
- B) barbod, ko'klam, badnafs
- C) paxsa, sukut, sochiq
- D) zag'izg'on, jadval, mudir

58. *Dublyaj, ekipaj, garaj* so'zlaridagi j ning jarangsiz jufti qaysi?

- A) b                      B) d                      C) sh                      D) ch

59. Qaysi qatorda ng tovushi qo'llangan?

- A) nonga, keng
- B) tong, dengiz
- C) maymunga, yurganga
- D) yurtning, senga

60. Sirg'aluvchi j tovushini ifodalovchi so'zlar qatorini toping.

- A) jimjit, g'ijjak                      B) jo'yak, ajdod
- C) vijdon, garaj                          D) jumla, janob

61. Sirg'aluvchi tovushlarni toping.

- A) s, z, sh                              B) sh, j, k

C) m, n, h                      D) b, t, f

62. Qaysi qatordagi jarangli undoshlarning jarangsiz jufti bor?

- A) b, g, d, j, y, l                      B) v, g, d, l, m, n
- C) b, v, d, z, j, g                          D) v, g, d, j, y, m

63. Qaysi qatorda jarangsiz jufti yo'q undosh tovushlar berilgan?

- A) g, g', y, l, m, n                      B) l, m, n, y, ng, r
- C) g, y, l, m, n                          D) z, j, g', y, r, l

64. Qaysi qatorda jarangsiz jufti bor jarangli undoshlardan iborat so'z berilgan?

- A) paxta                              B) zavod
- C) bog'bon                              D) sassiz

65. **Ng** bir tovushni ifodalagan so'zlarni belgilang.

- A) tungi, unga
- B) tongi, otangiz
- C) tonggi, dengiz
- D) B, C

66. Qaysi qatordagi so'zlarda faqat jarangsiz undoshlar bor?

- A) mashq, kitob, so'z
- B) soat, qo'shiq, ko'cha
- C) shijoat, shaxsiy, qahrabo
- D) gilos, rayhon, gulkaram

67. **B, p, m** undoshlarining hosil bo'lish o'ri qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) lab-tish undoshlari
- B) til oldi undoshlari
- C) lab-lab undoshlari
- D) sayoz til orqa undoshlari

68. Tarkibida undosh tovushlardan faqat ovozdorlar ishtirok etgan so'zlar qatorini toping.

- A) mehr, keng, sen
- B) yomg'ir, makon, nodon
- C) ravon, mohir, nahor
- D) ro'mol, nom, lola

69. Jarangli b undoshi qaysi qatordagi so'zlar tarkibida jarangsiz p tarzida talaffuz qilinadi?

- A) abjir, abgor
- B) do'mboq, bog'bon

C) dabdaba, gumbaz

D) girdob, azob

70. Tilning old qismida hosil bo'ladigan jarangli tovushlarni toping.

A) ch, k

B) r, l

C) b, m

D) z, s

71. Quyidagi qatorlarning qaysi birida **sh** tovushining jaranglisi qo'llangan so'zlar qayd etilgan?

A) kajava, ajrim

B) jola, janr

C) ajdod, vijdon

D) jabr, gajak

72. Quyidagi qatorlarning qaysi birida **ch** tovushining jaranglisi qo'llangan so'zlar qayd etilgan?

A) janr, ajdod

B) ajrim, kajava

C) juri, garaj

D) jemper, jurnal

73. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari lab tovushlaridan iborat?

A) papka, shapka, popuk

B) baraka, badbo'y, vafo

C) fabula, bayov, beva

D) bevafo, bomba, bobom

74. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari til oldi tovushlaridan iborat?

A) diyda, joynamoz, latofat

B) dilozor, jondor, larza

C) jirtaki, laparchi, lahza

D) latta, nojins, jodugar

75. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari faqat ovozdorlardan iborat?

A) mosh, mos, makon

B) jang, mo'g'ul, nav

C) malol, marom, marmar

D) marshal, mars, makon

76. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari faqat til orqa undoshlaridan iborat?

A) kukun, katak, grek

B) egik, go'ng, kakao

C) kakku, kek, keyin

D) ko'k, gala, geolog

77. Qaysi qatordagi so'zlarning undoshlari burun sonorlaridan iborat?

A) namoyon, nemis, nomus

B) paxta, mo'may, mo'min

C) manman, mazmun, mina

D) namuna, mangu, manman

78. Qaysi yasama so'zda jarangli undosh ishtirok etmagan?

1) to'shak; 2) qochoq; 3) ko'zla; 4) paxtakor; 5) shashka; 6) teshik; 7) chopish.

A) 1, 4, 5, 7

B) 1, 2, 4, 5

C) 2, 3, 6

D) 1, 2, 6

79. Qaysi yasama so'z o'zagida jarangsiz undoshlar mavjud emas?

A) ranjimoq

B) ko'zlamoq

C) to'shak

D) balandroq

80. Qaysi qatordagi yasama so'z unli va jarangli undoshlardan iborat?

A) ko'makdosh

B) gulchi

C) ulg'ay

D) gaplash

81. O'zbek tilida nechta yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydigan tovush bor?

A) bunday tovush yo'q

B) 1 ta

C) 2 ta

D) 3 ta

82. Qaysi qatorda ovozdor portlovchi undoshlar berilgan?

A) b, v, d

B) m, n, ng

C) l, m

D) g, l, m

83. Qaysi qatorda ovozdor sirg'aluvchi undoshlar berilgan?

A) b, v, d

B) m, n, ng

C) l, r

D) g, l, m

84. Qaysi qatorda jarangli til oldi undoshi yo'q?

A) d

B) z

C) m

D) l

85. Nuqtalar o'rniga qaysi so'zlarda bo'g'iz undoshini qo'yish mumkin?

1) ...ayr; 2) ...ayol; 3) ...ovuz; 4) a...vol; 5) za...ira.

A) 2, 3, 4, 5

B) 3, 4, 5

C) 1, 3, 5

D) 3, 4

86. «Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?»

Ushbu gapda nechta jarangli undosh mavjud?

A) 20 ta

B) 22 ta

C) 23 ta                      D) 24 ta

87. Ikkinchi bo'g'inida «u» unlisi ishtirok etmaydigan so'zni toping.

A) bug...n                      B) un...t  
C) mud...r                      D) dov...r

88. Qaysi qatorda imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'z tarkibida og'izni ochilish darajasi ko'ra birlashtiruvchi unlilar ishtirok etgan?

A) navyos                      B) notayon  
C) okean                      D) to'ba

89. *Hammamizning onamizdir shu Vatan,*

*Yov qoldirgan siynasida ming tikan,*

*Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan,*

*Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*

Ushbu parchada tarkibida faqat keng unlilar qatnashgan nechta so'z bor?

A) 2 ta                      B) 1 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

90. «O» harfi qaysi so'zlarda torroq aytiladi?

A) ko'l, jo'ra                      B) bo'ri, qo'ri  
C) xo'roz, ro'mol                      D) o's, xo'roz

91. «O» harfi qaysi so'zlarda kengroq aytiladi?

A) ko'l, bo'ri                      B) ko'l, cho'l  
C) xo'roz, ro'mol                      D) jo'ra, mo'tabar

92. «E» harfi qaysi so'zda «i»ga monand aytiladi?

A) kecha                      B) ekran  
C) ne'mat                      D) okean

93. «A» harfi qaysi so'zda «o» kabi aytiladi?

A) tonna                      B) noyabr  
C) savob                      D) okean

94. Unli va undosh fonemalar o'rtasidagi farqlarni toping.

1) to'siqqa uchrash-uchramaslik belgisi; 2) shovqin belgisi; 3) bo'g'in hosil qilish-qilmaslik belgisi.

A) 1, 2                      B) 1, 2, 3

C) 1, 3                      D) 2, 3

95. Qaysi qatorda nutqda jarangli undoshlarning jarangsizlanishi natijasida yuzaga kelgan omofonlar mavjud?

A) Erkin yettiga yetdi.

B) Qars ikki qo'ldan chiqadi, qarz do'stni do'stdan ayiradi.

C) Guvoh sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.

D) Hammasida mavjud.

96. Tarkibida portlovchi tovush qatnashgan so'zni toping.

A) bozor                      B) xayot

C) g'oz                      D) sehr

97. Tarkibida sirg'aluvchi tovush qatnashgan so'zni toping.

A) bodom                      B) katta

C) taqozo                      D) gado

98. Qaysi javobdagi so'zlarda tovush va harflar soni teng emas?

A) non, buyuk                      B) yog', suv

C) yosh, tong                      D) yurak, ot

99. Tovushlarning paydo bo'lishi va ularning akustik xususiyatini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qaysi?

A) grafika                      B) fonetika

C) fonologiya                      D) orfografiya

100. Adolatparvarlik so'zidagi undosh tovushlar haqidagi to'g'ri fikmi aniqlang.

A) Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan jarangli undoshlar 5 o'rinda qatnashgan.

B) Til oldi jarangli undoshlar 6 o'rinda qatnashgan.

C) Jarangli juftiga ega bo'lgan 2 ta undosh qatnashgan.

D) Hosil bo'lish usuliga ko'ra bir umumiy guruhga mansub undoshlar 3 o'rinda qatnashgan.

101. «Ng» bir tovushni bildirmaydigan so'zni toping.

A) yangi

B) dengiz

C) bordingiz



D) hammasida «ng» bir tovushni bildirgan

102. Oxirgi bo'g'inida «i» qatnashadigan so'zni toping.

- A) direktor
- B) termos
- C) radiator

D) hammasida «o» harfi yoziladi

103. Qaysi qatordagi so'z talaffuz qilinganida undagi til oldi undoshi lab undoshi sifatida aytiladi?

- A) bugun
- B) yakshanba
- C) topgan
- D) birinchi

104. F undoshi qaysi so'zda v tarzida aytiladi?

- A) afzal
- B) afg'on
- C) dilafro'z
- D) futbol

105. Qaysi so'zlar undosh va old qator unililardan iborat?

1) anor; 2) lochin; 3) tovuq; 4) haqiqat; 5) bilim; 6) xo'roz; 7) gilam; 8) g'o'za; 9) g'azab; 10) sanoq.

- A) 4, 5, 7, 10
- B) 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
- C) 4, 5, 7, 9
- D) 2, 4, 6, 9, 10

106. O'zbek alifbosidagi nechta unli tovush so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini ham bajaradi?

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

107. O'zbek alifbosidagi nechta unli tovush shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini ham bajaradi?

- A) 4 ta
- B) 2 ta
- C) 1 ta
- D) 3 ta

108. O'zbek alifbosidagi nechta tovush shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini ham bajaradi?

- A) 11 ta
- B) 10 ta
- C) 12 ta
- D) 13 ta

109. O'zbek alifbosidagi nechta undosh tovush shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini ham bajaradi?

- A) 11 ta
- B) 10 ta
- C) 9 ta
- D) 8 ta

110. «B» va «m» harflardan oldin qaysi undosh talaffuzda «m» tarzida aytiladi?

- A) p
- B) m
- C) n
- D) v

111. Tarkibi faqat unli va portlovchi undoshlardan tashkil topgan yasama so'zlarni aniqlang.

1) iliq; 2) bolalik; 3) do'stona; 4) tiniq; 5) baqao't; 6) katta; 7) jirkanch.

- A) 2, 3, 4, 5
- B) 4, 5
- C) 4, 5, 6
- D) 1, 2, 4, 7

112. Qaysi (olinma) so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi unli tovush talaffuz qilinmaydi?

- A) obraz, traktor, rektor
- B) motor, geolog, direktor
- C) termos, okean, vodorod
- D) obraz, monolog, geograf

113. Qaysi qatorda bir tovush ikki harf bilan ifodalangan?

- A) ingliz, kongress
- B) otangiz, yongan
- C) tenglama, dengiz
- D) singan, shtanga

114. Qaysi qatorda bir sirg'aluvchi tovushdan iborat so'z yasovchi qo'shimcha berilgan?

- A) sanoq
- B) sayroqi
- C) qisqarmoq
- D) chiziq

115. Qaysi qatorda tutuq belgisi unlini undoshdan ajratish uchun ishlatilgan?

- A) san'at, sur'at, tal'at
- B) shu'la, ma'naviyat, sur'at
- C) ma'naviyat, shu'la, mas'uliyat
- D) su'rat, tal'at, shu'la

116. Qaysi qatordagi so'zlar sirg'aluvchi j tovushini ifodalaydi?

- A) ajdod, jajji, vijdon
- B) jo'ja, jurnal, jig'ildon
- C) jirafa, garaj, byudjet
- D) vijdon, jo'ra, javon

117. Qaysi qatorda faqat unli va portlovchi undoshlardan tashkil topgan so'zlar qatori berilgan?

- A) maydon, bobo, jannat

B) mato, bobo, jo'ja

C) jo'ra, ko'l, mard

D) maydon, mard, jannat

118. Qaysi qatorda bir portlovchi tovushdan iborat so'z yasovchi qo'shimcha berilgan?

A) taroq

B) sayroqi

C) tanlov

D) tiniq

119. Jarangsiz undoshlar ishtirok etmagan yasama so'zni toping.

A) yolg'ondakam

B) bejirim

C) lolazor

D) gulsiz

120. Yonma-yon kelgan portlovchi undoshlar qaysi so'z tarkibida mavjud?

A) qing'ir

B) nashriyot

C) hamfikir

D) iqtisod

121. Qaysi yasama so'z tarkibida sirg'aluvchi undosh mavjud?

A) sovuq

B) shoshilmoq

C) kechik

D) qatiq

122. **B** va **k** tovushlari qaysi xususiyatlariga ko'ra bir guruhga mansub bo'ladi?

A) lab yoki tish undoshlariga oidligiga ko'ra

B) jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra

C) tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra

D) portlovchi yoki sirg'aluvchiligiga ko'ra

123. Qaysi so'zdagi til oldi undoshi og'zaki nutqda boshqa til oldi undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

A) uchta

B) to'qson

C) tanob

D) tubsiz

124. Qaysi so'z tarkibidagi jarangsiz undoshni jarangli jufti bilan almashtirish orqali yangi ma'noli so'z hosil qilish mumkin?

1) tamba; 2) tovon; 3) tarz; 4) rasm; 5) sharm; 6) tilla.

A) 2, 3, 4, 5, 6

B) 2, 3, 4, 5

C) 1, 2, 3, 4

D) 1, 2, 3, 4, 5

125. Qaysi so'zda yonma-yon kelgan

undoshlarning oldingisi boshqa jarangli tovush sifatida talaffuz etiladi?

A) tanbeh

B) to'qson

C) taskin

D) taqsim

126. Qaysi undoshlar til undoshlari hisoblanadi?

A) y, g, q

B) v, f, m

C) b, n, m

D) m, x, s

127. Qaysi so'zda qator kelgan undoshning keyingisi ta'sirida oldingisi ham unga o'xshab talaffuz qilinadi?

A) o'qibdi

B) yozsin

C) yurakka

D) ketdi

128. Qaysi so'zni talaffuz qilganda oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga moslab keladi?

A) taraddud

B) tuzsiz

C) to'qson

D) qochdi

129. Qaysi yasama so'z asosida jarangsiz undoshlar mavjud emas?

A) gulduramoq

B) ikkilanmoq

C) yig'ishtirmoq

D) balandroq

130. Qaysi yasama so'zlarda jarangsiz undoshlar ishtirok etmagan?

1) ranji; 2) ozay; 3) lolalar; 4) ulamang; 5) ommaviy; 6) beshikchi; 7) jimjimador.

A) 1, 2, 5, 7

B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 2, 4, 6

D) 2, 3, 6

131. Qaysi so'z talaffuzida ikki jarangsiz tovush bir-biriga moyillashadi?

A) tuzsiz

B) ketdi

C) maqsad

D) zarur

132. Qaysi so'z tarkibida portlovchi undosh mavjud?

A) yuzsiz

B) vositasiz

C) foizsiz

D) suvsiz

133. Portlovchi undoshlar yonma-yon kelgan so'zni toping.

A) soxtalik

B) hamroh

C) iqtisod

D) dardsiz

134. **Z** undoshi til undoshlarining qaysi turiga mansub?

A) til oldi

B) til o'rta

C) sayoz til orqa

D) lab-lab

135. Unli va lab undoshlaridan tashkil topgan yasama so'zni toping.

- A) ommabop      B) vafoli  
C) pishiq      D) basavlat

136. Lug'aviy shakli yasovchi qo'shimcha vazifasida qaysi undoshlar qo'llana oladi?

- A) v, l, z, d      B) y, ch, k, z  
C) r, v, k, m      D) sh, t, y, b

137. Qaysi qatorda jarangsiz jufti bo'lmagan til orqa jarangli undosh berilgan?

- A) m      B) l      C) g      D) ng

138. Quyidagi berilgan qaysi so'zlarda jarangli jufti yo'q jarangsiz sirg'aluvchi undosh qatnashgan?

- A) ogohlik, halol      B) vazifa, suvchi  
C) toshqin, sholi      D) soat, ko'chat

139. Oydan-da go'zaldir, kundandan-da go'zal. Ushbu gapda qiyoslanuvchi bo'lak tarkibida qanday til undoshlari mavjud emas?

- A) til oldi undoshi  
B) til orqa undoshi  
C) til o'rta undoshi  
D) hammasi mavjud

140. Qaysi qatorda faqat portlovchi undoshlar qatnashgan vositali to'ldiruvchi mavjud?

- A) Odam mehnatda bilinadi.  
B) Kechada o'tmish voqelaridan bahs ketdi.  
C) Ochko'z – molga qul, saxiy – elga hokim.  
D) Oyni etak bilan yopib bo'lmas.

141. Tobe so'z tarkibida lablanmagan unililar ishtirok etgan so'z birikmasini toping.

- A) samolyotning qanoti  
B) varrakning dumi  
C) voqeani eshitgan  
D) tabiat toza

142. Haybatli sharsharalar sochar kumush zarralar. Ushbu gapda ko'chma ma'noda qo'llangan so'zda

ishtirok etgan unililar haqidagi noto'g'ri hukmni toping.

- A) old qator unli      B) orqa qator unli  
C) lablangan      D) tor unli

143. Qaysi so'z tarkibida til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh mavjud?

- A) gramm      B) jang  
C) ketmon      D) qarqunoq

144. Qaysi so'zlarning tarkibi sirg'aluvchi jarangsiz undoshlardan iborat?

- A) xo'roz, serzavq  
B) xohish, sahifa  
C) sinf, hafsala  
D) soch, xilvat

145. Qaysi yasama so'zlarning tarkibi faqat jarangli undoshlardan iborat?

- A) bolalar, vazn  
B) g'alla, lolazor  
C) bugungi, ulg'ay  
D) gulzor, guldasta

146. Qaysi yasama so'zlarning tarkibi faqat portlovchi undoshlardan iborat?

- A) ko'chat, to'shak  
B) qimmatli, qadrdon  
C) kitob, nodon  
D) tungi, tonggi

147. Til mavsumiy libos emas-ki, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa. Ajratib ko'rsatilgan so'zda qanday unli ishtirok etmagan?

- A) o'rta (keng) unli  
B) yuqori tor unli  
C) lablangan unli  
D) orqa qator unli

148. Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida o'tov eshigi oldida qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi. Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tarkibidagi undoshlar uchun umumiy xususiyat qaysi?

- A) hosil bo'lish o'miga ko'ra bir xil  
B) hosil bo'lish usuliga ko'ra bir xil

C) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra bir xil

D) hosil bo'lish usuli hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra bir xil

149. Qaysi gapda kesim yasama so'z bo'lib, faqat til undoshlaridan tashkil topgan?

A) Hasad va baxillik nafratdan ham murosasizroqdir.

B) Oshkora yomonlikka nisbatan yasama ezgulikdan inson ko'proq nafratlanadi.

C) Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.

D) Do'stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi – chaqimchi.

150. Qaysi qatordagi so'zlarda jarangli, sirg'aluvchi, lab-tish tovushi o'rniga jarangsiz jufti aytilsa ham, jarangli, lab-tish tovushining o'zi yoziladi?

A) a...sus, a...zun

B) a...g'on, a...ro'z

C) sa...zi, sa...do

D) a...tomat, ta...sifnoma

151. Qaysi qatordagi so'zlarning yopiq bo'g'ini til oldi, portlovchi, jarangli tovush bilan yoziladi?

A) ta...biq, ta...rij

B) ta...bir, ta...qiqot

C) ma...buot, sa...diq

D) a...dar, ju...nal

152. *Sharqda mavjud bo'lgan bir rivoyatda aytilishicha, bir odamni tutib olib, daraxtga bog'labdilar.* Ushbu gapda yasama so'z tarkibidagi undoshlar qaysi jihatiga ko'ra bir guruhga mansub?

A) hosil bo'lish usuliga ko'ra

B) hosil bo'lish o'rniga ko'ra

C) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra

D) hosil bo'lish o'rnini va usuliga ko'ra

153. Tarkibida faqat jarangli undoshlar mavjud bo'lgan yasama so'z qatnashgan gap berilgan qatorni toping.

A) Bugungi kunda madaniy turmushimizni qog'ozsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

B) Quruq so'z quloqqa yoqmas.

C) Kimki qisqa so'zda deydi ko'p ma'no, Ravonlik bobida ul kishi a'lo.

D) Obro' misqollab keladi, qadoqlab ketadi.

154. Qaysi so'zda lablanmagan tor va keng unli qatnashgan?

A) bilak B) okean

C) o'g'iz D) ko'krak

155. Qaysi gapda til orqa undoshi sifat yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan?

A) Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar.

B) Onasining har bir aytgan gapini qulog'ining ostida jaranglaydi.

C) Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor.

D) Olmalarni saralayotganda chiriklarini alohida ajratib oling.

156. Qaysi gapda yasama sifat asosida faqat portlovchi tovushlar ishtirok etgan?

A) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q.

B) Insonning aqli mushtidan ko'ra kuchliroq.

C) Tilimiz dag'al, lekin juda boy.

D) Nomus jondan ham qimmatliroq.

157. *Millatni sevmoqlik – baxt, kurashib yashamoq – saodat.* Ushbu gapdagi so'z yasovchi qo'shimcha lug'aviy shakli yasovchi qo'shimchadan keyin qo'shilgan so'z tarkibida qanday til undoshi mavjud emas?

A) til o'rta B) til orqa

C) chuqur til orqa D) til oldi

158. Qaysi so'zda hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

A) tavsif B) tanbur

C) suzuvchi D) tilshunos

159. «A» va «b» fonemalarining farqi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1) hosil bo'lishda to'siqqa uchrash yoki uchramaslik; 2) shovqin belgisiga ega yoki ega emaslik; 3) bo'g'in hosil qilish yoki qila olmaslik.

- A) 1, 2, 3                      B) 1, 2  
C) 2, 3                         D) 1, 3

160. Qaysi qatorda akustik tomoni bir xil bo'lgan tovushlar qatnashgan yasama so'z mavjud?

- A) bolalar                      B) bug'doyzor  
C) taroq                         D) sharshara

161. Berilgan qaysi so'zlar tarkibida talaffuzda sirg'aluvchi undosh portlovchi undoshni o'ziga moslashtirib keladi?

- A) tanbal, shanba  
B) otdan, ketdi  
C) taqsim, to'qson  
D) iqtisod, maqsad

162. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rniga a unlisi yoziladi?

- A) mab...do, taq...zo, tam...sha  
B) jangov...r, zalv...rli, tanov...r  
C) hash...rot, z...mon, par...voz  
D) muloq...t, v...kal, xalq...ro

163. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rniga o unlisi yoziladi?

- A) taq...zo, taks...motor, par...voz  
B) mod...miki, m...jaro, n...moz  
C) nam...kob, m...zor, n...vvoy  
D) n...vvos, ...nkolog, hash...rot

164. Qaysi so'zlar talaffuzida i unlisi u unlisiga yaqin talaffuz etiladi va unga so'zlovchining qaysi shevaga mansubligi belgisi ham ta'sir etadi?

- A) tushib, uchinchi            B) bilan, tilim  
C) qiliq, qiziq                 D) tug'ilib, kulib

165. Hosil bo'lishida lab ishtirok etadigan unlilar qatnashgan so'zlar qaysi qatorda berilgan?

- A) zarur, murakkab  
B) qoida, haqiqat  
C) bilim, gilam  
D) burgut, xo'roz

166. Til o'rtasining tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladigan unlilar qatnashgan so'zlar qaysi qatorda berilgan?

- A) fonar, sanoq  
B) bilim, gugurt  
C) sevinch, lochin  
D) terim, haqiqat

167. Tilning quyi ko'tarilish darajasiga ko'ra bir guruhga mansub unlilar qatnashgan so'z qaysi javobda mavjud?

- A) g'o'za                         B) bolalar  
C) tovuq                         D) tuman

168. *Mikroelement* so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

- A) 1 ta til orqa, 4 ta til oldi undoshlari  
B) 2 ta til orqa, 2 ta til oldi undoshlari  
C) 2 ta til orqa, 3 ta til oldi undoshlari  
D) 1 ta til orqa, 1 ta chuqur til orqa, 4 ta

til oldi undoshlari

169. *Insoniyat baxti yo'lida ter to'kmay turib haqiqiy go'zallikka erishib bo'lmaydi.* Ushbu gapda nechta portlovchi undosh ishtirok etgan?

- A) 18 ta                         B) 21 ta  
C) 19 ta                         D) 20 ta

170. *Ko'nikma* so'zida qatnashgan undoshlar haqidagi qaysi fikrlar noto'g'ri?

1) so'zda faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan; 2) so'zdagi barcha undoshlar til undoshlari; 3) so'zdagi barcha undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi.

- A) 1, 2                             B) 1, 2, 3  
C) 1, 3                             D) 2

171. Qaysi javobda jarangsiz jufti bo'lmagan til orqa jarangli undosh berilgan?

- A) k                                B) g                                C) ng                                D) g'

172. Qaysi so'zlarning jarangli tovushi jarangsiz jufti bilan almashtirilganida lug'aviy ma'no o'zgaradi?

1) abzal; 2) bosh; 3) tog'; 4) mard; 5) sut; 6) sot; 7) dod; 8) tub.

- A) 1, 2, 3, 4                      B) 3, 4, 5, 7



C) 1, 3, 4, 7, 8 D) 3, 4, 6, 7

173. Portlovchilar guruhiga mansub bo'lmagan jarangli undoshlarni toping.

A) v, h, t, k B) j, k, s, z

C) v, z, l, y D) v, z, y, m

174. Qaysi qatordagi so'zlarda pastki lab bilan yuqori tishlar orasida hosil bo'ladigan tovush ishtirok etgan?

A) avtomashina, faqat

B) astagina, daraxt

C) puflamoq, shirin

D) bo'g'iz, qadrdon

175. *Har qanday go'zallik zahirida mehnat yotadi.*

Ushbu gapda nechta til undoshlari ishtirok etgan?

A) 16 ta B) 14 ta

C) 20 ta D) 18 ta

176. Tarkibidagi portlovchi undosh sirg'aluvchi undosh kabi talaffuz qilinadigan so'zlarni belgilang.

A) barbod, fabrika

B) iztirob, Matiz

C) tuzsiz, ijtimoiy

D) maqsad, taqdim

177. *Quyidagilarning qadriga yo'qotilgandan keyin yetamiz: yoshlik, sog'lik.* Gapdagi mavhum otlar tarkibidagi sirg'aluvchilar miqdorini aniqlang.

A) 6 ta B) 5 ta

C) 7 ta D) 8 ta

178. Quyida berilgan tezaytishlarning qaysi birida faqat lablanmagan unillar ishtirok etgan?

A) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.

B) O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

C) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'p koptok.

D) Hali Vali, Soli sholi o'rdi.

179. *O'sha-o'sha bujur tol. Shoxlarida qushlar chug'urlar.*

Ushbu gapda qatnashgan ko'makchi

morfemalar tarkibida nechta jarangli sirg'aluvchi tovushlar qatnashgan?

A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

180. Quyida keltirilgan gapdagi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardagi portlovchi undoshlar sonini aniqlang.

*Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko'tarib kelayotgan nihollarni silkitardi.*

A) 8 B) 6 C) 7 D) 5

181. Faqat lablangan unillar qatnashgan qo'shma yasama so'zni belgilang.

A) boychechak B) xushbo'y

C) sovuq D) qo'ziqorin

182. *Qarigan chog'da halovat istasang yoshlikda ilm olish payida bo'l.*

Berilgan gapda munosabat shakllari tarkibidagi undoshlar haqida bildirilgan qaysi hukmlar noto'g'ri?

1) barchasi portlovchi; 2) barchasi hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhda; 3) barchasi jarangli; 4) barchasi tarkibiga ko'ra sof.

A) faqat 4 B) 2, 3, 4

C) 2, 4 D) 1, 2, 3

183. Tarkibida faqat til oldi undoshlari bo'lgan qo'shma sifat qaysi gapda mavjud?

A) Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi.

B) U juda shirinsuxan odam ekan.

C) Qoshiqning diltortar navolari hammani o'ziga rom qildi.

D) Milliy mafkuramizda milliylik umum-bashariy g'oyalar bilan uyg'untashib ketgan.

184. Asosida jarangsiz undoshlar ishtirok etmagan murakkab qo'shimchali otlarni belgilang.

1) ovoragarchilik; 2) chilangarlik; 3) ezmalik; 4) zargarlik; 5) loygarchilik.

A) 1, 4, 5 B) 1, 5

C) 3, 5 D) 1, 3, 4

185. Qaysi qatordagi yasama otlarda hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga kiruvchi undoshlar ishtirok etgan?

- A) uvvos, qamoq, ko'pik
- B) qalamdon, yoshlik, qadrdon
- C) donolik, tiqin, kitobxon
- D) tinch, yo'lla, zargar

186. *Umidaning «sen» degani Hafizaga juda yoqdi – bu juda yaqinlik belgisi.* Ushbu gapdagi tilning barcha o'rinlarida hosil bo'luvchi undoshlarga ishtirok etgan so'z qaysi so'z turkumiga mansub?

- A) ot
- B) olmosh
- C) fe'l
- D) ravish

187. Qaysi qatorda quyidagi keng unililardan so'ng talaffuzda tovush o'rtirilishi kuzatiladigan so'zlar ko'rsatilgan?

1) radio; 2) said; 3) okean; 4) saodat; 5) doimo; 6) taajjub; 7) shoira.

- A) 1, 2, 3, 5
- B) 2, 5, 7
- C) 2, 4, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 5

188. Qaysi qatordagi so'zlarda nuqtalar o'rniga jarangli, portlovchi, til orqa undoshi yoziladi?

- A) dar...chil, kasalman...
- B) to'...son, ma...sad
- C) pa...-pa...ana, qayno...
- D) ta...charm, bar...simon

189. Qaysi javobda jufti yo'q jarangsiz sirg'aluvchi undosh qatnashgan so'zlar berilgan?

- A) bog', baxt, barg
- B) no'xat, taxminan, hilol
- C) diydor, falak, urush
- D) g'ayrat, ogohlik, kulol

190. *Buni anglay olish uchun insonda mantiq qudrati bor.* Berilgan gapdagi sodda yasama so'z tarkibida qanday undosh qatnashmagan?

- A) lab undoshi
- B) sirg'aluvchi undosh
- C) jarangli undosh
- D) ovozdor undosh

191. Tarkibida unli tovushlar bilan birga faqat jarangsiz undoshlar ishtirok etgan so'zlar berilgan qatomi toping.

- A) bigiz, kuchuk, joziba
- B) alifbe, andisha, dahshat
- C) bayon, vazmin, go'zal
- D) puchuq, hiqichoq, xohish

192. Qaysi qatorda jarangli jufti bor til oldi undoshi berilgan?

- A) g' B) l C) s D) f

193. Qaysi qatordagi so'z talaffuzida ikki o'xshash tovush bir so'zda kelganida ulardan birining noo'xshash tovushga almashinishi uchraydi?

- A) tuproq B) ketdi
- C) birorta D) uch so'm

194. Qaysi so'zlardagi jarangli undoshni jarangsiz juftiga almashtirsa, yangi so'z hosil bo'ladi?

- A) bir, bol, tong, sut
- B) darz, sud, azon, yod
- C) bayt, band, dori, dog'
- D) dil, dor, ozod, bob

195. *Eng gullagan yoshlik chog'imda*

*Sen ochilding ko'ngil bog'imda.*

Ushbu parchadagi yasama so'zlarda qanday til undoshlari ishtirok etgan?

- A) til oldi, til o'rta
- B) til o'rta, til orqa
- C) til oldi, til o'rta, til orqa, chuqur til orqa
- D) til oldi, til o'rta, til orqa

196. Ikki o'rinda til orqa undoshi qatnashgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) ko'ngil, go'llik
- B) gulqaychi, halqum
- C) g'o'rak, xayrixoh
- D) halovat, kabutar

197. Qaysi so'zda keng unililar bilan bog'liq xato mavjud emas?

- A) navvos B) novvotli
- C) notovon D) natarius

198. *Shundan beri inson tinmayin, Shu yer uzra ter to'kar hamon. Yerni go'zal qilgani sayin, Go'zal bo'lar o'zi ham inson.*

Ushbu parchada necha o'rinda jarangli juftiga ega jarangsiz portlovchi til undoshi qo'llangan?

- A) 6 o'rinda      B) 5 o'rinda  
C) 3 o'rinda      D) 4 o'rinda

199. Qaysi maqoldagi so'zlar tarkibida chuqur til orqa undoshlari ishtirok etmagan?

- A) Maqtanma, g'oz, hunaring oz!  
B) Sinamagan o'tning sirtidan o'tma!  
C) Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qolar.  
D) O'ylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.

200. Adolatparvarlik so'zidagi undoshlarning qaysi biri hosil bo'lish o'miga va usuliga ko'ra bir guruhni hosil qiladi?

- A) p, v      B) d, k  
C) l, v      D) d, t

201. Qaysi unilarni talaffuz qilganda til biroz ko'tarilib, og'iz ozgina ochiladi?

- A) i, e      B) e, o'  
C) u, o'      D) i, u

202. Tarkibida faqat yuqori tor unililar va undoshlar qatnashgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) musiqa, lirika  
B) kibor, musiqa  
C) muqim, uyushiq  
D) muhit, zehn

203. **Krossvord** so'zining ma'nosini toping.

- A) kross – yugurish, word – so'z  
B) kross – topishmoq, word – so'z  
C) kross – krest, word – so'z  
D) kross – chalg'ituvchi, word – so'z

204. Un paychalarining ishtirokiga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar ishtirok etgan so'zni toping.

- A) paxtakor      B) vafo  
C) tilshunos      D) baland

205. Qaysi gaplarda portlovchi tovushdan iborat so'z yasovchi bor?

1. Murodga yetishmoq uchun tilaging sof bo'lsin. 2. Safimizda qoloq o'quvchilar

bo'lmasin. 3. Achchiqni achchiq kesar. 4. Kuzning iliq kunlari hali oldinda.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4  
C) 1, 3, 4      D) 1, 4

206. Qaysi gaplarda bir sirg'aluvchi undosh so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan?

1. Kuz kelishi bilan havo sovib, kunlar qisqara boshladi. 2. Shahrimiz jamoli kundan kunga o'zgarmoqda. 3. Endigina ko'kara boshlagan g'iyohlar sovuqda qolib ketdi. 4. Do'stim, quyoshda rosa qorayibsiz, ancha chiniqqan ko'rinasiz. 5. Hamisha a'lo o'qiyimiz, shunda xalqimiz uchun munosib farzand bo'lamiz.

- A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 4, 5  
C) 1, 4      D) 1, 2, 4

207. Portlovchi undosh sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan so'z qatnashgan gaplarni aniqlang.

1. Bu to'plamda tinchlikni ulug'lovchi she'rlar ko'p. 2. Birinchi qissamni sizga bag'ishladim, onajon. 3. Mehnat bilan bitmagan ish tilak bilan bitadi. 4. Dam olish kuni muzeyga bordik.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4  
C) 2, 3, 4      D) 2, 4

208. Unilarning talaffuziga doir to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) **a** harfi ayrim so'zlarda **o** kabi aytiladi; 2) **o** harfi ayrim so'zlarda **a** singari talaffuz etiladi;

3) **o** harfi ba'zan **o'** kabi aytiladi; 4) **u** harfi ba'zan **i** ga monand aytiladi.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3  
C) 1, 3, 4      D) 1, 2

209. **O'** harfi qaysi so'zlarda tor aytiladi?

1) o'zbek; 2) ro'mol; 3) o'lka; 4) o'simlik; 5) xo'roz.

- A) 1, 2, 4      B) 1, 3, 4  
C) 1, 3      D) 3, 4

210. Qaysi undoshlar talaffuzda **p** tarzida aytiladi?

- A) b, v                      B) b, v, f  
C) b, f                        D) faqat b

211. Qaysi so'zlarda portlovchi lab undoshi sirg'aluvchi lab undoshi tarzida aytiladi?

- A) avtomat, avtobus  
B) fabrika, fursat  
C) qibla, tobla  
D) javob, hisob

212. Qaysi so'zlarda bir sirg'aluvchi lab undoshi talaffuzda portlovchi lab undoshi tarzida aytiladi?

- A) avtomat, avtobus  
B) fabrika, fursat  
C) qibla, tobla  
D) javob, hisob

213. Qaysi so'z tarkibidagi har bir jarangli undosh talaffuzda jarangsiz jufti kabi aytiladi?

- A) tadbir                      B) avtobus  
C) iztirob                    D) bo'zchi

214. Qaysi so'zlardagi jarangli undosh jarangsiz juftiga almashtirilsa, yangi ma'noli so'z paydo bo'ladi?

1) bir; 2) tup; 3) dori; 4) xoli; 5) ganj; 6) bayt; 7) tur.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7  
B) 2, 3, 5, 6  
C) 1, 3, 5, 6  
D) 1, 2, 3, 5, 6, 7

215. Berilgan qaysi so'zlarda unilarning og'izning ochilish darajasiga ko'ra barcha turi qatnashgan?

1) keladi; 2) oila; 3) kelinchak; 4) terimchilar; 5) onajon.

- A) 1, 2, 3, 4, 5              B) 1, 3, 4  
C) 1, 3, 4, 5                D) 1, 2, 3, 4

216. *Aql ulug'likka, aqlsizlik esa tubanlikka yetaklaydi.* Ushbu gapdagi unilarning og'izning ochilish darajasiga ko'ra barcha turi qatnashgan so'zda qanday turdagi til undoshi ishtirok etmagan?

- A) til oldi                    B) til orqa  
C) til o'rta                    D) chuqur til orqa

217. I fonemasining talaffuzi haqidagi hukmlardan to'g'rilarini aniqlang.

1) tushib so'zining ikkinchi bo'g'inidagi I birinchi bo'g'indagi u ning ta'sirida u tovushiga yaqin talaffuz qilinadi; 2) bilim, sira so'zlarining birinchi bo'g'inidagi I undan keyin keladigan I, r undoshlari ta'sirida bilinar-bilinmas aytiladi; 3) qiliq, qiziq so'zlarining ikkinchi bo'g'inidagi I til orqa tovushi ta'sirida u ga yaqin talaffuz etiladi; 4) qiliq, qiziq so'zlarining ikkinchi bo'g'inidagi I so'zlovchining qaysi shevaga mansubligiga qarab u ga yaqin aytiladi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5              B) 1, 2, 4  
C) 1, 2, 3                    D) 1, 2

218. Qaysi qatordagi so'zda lablarning ishtirokiga ko'ra oraliq holatda bo'luvchi unli qatnashgan?

- A) tutun                      B) bilim  
C) ko'z                        D) bodom

219. Qaysi qatordagi so'zlarda til o'rtasining tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan unililar qatnashgan?

- A) lochin, bola              B) bilan, sira  
C) zuluk, tinim              D) anor, bodom

220. «*Polka*» so'zining lug'aviy ma'nosini toping.

- A) ajabtovur  
B) quvnoq, sho'x  
C) shiddatkor, tezkor  
D) zamonaviy, raqsbop

221. *Baxtli qiladigan ham shu, baxtsiz qiladigan ham shu.*

Ushbu gapdagi til oldi jarangsiz undoshlar sonini aniqlang.

- A) 15                          B) 21                          C) 5                            D) 11

222. Qaysi gapdagi yasama shaxs otining asosi faqat sirg'aluvchi undoshlardan iborat?

- A) Bo'lay desang bog'bon yo Vatanga posbon.  
B) Saroy ahli podshoning hukmini kutib jim qoldi.

C) To'g'ri, dehqonchilik qilish sizday shaharliklarga yarashmaydi.

D) Shayxontohurda baqqollar, sartaoshlar juda serob.

223. Qaysi so'z (lar) tarkibida birgina jarangsiz tovushdan iborat qo'shimcha mavjud?

1) ozaymoq; 2) qizarmoq; 3) dumaloq; 4) yig'loqi; 5) gapirmoq.

A) 1, 5 B) faqat 3

C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 5

224. Qaysi gapdagi yasama so'zda yuqori tor unli sintaktik shakl yasovchi vazifasini bajargan?

A) Bilimdon odamlar har yerda aziz va hurmatga sazovordir.

B) Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi.

C) Shofyorlik kursini bitirib, konda ishlay boshladim.

D) Kissasida yarimta o'chirg'ichi bilan kecha ochgan qalami bor ekan.

225. Quyida berilgan qaysi gapda bir tovushdan iborat til oldi, jarangli tovush so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib kelgan?

A) «Keling, bir bahslashaylik!» – dedi Karimboy.

B) Bularni tezroq tinchitib ketsang bo'lgani.

C) Kunlar qisqarib, havo soviy boshladi.

D) Uning mudroq ko'zlarida nur ko'rinar edi.

226. Qaysi gapda birgina sonor tovush so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan?

A) Tashvishlar inson umrini yanada qisqartirishi bor gap, do'stim.

B) Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot.

C) Insoniyat qadimdan go'zallikni uiug'lab kelgan.

D) Onamning har bir aytgan gapi, nasihati qulog'im ostida jaranglaydi.

227. Qaysi javobda keltirilgan gapdagi sifatdan yasalgan yasama fe'l asosida faqat til orqa undoshlari qatnashgan?

A) Kuz kelib, kunlar qisqardi.

B) Yo'lchi quyosh va dala shamoli bilan biroz qoraygan.

C) Uning gapi og'zida qolib, ko'zlari xiyol kengaygandi.

D) Ish doirasi toraydi.

228. *Ishga tushdi*

*Sonsiz asir, me'mor,*

*naqqosh, sangtarosh,*

*Zanji qullar og'och tashir.*

*Fillar tashir xarsangtosh.*

(E.Vohidov)

Ushbu she'riy parchadagi egalar tarkibida portlovchi undoshlar necha o'rinda ishtirok etgan?

A) 6 B) 8 C) 9 D) 7

229. *Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz...*

Ushbu she'riy misrada nechta so'z tarkibidagi undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar hisoblanadi?

A) 2 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 3 ta

230. Qaysi gapda portlovchi undosh sirg'aluvchi undosh kabi talaffuz qilinadigan so'z qatnashgan?

A) Cho'ntagimga yuz so'm solib ko'chaga yugurdim.

B) Eng oliy maqsadimiz – Vatanga xizmat qilmoq.

C) Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi.

D) Devor ustida musicha turibdi.

231. Quyidagi qaysi so'zdagi portlovchi, jarangsiz, chuqur til orqa undoshi o'mida sirg'aluvchi, jarangsiz, bo'g'iz undoshi so'z ma'nosini farqlay oladi?

A) qon B) xon

C) soliq D) siqim

232. *Shu kunlarda keng jahondan oqib keldi e'tirof,*

*Istiqlolning jamoliga boqib keldi e'tirof.*

*She'riy parchada ikkita til*



*undosh va unidan tashkil topgan qo'shimcha soni nechta?*

- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

233. Jarangsiz jufti mavjud bo'lgan til oldi jarangli undoshlarni aniqlang.

- A) j, z, d B) t, s, ch, sh  
C) g, d, j, z D) d, p, z

234. Qaysi yasama so'zda yetakchi morfema tarkibida kelgan tor unli yasovchi qo'shimcha tarkibida ham uchraydi?

1) turg'unlik; 2) tushuntiruvchi; 3) shovqinli; 4) oqibatsiz; 5) navbatchilik.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 4, 5  
C) 2, 3, 5 D) 2, 4, 5

235. Hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga mansub undoshlardan tuzilgan so'zlarni toping.

- A) balo, bulbul, ro'mol  
B) talab, ming, ranj  
C) vafo, bid'at, soy  
D) to'xta, feruz, iqbol

236. Qaysi so'z tarkibida faqat portlovchi undoshlar mavjud?

- A) tabib B) suvsiz  
C) yuzsiz D) foizsiz

237. Qaysi so'z tarkibida faqat portlovchi til undoshlari mavjud?

- A) tabib B) tanbur  
C) taqdim D) tonna

238. Qaysi so'zdagi til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

- A) bob B) oftob  
C) g'ij-g'ij D) o'n bir

239. Qaysi yasama so'z tarkibida sirg'aluvchi undosh mavjud?

- A) shoshilmoq B) kechikmoq  
C) sarg'aymoq D) changimoq

240. Quyidagi so'zlarning qaysi birida ikkita til oldi, bitta til orqa undoshi mavjud?

- A) sunbul B) dengiz  
C) saroy D) ko'ngil

241. Qaysi qatoridagi so'zlarda ikki undosh tovush o'rtasida unli tovush orttirib talaffuz qilinadi?

- A) stansiya, direktor  
B) stol, stul  
C) sport, mehr  
D) ilm, fahm

242. Portlovchilar guruhiga mansub bo'lmagan jarangli undoshlarni toping.

- A) v, z, l, y B) v, h, t, k  
C) j, k, z, s D) v, z, y, m

243. Qaysi javobda til oldi jarangli shovqinli undoshlar berilgan?

- A) d, n, j, z, l, r B) d, t, j, ch  
C) d, j, z, l, r D) l, r

244. Qaysi qatoridagi so'zning undoshlari jarangli, portlovchi, shovqinli?

- A) mangu B) gigant  
C) obod D) tabib

245. *Baxtli qiladigan ham til, baxtsiz qiladigan ham til.*

Yuqorida keltirilgan gapdagi til oldi jarangsiz undoshlar sonini aniqlang.

- A) 11 B) 5 C) 21 D) 15

246. *Bilim insonni yaxshilikka yetaklaydi.* Ushbu gapda nechta portlovchi, shovqinli undosh ishtirok etgan?

- A) 6 ta B) 10 ta  
C) 8 ta D) 5 ta

247. Qaysi gapdagi undalma tarkibida til oldi, jarangli, portlovchi undosh mavjud?

- A) Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?  
B) Shahzoda, men sulh barpo qilish kayfiyatida keldim.  
C) Bahor, ketma mening bog'imdan.  
D) Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

248. *Qutidor har kuni Yusufbek hojining muxlislaridan birining uyida mehmon va hojining suhbatidan mamnun.*

Ushbu gapdagi faqat sonor tovushlardan iborat bo'lgan so'z qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) ega B) kesim  
C) hol D) to'ldiruvchi

249. *Qizlar nimani o'ylaydilar va nima to'g'risida ma'yuslanadilar, bu esa qizlarning bizga noma'lum bo'lgan ichki sirlaridir.*

Gapda faqat sonorlardan iborat yasma so'zlar soni nechta?

- A) 2    B) 3    C) 1    D) 4

250. Jarangli jufti mavjud bo'lgan til oldi jarangsiz undoshlarni aniqlang.

- A) t, s, sh, ch    B) k, t, s, sh  
C) t, p, s    D) t, p, s, sh, ch

251. Jarangsiz jufti bo'lmagan til oldi undoshlarini aniqlang.

- A) l, r, n    B) b, d, j, z  
C) d, z, s    D) d, b, z, sh

252. Nechta jarangli juftiga ega til undoshi bor?

- A) 4 ta    B) 3 ta  
C) 5 ta    D) 6 ta

253. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga jarangli, sirg'aluvchi, lab undoshi yoziladi?

1) ta...sif; 2) a...tomobil; 3) sha...qat; 4) i...tirob; 5) ta...silot.

- A) 1, 2, 3, 5    B) 1, 2, 3, 4, 5  
C) 1, 2, 5    D) 1, 2

254. *Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz,*

*Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.*

Ushbu she'riy parchadagi so'zlar tarkibida necha o'rinda shovqinli portlovchi jarangsiz undosh mavjud?

- A) 7    B) 6  
C) 8    D) 9

255. *Ishga tushdi*

*Sonsiz asir, me'mor,  
naqqosh, sangtarosh,  
Zanji qullar og'och tashir.  
Fillar tashir xarsangtosh.*

Ushbu she'riy parchadagi uyushiq egalar tarkibida sirg'aluvchi undoshlar necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 14    B) 8    C) 13    D) 7

256. *Birovning narsasini so'roqsiz olish kechirilmas gunoh sanalishini bilarding, ammo unga amal qilish lozimligini anglamaganing tufayli kulgili vaziyatga tushib qolishingni his qilmaganding.*

Ushbu gapda birgina portlovchi til undoshi bilan ifodalangan qo'shimcha necha o'rinda qatnashgan?

- A) 1    B) 5    C) 2    D) 3

257. *Ishga tushdi*

*Sonsiz asir, me'mor,  
naqqosh, sangtarosh,  
Zanji qullar og'och tashir.  
Fillar tashir xarsangtosh.*

Ushbu she'riy parchadagi uyushiq egalar tarkibida sonor undoshlar necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 5    B) 8    C) 6    D) 7

258. *Onangni kaftingda tutsang, singlingni kiftingda tut.*

Ushbu maqolda necha so'z tarkibida ikkita til orqa undoshi qatnashgan?

- A) 1    B) 3    C) 2    D) 4

259. Qaysi tezaytishdagi so'zlar tarkibida faqat yuqori tor unlilar ishtirok etgan?

A) Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp.  
B) Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?

C) Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi?

D) Shotursunning shotutini shitirlatgan shamol Sharifning shaftolisini shitirlatdi.

260. Berilgan so'zlarga qavs ichidagi tovushlar juftligidan mos keladiganini qo'ying.

a) i(z-1 - s-2)siz yo'qoldi; b) tu(z-1 - s-2)ini o'zgartirmoq; c) tu(z-1 - s-2)siz ovqat; d) «Mati(z-1 - s-2)» avtomobili.

- A) a-1, b-1, c-1, d-1  
B) a-1, b-2, c-1, d-2  
C) a-1, b-2, c-1, d-1  
D) a-2, b-2, c-1, d-1

261. Qaysi gaplarda nuqtalar o'rniga til orqqa jarangli portlovchi undosh yoziladi?

1. Dushmanni ta...-tu...i bilan yo'qotib yubordi. 2. Tufhisining ta...charmi yeyilib ketibdi. 3. Matoga bar...simon gullar chizilgan edi. 4. Pa...-pa...ana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.

- A) 1, 2                      B) 1, 2, 3  
C) 1, 3                      D) 1, 2, 3, 4

262. Qaysi qatordagi gapda portlovchi j undoshi ishtirok etgan?

A) Vatan sajdagoh kabi muqaddas bo'lmog'i lozim.

B) O'z jonini asrab, yov kelganda qochganlar iymonsizlardir.

C) Vatanga sadoqating vijdoningga sadoqatingdir.

D) Sinf jurnalini olib keling.

263. *Bitta o'g'limni qoldirishni xohlamayapman-u, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz?*

Ushbu gapda munosabat shakllari tarkibida ishtirok etgan undoshlarning hech biriga xos bo'lmagan tasnifni aniqlang.

A) jarangli juftiga ega bo'lgan portlovchi til undoshi

B) jarangli portlovchi til orqqa undoshi

C) jarangli juftiga ega sirg'aluvchi til undoshi

D) shovqinlilar guruhiga kirmaydigan portlovchi undosh

264. *Oldindadir hali zahmat, oldindadir imkonimiz,*

*Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.*

Ushbu she'riy parchadagi munosabat shakllari tarkibida qaysi undosh tovush ishtirok etmagan?

- A) m tovushi              B) n tovushi  
C) z tovushi              D) y tovushi

265. Tarkibida sonor tovushi ishtirok etmagan so'z qatnashgan gapni toping.

A) Chol unga yaqinlashib salom berdi.

B) Nogoh entikdi-yu, egildi kamon.

C) Men shu Vatan qo'ynida undim-o'sdim.

D) Men ular bilan to'rt marta gaplashdim.

266. Jarangsiz jufti mavjud bo'lmagan til oldi undoshlarini aniqlang.

- A) l, m, r, n              B) x, h  
C) r, l, n                  D) r, l, n, y

267. Lablangan va lablanmagan unlilar yonma-yon kelgan so'z(lar)ni toping.

1) okean; 2) tabiat; 3) muallim; 4) material; 5) beaql.

- A) 2, 4                      B) 1, 5  
C) 3                        D) 1, 3, 4

268. *Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamolga erishgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida ahamiyatga ega.*

Gapdagi yasama so'zlardan nechitasi faqat til undoshlari va unli tovushlardan tashkil topgan?

- A) 4    B) 2    C) 3    D) 5

269. *Mehnat kishini uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan.*

Berilgan gapda fe'llarning asosidagi sirg'aluvchi undosh tovushlar miqdori nechta?

- A) 2 ta                      B) 6 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

270. *Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir.*

Ushbu gapda qatnashgan shakl yasovchi qo'shimchalar tarkibida necha o'rinda shovqinlilar guruhiga kiruvchi jarangli portlovchi undosh bor?

- A) 5 ta                      B) 4 ta  
C) 3 ta                      D) 6 ta

271. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat til undoshlari va unlilar ishtirok etgan?

- A) Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.  
 B) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'p koptok.  
 C) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.

D) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.

272. Ko'makchi morfemasida quyi keng unidan oldin ham, keyin ham jarangli til undoshi qatnashgan so'zni toping.

- A) oshpaz      B) guidon  
 C) kitobxon      D) bormoqda

273. *Bu manhus toj-u taxt. . . bu saltanat. . . insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi. . .*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlarda ishtirok etgan til undoshlari haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

- A) sirg'aluvchi undoshlarning soni 4 ta  
 B) portlovchi undoshlar soni 8 ta  
 C) jarangli sirg'aluvchi undoshlar soni 3 ta

D) jarangli undoshlar yetakchi va ko'makchi morfema tarkibida qo'llangan

274. Jarangli jufti mavjud bo'lgan til oldi jarangsiz undoshlarni aniqlang.

- A) t, p, s      B) z, j, d  
 C) k, t, s, ch      D) t, s, ch, sh

275. Qaysi so'zda quyi keng unidan so'ng shovqinli, jarangli undosh kelgan?

- A) xontaxta      B) o'g'il-qizlar  
 C) ota-onalar      D) ozoda

276. Qaysi so'zdagi portlovchi, jarangsiz, chuqur til orqa undoshi o'rnida sirg'aluvchi, jarangli chuqur til orqa undoshi so'z ma'nosini farqlaydi?

- A) siqim      B) taqa  
 C) g'or      D) soliq

277. *Qiyinalib yurayotgan bola og'ir xo'rsinib kuzatib turganlarga birma-bir qarab chiqdi.*

Tarkibidagi undoshlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan bo'lak(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?

- A) 1 o'rinda hol, 1 o'rinda to'ldiruvchi  
 B) 1 o'rinda aniqlovchi, 2 o'rinda hol, 1 o'rinda to'ldiruvchi

C) 1 o'rinda hol

D) 1 o'rinda aniqlovchi, 1 o'rinda hol

278. *Mehnat kishini uch balo-dan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtollikdan.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibidagi jarangli sirg'aluvchi undoshlar soni?

- A) 11      B) 12      C) 13      D) 10

279. *Ishga tushdi*

*Sonsiz asir, me'mor, naqqosh, sangtarosh.*

*Zanji qullar og'och tashir,*

*Fillar tashir xarsangtosh.*

Ushbu parchadagi egalar tarkibidagi sirg'aluvchi undoshlar soni?

- A) 12      B) 15      C) 13      D) 14

280. Quyidagi berilganlardan nechtasi portlovchi, sonor, til undoshi hisoblanadi?

*m, n, ng, l, r, y*

- A) 3 tasi      B) 5 tasi  
 C) 2 tasi      D) 4 tasi

281. Qaysi qatorda berilgan so'zning talaffuzida jarangli jufti o'rnida jarangsiz jufti talaffuz qilinadi?

- A) ketdi      B) taqsim  
 C) bargga      D) kitob

282. Nechta lab undoshi sonor tovushni ifodalaydi?

- A) 2 ta      B) 1 ta  
 C) 3 ta      D) 4 ta

283. Berilgan undoshlarning nechtasi jarangli juftiga ega bo'lmagan til undoshi hisoblanadi?

*y, l, n, ng, r, m*

- A) 3 tasi      B) 5 tasi  
 C) 6 tasi      D) 4 tasi

284. *Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh, Jayron, nega ko'zing to'la yosh? Oyog'ingga qo'yib yotay bosh, Jayron, nega ko'zing to'la yosh?* Ushbu she'rda tarkibida faqat jarangli undosh qatnashgan nechta so'z ishtirok etgan?

- A) 6 ta                      B) 5 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

284. *O'zing boshla maydonga, boshla, To'maris!*

*Qolsin bizdan tarixda shonli porloq iz!*

*Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir,*

*Bosqinchi yov o'limga mahkum balodir.* Ushbu she'riy parchada tarkibi faqat unli va sonorlardan tashkil topgan so'z necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 2 o'rinda                B) 1 o'rinda  
C) 3 o'rinda                D) 4 o'rinda

285. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin.*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allayin.*

*Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'rimga boshginangni qo'y.*

Ushbu she'rda unli va portlovchidan iborat nechta so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 5 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

286. Yetakchi morfemasida keng unli(lar) va sirg'aluvchi shovqinli tovush(lar) qatnashgan yasama so'zlar qatorini toping?

- A) g'allachilik, gulchi  
B) ozchilik, behayo  
C) sururli, sersuv  
D) ozg'in, yig'i

287. *n, l, y, r* – jarangli til undoshlaridan qaysi biri tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra boshqalardan farq qiladi?

- A) l                      B) n                      C) y                      D) r

289. Nechta lab-lab undoshining jarangsiz jufti yo'q?

- A) 2 ta                      B) 1 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

290. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ovozdor bo'lgan undoshlarning nechtasi sirg'aluvchi undosh hisoblanadi?

- A) 5 tasi                      B) 2 tasi  
C) 3 tasi                      D) 4 tasi

291. Jarangsiz jufti bilan hosil bo'lish usuliga ko'ra bir xil guruhga mansub bo'lmagan jarangli til undoshi qaysi?

- A) g                      B) z                      C) g'                      D) d

292. Nechta shovqinli jarangli til undoshlarining jarangsiz jufti bor?

- A) 5 ta                      B) 6 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

293. Jarangli jufti yo'q bo'lgan sirg'aluvchi undoshni toping.

- A) f                      B) h                      C) s                      D) q

294. *Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'in ko'rmaysan. Ko'p ishlagan ko'p yashaydi. Mehnat qilsang, qo'lingga yorug'lik kiradi.*

Ushbu matnda yasama so'zlar tarkibida nechta o'rinda shovqinli jarangli sirg'aluvchi undosh qatnashgan?

- A) 4 ta                      B) 5 ta  
C) 6 ta                      D) 7 ta

295. Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?

- A) 3 ta                      B) 6 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

296. Nutqimizda portlovchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

297. Tarkibidagi portlovchi undosh sirg'aluvchi undosh kabi talaffuz qilinadigan so'zlarni belgilang.

- A) tuzsiz, ijtimoiy    B) obod, fabrika



C) iztirob, Matiz D) maqsad, taqdim

298. *Yalangoyoq* so'zi tarkibida quyida tavsiflangan undosh tovushlardan qaysilari ishtirok etgan?

1) til o'rta jarangli sirg'aluvchi undosh;  
2) til oldi sirg'aluvchi sonor yon tovush;  
3) til oldi portlovchi burun sonori; 4) til orqa portlovchi jarangli undosh; 5) chuqur til orqa portlovchi jarangsiz undosh.

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3

C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 4, 5

299. Qaysi gapda yasaliş asosi keng unlilar va portlovchi undoshlardan iborat yasama fe'l qatnashgan?

A) Naq sultonning o'zidan chopar bo'lib kelgani yodiga tushib, dadillashdi.

B) Ko'z o'ngimda barchasi shunday aniq gavdalandiki, uyqum o'chib ketdi.

C) U kelinining og'zidan yulib olganday tez so'zlardi.

D) Har doim darsga vaqtli kelishga odatlaning.

300. Qaysi maqolda faqat old qator lablanmagan unlilar ishtirok etgan?

A) Hechdan kech yaxshi.

B) Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.

C) Yer haydasang, kuz hayda, Kuz haydamasang, yuz hayda.

D) Oz so'z – soz so'z.

301. Tarkibida til undoshlari va tor unli(lar) ishtirok etgan yasama so'zlar berilgan javobni belgilang.

A) qing'ir, tirik

B) xizmatkor, kiymoq

C) gulchi, tilik

D) ishqala, qaramlik

302. Quyidagi berilgan gaplarning qaysi birida jarangli lab undoshlari soni ko'p?

A) Dunyoda vaqt juda qimmatlidir.

B) Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.

C) Bir narsaga so'z berdingmi, uni, albatta, bajar.

D) G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

303. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida chuqur til orqa undoshlari soni ko'p?

A) Norning nordon anori narida.

B) Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.

C) Oqil oq olma oldi, oq olmani Oqil oldi.

D) G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

304. Sonor undoshlarning nechtasi tilning qayerida hosil bo'lishiga ko'ra bir guruhga mansub sirg'aluvchi undosh sanaladi?

A) to'rttasi

B) uchtasi

C) ikkitasi

D) beshtasi

305. *Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.*

Berilgan gapda fonetik o'zgarishga uchragari so'zlardagi jarangli undoshlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) yettitasi til oldi undoshi hisoblanadi

B) uchtasi til orqa undoshi hisoblanadi

C) oltitasi sirg'aluvchi undosh hisoblanadi

D) oltitasi portlovchi undosh hisoblanadi

306. Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz undoshlar soni nechta?

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

307. Jarangsiz jufti yo'q lab-lab undoshi qaysi?

A) n

B) b

C) p

D) m

308. *Ona tilida fikrlang, toza gapiring, nutqingizni yot unsurlardan saqlang.*

Berilgan gapda jarangli til oldi portlovchi undoshlar necha o'rinda qo'llangan?

A) 9

B) 8

C) 7

D) 6

309. Qaysi maqolda faqat old qator lablanmagan unlilar ishtirok etgan?

A) Hechdan kech yaxshi.

B) Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.

C) Oz so'z – soz so'z.

D) Qari bilgan so'zni pari bilmas.

310. Qaysi undosh o'z jarangsiz jufti bilan birga portlovchi til undoshlariga mansub bo'ladi?

A) b B) z C) d D) g'

311. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin,*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.*

*Dudog'ing guldani xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshgingni qo'y.*

She'riy parchadagi nechta so'z tarkibida uch o'rinda sirg'aluvchi undosh ishtirok etgan?

A) 4 ta B) 1 ta

C) 3 ta D) 2 ta

312. O'zbek tilida jarangli portlovchi til undoshlari nechta?

A) 3 ta B) 5 ta

C) 2 ta D) 4 ta

313. O'zbek tilida jarangli portlovchi til oldi undoshlari nechta?

A) 3 ta B) 5 ta

C) 2 ta D) 4 ta

314. O'zbek tilida nechta jarangli portlovchi shovqini til undoshlari bor?

A) 3 ta B) 5 ta

C) 2 ta D) 4 ta

315. Qaysi javobda jarangli shovqinli portlovchi til oldi undoshi berilgan?

A) d B) t C) z D) n

316. Qaysi tez aytishda chuqur til orqa undoshlari soni boshqalariga nisbatan ko'p?

A) Oqil oq olmani oldimi, oq olmani Oqil oldimi?

B) Soqining quritgan qoqisi Boqining quritgan qoqisidan ortiq.

C) G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

D) Quruq quduqning qachon quriganini qarilar qayerdan bilishadi?

317. Qaysi tez aytishda portlovchi shovqinli undoshlar soni ko'p?

A) Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?

B) Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir.

C) Oq ko'ylakka ko'k tugma, ko'k ko'ylakka oq tugma.

D) Gulnora gulzorda kapalak quvladi.

318. Lab ishtirokiga ko'ra farqlanuvchi fonemalar yordamida ma'nosi farqlangan so'zlar juftligi qaysi javobda berilgan?

A) bir-ber B) tilak-tilik

C) qo'l-qul D) tekin-to'kin

319. Qaysi so'zdagi bir quyi keng unli o'rinda boshqasi qo'llanganda so'z ma'nosi farqlanadi?

A) taqa B) siqim

C) soliq D) xam

320. Qaysi so'z asosida yuqori tor unliidan so'ng jarangli, sirg'aluvchi undosh kelgan?

A) muqaddas B) kezmoq

C) qizlarjon D) o'qituvchi

## FONETIKADAN SAVOLLAR (BO'G'IN VA QATOR UNDOSSH BO'YICHA)

1. *Ko'ngil, singlisi, kongress* so'z-larining birinchi bo'g'ini qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) har uchala so'zning birinchi bo'g'ini ochiq bo'g'in

B) har uchala so'zning birinchi bo'g'ini yopiq bo'g'in

C) ko'ngil so'zida ochiq, singlisi, kongress so'zlarida yopiq bo'g'in

D) ko'ngil, singlisi so'zlarida ochiq, kongress so'zida yopiq bo'g'in

2. Berilgan so'zlarning qaysi birida birinchi bo'g'in ochiq bo'g'in hisoblanadi?

1) dengiz; 2) shtanga; 3) singlim; 4) ko'ngil.

A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3

C) 1, 4            D) 1, 3, 4

3. Quyida berilgan gapda nechta ochiq bo'g'in borligini aniqlang. *Go'zallik tuyg'usini singdirmay turib barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas.*

A) 12 ta            B) 11 ta

C) 10 ta            D) 9 ta

4. Qaysi so'zning yopiq bo'g'ini unli va jarangli undoshdan iborat?

A) qadriyat        B) yoqimli

C) iztirob          D) fazilat

5. Qator undoshli so'zlar berilgan javobni belgilang.

A) traktor, paxta, chaqqon

B) ikki, million, metall

C) stol, do'st, daraxt

D) paxta, nimcha, o'simlik

6. *Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur darsiga izzat-ehtirom bilan qadam qo'yimoq lozim.* Ushbu gapda qo'sh va qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

A) 1 ta qo'sh undosh, 2 ta qator undoshli so'z

B) 2 ta qo'sh undosh, 2 ta qator undoshli so'z

C) 2 ta qo'sh undosh, 3 ta qator undoshli so'z

D) 2 ta qo'sh undosh, 4 ta qator undoshli so'z

7. *Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga izzat-ehtirom bilan qadam qo'yimoq lozim.* Ushbu gapda qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

A) 1 ta qator undoshli so'z

B) 2 ta qator undoshli so'z

C) 3 ta qator undoshli so'z

D) 4 ta qator undoshli so'z

8. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'zni toping.

A) kitob

B) paxta

C) sunbul

D) toshloq

9. Faqat ochiq bo'g'inli so'zlarni toping.

A) g'o'za, baraka, ibora

B) arava, ashula, ilgari

C) ilova, olim, andisha

D) ijod, izza, rubob

10. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'zni toping.

A) g'aila

B) kitob

C) po'lat

D) toshloq

11. «*Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?*» Ushbu gapda nechta ochiq bo'g'in mavjud?

A) 6 ta

B) 5 ta

C) 4 ta

D) 3 ta

12. Qaysi qatorda berilgan yasama so'zning asosi yopiq bo'g'in jarangli undoshlardan iborat?

- A) gulchilik, yig'ilish  
 B) qahqaha, kuchay  
 C) mehnatkash, bodom  
 D) noto'g'ri, lolalar
13. Quyidagi so'zlarning qaysi biri tarkibida ochiq bo'g'in bor?  
 A) ishlatmoq B) otlantirmoq  
 C) tasdiqlamoq D) san'atkorlik
14. Yopiq bo'g'inlardan biri faqat lab undoshlaridan tashkil topgan so'zni toping.  
 A) konduktor B) bolg'a  
 C) mavsum D) maktab
15. Qaysi qatorda qator undoshlar mavjud emas?  
 A) ilm, sabr  
 B) tong, teng  
 C) do'st, past  
 D) hammasida qator undoshlar mavjud
16. Bo'g'inlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng keladigan qatomi toping.  
 A) bargi, toshim B) bargga, toshda  
 C) bog'da, shahri D) taxti, ko'rki
17. Bo'g'inlarga ajratish bilan asos va qo'shimchalarga ajratish teng kelmaydigan qatomi toping.  
 A) taxtim, bargga  
 B) toshda, shahrim  
 C) baxtim, shahri  
 D) bog'im, tog'dan
18. Qator kelgan undoshlarni toping.  
 A) kaptar B) metall  
 C) to'rtta D) katta
19. Tarkibida yonma-yon bir xil undosh kelgan so'zlar ...  
 A) qator undoshli so'zlar  
 B) qo'sh undoshli so'zlar  
 C) juft undoshli so'zlar  
 D) bir xil undoshli so'zlar
20. Qator undoshli so'z ishtirok etgan gapni toping.  
 A) So'zning doriga o'xshashini, ortiqchasi zarar qilishini bilasizmi?

- B) O'zbekistonning kelajagi yorug', ertasi porloq.  
 C) Ravon nutq – insonning ko'rki, fazilati.  
 D) Yo'ldoshini tashlagan yo'lda qolur.
21. Quyidagi berilgan gapda nechta ochiq bo'g'in bor?  
*Bilimga eltuvchi yagona yo'l – bu faoliyatdir.*  
 A) 10 B) 9 C) 11 D) 13
22. O'zak va qo'shimchaga ajratish bilan bo'g'inga ajratish teng kelgan so'zlarni toping.  
 1) o'yna; 2) o'yla; 3) sabrsizlikdan; 4) bargi; 5) suvsizlik; 6) ko'nglim; 7) tongga.  
 A) 2, 3, 5, 7 B) 1, 2, 3, 6, 7  
 C) 1, 2, 5, 7 D) 1, 2, 4, 7
23. *Gramm, metall* kabi so'zlarga qo'shimchalar qay tarzda qo'shiladi?  
 A) qo'sh undoshdan biri yozilmaydi  
 B) qo'sh undoshdan keyin bir unli ortiriladi  
 C) unli harf bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganida qo'sh undosh saqlanib, undosh bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganida qo'sh undoshdan biri yozilmaydi  
 D) qo'sh undoshdan so'ng to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi
24. Berilgan qaysi so'zlarda qo'sh undosh bir undosh sifatida talaffuz qilinadi?  
 1) chaqqon; 2) million; 3) metall.  
 A) 2, 3 B) 1, 2, 3  
 C) 2 D) 3
25. Qaysi qatorda so'zlar bo'g'inlarga to'g'ri ajratilgan?  
 A) tang – lay, deng – iz  
 B) de – ngiz, ko' – ngil  
 C) sin – gil, ko'n – gil  
 D) tong – gi, ten – gi
26. Ikki xil keng unli qator kelgan so'zlarni toping.  
 1) soat; 2) muallif; 3) oila; 4) matbaa; 5) saodat; 6) sharoit; 7) zoo-

magazin; 8) maosh; 9) taom; 10) tamoil.

- A) 1, 2, 4, 5, 7, 8, 9  
B) 2, 3, 4, 7, 8  
C) 1, 4, 5, 7, 8, 9  
D) 1, 5, 8, 9

27. Talaffuz qilinganida tovush ortadigan tor-keng unli qator kelgan so'zlarni toping.

1) tabiat; 2) ilm; 3) teatr; 4) shariat;  
5) doim; 6) muomala; 7) shoir; 8) okean.

- A) 1, 3, 4, 5, 7 B) 1, 4, 5, 7  
C) 1, 3, 4, 5, 7, 8 D) 1, 2, 4, 5, 7

28. Qaysi so'zlarda qator kelgan tor-keng unli dan biri og'zaki nutqda talaffuz qilinmaydi?

1) tabiat; 2) muallim; 3) shior;  
4) muallif; 5) muomala; 6) maorif;  
7) muovin; 8) maosh.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 7 B) 2, 3, 4, 6, 7  
C) 2, 4, 6, 7 D) 2, 5, 7

29. Nuqtalar o'rniga qo'sh unli qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni toping.

1) badi...y; 2) insho...t; 3) sun...y;  
4) tabi...y; 5) matba...; 6) istehzo...  
muz.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 4, 5, 6  
C) 1, 2, 4, 5, 6 D) 1, 2, 4

30. Qaysi so'zda qator kelgan keng unli orasiga og'zaki nutqda bir undosh qo'shib talaffuz qilinadi?

- A) maosh B) saodat  
C) maorif D) soat

31. Qaysi so'zlarda lab va til undoshi qator kelgan?

1) blok; 2) klub; 3) fransuz; 4) flot;  
5) nazm; 6) taxmin; 7) o'simlik;  
8) brigada.

- A) 1, 5, 8 B) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8  
C) 1, 3, 4, 5, 8 D) 1, 5, 6, 7, 8

32. Til undoshlari qator kelgan so'zlarni toping.

1) zavq; 2) nutq; 3) turq; 4) nasr;  
5) qadr; 6) mehr; 7) ilm; 8) shart.

- A) 2, 3, 4, 5, 8 B) 2, 3, 4, 5, 6, 8  
C) 4, 5, 8 D) 1, 4, 5, 7, 8

33. Qaysi so'zlarda til oldi undoshlari qator kelgan?

1) sehr; 2) baxt; 3) shart; 4) qasd;  
5) rizq; 6) qadr; 7) asr; 8) asl.

- A) 2, 3, 4, 7, 8 B) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8  
C) 1, 3, 5, 7 D) 3, 4, 6, 7, 8

34. Jarangli til oldi undoshlari qator kelgan so'zlarni belgilang.

1) qasr; 2) davr; 3) amr; 4) qadr;  
5) qayd; 6) burj; 7) ganj; 8) nazm.

- A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 7, 8  
C) 4, 6, 7 D) 2, 4, 5, 6, 7

35. Til undoshlaridan sirg'aluvchi va portlovchi undoshlar qator kelgan so'zlarni toping.

- A) qadr, davr B) qalb, sabr  
C) asr, asl D) sharq, baxt

36. Jarangsiz sirg'aluvchi undoshlar qator kelgan so'zlarni aniqlang.

- A) baxt, daraxt B) fasil, fahm  
C) do'st, ust D) bahs, shaxs

37. Qator undoshlar ifodalangan so'z berilgan javobni toping.

- A) istiqlol B) istara  
C) estrada D) ishtirok

38. Qo'sh undoshlardan biri tushirilganida so'zning lug'aviy ma'nosi o'zgaradigan qatorni toping.

- A) grammatika, zarra, taraqqiyot  
B) issiq, do'ppi, qattiq  
C) ellar, sodda, nonning  
D) jajji, yo'lla, million

39. Quyida berilgan so'zlardan qaysilarida talaffuzda tovush ortirilishi to'liq kuzatiladi?

- A) shariat, toifa, Noila  
B) iftixor, itoat, faxr  
C) faxr, hukm, fazo  
D) iftixor, fazo, toifa

40. Bo'g'iz undoshlari bilan boshlanuvchi ochiq bo'g'inli so'zlar qatorini toping.

- A) ...avola, ...imo, ...ikoya
- B) ...ayvon, ...emiri, ...ola
- C) ...imoya, ...ujayra, ...omuza
- D) ...odisa, ...ulosa, ...uvaydo

41. Qaysi qatorda yonma-yon kelgan undoshlar orasida bir unli orttirilsa, yangi so'z hosil bo'ladi?

- 1) *aql*; 2) *asi*; 3) *ahl*; 4) *qahr*; 5) *asr*; 6) *qurt*.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- B) 1, 2, 3, 5, 6
- C) 2, 4, 5, 6
- D) 2, 3, 5, 6

42. *Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.*

*Shivirlading yonimda xushhol: «Yana keldi, do'stginam, bahor».*

Ushbu parchada til undoshlari bilan boshlanuvchi bo'g'inlar sonini aniqlang.

- A) 27
- B) 28
- C) 29
- D) 30

43. Quyidagi gaplarning qaysi birida jarangli undoshlardan tashkil topgan yopiq bo'g'indan iborat so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

- A) Birlashgan daryo bo'lur.
- B) Do'stlik barcha boylikdan afzal.
- C) Bog' jamoli bog'bondan.
- D) Yurganning yo'li oshar, o'tirganning o'yi.

44. *Kamtar bo'l, barchani etkil bahramand,*

*Sening ham martabang bo'lg'usi baland.*

*Urug' aralashib avval tuproqqa, So'ngra bo'y cho'zadi osmon-falakka.*

Berilgan she'riy parchada jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar nechta?

- A) 19 ta
- B) 16 ta
- C) 18 ta
- D) 20 ta

45. *Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.*

*Shivirlading yonimda xushhol: «Yana keldi, do'stginam, bahor».*

Ushbu parchada til undoshlari bilan boshlanuvchi ochiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

- A) 14
- B) 15
- C) 16
- D) 17

46. Quyidagi qaysi gap tarkibida chuqur til orqa tovushi bor qator undoshli so'z ot kesimga bog'lanib aniqlovchi vazifasida kelgan?

A) Narzi uzoqdagi ota-onasi kabi bu yerdagilar uchun ham aziz va qadrligigarbanddir.

B) Tarixiy va milliy yodgorliklar bizning milliy boyligimiz, cheksiz faxrimizdir.

C) Qish qahridan qarsillaydi qayrag'ochlar.

D) Artib ko'ngillar zangini, qishni bahor aylab keling.

47. Portlovchi undoshlar qator kelgan so'zlarni toping.

- A) nutq, xursand
- B) mayl, xayr
- C) zavq, zabt
- D) qasd, stul

48. *Juft, farzand, baxt, rizq, farz, band, fasl, shaxs, jahl, harf, stul.* Yuqorida portlovchi undoshlar qator kelgan nechta so'z mavjud?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

49. *Juft, farzand, baxt, rizq, farz, band, fasl, shaxs, jahl, harf, stul.* Yuqorida sirg'aluvchi undoshlar qator kelgan nechta so'z mavjud?

- A) 6 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

50. *Juft, farzand, baxt, rizq, farz, band, fasl, shaxs, jahl, harf, stul.* Yuqorida sirg'aluvchi va portlovchi undoshlar qator kelgan nechta so'z mavjud?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

51. *Kamtar bo'l, barchani etgil bahramand,*

*Sening ham martabang bo'lg'usi baland.*

Ushbu she'riy parchada tarkibida faqat jarangli undosh va unilar qatnashgan yopiq bo'g'inlar soni nechta?

- A) 7 ta                      B) 8 ta  
C) 9 ta                      D) 10 ta

52. Imloda tor va keng unli ketma-ket kelgan, tor unli talaffuz qilinmaydigan so'zlar qatorini toping.

- A) saodat, maorif  
B) muovin, muallim  
C) muammo, tabiiy  
D) muattar, taomil

53. Qaysi qatorida asosi faqat yopiq bo'g'indan iborat yasama sifatlar berilgan?

1) batafsil; 2) noaniq; 3) qadrdon; 4) to'lin; 5) achchiq; 6) toshloq.

- A) 2, 3, 5                      B) 1, 2, 3, 4, 5  
C) 1, 3, 4                      D) 2, 3, 5, 6

54. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat sirg'aluvchi undoshlardan tashkil topgan nisbiy sifat ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor.

B) Kuzgi harakat – qishki barakat.

C) Aqlli va aqlsiz insonlar o'rtasidagi farq nimadan iborat?

D) Juda boy, chiroyli tilimiz bor.

55. Yopiq bo'g'inlaridan biri faqat jarangsiz jufti yo'q undoshlardan tashkil topgan so'z berilgan qatomi toping.

- A) g'alla                      B) paxta  
C) mavsum                      D) ikkilanmoq

56. *Vatan tuyg'usi* – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatining fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish tuyg'usidir. Ushbu gapda qo'llangan ochiq bo'g'inlar soni nechta?

- A) 21 ta                      B) 22 ta  
C) 23 ta                      D) 24 ta

57. *Vatan tuyg'usi* – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatining fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish

*tuyg'usidir*. Ushbu gapda tarkibida ikkitadan ochiq bo'g'in mavjud bo'lgan nechta so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

58. *Vatan tuyg'usi* – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatining fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish tuyg'usidir. Ushbu gapda tarkibida bitta yopiq, ikkita ochiq bo'g'in mavjud bo'lgan nechta so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

59. *Vatan tuyg'usi* – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatining fidoyi fuqarosi bo'lmoqqa intilish tuyg'usidir. Ushbu parchada tarkibida ikkita yopiq, bitta ochiq bo'g'in mavjud bo'lgan nechta so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

60. *Men esa oshig'ing sening eng g'arib,*

*Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.*

*Sening yoningda ham seni axtarib, Sening yoningda ham seni kutguvchi.*

She'rdan nechta ochiq bo'g'in bor?

- A) 20 ta                      B) 19 ta  
C) 18 ta                      D) 21 ta

61. *Men esa oshig'ing sening eng g'arib,*

*Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.*

*Sening yoningda ham seni axtarib,*

*Sening yoningda ham seni kutguvchi.*

She'rdan nechta yopiq bo'g'in bor?

- A) 22 ta                      B) 23 ta  
C) 24 ta                      D) 25 ta



62. Men esa oshig'ing sening eng g'arib,

Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.

Sening yoningda ham seni axtarib,

Sening yoningda ham seni kutguvchi.

She'rdan nechta faqat ochiq bo'g'inli so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 1 ta  
C) 4 ta                      D) 3 ta

63. Tarkibidagi qator kelgan undoshlar til oldi jarangli undoshlardan iborat so'zlarni belgilang.

- A) sabr, hukm, darz  
B) farzand, darz, ranj  
C) zulm, fayz, farzand  
D) darz, davr, fayz

64. Quyidagi qaysi maqolda ochiq bo'g'in eng ko'p ishtirok etgan?

A) Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur.

- B) Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer.  
C) Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.  
D) Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur.

65. O'zbek tilidagi sof o'zbekcha so'zlar oxirida quyida berilgan qator undoshlardan qaysi birining kelishi kuzatiladi?

- 1) rg; 2) st; 3) lt; 4) xt; 5) rt; 6) sht.  
A) 2, 3, 5                      B) 2, 4, 6  
C) 1, 3, 6                      D) 1, 2, 4

66. Jarangli jufti yo'q jarangsiz undosh tovush bilan tugagan yopiq bo'g'inli so'zlar qatorini toping.

- A) xushaxloq, shukur, xontaxta  
B) xumcha, tashbeh, tal'at  
C) dehqon, charxlanmoq, xohlamoq  
D) tavfiq, sohib, otaliq

67. Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu

gapda jarangli undosh bilan tugagan nechta yopiq bo'g'in bor?

- A) 8                              B) 10  
C) 9                              D) 7

68. Qaysi gapda otlashgan so'zlar tarkibida ochiq bo'g'in uchramaydi?

- A) Uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarni kutib olmoqdamiz.  
B) Kattalar hurmatda, kichiklar xizmatda.  
C) Benomusga kunda to'y.  
D) Bermasning oshi pishmas.

69. Qaysi gapda unilarning o'rni almashinishi bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

- A) O'zbekistonning hayvonot va o'simliklar dunyosi juda boy.  
B) Bu boradagi bilimlarim uch-to'rt ma'lumot bilan chegaralanadi, xolos.  
C) Qisqa muddat ichida sanoati rivojlangan mamlakatga aylandi.  
D) Qozi o'z hukmini ommaga havola etdi.

70. Quyidagi gapda asosi bir bo'g'indan iborat so'zlar sonini toping.

*Eldan ketib el bo'lganni kim biladi?*

- A) 5 ta                              B) 6 ta  
C) 3 ta                              D) 4 ta

71. *Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.*

*Shivirlading yonimda xushhol: «Yana keldi, do'stginam, bahor».*

Ushbu she'riy parchadagi ochiq va yopiq bo'g'inlar soni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 19 ta ochiq, 17 ta yopiq bo'g'in  
B) 18 ta ochiq, 18 ta yopiq bo'g'in  
C) 16 ta ochiq, 20 ta yopiq bo'g'in  
D) 11 ta ochiq, 19 ta yopiq bo'g'in

72. *Shovulladi tun bo'yi shamol, Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.*

*Shivirlading yonimda xushhol: «Yana keldi, do'stginam, bahor».*

Ushbu she'riy parchadagi burun un-

doshlari bilan tugagan yopiq bo'g'inlar sonini toping.

- A) 5    B) 6    C) 7    D) 4

73. Tarkibidagi qator kelgan undoshlar til oldi jarangli undoshlardan iborat so'zlarni belgilang.

- A) sabr, hukm, darz  
B) darz, davr, fayz  
C) zulm, fayz, farzand  
D) farzand, darz, rarij

74. So'z oxiridagi *sht*, *xt*, *rg* kabi qator undoshlar qaysi tilga xos?

- A) o'zbekcha    B) fors-tojikcha  
C) ruscha    D) arabcha

75. *O'z tilini unutgan xalqning Mozorida ajdodlar qabri Uzra qo'yar bolalar tikan.*

Parchada qator undoshlar sonini aniqlang.

- A) 2    B) 4    C) 1    D) 3

76. *Achchiq bilan chuchukni togan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar.* Ushbu gapda asosga ajratish bilan bo'g'inga ajratish teng keladigan so'zlar miqdorini toping.

- A) 1    B) 4    C) 2    D) 3

77. Sof o'zbekcha so'zlarni toping.

- A) musht, ust    B) daraxt, barg  
C) qurt, yilt    D) baxt, qurt

78. **Muruvvat** so'zidagi qo'sh undosh haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) til oldi, sirg'aluvchi, jarangli  
B) lab undoshi, sirg'aluvchi, jarangli  
C) til oldi, portlovchi, jarangsiz  
D) lab undoshi, sirg'aluvchi, jarangsiz

79. Qaysi javobdagi so'zda qo'sh undosh bilan bog'liq xatolik bor?

- A) krosvord    B) milliard  
C) afv    D) karra

80. Bo'g'in ko'chirish haqidagi to'g'ri fikrlarni toping.

1) **ng** harf birikmasi bir tovushni bildirsa va ikki unli o'rtasida kelsa, ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan

boshqasiga shunday ko'chiriladi; 2) **ng** harf birikmasi bir tovushni bildirsa va undan so'ng undosh kelsa, birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi; 3) **ng** harf birikmasi alohida tovushlarni bildirsa, bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi.

- A) 1, 2, 3    B) 1, 2  
C) 2, 3    D) 1, 3

81. **Ng** harf birikmasi alohida tovushlarni bildirsa, bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi. Ushbu qoida asosida yozilgan so'zlarni toping.

- A) in-gramoq, opan-giz  
B) ten-ggur, an-glagan  
C) kon-gress, sin-gil  
D) bugun-gi, tan-gens

82. Faqat ochiq bo'g'inlardan iborat bo'lgan so'zni aniqlang.

- A) orfografiya    B) monografiya  
C) dangasalik    D) suverenitet

83. *Shu kunlarda keng jahonda oqib keldi e'tirof,*

*Istiqlolning jamoliga boqib keldi e'tirof.*

She'riy parchada jarangsiz til undoshi + unli + jarangli til undoshi qolipidagi bo'g'inlar soni nechta?

- A) 7 ta    B) 4 ta  
C) 6 ta    D) 5 ta

84. *Har qanday go'zallik zamirida mehnat yotadi.*

Ushbu gapda yopiq bo'g'inlar tarkibida lablanmagan unlilar soni nechta?

- A) 9 ta    B) 6 ta  
C) 7 ta    D) 8 ta

85. 1. Dam oladi kunduzi, xonadonning yulduzi.

2. Oyna emas jimirlar, tek turmasdan qimirlar.

3. Bir parcha patir, olamga tatir.

4. Kulib turar misoli oftob, Hamrohidir chang, tor va rubob.

5. Qizdirsang ishlar, kiyim tekislar.

Berilgan topishmoqlarning qaysi birida

yopiq bo'g'inlar faqat jarangli undosh bilan tugagan?

- A) 1, 3                      B) 3, 5  
C) 1, 2, 5                  D) 1, 2, 4

86. So'zlarning ochiq bo'g'inlari keng unlilar bilan tugagan gapni aniqlang.

- A) Uning boyligi sira tugamas ekan.  
B) Kishining hurmati o'z qo'lida.  
C) Ko'z qayerda bo'lsa, aql ham o'sha yerda.  
D) Uydan maktabga bora boshladim.

87. *Bu – men tug'ilgan tuproq.  
Ha, tug'ilgan tuproq,*

*Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar,  
daryolar, cheksiz qumloq.*

*Bo'ronlar qamchilashar, yom-  
g'irlar tomchilashar,*

*Qishda qalin qordan oq, kuzda-  
chi paxtadan oq.*

Ushbu she'riy parchada ot turkumiga mansub nechta so'z faqat jarangli undoshlar hamda unlilardan tashkil topgan?

- A) 6 ta                      B) 5 ta  
C) 7 ta                      D) 4 ta

88. *Yaxshi kishi yomonlik  
ko'rmagay hargiz,*

*Har kimki yomon bo'lsa, jazo  
topqusidir.*

Ushbu parchada yopiq bo'g'ini unli va jarangli undoshlardan tarkib topgan so'z qaysi sintaktik vazifalarni bajargan?

- A) aniqlovchi, kesim  
B) to'ldiruvchi, kesim  
C) ega, kesim  
D) kesim, kesim

89. So'zlarning ochiq bo'g'inlari lablanmagan unlilar bilan tugagan gapni toping.

- A) Otni tepmaydi, itni qopmaydi, dema.  
B) Gulnor guzardagi gulzordan go'zal gullar uzdi.  
C) Obro' misqollab keladi, qadoqlab ketadi.

D) Haqiqiy e'tiqod egasi bo'lgan odamda iymon ham bo'ladi.

90. *Hammamizning onamizdir  
shu Vatan,*

*Yov qoldirgan siynasida ming  
tikan,*

*Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish  
uchun.*

Ushbu parchadagi so'zlarining ochiq bo'g'inida nechta tor unli ishtirok etgan?

- A) 12 ta                      B) 10 ta  
C) 9 ta                        D) 8 ta

91. So'zlarning yopiq bo'g'inlarida lablanmagan unlilar qatnashgan gapni toping.

- A) Tilga e'tibor – elga e'tibor.  
B) Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling.  
C) Kishining go'zalligi uning tilidan bilinadi.

D) Juda boy, chiroyli tilimiz bor.

92. *Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

*Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

Ushbu she'rda faqat bir bo'g'indan iborat so'zlar tarkibida nechta jarangli undosh bor?

- A) 2 ta                      B) 1 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

93. *Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

*Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

Ushbu she'rdagi yopiq bo'g'inlarda sirg'aluvchi til undoshlari soni necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 12 ta                      B) 17 ta  
C) 18 ta                      D) 19 ta

94. *O'sha-o'sha bujur tol.  
Shoxlarida tinmay qushlar sayrashar.*

Ushbu parchada ishtirok etgan yopiq bo'g'inlar tarkibida necha o'rinda til oldi sirg'aluvchi shovqinli undosh ishtirok etgan?

A) 5 B) 6 C) 7 D) 4

95. *Mehnat mamnuniyat va madaniyat manbayidir.*

Ushbu gapning ochiq bo'g'inida nechta jarangli undosh mavjud?

A) 5 ta B) 6 ta  
C) 7 ta D) 8 ta

96. *Bu holatni Amir Temur saltanatida ham ko'rishimiz mumkin.*

Ushbu gapda ochiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarda shovqinlarga kiruvchi nechta portlovchi jarangli undosh ishtirok etgan?

A) 1 ta B) 2 ta  
C) 3 ta D) 4 ta

97. *Shundan beri inson tinmayin, Shu yer uzra ter to'kar hamon.*

*Yerni go'zal qilgani sayin, Go'zal bo'lar o'zi ham inson.*

Ushbu parchada nechta so'zning yopiq bo'g'ini sonor bilan tugagan?

A) 18 ta B) 21 ta  
C) 19 ta D) 20 ta

98. Qaysi gapda hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan undoshlarning qator kelish holati mavjud bo'lgan ikkita qator undoshli so'z qatnashgan?

A) Boylikka hirs qo'yish – joduning sirtmog'iga tushib qolish bilan barobar.

B) Vaqt – keskir qilich, u hech narsaga qaramay shart o'tadi-ketadi.

C) Qabrga emas, qalbgga haykal qo'ymoq kerak.

D) Hayot darsidan saboq beruvchi bir ganj – xazina bor: bu kitobdir.

99. *Har ko'zki, agar olmasa ibrat, ko'rdir,*

*Har luqma, agar bermasa lazzat, sho'rdir.*

*Har to'n, agar o'zgarmasa, to'nmas, u kafan,*

*Har xonaki, birdek turaversa, go'rdir. (Bedil)*

Ushbu she'rda hosil bo'lish o'rni va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega undoshlardan tuzilgan nechta yopiq bo'g'in bor?

A) 4 ta B) 6 ta  
C) 3 ta D) 5 ta

100. *Birinchi avtomobil Germaniyada paydo bo'ldi, lekin haydovchilarning no'noqligi tufayli tez-tez ko'ngilsiz voqealar ro'y bera boshladi.* Ushbu gapdagi nechta yopiq bo'g'inida ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra umumiy belgiga ega bo'lgan undoshlar o'rtasida quyi keng unli qatnashgan?

A) 2 ta B) 3 ta  
C) 4 ta D) 5 ta

101. Yopiq bo'g'inlardan biri faqat jarangli sirg'aluvchi til undoshlari va unidan tarkib topgan so'zni aniqlang.

A) insonparvar B) suhbat  
C) qing'ir D) shamshir

102. Quyida berilgan gapdagi jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar sonini aniqlang.

*Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun qo'llanadi.*

A) 10 B) 7 C) 8 D) 9

103. *O'z vatanini sevmuqlik har bir shaxsning muqaddas burchidir, ammo haqiqiy vatanparvar uni sevish bilan kifoyalaniq qolmaydi, balki Vatan ravnaqi hamda obro'yi uchun tinmay kurashadi.*

Berilgan gapdagi yopiq bo'g'inlardan nechta portlovchi sonor undosh bilan tugagan?

A) 8 tasi B) 9 tasi  
C) 6 tasi D) 7 tasi

104. Qaysi qatorda barcha bo'g'inlari faqat ochiq bo'g'indan iborat so'zlar berilgan?

- A) onalarga, ijodiy, ilohiy
- B) baraka, daraja, ma'no
- C) bepoyon, donishmand, shahzoda
- D) musaffo, tomoshabin, shartnoma

105. *Faks usuli bilan tasvirni uzatish uchun har ikki tomonda ham apparat bo'lishi lozim.*

Ushbu gapda qo'sh va qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 2 ta qator undoshli so'z, 1 ta qo'sh undoshli so'z
- B) 1 ta qator undoshli so'z, 2 ta qo'sh undoshli so'z
- G) 4 ta qator undoshli so'z, 4 ta qo'sh undoshli so'z
- D) 1 ta qator undoshli so'z, 1 ta qo'sh undoshli so'z

106. Tarkibida sirg'aluvchi va portlovchi tovushlar qator kelgan so'z qatnashmagan gapni toping.

- A) Chin do'stlikka hasad begonadir.
- B) Farovonlik istasang, baxtli bo'lganingda ham do'st-yor orttir.
- C) Dono bo'lmoq uchun bilimsizdan ham o'rganmoq kerak.
- D) Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

107. *Vaqt o'tgan sari odam yaxshilik, ezgulik kabi umr ishlariga tashna bo'lib yashaydi.*

Berilgan gapdagi ochiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarda sirg'aluvchilarga kiruvchi nechta jarangli undosh ishtirok etgan?

- A) 2 ta                      B) 4 ta
- C) 3 ta                      D) 5 ta

108. *Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda,*

*Ulug' Alisherning asriy nidosi.*

Ushbu misralarda jarangsiz juftiga ega jarangli undosh bilan boshlanuvchi nechta bo'g'in mavjud?

- A) 5 ta                      B) 6 ta
- C) 8 ta                      D) 7 ta

109. Quyida berilgan qaysi so'zlarda qo'sh undoshlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

- 1) stres; 2) kongres; 3) krosvord;
- 4) kompressor; 5) dastyor; 6) aparat;
- 7) shikast; 8) komisiya

- A) 6, 7                      B) 1, 2, 3, 5, 7, 8
- C) 1, 2, 3, 6, 8            D) 1, 2, 3, 4, 6, 8

110. Quyidagilardan yetakchi morfemasi bir bo'g'indan iborat yasama so'zlarni aniqlang.

- 1) serhosil; 2) yarqiroq; 3) uyum;
- 4) to'pla; 5) susay; 6) o'zgacha

- A) 2, 3, 4, 5                B) 1, 3, 6
- C) 5, 6                      D) 2, 3, 5

111. Qaysi so'zda qo'sh undosh noto'g'ri qo'llangan?

- A) trassa                    B) drama
- C) grammatika            D) stress

112. Qaysi so'zda qo'sh unli noto'g'ri qo'llangan?

- A) kooperativ
- B) zootexnik
- C) murojaat
- D) barcha so'zlarda to'g'ri qo'llangan

113. *Bobolardan, momolardan qolgan ko'hna meros — bu, Mulki Turon, mulki Eron — ajdodlarga ixlos bu.*

Ushbu gapda nechta ochiq bo'g'in lab undoshlari bilan boshlangan?

- A) 7 ta                      B) 6 ta
- C) 8 ta                      D) 9 ta

114. *Kontrakt* so'zining ikkinchi bo'g'ini qanday tovushlardan tashkil topgan?

- A) ikkita undosh va bitta unli
- B) uchta undosh va bitta unli
- C) to'rtta undosh va bitta unli
- D) beshta undosh va bitta unli

115. *Transport* so'zining ikkinchi bo'g'ini qanday tovushlardan tashkil topgan?

- A) ikkita undosh va bitta unli
- B) to'rtta undosh va bitta unli
- C) beshta undosh va bitta unli

D) uchta undosh va bitta unli

116. *Silindrik* so'zining ikkinchi bo'g'ini qanday tovushlardan tashkil topgan?

A) to'rtta undosh va bitta unli

B) beshta undosh va bitta unli

C) uchta undosh va bitta unli

D) ikkita undosh va bitta unli

117. *Dengiz* so'zining ikkinchi bo'g'ini qanday tovushlardan tashkil topgan?

A) bitta undosh va bitta unli

B) uchta undosh va bitta unli

C) to'rtta undosh va bitta unli

D) ikkita undosh va bitta unli

118. **mudofaa, mutolaa, matbaa, manbaa, murojaat, taassuf, taassub, soodat, toomil**

Berilgan so'zlarning nechtasida qo'sh unlilar xato qo'llangan?

A) uchtasida B) to'rttasida

C) beshtasida D) oltitasida

119. Yopiq bo'g'inlaridan birida hosil bo'lish o'rni va hosil bo'lish usuliga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan undoshlar qatnashgan so'zni toping.

A) bog'bon B) temir

C) manba D) zargar

120. Ochiq bo'g'inlarining barchasi jarangli shovqinli til undosh bilan boshlangan so'zni toping.

A) momaqaldiraq

B) zararkunanda

C) badiiylik

D) madaniyat

## FONETIKADAN SAVOLLAR (URG'U BO'YICHA)

1. *Gapirmasinmi?* Ushbu so'zda urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

A) ikkinchi bo'g'inga

B) uchinchi bo'g'inga

C) to'rtinchi bo'g'inga

D) beshinchi bo'g'inga

2. *Yil bo'yi* qo'shilmasida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

A) yil va bo'yi so'zining ikkinchi bo'g'iniga

B) yil va bo'yi so'zining birinchi bo'g'iniga

C) yil bo'yi birikuvida faqat bo'yi so'zining oxirgi bo'g'iniga

D) yil bo'yi birikuvida faqat yil so'ziga

3. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi?

A) qachondir, yozamiz, do'stlarcha

B) yuzta, har bir, o'qishda

C) fidokor, dalalar, hammamiz

D) ba'zida, zakovat, pillakor

4. 1) *barcha*; 2) *texnika*; 3) *di-reksiya*; 4) *kimdir*; 5) *kitob*.

Berilgan so'zlarning qaysi birida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 5

5. *Kitob haqida* qo'shilmasida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

A) haqida so'zining oxirgi bo'g'iniga

B) haqida so'zining birinchi bo'g'iniga

C) kitob va haqida so'zlarining oxirgi bo'g'iniga

D) kitob so'zining oxirgi bo'g'iniga

6. *Men kecha uydan keldim.* Ushbu gapda mantiqiy urg'u ostiga chizilgan bo'lakka tushganida bu gap uchun mos keladigan so'roq gapni belgilang.

A) Kim kecha uydan keldi?

B) Sen kecha qayerdan kelding?

C) Sen qachon uydan kelding?

D) Kim kecha qayerdan keldi?

7. Quyida keltirilgan qaysi juftliklarda so'z urg'usi ma'no farqlamaydi?

- A) bog'lar – bog'lar
- B) yangi – yangi
- C) etik – etik
- D) hammasida ma'no farqlanadi

8. «Akademik» so'zi ot bo'lganida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

- A) birinchi bo'g'inga
- B) ikkinchi bo'g'inga
- C) uchinchi bo'g'inga
- D) to'rtinchi bo'g'inga

9. «Olma eksa bog'iga har kim, Mehmoniga ol, ye demasmi?

«Olma» mening mehmondo'st xalqim

Odatiga yot so'z emasmi?»

Tagiga chizilgan ushbu so'zlarda urg'u nechanchi bo'g'inga tushgan?

A) 1-so'zda 1-bo'g'inga, 2-so'zda 2-bo'g'inga

B) 1-so'zda 2-bo'g'inga, 2-so'zda 1-bo'g'inga

C) 1-so'zda ham, 2-so'zda ham 2-bo'g'inga

D) 1-so'zda ham, 2-so'zda ham 1-bo'g'inga

10. Quyidagilardan qaysi biri ma'noni farqlashga xizmat qilmaydi?

- A) so'z urg'usi
- B) gap urg'usi
- C) tutuq belgisi
- D) hammasi ma'no farqlaydi

11. 1) bog'lar; 2) ohog'lar; 3) yigitcha; 4) ahil; 5) atlas; 6) mexanik; 7) fizik; 8) olma.

Ushbu so'zlardan qaysilarida urg'uning o'rin almashishi ma'noga ta'sir qiladi?

- A) 1, 2, 3, 5, 6, 7
- B) 1, 2, 3, 5
- C) 5, 6, 7
- D) hammasi

12. «Aytilmagan bir qo'shiqsan, Jayhundirsan, Sayhundirsan, Sen-da Sug'dsan, Sen-da Shoshsan,

Ko'hna Turon – ona tilim».

Ushbu she'riy parchada nechta urg'u oxirgi bo'g'iniga tushmaydigan so'z mavjud?

- A) 2 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 7 ta

13. «Eng buyuk jihod insonning nafsi bilan, shayton bilan qilgan jihodidir. Sen ham doim ularga qarshi kurash». Ushbu gapni nutqning fonetik bo'linishi bo'yicha tahlil qiling.

A) 7 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 82 ta tovush

B) 8 ta sintagma, 15 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 80 ta tovush

C) 6 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 83 ta tovush

D) 7 ta sintagma, 17 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 81 ta tovush

14. Keltirilgan qaysi so'zlarda so'z urg'usi oxirgi bo'g'inga tushmaydi?

1) qachondir; 2) zakovat; 3) yozamiz; 4) do'stlarcha; 5) yuzta; 6) fidokor; 7) har bir; 8) hech qanday.

- A) 1, 4, 5
- B) 1, 3, 4, 5, 7, 8
- C) 1, 3, 4, 7
- D) 1, 2, 3, 4, 8

15. Qaysi qatordagi gapda urg'u so'z oxiriga tushmaydigan so'z keltirilgan?

- A) Chin inson birovga yaxshilik ko'zlar.
- B) Bog'lar yil sayin ko'payib bormoqda.
- C) O'zbek qizlariga atlas ko'ylak juda yarashadi.
- D) Ko'zlar – inson qalbining oynasi.

16. «Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi».

Tagiga chizilgan so'zda urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi?

- A) 1-bo'g'inga
- B) 2-bo'g'inga
- C) vaziyatga qarab 1- yoki 2-bo'g'inga
- D) to'g'ri javob yo'q

17. Urg'u ma'no farqlashga xizmat qiladigan so'zlarni toping.

- A) roman, qishloqcha, bahor



- B) tomchilar, surma, yangi
- C) attang, bog'lar, texnika
- D) atlas, fizik, tarix

18. Urg'u ma'no farqlaydigan so'zlarni toping.

- 1) bog'lar; 2) yigitcha; 3) qo'llar;
- 4) surma; 5) atlas; 6) mexanik;
- 7) olma; 8) ahl.

- A) 1, 2, 5, 7
- B) 1, 2, 3, 5, 7, 8
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
- D) 2, 4, 5, 7

19. Qaysi so'zlarda urg'u yordamida so'z ma'nosini farqlash mumkin?

- 1) surma; 2) mexanik; 3) yo'llar; 4) yangi;
- 5) bog'cha.

- A) 1, 3, 4, 5
- B) 3, 4, 5
- C) 1, 2, 3, 4, 5
- D) 1, 3, 5

20. Berilgan qaysi gapda **-gina** qo'shimchasi urg'u olmagan?

- A) «Qizginam bo'rilarga yem bo'ldiyov», – dedi ota.
- B) Oyoqqinang og'ridimi, bolam?
- C) Zumradgina kimsasiz o'rmonda qo'rqqanidan qaltiray boshladi.
- D) Bu holat faqat yozdagina kuzatiladi.

21. Berilgan gaplarning qaysi birida **-siz** qo'shimchasi urg'uli qo'shimcha sanaladi?

- A) Siz umidim gulshani, qalbim chechagisiz.
- B) Siz tengi yo'q insonsiz.
- C) barcha gaplarda -siz urg'uli qo'shimcha sanaladi
- D) Sizziz kelajak yo'q.

22. Berilgan so'zda urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi? Respublikamiz.

- A) ikkinchi bo'g'inga
- B) uchinchi bo'g'inga
- C) to'rtinchi bo'g'inga
- D) beshinchi bo'g'inga

23. Qaysi qatordagi gapda mantiqiy urg'u do'stimni so'ziga tushgan?

- A) Kecha men majlisda do'stimni ko'rib qoldim.

B) Kecha men do'stimni majlisda ko'rib qoldim.

C) Majlisda do'stimni kecha men ko'rib qoldim.

D) Do'stimni men kecha majlisda ko'rib qoldim.

24. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni belgilang.

- 1) yangi; 2) toza; 3) uchuvchi; 4) qutilma;
- 5) moslama; 6) gullar.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 3, 5, 6
- C) 1, 2, 5, 6
- D) 3, 4, 5

25. Astronomiyami? Berilgan so'zda urg'u nechanchi bo'g'inga tushgan?

- A) ikkinchi
- B) uchinchi
- C) to'rtinchi
- D) beshinchi

26. Qaysi o'zlashma so'zlarning oxirgi bo'g'inida kelgan o'urg'usiz unli hisoblanadi?

- A) ifrigator, rektor
- B) generator, vodorod
- C) vodoprovod, konduktor
- D) motor, doktor

27. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi?

- A) mardlarcha, oydek
- B) romandan, katta
- C) bo'lma (fe'l), yangi (ravish)
- D) ba'zan, qanday

28. Qaysi gap tarkibida mantiqiy urg'u yozda so'ziga tushgan?

- A) Xumsonga biz yozda dam olish uchun boramiz.
- B) Biz Xumsonga yozda dam olish uchun boramiz.
- C) Biz Xumsonga dam olish uchun yozda boramiz.
- D) Biz yozda dam olish uchun Xumsonga boramiz.

29. Yozma nutqda mantiqiy urg'u olgan so'z qanday xususiyatga ega bo'ladi?

- A) Gapda urg'u olgan so'z ta'kidlab aytiladi.
- B) Gapda so'zdagi biror bo'g'in ta'kidlab aytiladi.

C) Odatda, gap boshida keladi.

D) Odatda, gapdagi kesim oldida keladi.

30. Qaysi so'zda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi?

A) kelajak B) o'qiyimiz

C) traktor D) shamolday

31. Qaysi gapda **-gina** qo'shimchasining oxirgi bo'g'ini kuchli urg'u bilan aytiladi?

A) Mardlarga o'z Vatanlari uchun mardonavor kurasha oladilar.

B) Zumradgina dalada qolib ketdi.

C) Salingina bugun musobaqada qatnashmadi.

D) Fevral oyigina har to'rt yilda bir marta 29 kundan iborat bo'ladi.

32. *Olma, ko'zlar* kabi shakldosh (omonim) so'zlarning ma'nolarini qaysi vositalar orqali farqlash mumkin?

A) gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'lash orqali

B) so'z urg'usi orqali

C) grammatik qo'shimchalarni qo'shish orqali

D) A, B, C

33. Qaysi qatordagi so'zda **-ma** qo'shimchasi urg'u olmagan holda qo'llanilmaydi?

A) suzma B) qo'llanma

C) ko'rsatma D) qovurma

34. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni toping.

1) *hozir*; 2) *qazilma*; 3) *yo'llar*; 4) *ko'chirma*; 5) *qurama*.

A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 4 D) 1, 2, 3, 4

35. So'z urg'usi olma, gullar so'zlarining birinchi bo'g'iniga tushsa, qanday ma'no anglashiladi?

A) olma – meva (ot), gullar – gullashi mumkin (fe'l)

B) olma – meva (ot), gullar – ko'p gullar (ot)

C) olma – bo'lishsizlik (fe'l), gullar –

ko'p gullar (ot)

D) olma – bo'lishsizlik (fe'l), gullar – gullashi mumkin (fe'l)

36. Qaysi qatordagi so'zda urg'u so'z yasovchi qo'shimchaga tushgan?

A) gapirmasinmi B) quyoshday

C) to'xtamasin D) gullarga

37. Qaysi qatordagi so'zda urg'u sintaktik shakl yasovchi qo'shimchaga tushgan?

A) gullar (ot) B) gullar (fe'l)

C) romandan D) kattaroq

38. Qaysi so'zda urg'u lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchaga tushgan?

A) gullar (ot) B) gullar (fe'l)

C) qo'llanma D) qaynatma (sifat)

39. Berilganlardan qaysi birida so'z yasovchi qo'shimcha urg'u olgan?

1) *terma* (ot); 2) *olma* (fe'l);

3) *gapirma* (fe'l); 4) *olma* (ot);

5) *qaynatma* (sifat); 6) *tortma* (ot).

A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 5, 6 D) 2, 5, 6

40. Urg'uning o'rni o'zgartirilganida so'z ma'nosiga ta'sir qiladigan o'rinlarni aniqlang.

1) *ko'zlar*; 2) *bog'lar*; 3) *harakat*;

4) *yigitcha*; 5) *qo'llar*; 6) *ko'mir*;

7) *ishlar*.

A) 1, 2, 4, 5 B) 2, 3, 5, 7

C) 1, 2, 4, 5, 7 D) 2, 4, 5, 6, 7

41. Urg'uning o'rni o'zgartirilganida so'z ma'nosiga ta'sir qiladigan o'rinlarni aniqlang.

1) *so'zlar*; 2) *tonna*; 3) *surma*;

4) *atlas*; 5) *doim*; 6) *mexanik*; 7) *fizik*;

8) *olma*.

A) 1, 3, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6, 7, 8

C) 1, 2, 6, 7, 8 D) 3, 4, 6, 7, 8

42. Urg'u ikkinchi bo'g'inga tushgan so'zlar qatorini toping.

A) texnika, kimdir

B) albatta, afsuski

C) doim, hatto

- D) qushday, yigitcha
43. Urg'u ikkinchi bo'g'inga tushgan so'zlar qatorini belgilang.
- A) xuddi, faqat  
B) barcha, hamma  
C) gazeta, respublika  
D) olti, yetti
44. Qaysi qatordagi gapda urg'u oxirgi bo'g'iniga tushmagan so'z mavjud?
- A) O'zbeklar ichida minglab daholar yetishib chiqqan.  
B) Hamma ezgu ishlarning boshi odob sanaladi.  
C) Oltin o'tda bilinar, odam – mehnatda.  
D) Dono olg'a bora turib orqaga qarab qo'yar.
45. Berilgan gaplarning qaysilarida urg'u oxirgi bo'g'iniga tushmagan ikkita so'z mavjud?
1. Zilday zamin darz ketibdi qilday maysaning dastidan. 2. Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo, Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Majnun. 3. Texnik ishlar shuncha ko'payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo'q.
- A) 1, 2      B) 1, 2, 3  
C) 1, 3      D) 2, 3
46. Qaysi so'zlarning oxirgi bo'g'ini har doim urg'uli bo'g'in hisoblanadi?
- 1) hozir; 2) qazilma; 3) qo'llanma; 4) ko'chirma; 5) qurama.
- A) 1, 3, 4      B) 1, 2, 4, 5  
C) 2, 3, 5      D) 1, 2, 3, 4
47. So'z fonetik tarkibini uyushtirish hamda so'zni gap tarkibida boshqa so'zdan ajratish vazifasini bajaradigan birlik qaysi?
- A) bo'g'in      B) tovush  
C) urg'u      D) tutuq belgisi
48. O'zbek tilida urg'u ... urg'u sanaladi.
- A) ko'chib yuruvchi  
B) barqaror  
C) turg'un  
D) hammasi to'g'ri

49. Bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori ...
- A) ustsegment birliklar deyiladi  
B) segment birliklar deyiladi  
C) nutq ohangini tashkil etadi  
D) nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi
50. Urg'u yordamida ...
- A) nutq ko'rkamlashadi  
B) eshituvchiga yoqimli bo'ladi  
C) tinglovchini zeriktirmaydi  
D) barcha javoblar to'g'ri
51. Qaysi so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajarmaydi?
- A) mexanik, agrotexnik  
B) satirik, grafik  
C) yumoristik, fantastik  
D) biofizik, texnik
52. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni aniqlang.
- 1) hozir; 2) qurilma; 3) yo'llar 4) ko'chirma; 5) yangi.
- A) 1, 2, 4, 5      B) 1, 3, 4, 5  
C) 2, 4      D) 1, 3, 4
53. Yo'llar (fe'l) va yo'llar (ot) so'zlari bir-biridan qanday farqlanadi?
- A) urg'u olish-olmasligiga ko'ra  
B) qanday grammatik qo'shimchalarni qabul qilishiga ko'ra  
C) hamma javob to'g'ri  
D) gapda qanday so'zlar bilan bog'lanishiga ko'ra
54. *Yaxshilar tufayli* birligida urg'u qaysi so'zga tushadi?
- A) yaxshilar so'zining 1-bo'g'iniga  
B) tufayli so'zining 2-bo'g'iniga  
C) yaxshilar so'zining 3-bo'g'iniga  
D) tufayli so'zining 3-bo'g'iniga
55. Qaysi qatorda urg'uni ko'chirish orqali hosil qilingan sinonim so'zlar berilgan?
- A) olma, bog'cha  
B) yangi, toza  
C) toza, rosa  
D) yangi, hozir

56. *Ko'zlar, yangi, bog'lar, hozir, gullar.* Berilgan so'zlardan nechtasida urg'uni ko'chirish orqali so'zlarning turkumida ham o'zgarish ro'y beradi?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

57. *Ko'zlar, yangi, bog'lar, hozir, gullar.*

Berilgan so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushganida qaysi turkumdagi so'zlar hosil bo'ladi?

- A) ot, sifat                B) ot, ravish  
C) fe'l, ravish            D) fe'l, sifat

58. *Ko'zlar, yangi, bog'lar, hozir, gullar.*

Berilgan so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushganida qaysi turkumdagi so'zlar hosil bo'ladi?

- A) ot, sifat                B) ot, ravish  
C) fe'l, ravish            D) fe'l, sifat

59. *Qaynatma, qo'llanma, qazilma, burama, tortma.*

Berilgan so'zlardan nechtasida urg'uni ko'chirish orqali so'zlarning ma'nosini o'zgartirish mumkin?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

60. *Balki, bu olma erta-indin gullar.*

Ushbu gapda urg'u oxirgi bo'g'iniga tushmaydigan nechta so'z bor?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 1 ta                      D) bunday so'z yo'q

61. Urg'u haqida to'g'ri fikrlar berilgan qatorni aniqlang.

1. *Ikki va undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan so'zlarning talaffuzida bo'g'inlardan biri ma'lum sababga ko'ra boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz etilishi ma'no urg'usi deyiladi.* 2. *Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaradi.* 3. *Arab, fors-tojik, rus va boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda*

*urg'u barqaror o'ringa ega.* 4. *Urg'u segment birlik hisoblanadi.*

- A) 1, 2, 3, 4              B) 2, 3, 4  
C) 1, 2, 3                D) 2, 3

62. *Monografiya* so'zida urg'u tushgan bo'g'in qanday tovushlardan tashkil topgan?

- A) 2 ta undosh, 1 ta unli  
B) 1 ta undosh, 1 ta unli  
C) faqat 1 ta unli  
D) 3 ta undosh, 1 ta unli

63. *Monografiya* so'zida urg'u qaysi bo'g'inga tushgan va u qanday bo'g'in?

- A) 2-bo'g'inga, ochiq bo'g'in  
B) 1-bo'g'inga, ochiq bo'g'in  
C) 3-bo'g'inga, ochiq bo'g'in  
D) 4-bo'g'inga, ochiq bo'g'in

64. Qaysi so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan?

1) yangi; 2) toza; 3) asil; 4) hisobchi; 5) moslama; 6) gullar.

- A) 1, 2, 3, 4, 5

- B) 1, 2, 5, 6

- C) 1, 3, 5, 6

D) barcha so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan.

65. *Monitoringmi* so'zida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

- A) ikkinchi bo'g'inga  
B) birinchi bo'g'inga  
C) to'rtinchi bo'g'inga  
D) uchinchi bo'g'inga

66. Berilgan juftliklarning qaysilarida ostiga chizilgan shakldosh so'zlar urg'u olish-olmaslik xususiyatiga ko'ra farqlanadi?

A) O'zbek qizlariga atlas juda yarashadi. Geografiya o'qituvchisi xonaga atlas olib kirdi.

B) Bog'da olma g'arq pishdi. Oltin olma, duo ol.

C) Salimboyvachcha o'zi uchun amirkon etik buyurtiribdi. Axloqning etik normasiga rioya qilish kerak.

D) hammasida urg'usiga ko'ra farqlanadi  
67. Qaysi so'zda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

- A) sakkizta
- B) o'quvchimiz (bizning o'quvchimiz)
- C) allakim
- D) ulama (soch)

68. Urg'u so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushgan qatorni belgilang.

- A) adolat, dabdaba, muqaddas
- B) chaqiriq, o'yinchoq, qo'ng'iroq
- C) kelajak, tomizg'i, pushaymon
- D) avtobus, fonetika, teatr

69. Quyida berilgan so'zlarning qaysilarida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

1) bordi; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) vodorod.

- A) 3, 4
- B) 2, 5
- C) 2, 4, 5
- D) 1, 2, 4

70. Urg'u yordamida ma'nosi farqlanadigan so'zlar qatorini toping.

- A) fizik, eslatma, tok
- B) sizsiz, tort, asil
- C) toshma, toza, etik
- D) burun, yuz, qo'y

71. Quyidagi so'zlarning qaysilarida urg'u tushishi o'miga ko'ra ma'nosi farqlanadi?

1) *suzma*; 2) *bog'lar*; 3) *juda*; 4) *hozir*; 5) *etik*; 6) *fonetik*; 7) *yangi*.

- A) 1, 2, 4, 5, 7
- B) 1, 4, 5, 6, 7
- C) 1, 2, 4, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 3, 4, 5

72. Hamмамиз so'zida urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

- A) bu so'z urg'u olmaydi
- B) 3
- C) 2
- D) 1

73. Qaysi so'zda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

- A) roman
- B) leksiya
- C) paxtakor
- D) tantana

74. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) allanima; 2) munis; 3) ba'zan; 4) bari; 5) otamday; 6) ahil.

- A) 2, 5, 6
- B) 2, 4, 5
- C) 1, 4, 5
- D) 1, 3, 6

75. Qaysi gapda ostiga chizilgan birlikning ikkinchi bo'g'iniga urg'u tushadi?

- A) Chin inson birovga yaxshilik ko'zlar.
- B) Ko'zlar inson qalbining aksidir.
- C) Sayoq yursang tayoq yeysan.
- D) Biz atlasdan foydalanib materiklar joylashuvini o'rgandik.

76. Qaysi so'zlarda urg'u ma'no farqlash uchun xizmat qiladi?

- A) zakovat, suzma
- B) yuklama, gapir
- C) qatlama, atlas
- D) erkin, dala

77. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- A) obraz, kofe, traktor
- B) mukofot, zimiston, vatandosh
- C) polvon, mehnat, najot
- D) albatta, afsuski, fonetika

78. Qaysi javobda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar qatori to'g'ri ko'rsatilgan?

1) olma (meva), bo'lma (joy oti); 2) yangi, hozir (ravish); 3) yigitcha, paxtaday (ravish); 4) to'qima, ulama (harakat).

- A) 1, 3, 4
- B) 1, 2, 4
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 2, 3

79. Quyidagi misralarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarda urg'u qayerga tushadi?

*Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi.*

A) oppoq so'zida ikkinchi, gulladi so'zida birinchi bo'g'inga

B) oppoq va gulladi so'zlarida birinchi bo'g'inga

C) oppoq so'zida birinchi, gulladi so'zida ikkinchi bo'g'inga

D) oppog va gulladi so'zlarida ikkinchi bo'g'inga

80. Ustsegment birliklar berilgan javobni belgilang.

A) tovush, urg'u, to'xtam

B) tovush, urg'u, to'xtam, nutqning emotsional bo'yog'i

C) tovush, urg'u

D) urg'u, to'xtam, nutqning emotsional bo'yog'i

81. Og'zaki nutq qanday birliklardan tashkil topgan?

A) segment birliklardan

B) ustsegment birliklardan

C) segment, ustsegment birliklar, gap va matndan

D) segment va ustsegment birliklardan

82. Qaysi javobda urg'uning o'rnini o'zgartirilganida so'z ma'nosiga ta'sir qiladigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?

1) so'zlar; 2) tonna; 3) surma; 4) atlas; 5) doim; 6) mexanik; 7) fizik; 8) olma.

A) 1, 2, 6, 7, 8      B) 1, 3, 4, 6, 7, 8

C) 2, 4, 6, 7, 8      D) 1, 3, 5, 6, 7

83. Urg'u yordamida ma'no farqlanadigan so'zlar qatorini belgilang.

A) hozir, gullar, qazilma

B) toshma, toza, etik

C) yangi, fizik, geografik

D) ellar, yo'llar, yigitcha

84. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) muhim; 2) obraz; 3) mudir; 4) muqim; 5) rektor.

A) 1, 3, 4      B) 1, 2, 4

C) 2, 3, 4      D) 1, 3, 5

85. Brokerlik so'zida urg'u nechanchi bo'g'inga tushadi?

A) 2      B) 1      C) 3      D) 4

86. Qaysi gaplarda urg'u ko'zlar, atlas so'zlarining birinchi bo'g'iniga tushadi?

1. Ko'zlar inson qalbining oynasidir. 2. Chin inson bировga yaxshilik ko'zlar. 3. Tikuvchi atlas ko'ylak

tikdi. 4. Geografiya o'qituvchimiz darsga atlas olib kirdi. 5. O'zbek qizlariga atlas juda yarashadi.

A) 1, 4

B) 2, 3, 5

C) 2, 4

D) 1, 2, 5

87. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajarган so'zlarni toping.

1) tug'ma; 2) etik; 3) so'zlar; 4) toshma; 5) banda; 6) soch; 7) surma; 8) yangi; 9) inson; 10) bilim.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

B) 1, 2, 3, 4, 6, 8, 9

C) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 8

D) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10

88. Qaysi gapda ostiga chizilgan birlikning ikkinchi bo'g'iniga urg'u tushadi?

A) Dono-o'zini, nodon do'stini ayblar.

B) Qo'llar ishlar – tez, mo'jizakor.

C) Sanamay sakkiz dema.

D) Men akademik litsey o'quvchisiman.

89. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushgan?

A) doim, hozir (ravish)

B) qachondir, albatta

C) tantana, o'quvchi

D) chunki, ammo

90. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) bilim; 2) hatto; 3) gazeta; 4) muqim; 5) ammo.

A) 1, 2, 4

B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 4

D) 1, 3, 4

91. Qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) allanima; 2) munis; 3) ba'zan; 4) bari; 5) otamday; 6) ahil.

A) 2, 4, 5

B) 1, 3, 6

C) 1, 4, 6

D) 2, 5, 6

92. Qaysi so'zlarda urg'u ma'no farqlashga xizmat qiladi?

A) fizik, matematik

B) qo'llanma, qurilma

C) ozoda, orasta

D) bola, ishla

93. Quyidagi qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) olma (meva), tortma (joy oti); 2) qaynatma, burama (harakat); 3) yigitcha, qishloqcha (ravish); 4) yangi, toza (ravish).

- A) 1, 2, 4                      B) 1, 2, 3, 4  
C) 1, 2, 3                      D) 1, 3, 4

94. Qaysi so'zda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

- A) o'quvchimiz (bizning o'quvchimiz)  
B) sakkizta  
C) allaqachon  
D) yasama (tish)

95. *To'y xarjida yuzta boy yapon Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir.* (E.Vohidov)

Ushbu she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning nechanchi bo'g'inga urg'u tushadi?

- A) birinchi bo'g'inga  
B) ikkinchi bo'g'inga  
C) uchinchi bo'g'inga  
D) bu so'zga urg'u tushmaydi

96. Qaysi gaplarda urg'u ajratib ko'rsatilgan so'zning birinchi bo'g'inga tushadi?

1. Universitet fiziklarining ishlari bu yil yanada ko'paydi. 2. Jismlarning fizik xossalarini o'rganmoqdamiz. 3. Hozir ahvol butunlay boshqacha. 4. Soya loviyadan ko'ra qattiqroq bo'ladi.

- A) 1, 3, 4                      B) 2, 3, 4  
C) 1, 3                          D) 2, 3

97. *Bobom kekxa bo'lsalar ham, g'ayratlari hali yigitcha.*

Ushbu gapda so'z urg'usi *yigitcha* so'zining qaysi bo'g'inga tushgan?

- A) birinchi  
B) ikkinchi  
C) uchinchi  
D) bu so'zga urg'u tushmaydi

98. *Urug'ingdir, aymog'ingdir, Biror og'zi maymog'ingdir. Ulardan ham tonasanmi?*

*Bu osonmi? Bu osonmi?*

Ushbu parchada urg'u nechta so'zning oxirgi bo'g'inga tushmaydi?

- A) 4    B) 7    C) 5    D) 6

99. Qaysi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

1) hamma; 2) barcha; 3) zo'rg'a; 4) biroq; 5) lekin; 6) hamisha.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6    B) 1, 2, 3, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 5                      D) 1, 3, 5, 6

100. *1. Sizsiz to'y o'tmaydi. 2. Ishonganim sizsiz.*

Ushbu gaplardagi *sizsiz* so'zlariga urg'u to'g'ri qo'yilgan javobni toping.

A) 1-gapdagi sizsiz so'zining birinchi bo'g'inga, 2-gapdagi sizsiz so'zining ikkinchi bo'g'inga tushgan

B) 1-gapdagi *sizsiz* so'zining ikkinchi bo'g'inga, 2-gapdagi sizsiz so'zining birinchi bo'g'inga tushgan

C) har ikkala gapda sizsiz so'zining birinchi bo'g'inga tushgan

D) har ikkala gapda sizsiz so'zining ikkinchi bo'g'inga tushgan

101. Qaysi gapda -miz qo'shimchasi urg'uli qo'shimcha hisoblanadi?

A) Bu bola – bizning a'lochi o'quvchimiz.

B) Biz maktabda eng a'lochi o'quvchimiz.

C) Maktabda yozamiz, o'qiyamiz, she'r yod olamiz.

D) Hamma gapda urg'usiz qo'shimcha sanaladi.

102. *Fizik, grafik, atlas, moda, soya, bola, hamma.*

Berilganlardan nechta so'z urg'u o'miga ko'ra farqlanuvchi leksema sanaladi?

- A) 6    B) 4    C) 5    D) 3

1. Urg'u so'z yasovchi qo'shimchaga tushgan so'zlar qatorini belgilang.

1) terma (ot); 2) bostirma (ot); 3) gapirma (fe'l); 4) isitma (fe'l); 5) qovurma (sifat); 6) qaynatma (fe'l)

- A) 1, 2, 3, 4                      B) 3, 4, 6



C) 1, 2, 3, 5      D) 1, 2, 5, 6

103. Urg'u haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) so'zni gap tarkibidagi boshqa so'zdan ajratish vazifasini bajaradi;

2) nutq ohangini tashkil etishda ishtirok etadi;

3) so'z fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi;

4) turkiy so'zlarda barqaror o'ringa ega;

5) so'z urg'usi frazaviy urg'u deb yuritiladi;

6) urg'u ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

A) 1, 2, 3, 6      B) 1, 4, 5, 6

C) 1, 2, 5, 6      D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

104. *Nomingni qaro degan – paxtaginam, senmisan, Lo'ppi deya yutganim – laxtaginam, senmisan, Avaxtada bosh urgan taxtaginam, senmisan?! Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.* Ushbu parchada tagiga chizilgan so'zlarda urg'u nechanchi bo'g'inga tushgan?

A) 1-bo'g'inga    B) 2-bo'g'inga

C) 3-bo'g'inga    D) 4-bo'g'inga

105. *Yoshlik – gul-u gulg'uncha (1) ekan, Bu gul olam turguncha ekan, Yoshlik behad tushuncha (2) ekan, Poyoni yo'q garduncha (3) ekan.*

Ushbu she'riy parchada raqamlangan so'zlarning urg'usi haqidagi to'g'ri fikrni toping.

A) 1, 2-so'zlarda uchinchi bo'g'inga, 3-so'zda ikkinchi bo'g'inga tushadi

B) 1, 2, 3-so'zlarda ikkinchi bo'g'inga tushadi

C) 1, 2, 3-so'zlarda uchinchi bo'g'inga tushadi

D) 1-so'zda uchinchi bo'g'inga, 2, 3-so'zlarda ikkinchi bo'g'inga tushadi

106. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?

1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi.

2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirmoqcha asos topolmadi.

3. Qat -qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama.

4. Qadrdon kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimga yana qo'l uzatdim.

A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 4

C) 2, 3            D) 1, 4

107. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni belgilang?

1) yangi; 2) toza; 3) aytuvchi; 4) qurilma; 5) moslama; 6) gullar.

A) barcha so'zlarda

B) 1, 2, 5, 6

C) 1, 3, 5, 6

D) 1, 2, 3, 4, 5

108. *Texnik ishlar shuncha ko'payib ketdiki, bosh qashishga vaqt yo'q.*

Ushbu gapda urg'u ajratib ko'rsatilgan so'zning nechanchi bo'g'iniga tushadi?

A) bu so'z urg'u olmaydi

B) ikkinchi bo'g'iniga

C) birinchi bo'g'iniga

D) har ikki bo'g'iniga

109. *Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri Laylo,*

*Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Majnun.*

Ushbu she'riy parchada urg'u ajratib ko'rsatilgan so'zning nechanchi bo'g'iniga tushadi?

A) bu so'z urg'u olmaydi

B) ikkinchi bo'g'iniga

C) birinchi bo'g'iniga

D) uchinchi bo'g'iniga

110. Qaysi javobda urg'u yordamida ma'nosi farqlanadigan so'zlar keltirilgan?

- A) fizik, eslatma, tok
- B) sizsiz, tort, asil
- C) qo'shma, do'stimsiz, qishloqcha
- D) burun, qo'y, yuz

111. *Yaxshi so'zdan ko'rasan mehr-u vafo,*

*Nomunosib so'zlasang, yetgay jafu.*

Ushbu she'riy parchada urg'u ajratib ko'rsatilgan so'zning nechanchi bo'g'iniga tushadi?

- A) birinchi bo'g'iniga
- B) ikkinchi bo'g'iniga
- C) uchinchi bo'g'iniga
- D) bu so'z urg'u olmaydi

112. To'g'ri fikrni toping.

A) hozir so'zining ikkinchi bo'g'iniga urg'u tushsa, bu so'z ravish hisoblanadi

B) ko'zlar so'zining ikkinchi bo'g'iniga urg'u tushsa, bu so'z uchta morfemaga ajraladi

C) yarqirama so'zida urg'u oxirgi bo'g'inga tushsa, bu so'z tarkibidagi barcha qo'shimchalar so'z yasovchi morfema hisoblanadi

D) fizik so'zining birinchi bo'g'iniga urg'u tushsa, bu so'z sifat hisoblanadi

113. Qaysi javobda ravishlar berilgan?

- A) yangi, hozir B) yangi, hozir
- C) yangi, hozir D) yangi, hozir

114. Qaysi javobda ravishlar berilgan?

- A) yigitcha, qishloqcha
- B) yigitcha, qishloqcha
- C) yigitcha, qishloqcha
- D) yigitcha, qishloqcha

115. Qaysi javobda faqat otlar berilgan?

- A) gullar, yigitcha
- B) ishlár, qishloqcha
- C) ishlár, tórtma
- D) tishlar, úycha

116. *Xorazmiy avlodimiz,*

*Navoiy zurriyodimiz,*

*Yurtga tikib hayotimiz,*

*Asragaymiz biz Vatanni.*

Ushbu gapdagi nechta so'zda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmagan?

- A) bitta B) ikkita
- C) uchta D) to'rtta

## FONETIKADAN SAVOLLAR (TOVUSH O'ZGARISHI BO'YICHA)

1. Fe'llarning vazifa shakli qo'shimchalari fe'lning qaysi lug'aviy shaklini hosil qilganida bir unli tovush boshqasiga aylanishi mumkin?

- A) ravishdosh
- B) harakat nomi
- C) ravishdosh va sifatdosh
- D) ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi

2. **-a, -ay, -illa** fe'l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganida qanday tovush hodisasi ro'y beradi?

- A) tovush tushishi, tovush o'zgarishi
- B) tovush tushishi, tovush orttirilishi

C) tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi

D) tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi

3. O'zbek tilida quyidagi tovush almashuvining qaysi ko'rinishi kuzatilmaydi?

A) otdan fe'l yasalganida o'zakdagi o tovushi a tovushiga almashishi

B) fe'ldan sifat yasalganida a tovushi o tovushiga almashishi

C) fe'ldan ot yasalganida a tovushi o tovushiga almashishi

D) otdan sifat yasalganida o'zakdagi a tovushi o tovushiga almashishi

4. *Sanab sanog'iga yetolmadi.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida jami nechta tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

5. *Sanab sanog'iga yetolmadi.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida jami necha marta tovush almashish hodisasi yuz bergan?

- A) 2 ta                      B) 3 ta  
C) 4 ta                      D) 5 ta

6. *Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening osurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.* Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so'z bor?

- A) 4 ta                      B) 5 ta  
C) 6 ta                      D) 7 ta

7. *Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.* Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

1) ega; 2) kesim; 3) aniqlovchi; 4) to'ldiruvchi.

- A) 1 va 2                      B) 1, 2, 3, 4  
C) 1, 2, 4                      D) 2, 4

8. *Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.* Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so'z bor, ularning nechtasi fe'l so'z turkumiga mansub?

- A) 5 ta so'z, 3 tasi fe'l  
B) 5 ta so'z, 2 tasi fe'l  
C) 6 ta so'z, 3 tasi fe'l  
D) 6 ta so'z, 2 tasi fe'l

9. *Singlimning ancha ulg'ayib qolgan o'g'li yig'lab o'rnidan tur-*

*di-da, yana onasining bag'rida uxlab qoldi.* Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

- A) 3 ta so'zda              B) 4 ta so'zda  
C) 5 ta so'zda              D) 6 ta so'zda

10. *Ayrim paytlarda ko'nglim onamni qo'msaydi-da, qanotim qayrilganini sezib, nafasim bo'g'zimga tiqiladi.* Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

11. *-a* fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilganida so'z asosida qanday fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin?

1) tovush tushishi; 2) tovush almashishi; 3) tovush ikkilanishi; 4) tovush ortishi.

- A) 2, 3                      B) 2, 4  
C) 1, 2                      D) faqat 2

12. *Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim.* Gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?

- A) 4 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 5 ta

13. *Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim.* Gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?

- A) ot, olmosh              B) ot, fe'l  
C) ot, sifat                      D) ot, olmosh, sifat

14. *Mening bu voqeadan xabardorligimni unga ayta ko'rma.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?

- A) tovush tushishi  
B) tovush almashishi va tushishi  
C) tovush ortirilishi, tushishi, almashishi  
D) tovush ortirilishi

15. **A** yoki **i** unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, **a** unlisi **o** ga, **i** unlisi **u** ga aylanadi va shunday yoziladi?

- A) -sh                      B) -v  
C) -t                        D) -moq

16. 1) *yig'lamoq*; 2) *o'ynatmoq*;  
3) *sarg'aymoq*; 4) *o'rnatmoq*;  
5) *chanqamoq*; 6) *qaynoqroq*.

Berilgan so'zlarning qaysi birida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

- A) 2, 3, 4, 5, 6      B) 1, 2, 3, 4, 6  
C) 2, 3, 4, 6        D) 3, 4, 5, 6

17. 1) *yig'lamoq*; 2) *taranmoq*;  
3) *chorlamoq*; 4) *anglamoq*; 5) *chanqamoq*; 6) *qaynoqroq*.

Berilgan so'zlarning qaysi biri fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan?

- A) 2, 3, 4, 5, 6      B) 1, 4, 6  
C) 3, 4, 6            D) 4, 5, 6

18. 1) *taroqqa*; 2) *buloqqa*;  
3) *so'roqqa*; 4) *ilikka*; 5) *kurakka*;  
6) *terakka*.

Jo'nalish kelishigidagi ushbu so'zlarning qaysi birida so'zning ham o'zak, ham qo'shimcha qismida tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A) 1, 2, 3  
B) 3, 4, 5  
C) 1, 3

D) barchasida faqat qo'shimchada o'zgarish yuz bergan

19. *Vatanning baxti, porloq istiqloli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganida jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.* Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan?

- A) 2      B) 3      C) 4      D) 5

20. *Vatanning baxti, porloq istiqloli, yorqin kelajagi uchun*

*yashash, kurashish, kerak bo'lganida jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.* Berilgan gap tarkibid, so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergan?

- A) tovush tushishi  
B) tovush o'zgarishi  
C) tovush orttirilishi  
D) tovush o'zgarishi va orttirilishi

21. *Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.* Berilgan gapdagi qo'shimcha qo'shish natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1      B) 2      C) 3      D) 4

22. *Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.* Berilgan gap tarkibida so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergan?

- A) tovush tushishi  
B) tovush o'zgarishi  
C) tovush orttirilishi  
D) tovush orttirilishi va o'zgarishi

23. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Berilgan gapda nechta so'z fonetik qoida asosida yozilgan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

24. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar mavjud?

- A) tovush tushishi  
B) tovush tushishi va almashuvi  
C) tovush almashishi va tovush orttirilishi

D) tovush almashishi, tovush tushishi va tovush orttirilishi

25. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

26. So'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganida so'z tarkibida qanday fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin?

- A) tovush tushishi  
B) tovush almashishi  
C) tovush orttirilishi va almashishi  
D) tovush almashishi va tushishi

27. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar qaysi turkumga mansubligini aniqlang.

- A) ot, olmosh              B) ot, olmosh, sifat  
C) ot, sifat, fe'l              D) sifat, fe'l

28. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar qaysi turkumga mansubligini aniqlang.

- A) ot, olmosh              B) ot, olmosh, sifat  
C) ot, sifat                      D) sifat, fe'l

29. 1) idrok; 2) terak; 3) ishtirok; 4) chok; 5) bolalik.

Berilgan so'zlarning qaysi biriga egalik qo'shimchasi qo'shilganida asos qismda fonetik o'zgarish bo'ladi?

- A) 1, 2, 3, 4                  B) 2, 5  
C) 1, 3, 4                      D) 1, 2, 5

30. Qaysi qatordagi yasama fe'l fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) Goho miriqib gaplashib, o'y surib ham olish kerak-ku.

B) Qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi.

C) Salimjon qo'ylarini erinmay birma-bir sanadi.

D) Dalada mashinalar ko'paymoqda.

31. Quyidagi talaffuz xususiyatlarining qaysilari yozuvda ham aks etadi?

1) **k** undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganida **k** undoshining **g** ga o'zgarishi; 2) **q** undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganida **q** undoshining **g** ga o'zgarishi; 3) **g** undoshi bilan tugagan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganida **g** undoshining **q** undoshiga o'zgarishi; 4) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga shaxs oti yasovchi **-vchi** qo'shimchasi qo'shilganida **a** unlisining **o** ga o'zgarishi.

- A) 1, 2, 3, 4                  B) 1, 2, 4  
C) 1, 2, 3                      D) 1, 2

32. Qaysi kelishik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida ba'zi so'zlar fonetik yozuv qoidasi asosida yozilishi mumkin?

1) qaratqich kelishigi; 2) tushum kelishigi; 3) jo'nalish kelishigi; 4) o'rin-payt kelishigi; 5) chiqish kelishigi.

- A) 1, 2, 3                      B) 1, 2, 3, 4, 5  
C) 3                              D) 3, 4

33. 1) yozmoq; 2) ko'rmoq; 3) chiqmoq; 4) osmoq.

Ushbu fe'llardan payt ravishdoshi yasalganida ularning qaysi biri morfologik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

- A) 1, 2, 4                      B) 2, 3, 4  
C) 1, 3                          D) 1

34. 1) ekmoq; 2) ko'rmoq; 3) chiqmoq; 4) tikmoq.

Ushbu fe'llardan payt ravishdoshi yasalganida ularning qaysi biri fonetik (yozuv) qoida asosida yoziladi?

- A) 2, 4                          B) 1, 2, 3  
C) 1, 3, 4                      D) 1

35. 1) ko'chmoq; 2) tikmoq; 3) sog'moq; 4) chiqmoq; 5) egmoq.

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biriga jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi?

- A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 4, 5  
C) 2, 4            D) 3, 5

36. 1) *ko'chmoq*; 2) *tikmoq*; 3) *sog'moq*; 4) *chiqmoq*; 5) *egmoq*.

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biriga jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi?

- A) 1, 3, 5            B) 1  
C) 1, 3, 4, 5        D) 2, 3, 4, 5

37. 1) *ko'chmoq*; 2) *tikmoq*; 3) *sog'moq*; 4) *chiqmoq*; 5) *egmoq*.

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biri morfologik qoida (yozuv) asosida yoziladi?

- A) 1, 3, 5            B) 2, 3, 4, 5  
C) 2, 3, 4            D) 1, 2, 5

38. 1) *ko'chmoq*; 2) *tikmoq*; 3) *sog'moq*; 4) *chiqmoq*; 5) *egmoq*.

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biri fonetik qoida (yozuv) asosida yoziladi?

- A) 2, 4                B) 1, 3, 5  
C) 2, 3, 4            D) 2, 3, 4, 5

39. **Eg** (qayir), **ek** (ko'chat ek) so'zlariga -gan qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi?

A) *eggan, ekgan*  
B) *ekkan, ekkkan* shaklida qo'shilib, shakldosh so'zlar hosil bo'ladi

- C) *eggan, ekkkan*  
D) *egkan, ekkkan*

40. *Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig'lab uyga keldi.* Berilgan gapda nechta so'z fonetik qoida asosida yozilgan?

- A) 1 ta                B) 2 ta  
C) 3 ta                D) 4 ta

41. *Unga uchragani yuragi dov bermadi, yig'lab uyga keldi.* Ushbu

gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar mavjud?

- A) tovush tushishi  
B) tovush tushishi va almashishi  
C) tovush almashishi va tovush orttirilishi  
D) tovush almashishi, tovush tushishi va tovush orttirilishi

42. *Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mahr qo'ydiki, bu fanlarning siri olami uning butun borig'ini qamrab oldi.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan?

- A) 2      B) 3      C) 4      D) 5

43. *Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni qayrilgan o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganida yigitning yuragi biroz o'ynab ketdi.* Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar soni nechta?

- A) 1 ta                B) 2 ta                C) 3 ta  
D) fonetik qoida asosida yozilgan yasama so'z mavjud emas

44. *-(a)r* qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlardan sifatdoshning bo'lishsiz shakli hosil qilinganida qanday fonetik o'zgarish vujudga keladi?

- A) tovush almashishi  
B) tovush tushishi  
C) tovush orttirilishi  
D) tovush o'zgarishi sodir bo'lmaydi

45. *Qoyalar bag'ridan o'ynab oqib tushayotgan shalola unga zavq bag'ishlardi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1 ta                B) 2 ta  
C) 3 ta                D) 4 ta

46. Quyida berilgan qaysi so'zlarda ham asosda, ham qo'shimchada tovush o'zgarishi bo'lgan?

- 1) taroqqa; 2) tilakka; 3) buloqqa; 4) so'roqqa; 5) elakka; 6) chiroqqa.

A) 1, 3, 4      B) 1, 2, 5, 6

C) 1, 4      D) 1, 3, 5

47. «Yig'loqi» so'zida nechta tovush o'zgarishi kuzatiladi?

A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta

D) tovush o'zgarishi yo'q

48. «Yashovchan» so'zida nechta tovush o'zgarishi kuzatiladi?

A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta

D) tovush o'zgarishi yo'q

49. Har ikkalasi to'g'ri yozilgan juftliklarni toping.

1) urush – urish; 2) yurush – yurish;  
3) qurut – qurit.

A) 1, 2, 3      B) 2, 3

C) 1, 2      D) 1, 3

50. «Qornimga emas, qadrimga yig'layman». Ushbu gapda nechta tovush o'zgarishi bo'lgan?

A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta

D) tovush o'zgarishi yo'q

51. «Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undiran». Ushbu gapda nechta tovush o'zgarishi bo'lgan?

A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta

D) tovush o'zgarishi yo'q

52. «Qayir, ayin» so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asosda tovush tushadi?

A) nisbat yasovchi qo'shimcha

B) egalik qo'shimchasi

C) so'z yasovchi qo'shimcha

D) zamon yasovchi qo'shimcha

53. So'z yasalishida tovush ortgan so'zlarni toping.

1) issiq; 2) achchiq; 3) qattiq; 4) sassiq.

A) 1, 2, 4      B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 2      D) 2, 4

54. Qo'sh undoshlardan biri tushirilganida ham ma'no bildiradigan so'zlarni toping.

1) qattiq; 2) essiz; 3) tilla; 4) yo'lladi;

5) tillik; 6) nonning; 7) silla; 8) ellar;

9) medalli; 10) ushshoq.

A) 1, 2, 3, 6, 8, 10

B) 1, 2, 3, 5, 6, 8

C) hammasi

D) 1, 3, 8, 9, 10

55. *Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga qaysi qo'shimchalar qo'shilganida o'zakda «y» tovushi ortadi?

A) 1-shaxs egalik qo'shimchasi

B) 2-shaxs egalik qo'shimchasi

C) 3-shaxs egalik qo'shimchasi

D) A va B

56. *Ko'chada tramvay, trolleybus va avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilgan.* Ushbu gapda shakli yozuv asosida yozilgan nechta so'z qatnashgan?

A) 1 ta      B) 2 ta

C) 3 ta      D) 4 ta

57. *Fikr, zikr* so'zlari qaysi yozuv asosida yozilgan?

A) fonetik yozuv

B) morfologik yozuv

C) shakliy yozuv

D) tarixiy-an'anaviy yozuv

58. «*Kuldir, o'tkaz, tutqaz*» so'zlari qaysi yozuv asosida yozilgan?

A) fonetik yozuv

B) morfologik yozuv

C) shakliy yozuv

D) tarixiy-an'anaviy yozuv

59. Quyida keltirilgan qo'shimchalardan qaysi birlari uch xil aytiladi va uch xil yoziladi?

A) -ga      B) -boz

C) -dir      D) -bon

60. «*Birovning narsasini so'roqsiz ravishda olish kechirilmas gunoh sanaladi.*» Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) 1 ta      B) 2 ta

C) 3 ta      D) 4 ta

61. «*Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasaydi.*» Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?



- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

62. «Xalqimizning tilagi bitta – tinchlik». Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

63. «A» unlisi bilan tugagan fe'llarga qaysi qo'shimchalar qo'shilganida a unlisi o'aytiladi va shunday yoziladi?

- A) -q, -qi                      B) -v  
C) -v, -q, -qi                      D) -q, -qi, -oq

64. Qaysi so'zda ikkita tovush o'zgarishi bo'lgan?

- A) angla                      B) yig'loqi  
C) susaymoq                      D) qulog'i

65. Qaysi qatorda tovush o'zgarishi adabiy me'yor hisoblanadigan so'zlar mavjud?

- A) oid, shoir                      B) rost, g'isht  
C) do'st, kelma                      D) o'mi, singlisi

66. «Qulog'ing ikkita, og'zing esa bitta». Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv qoidasiga asosan yozilgan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

67. «Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir». Ushbu gapda nechta so'zda tovush almashishi bor?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

68. «Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir». Ushbu gapda yasama so'zda nechta tovush almashishi bor?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

69. Tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladigan so'zlarni toping.

1) xalqaro tashkilot nomlari; 2) oliy davlat tashkilotlari; 3) vazirliklar

nomi; 4) oliy mansablarning nomi; 5) tarixiy sana nomlari.

- A) 1, 2, 3, 4, 5                      B) 1, 2, 4  
C) 2, 3                      D) 2, 3, 4

70. «Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim». Ushbu gapda nechta so'z egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik yozuv qoidasiga muvofiq yozilgan?

- A) 5 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

71. «Malika opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib, yana bag'riga qaytdi». Ushbu gapda nechta so'z egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik yozuv qoidasiga muvofiq yozilgan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

72. «Malika opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib, yana bag'riga qaytdi». Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasiga muvofiq yozilgan nechta yasama so'z mavjud?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

73. Inson o'zining hisobli ekanligini hamisha kech angelaydi. Ushbu qatorda nechta tovush o'zgarishiga uchragan so'z mavjud?

- A) 2 ta                      B) 1 ta                      C) 3 ta  
D) tovush o'zgarish hodisasi yo'q.

74. Qaysi qatordagi yasama so'z fonetik yozuvda yozilgan?

- A) ulg'ay                      B) taqilla  
C) o'yna                      D) A va C

75. 1) angla; 2) sanoqsiz; 3) dumaloq; 4) yashovchan; 5) sayroqi.

Ushbu so'zlarning qaysilarida ikkita tovush almashish hodisasi yuz bergan?

- A) 1, 3, 4                      B) 2, 4  
C) 1, 2, 3, 4, 5                      D) 1, 3, 5

76. «Men sening oshig'ing, sening eng g'arib,

*Tundan so'z qarz olib senga tutguvchi,*

*Sening oldingda ham seni sog'inib,*

*Sening oldingda ham seni kutguvchi».*

Misralarda qanday fonetik hodisalar yuz bergan?

- A) tovush tushishi va ortishi
- B) tovush almashishi va ortishi
- C) tovush tushishi va almashishi
- D) tovush tushishi, ortishi va almashishi

77. 1) angla; 2) sanoqsiz; 3) dumaloq; 4) yashovchan; 5) sayroqi.

Ushbu so'zlarning qaysilarida bitta tovush almashish hodisasi yuz bergan?

- A) 1, 3, 4
- B) 2, 4
- C) 1, 2, 3, 4, 5
- D) 1, 3, 5

78. «Men sening oshig'ing, sening eng g'arib,

*Tundan so'z qarz olib senga tutguvchi.*

*Sening oldingda ham seni sog'inib,*

*Sening oldingda ham seni kutguvchi».*

Misralarda qaysi kelishik qo'shimchalari qo'shilganida fonetik o'zgarish yuz bermagan?

- A) bosh, chiqish va jo'nalish
- B) bosh va chiqish
- C) bosh, o'rin-payt va jo'nalish
- D) bosh, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish

79. Fonetik yozuv qoidasi asosida yoziladigan sifatlarni ajrating.

- A) tepki, turtki, ichki
- B) og'zaki, ustki, pastki
- C) barcha javoblar to'g'ri
- D) ostki, qishki, qalbaki

80. *Urug' aralashib avval tuproqqa, So'ngra bo'y cho'zarkan osmon-falakka.*

Ushbu misralarda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdorini toping.

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

81. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar vujudga kelgan?

- A) tovush tushishi
- B) tovush tushishi va almashishi
- C) tovush almashishi va tovush orttirilishi
- D) tovush almashishi, tovush tushishi va tovush orttirilishi

82. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi yasama so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar vujudga kelgan?

- A) tovush tushishi
- B) tovush tushishi va almashishi
- C) tovush almashishi va tovush orttirilishi
- D) tovush almashishi, tovush tushishi va tovush orttirilishi

83. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdorini toping.

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

84. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini toping.

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

85. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlarning qaysi turkumga mansubligini toping.

- A) ot, sifat, olmosh
- B) sifat, olmosh

C) sifat D) olmosh

86. *Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko'rgan ayrim bolalar unga havas qilishdi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zlarning qaysi turkumiga mansubligini toping.

A) ot, sifat, olmosh

B) sifat, olmosh

C) sifat

D) olmosh

87. *Ayrim rotalarni o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi.* Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar vujudga kelgan?

A) tovush tushishi

B) tovush tushishi va almashishi

C) tovush almashishi va tovush ortirilishi

D) tovush almashishi, tovush tushishi va tovush ortirilishi

88. *Ayrim rotalarni o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdorini toping.

A) 1 ta B) 2 ta

C) 3 ta D) 4 ta

89. *Ayrim rotalarni o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini toping.

A) 1 ta B) 2 ta

C) 3 ta D) 4 ta

90. O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan tovush tushish hodisasi ro'y bergan so'zlar qatorini toping.

A) ulg'ay, o'yna, susay

B) shahri, bag'ri, qorni

C) ikkala, oltov, yettovlon

D) sana, ata, yasha

91. *Uning jussasi kichkina bo'lsa ham, ko'zlari chaqnoq, qarashlari o'tkir, istarasi issiq, ovozi esa jarangdor edi.* Ushbu gapdagi fonetik

yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdorini toping.

A) 5 ta

B) 2 ta

C) 3 ta

D) 4 ta

92. Fe'l yasovchi **-a**, **-ay** qo'shimchasi qo'shilganida asosda tovush o'zgarishi bo'lgan so'zlar qatorini toping.

A) o'yna, qiyna, yaltira, qoray, susay

B) tuna, pasay, susay, sana, yasha

C) yaltira, pasay, susay, yasha, ata

D) sana, yasha, qiyna, susay, pasay

93. *Ekinlar sovuqdan qovjirab qolgan edi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini toping.

A) 1 ta

B) 2 ta

C) 3 ta

D) ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan yasama so'z mavjud emas

94. Metateza hodisasi qaysi qatordagi so'zda kuzatiladi?

A) yurakka – yurakga

B) zarar – zaral

C) tuzsiz – tussiz

D) tuproq – turpoq

95. *Teatr, tank, soldat* so'zlari imlo qoidalarining qaysi birta asoslanib yozilgan?

A) morfologik yozuvga

B) fonetik yozuvga

C) fonetik va shakliy yozuvlarga

D) shakliy yozuvga

96. Q undoshi bilan tugagan o'zakka qaysi qo'shimcha qo'shilsa, so'z fonetik yozuv qoidasiga binoan yoziladi?

A) egalik qo'shimchasi qo'shilsa

B) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa

C) q undoshi bilan tugagan o'zakka qo'shimchalar qo'shilgach, so'z doim morfologik yozuv qoidasi asosida yoziladi

D) jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari qo'shilsa

97. Qaysi so'zlardan qo'shimchalar qo'shib jamlovchi sonlar yasalganida u

fonetik yozuv qoidasiga binoan yoziladi?

- A) ikki, uch, to'rt, besh
- B) ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti
- C) uch, to'rt, besh
- D) ikki, olti, yetti

98. Yangi imlo qoidasiga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarga l, ll shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganida o'zakdan so'ng tovush qo'shib aytiladi va yoziladi?

- A) tilak, bek, tayoq
- B) parvo, obro', mavqe
- C) barcha so'zlarga egalik qo'shimchasi to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi
- D) qorin, o'g'il, singil

99. Berilgan so'zlarning qaysilari fonetik qoida asosida yozilishini belgilang.

1) chir + illa; 2) gur + illa; 3) gurs + illa; 4) shov + illa; 5) lov + illa; 6) vov + illa.

- A) 2, 3, 4, 5
- B) faqat 4, 5
- C) 2, 3, 4, 5, 6
- D) 4, 5, 6

100. Achchiq, sassiq, issiq, kuyuk so'zlarining yozilish qoidasini belgilang.

- A) fonetik va morfologik yozuv
- B) fonetik yozuv
- C) shakliy yozuv
- D) morfologik yozuv

101. Quyida berilgan qaysi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, tovush tushishi vujudga keladi?

1) bilak; 2) o'g'il; 3) egin; 4) keyin; 5) lochin; 6) singil; 7) ko'ngil.

- A) 2, 3, 6, 7
- B) 2, 4, 6
- C) 2, 3, 4, 5, 6, 7
- D) 2, 6, 7

102. Berilgan so'zlarning qaysi birida qo'shimcha qo'shilgach fonetik o'zgarish bo'lmagan?

- A) yasha
- B) sovuq
- C) chanqoq
- D) barchasida fonetik o'zgarish bo'lgan

103. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida o'zak-negizida tovush almashishi bo'lgan so'zlarni toping.

- A) sarg'ay, burni

B) sovuq, pasay

C) sinov, qaynoq

D) ulg'ay, sana

104. Suv ichsam ham, chanqog'im bosilmadi. Ushbu gapdagi chanqog'im so'zi asliga ko'ra qanday fonetik o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan?

- A) 1 ta tovush almashishi
- B) 2 ta tovush almashishi, 1 ta tovush tushishi
- C) 1 ta tovush almashishi, 1 ta tovush tushishi
- D) 2 ta tovush almashishi

105. Qaysi imlo qoidasiga ko'ra so'z o'zagi va qo'shimchalarni aynan yozish qoidasiga rioya etilmaydi?

- A) fonetik va morfologik yozuv
- B) shakliy yozuv
- C) morfologik yozuv
- D) fonetik yozuv

106. Quyidagi birikuvlarning qaysi birida tovush ikkilanishi vujudga keladi?

1) haq + egalik qo'shimchasi; 2) achi + sifat yasovchi; 3) shu + jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi; 4) men + qaratqich, tushum kelishigi.

- A) 1, 2
- B) 2, 4
- C) 2, 3, 4
- D) 2, 3

107. Qaysi qatordagi so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

- A) yuvindi
- B) unum
- C) uyim
- D) tuzim

108. Shosupa so'zi qaysi yozuv qoidasiga ko'ra yozilgan?

- A) fonetik va morfologik yozuv
- B) shakliy yozuv
- C) morfologik yozuv
- D) fonetik yozuv

109. Qaysi so'zda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelganida ulardan biri noo'xshash tovushga aylanishi mumkin?

- A) ketdi
- B) tuproq
- C) zarur
- D) uch so'm

110. Qanday hollarda **un, uy** so'zlariga **-im** omonim qo'shimchasi qo'shilsa, qo'shimcha tarkibida fonetik o'zgarish bo'ladi?

A) so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha sifatida qo'shilsa

B) so'z yasovchi qo'shimcha sifatida qo'shilsa

C) qarashlilik ma'nosini hosil qilish uchun ishlatilganida

D) egalik qo'shimchasi sifatida qo'shilsa

111. **-ib** qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlarga **-di** zamon hosil qiluvchi qo'shimchasi qo'shilganida so'z qaysi yozuv qoidasi asosida yoziladi?

A) fonetik va morfologik yozuv

B) shakliy yozuv

C) morfologik yozuv

D) fonetik yozuv

112. Fonetik yozuv qoidasi so'zga qaysi qo'shimchalarni qo'shish natijasida kuzatiladi?

A) sintaktik shakl yasovchi

B) so'z yasovchi, luga'aviy shakl yasovchi

C) so'z yasovchi, luga'aviy shakl yasovchi, sintaksik shakl yasovchi

D) so'z yasovchi, sintaksik shakl yasovchi

113. Fonetik yozuv asosida yozilgan so'z qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Temir qo'rg'on ichida qizil toychoq o'ynaydi.

B) Bir nafasda olamni kezar.

C) Tilsiz aql o'rgatar.

D) Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi.

114. Qo'shimcha qo'shilishi bilan tovush almashishi yuz beradigan so'zlar qatorini toping.

A) o'yin, o'qi, bog'

B) o'rdak, qishloq, qoshiq

C) ek, tog', teg

D) og'ir, bog', chilla

115. *Fevral oyiga kelib sovuqning shashti biroz pasayadi.* Ushbu gapda qanday fonetik o'zgarish ro'y bergan?

A) tovush tushishi va almashishi

B) tovush orttirilishi va tushishi

C) tovush tushishi va orttirilishi

D) tovush almashishi

116. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush tushishi yuz berib, ochiq bo'g'inlarning yopiq bo'g'inga aylanishi qaysi qatordagi so'zlarda kuzatiladi?

A) ayir, ulug', o'rin, ko'ngil

B) sariq, singil, dengiz, ko'zlar

C) qayir, o'rin, bag'ir, sakkiz

D) shahar, burun, qorin, yomg'ir

117. *Shundan so'ng ikkovi shunchalik qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aytib tamom qildi.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) 2

B) 3

C) 4

D) 5

118. *Buyrug'ingiz* so'zida tovush o'zgarishlarining qaysi turi mavjud?

A) tovush tushishi va almashishi

B) tovush orttirilishi va tushishi

C) tovush tushishi va orttirilishi

D) tovush almashishi

119. *Sog'lom va zehqli bo'lib ulg'aygan bola hayotda qiynalmaydi.* Ushbu gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar sonini aniqlang.

A) 1 ta

B) 2 ta

C) 3 ta

D) 4 ta

120. Asosga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganida qanday fonetik hodisa yuz beradi?

A) tovush ortishi

B) tovush tushishi

C) tovush almashishi

D) tovush tushishi va almashishi

121. *Ahmoqlarning yuragi og'zida, donolarning tili esa yuragidadir.* Berilgan gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar sonini aniqlang.

A) 1 ta

B) 2 ta

C) 3 ta                      D) 4 ta  
122. *Ahmoqlarning yuragi og'zida, donolarning tili esa yuragidadir.* Berilgan gapdagi nechta so'zda tovush almashishi yuz bergan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

123. *Ahmoqlarning yuragi og'zida, donolarning tili esa yuragidadir.* Berilgan gapdagi nechta so'zda tovush tushishi yuz bergan?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

124. Qaysi so'zda ikki marta tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A) singlisi                      B) o'ynoqi  
C) o'rtog'i                      D) pasay

125. *Sovuqdan mening qulog'im, burnim qizarib ketdi.* Berilgan gapdagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar sonini aniqlang.

- A) 5 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

126. **O'rtoq, taroq** so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, asosda fonetik o'zgarish bo'ladi?

- A) egalik qo'shimchasi  
B) kelishik qo'shimchasi  
C) unli bilan boshlanadigan qo'shimcha  
D) egalik, kelishik qo'shimchalari

127. Qaysi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilsa, fonetik o'zgarish ro'y beradi?

- A) orzu, huquq, shahar, ikki  
B) ko'ngil, bu, o'rtoq  
C) quloq, inoq, qulun  
D) singil, o'g'il, ishtirok

128. Qaysi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilsa, fonetik o'zgarish ro'y bermaydi?

- A) orzu, qulun, huquq  
B) burun, parvo, obro'  
C) ko'ngil, o'rin, taroq  
D) mavqe, mavze, obro'

129. Yonma-yon kelgan tovushlarning o'rin almashishi qanday nomlanadi?

- A) assimilyatsiya  
B) dissimilyatsiya  
C) metateza  
D) singarmonizm

130. Ikki xil o'xshash tovushning o'zaro ta'sirida boshqa shu turdagi tovush kelib chiqishi qanday ataladi?

- A) assimilyatsiya  
B) dissimilyatsiya  
C) metateza  
D) singarmonizm

131. Regressiv assimilyatsiya ishtirok etgan so'zni toping.

- A) yurakka                      B) yozsin  
C) otdan                      D) uchta

132. Dissimilyatsiya qatnashgan qatomi toping.

- A) taqsim                      B) maqtanchoq  
C) maqsad                      D) shanba

133. Progressiv assimilyatsiya qatnashgan so'zni toping.

- A) tuzsiz                      B) yozsin  
C) yurakka                      D) maqtanchoq

134. Quyidagi qaysi so'zdan fe'l yasalganida asos (o'zak) fonetik o'zgarishga uchramaydi?

- A) qiyin                      B) boy  
C) ulug'                      D) son

135. Qaysi qatordagi so'zlarda tovush tushish hodisasi yuz bergan?

- A) qaynoq, yamoq, so'roq  
B) unga, shundagi, bunaqa  
C) qishlog'im, etigim, o'rtog'im  
D) buyrug'ing, o'ynama, mening

136. Qaysi qatorda egalik qo'shimchasi qo'shilganida so'z oxiridagi k yoki q tovushi o'zgarmaydigan otlar berilgan?

- A) koptok, pichoq, timoq  
B) idrok, nutq, axloq  
C) o'rtoq, kelajak, qarmoq  
D) o'rik, tuproq, istak

137. Qaysi qatordagi so'zlarda tovush tushishi yuz bergan?

- A) sening, uni, buni
- B) unga, boyni, o'g'li
- C) pasay, undan, senga
- D) o'mi, bag'ri, meni

138. Tovush o'zgarishiga uchraydigan yasama so'zlarni belgilang.

- A) tashla, jo'na, qiyma
- B) qiyna, yashar, chaqir
- C) pishloq, toshloq, dumaloq
- D) angla, yig'loqi, sana

139. *Seniki-meniki deb tortishib necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.* Ushbu gapda nechta so'zda fuziyaning ko'rinishlari uchraydi?

- A) 2      B) 3      C) 4      D) 5

140. Berilgan gaplarning qaysi birida fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'z mavjud?

- A) Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi
- B) Hayotning issiq-sovug'ini ko'rib, saboq olib, tajribamni oshirdim
- C) Aqliga aytdim, angladi-bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi
- D) barcha javoblar to'g'ri

141. *Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning g'uvullashi aralash dahshatli bir faryod qu-log'iga kirdimi, angelay olmay qoldi.* Gapdagi yasama so'zlarda qanday fonetik hodisalar bo'lgan?

- A) tovush almashishi va tovush tushishi
- B) tovush almashishi
- C) tovush almashishi va tovush ortishi
- D) tovush tushishi

142. *Men esa oshig'ing sening eng g'arib,*

*Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.*

*Sening yoningda ham seni axtarib, Sening yoningda ham seni kutguvchi.*

Ushbu parchada kelishik qo'shimchalari qo'shilgan so'zlardan nechitasi fonetik,

nechtasi morfoligik yozuv asosida yozilgan?

A) 3 tasi morfoligik yozuv, 5 tasi fonetik yozuv

B) 4 tasi morfoligik yozuv, 4 tasi fonetik yozuv

A) 5 tasi morfoligik yozuv, 3 tasi fonetik yozuv

A) 2 tasi morfoligik yozuv, 5 tasi fonetik yozuv

143. *Men esa oshig'ing sening eng g'arib,*

*Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.*

*Sening yoningda ham seni axtarib,*

*Sening yoningda ham seni kutguvchi.*

Ushbu parchada qanday fonetik hodisalar ro'y bergan?

- A) tovush almashishi va tovush tushishi
- B) tovush almashishi
- C) tovush almashishi va tovush ortishi
- D) tovush tushishi

144. *Men esa oshig'ing sening eng g'arib,*

*Tundan so'z qarz olib, tongga tutguvchi.*

*Sening yoningda ham seni axtarib,*

*Sening yoningda ham seni kutguvchi.*

Qaysi kelishiklar qo'shilganida fonetik hodisa bo'lgan?

- A) qaratqich, tushum, jo'nalish
- B) qaratqich, tushum
- C) qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rinpayt
- D) qaratqich

145. Imlo qoidasiga muvofiq keladigan ikkita fonetik o'zgarish kuzatiladigan gaplarni toping.

1. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydilar. 2. Fevral oyiga

kelib sovuqning shashti biroz pasaydi.  
3. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'ini ko'rmaysan. 4. O'zbekning xalqaro obro'yi kundan kunga oshib bormoqda.

- A) 2, 3, 4      B) 1, 2  
C) 2, 3      D) 2, 4

146. Sifatdan yasalgan fe'llar tovush tarkibi o'zgarishga uchragan so'zlar berilgan qatomi aniqlang.

- A) yashnat, so'roq  
B) o'yna, ata  
C) sana, yasha  
D) qiyna, pasay

147. So'z yasalish jarayonida so'z yasash asosiga qaysi yasovchi qo'shimchalar qo'shilganida asos qismning tovush tarkibida o'zgarish ro'y beradi?

- A) -a, -q, -qi, -ay, -ga  
B) -a, -q, -qi, -ar, -ay, -la  
C) -illa, -a, -q, -qi, -ar, -ay, -la  
D) -illa, -a, -im, -q, -qi, -ar, -ay, -la

148. *Oktava – insonning hayotda o'z o'rmini topishga bo'lgan intilishi. Bu intilish kuch-qudratingizni, buyukligingizni, yoshligingiz va salomatligingizni qanday timsolda ko'rsatsangiz, o'shanday bo'lishga intilishdir.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv bo'yicha yozilgan?

- A) 5 ta      B) 3 ta  
C) 2 ta      D) 4 ta

149. Qaysi so'zlarga sifat yasovchi qo'shimcha qo'shilganida asosda tovush ortishi (ikkilanishi) kuzatiladi?

1) *achi*; 2) *isi*; 3) *sasi*; 4) *tib*; 5) *his*; 6) *sovi*.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4, 5  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6      D) 1, 2, 3

150. 1) *idrok*; 2) *chok*; 3) *ittifoq*; 4) *ishtirok*; 5) *terak*; 6) *huquq*; 7) *bolalik*; 8) *xalq*; 9) *so'roq*; 10) *to'piq*.

Ushbu so'zlarning qaysilarida egalik qo'shimchasi qo'shilishi bilan jarangsiz undosh jarangliga aylanadi?

A) 3, 5, 6, 7, 8, 9

B) 5, 7, 9, 10

C) 1, 3, 4, 5, 7, 9

D) 5, 6, 7, 8, 9, 10

151. *Ata, yasha, sana* so'zlari haqidagi to'g'ri fikrni toping.

A) fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilgach tovush almashgan

B) daraja qo'shimchasi qo'shilgach tovush almashgan

C) egalik qo'shimchasi qo'shilgach tovush almashgan

D) ham asos, ham qo'shimchada tovush almashishi kuzatilgan

152. *Biror, zarur, zarar* so'zlarini talaffuz qilganda qanday tovush almashishi ro'y beradi?

A) assimilyatsiya      B) metateza

C) dissimilyatsiya      D) proteza

153. Qaysi so'zni talaffuz qilganda metateza hodisasi kuzatiladi?

A) shkaf      B) zarur

C) otdan      D) isitma

154. *Bir soniga qaysi sonni hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganida so'z asosida tovush almashishi kuzatiladi?*

A) dona son

B) dona va jamlovchi son

C) dona va taqsim son

D) dona, taqsim, jamlovchi son

155. So'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush almashishi kuzatiladigan so'zlarni toping.

A) qaynoq, mudroq, istagi, oltovlon

B) o'quvchi, sayroqi, sanoq, sovuq

C) taroq, quvnoq, o'ynoqi, qulog'i

D) ekan, teragi, so'roq, shunday

156. Qaysi qatordagi portlovchi, jarangsiz, til orqa tovushi bilan tugagan so'zlarda egalik qo'shimchalarini qo'shganda asosda tovush almashishi hodisasi kuzatilmaydi?

A) idrok, ishtirok

B) huquq, ravnaq



C) tilak, bilak

D) terak, chelak

157. Berilgan gapdagi so'zlar imlosida nechta fonetik hodisa mavjud? *Ayrim paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolaligimning o'ynoqi damlarini eslayman; meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlami aslo unutmayman.*

A) 7 ta

B) 6 ta

C) 8 ta

D) 9 ta

158. Qaysi qatorda so'z asosida fuziya hodisasi ro'y bergan?

A) Salimjon qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi.

B) Birdan yomg'ir yog'ib, tarnovlardan shovullab suv oqa boshladi.

C) Derazamning oldida bir tup o'rik gulladi.

D) Hatto eng baland tog' ham quyoshni to'solmas.

159. Tobe so'z fonetik o'zgarishga uchragan birikmalar qaysi javobda berilgan?

A) qiyin vaziyat, o'yin vaqti

B) so'roqsiz olish, ish o'rni

C) o'rnatilgan qoida, atalgan sovg'a

D) yashash zavqi, do'stimning singlisi

160. *Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.* Ushbu gapda necha marta tovush almashishi yuz bergan?

A) tovush almashishi yuz bermagan

B) 1

C) 2

D) 3

161. Qaysi gapdagi fonetik hodisa faqat yasama so'zda yuzaga kelgan?

A) Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi.

B) Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang.

C) Ko'nglima orzular solgan qishlog'im, olis-olislarda qolgan qishlog'im.

D) Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzing

hajrida sarg'aydim.

162. *Seni xudo bergan menga, mening xalqimga,*

*Bandalari yo'qotolmas, tortib ololmas,*

*Seni xato baholagan kulgi har kimga,*

*Senga ola qarabdi kim, ko'r bo'lmay qolmas.*

Ushbu she'riy parchada fonetik hodisaga uchragan olmoshlar sonini aniqlang.

A) 3 ta

B) 2 ta

C) 1 ta

D) 4 ta

163. Qaysi gaplarda qo'shimchalar ta'sirida bir so'zning tovush tarkibida ikki xil fonetik o'zgarish ro'y bergan?

1. Inson o'z umrining hisobli bo'lishini hamisha kech anglaydi.

2. Jo'jalarning sanog'ini bilmadim.

3. Davr qiynoqlari vaqtincha – hali hamma narsa oldinda.

4. Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi.

A) 3, 4

B) 1, 4

C) 2, 3, 4

D) 1, 2, 3, 4

164. Qaysi so'z tarkibida fe'l yasovchi va ot yasovchi qo'shimchalar ta'sirida ikkita fonetik hodisa kuzatilgan?

A) taroq

B) yig'loqi

C) yumaloq

D) qiynoq

165. *Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi orasida dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi.* Ushbu gapdagi fonetik o'zgarishlarning turini ko'rsating.

A) uchta tovush almashishi

B) bitta tovush tushishi, ikkita tovush almashishi

C) bitta tovush ortirilishi, ikkita tovush almashishi

D) bitta tovush tushishi, uchta tovush almashishi

166. Quyidagi qaysi qo'shimchalar

qo'shilganida so'z imlosida fonetik o'zgarish bo'ladi?

1) fe'l yasovchi; 2) sifat yasovchi; 3) birgalik nisbat shakli; 4) bo'lishsiz fe'l shakli; 5) chama son shakli.

A) 1, 2, 3, 5      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 3, 4      D) 2, 3, 4

167. Sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan ayrim so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari kuzatiladi?

A) tovush tushishi, ortishi va almashishi

B) tovush almashishi

C) tovush ortishi va almashishi

D) tovush tushishi va ortishi

168. Qaysi so'zlarda so'z yasalishi jarayonida tovush ikkilanishi yuz bergan?

1) qo'llar; 2) achchiq; 3) issiq; 4) yellar; 5) sassiq.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 5      D) 1, 2, 4, 5

169. Quyidagi qaysi qo'shimchalar ayir so'ziga qo'shilsa, tovush tushishi vujudga keladi?

1) -ish; 2) -il; 3) -ma; 4) -i; 5) -im.

A) 2, 3, 4, 5      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 4, 5      D) 2, 4, 5

170. A unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa, a unlisi o unlisiga aylanadi va shunday yoziladi?

A) -t      B) -moq

C) -sh      D) -q

171. Qaysi qatordagi so'zlardan -q qo'shimchasi yordamida so'z yasalganida o'zakda tovush o'zgarishi sodir bo'ladi?

A) o'ta, ista      B) kura, yama

C) titra, sana      D) tila, tara

172. Qaysi so'zda yonma-yon kelgan jarangli undoshlarning oldingisi boshqa jarangli tovush sifatida talaffuz etiladi?

A) tanbal      B) to'qson

C) taqsimot      D) taskin

173. Qaysi qatordagi so'zlarda tovush almashishi sodir bo'lgan?

A) shahri, o'g'ri, bo'yni

B) so'rog'i, keragi, tilagi

C) o'shanga, bunga, unga

D) o'roqqa, ishtirokim, noki

174. Qaysi so'zlarda o unlisi a singari talaffuz qilinadi?

A) dekoratsiya, boks, noyabr

B) dekoratsiya, omonim, monitoring

C) savol, bahor, zamon

D) okulist, tonna, tort

175. Qaysi so'zlarda ikkitadan tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

1) sanoqsiz; 2) angladi; 3) bo'yog'i;

4) qulog'i; 5) yig'loqi; 6) yashovchan.

A) 1, 3, 4, 6      B) 1, 2, 3, 5, 6

C) 3, 5, 6      D) 1, 3, 5, 6

176. Berilganlardan fonetik yozuv asosida yoziladiganlarini aniqlang.

1) qishloq + i (egallik qo'shimchasi);

2) qishloq + i (sifat yasovchi qo'shimcha);

3) qishloq + jo'nalish kelishigi qo'shimchasi; 4) qishloq + qarashlilik shakli qo'shimchasi; 5) qishloq + chegara shakli qo'shimchasi.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 3, 4, 5

C) 1, 3, 5      D) 1, 2, 3

177. Tuzum - tuzim so'zlari haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

1) tuzum so'zida -um qo'shimchasi so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, fe'ldan ot yasalgan; 2) tuzim so'zida -im qo'shimchasi egallik qo'shimchasi bo'lib, otning shaklini o'zgartirgan; 3) tuzum so'zida qo'shimchada tovush o'zgarishi kuzatilgan; 4) tuzum, tuzim so'zlarida hech qanday fonetik o'zgarish sodir bo'lmagan.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 4

C) 1, 3      D) 2, 3, 4

178. Buyruq, yasha, qiynoq, yig'loqi, sayroqi, sanoq. Berilgan so'zlarning nechtasida ikkitadan tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

A) 1 ta      B) 2 ta

C) 3 ta D) 4 ta

179. *Buyruq, yasha, qiynoq, yig'loqi, sayroqi, sanoq.* Berilgan so'zlarning nechtasida tovush tushishi sodir bo'lgan?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

C) 3 ta D) 4 ta

180. *Buyruq, yasha, qiynoq, yig'loqi, sayroqi, sanoq.* Berilgan so'zlarning nechtasida ikkitadan tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

A) 5 ta B) 6 ta

C) 3 ta D) 4 ta

181. *Buyruq, yasha, qiynoq, yig'loqi, sayroqi, sanoq.* Berilgan so'zlarning nechtasida tovush tushishi va almashishi sodir bo'lgan?

A) 1 ta B) 2 ta

C) 3 ta D) 4 ta

182. *Tog' balandligi sovuq bo'lgani uchun bu yerda ishlovchi va yashovchilar harorat pasayishi bilan o'z ishlarini to'xtatishar edi.* Ushbu gapda fonetik hodisaga uchragan so'zlar soni nechta?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

183. *Ammo sulton Ulug'bekka, sohibi tojga, bosh egmayman, egolmayman sirayam, o'g'lim.* Ushbu gapda fonetik hodisaga uchragan so'zlar soni nechta?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

184. *Tog' balandligi sovuq bo'lgani uchun bu yerda ishlovchi va yashovchilar harorat pasayishi bilan o'z ishlarini to'xtatishar edi.* Ushbu gapdagi so'zlarda necha marta tovush almashish hodisasi sodir bo'lgan?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

185. *Tog' balandligi sovuq bo'lgani uchun bu yerda ishlovchi*

*va yashovchilar harorat pasayishi bilan o'z ishlarini to'xtatishar edi.* Ushbu gapda fonetik hodisaga uchragan yasama so'zlar soni nechta?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

186. *So'zni payvand etavering har bir yurakka, toki u bitta dard bilan o'sa-olsin falakka.* Ushbu gapda fonetik hodisaga uchragan so'zlar soni nechta?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

187. *So'zni payvand etavering har bir yurakka, toki u bitta dard bilan o'sa-olsin falakka.* Ushbu gapdagi so'zlarda necha marta tovush almashish hodisasi sodir bo'lgan?

A) 3 ta B) 4 ta

C) 5 ta D) 6 ta

188. *Tog' balandligi sovuq bo'lgani uchun bu yerda ishlovchi va yashovchilar harorat pasayishi bilan o'z ishlarini to'xtatishar edi.* Ushbu gapdagi so'zlarda qanday fonetik hodisa sodir bo'lgan?

A) tovush almashishi

B) tovush tushishi

C) tovush almashishi va tushishi

D) tovush almashishi va ortishi

189. *Ammo sulton Ulug'bekka, sohibi tojga, bosh egmayman, egolmayman sirayam, o'g'lim.* Ushbu gapdagi so'zlarda qanday fonetik hodisa sodir bo'lgan?

A) tovush almashishi

B) tovush tushishi

C) tovush almashishi va tushishi

D) tovush almashishi va ortishi

190. *So'zni payvand etavering har bir yurakka, toki u bitta dard bilan o'sa-olsin falakka.* Ushbu gapdagi so'zlarda qanday fonetik hodisa sodir bo'lgan?

- A) tovush almashishi
- B) tovush tushishi
- C) tovush almashishi va tushishi
- D) tovush almashishi va ortishi

191. *So'zni payvand etavering har bir yurakka, toki u bitta dard bilan o'sa olsin falakka.* Ushbu gapda fonetik hodisaga uchragan so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelgan?

- A) to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
- B) hol, aniqlovchi, kesim
- C) to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, kesim
- D) hol, kesim

192. Berilganlardan fonetik yozuv asosida yoziladiganlarini toping.

1) **g** bilan tugagan so'z + **-ga** qo'shimchasi; 2) **g'** bilan tugagan so'z + **-ga** qo'shimchasi; 3) **k** bilan tugagan so'z + **-ga** qo'shimchasi; 4) **q** bilan tugagan so'z + **-ga** qo'shimchasi.

- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 1, 2, 4
- D) 2, 3, 4

193. Quyida keltirilgan parchadagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang.

*Yo'q, hali bilagimda kuchim bor. Yuragimda o't so'ngani yo'q. Bu alamlarni, bu xorliklarni oyoq ostiga olib toptamagunimcha yashashim shart. Yashayman!*

- A) 3
- B) 2
- C) 4
- D) 5

194. *Qiziq, inson umri shunaqa tez o'tarkanmi, kechagina emasmidi, shu ko'chada qo'shni qizchalar bilan sopalak o'ynaganimiz!* Ushbu gapda tovush o'zgarishlarining soni va turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) 3 ta tovush tushishi, 1 ta tovush ortishi
- B) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi
- C) 1 ta tovush ortishi
- D) 2 ta tovush tushishi

195. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha

ta'sirida fonetik o'zgarishga uchragan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

A) Endi qayrilish bilmasin bu qanot.

B) Bir umr shu xonadonga o'rinishib olishga harakat qildi.

C) Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib o'ynamoqda.

D) Ota olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oladigan o'g'li borligidan g'ururlanardi.

196. *Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.* Ushbu gapda tovush o'zgarishlarining turi va sonini aniqlang.

A) 5 ta: tovush almashishi va tovush tushishi

B) 4 ta: tovush almashishi va tovush ortishi

C) 4 ta: tovush tushishi

D) 5 ta: tovush tushishi

197. Qaysi gapda tovush o'zgarishi sirg'aluvchiga tegishli?

A) Xotini, bolalari bo'lganida shunaqa bo'lib yurarmidi?

B) Ikkinchi bilaguzukni dadasi onasining qo'lidan chiqarib sotib kelgan edi.

C) Mana, xotining yamoq-yasmoqqa o'rab yig'gan kimxoblar kiyib yotibdi.

D) Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

198. Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi tovush tushish hodisasi to'g'ri izohlangan?

*Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim.*

A) 1 o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida, 1 o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

B) 2 o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida, 1 o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

C) 2 o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida, 1 o'rinda

so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

D) 1 o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida, 2 o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida

199. Qaysi gapda portlovchi tovush orttirilgan?

A) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.

B) Mehnat qilsang; ko'nglingga yorug'lik tushadi.

C) Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.

D) Bog'ingni zog'dan saqlamoqchi bo'lsang unga e'tiborda bo'l.

200. *Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan.* Ushbu gapda nechta yasama so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

A) 3 B) 4 C) 1 D) 2

201. Quyida berilgan fe'llaming qaysilari fonetik tamoyil asosida yozilgan?

1) gurulla; 2) o'yna; 3) yashna; 4) yasha; 5) sayla; 6) angla.

A) 1, 2, 3, 5 B) 2, 3, 4, 6

C) 1, 2, 4, 6 D) 2, 4, 5, 6

202. *Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

A) 4 B) 1 C) 2 D) 3

203. *Otamday rozi bo'l, onamday sevgin,*

*Men ham senikiman, o'ksik qizingman.*

*Bag'ringda ming yillik toshlar to'sig'in*

*Yorib chiqayotgan bir ildizingman!*

She'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan nechta so'z ishtirok etgan?

A) 3 B) 4 C) 1 D) 2

204. Qaysi ibora tarkibida fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan ikkita so'z mavjud?

A) ko'kragini yerga bermoq

B) yerga ursa ko'kka sapchiydi

C) og'zi quilog'iga yetmoq

D) tuyog'ini shiqillatmoq

205. Quyida berilgan fe'llardan fonetik tamoyil asosida yoziladigan yasama fe'llarni aniqlang.

1) sanamoq; 2) o'ynamoq; 3) ko'karmoq; 4) saylamoq; 5) susaymoq; 6) o'ylamoq; 7) qiynamoq; 8) qaynamoq.

A) 1, 2, 5, 7 B) 1, 2, 5, 8

C) 3, 4, 6, 8 D) 1, 2, 4, 7

206. *Ona – u, bag'rida millat beshigi,*

*Qalbida yopilmas qadr eshigi,  
Allasi oromdir – hayot qo'shig'i,  
Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir.*

Ushbu she'riy parchada qanday fonetik o'zgarishlar uchraydi?

A) tovush almashishi, tovush ortishi, tovush tushishi

B) tovush almashishi, tovush tushishi

C) tovush ortishi, tovush tushishi

D) tovush almashishi, tovush ortishi

207. *Sanasak, muvaffaqiyatlar ko'p, ammo ular orasida eng mihimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo'lgan ne'mat – tinchlik bayrog'i bilan yangi asming issiq, nurli quchog'iga talpinyapmiz.* Ushbu gapda nechta so'z so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarishga uchragan?

A) 3 B) 2 C) 4 D) 1

207. *Ona – u, bag'rida millat beshigi,*

*Qalbida yopilmas qadr eshigi,  
Allasi oromdir – hayot qo'shig'i,*

*Ayol omon bo'lsa, dunyo go'zaldir.*

Ushbu she'riy parchada fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar soni nechta?

- A) 6 ta                      B) 3 ta  
C) 5 ta                      D) 4 ta

208. *Jalil qo'yin cho'ntagidan gazetaga o'ralgan pulni olib sanamoqchi edi, yamoqchi urishib berdi.* Ushbu gapda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang.

- A) 3 ta                      B) 5 ta  
C) 4 ta                      D) 2 ta

209. *Tasviriy insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.* Ushbu gapdagi qaysi yasama so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

- A) fe'ldan yasalgan sifat  
B) otdan yasalgan sifat  
C) fe'ldan yasalgan ot  
D) sifatdan yasalgan fe'l

210. 1) *sanog'i*; 2) *tilagi*; 3) *tarog'i*; 4) *o'rtog'i*; 5) *so'rog'i*; 6) *tuprogi*; 7) *sovug'i*.

Berilgan so'zlarning qaysilarida ikkitadan fonetik hodisa kuzatiladi?

- A) 1, 3, 5, 7                B) 1, 3, 4, 5  
C) 3, 5, 7                 D) 2, 3, 5, 7

211. *Shu so'zlar og'zimdani chiqar-chiqmas do'stim etagimga yopishib xitob qildi: «Karam sohibi bo'lgan odam va'da berdimi, va'dasiga vafo qilishi lozim!»* Ushbu gapda egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang.

- A) 3 ta                      B) 2 ta  
C) 4 ta                      D) 1 ta

212. Berilgan gapdagi fonetik o'zgarishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

*Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o'rindiqla o'tqazdi.*

1) tovush tushishi; 2) tovush almashishi; 3) tovush ortishi.

- A) 1, 3                      B) 1, 2, 3  
C) 1, 2                      D) 2, 3

213. Quyidagi gapda so'zga qaysi qo'shimcha(lar) qo'shilishi natijasida tovush almashishi yuz bergan? *So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi.*

1) so'z yasovchi qo'shimcha; 2) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha; 3) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.

- A) 2                         B) 1, 3  
C) 1, 2                      D) 2, 3

214. 1. *Qornimga emas, qadrimga yig'layman.* 2. *Odamning ko'ngli nozik.* 3. *Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini undirar.*

Berilgan gaplardagi qaysi so'zlarda tovush o'zgarishi hodisasi ro'y bergan?

- A) qornimga, yig'layman, ko'ngli, to'rtovlon, og'zidagin  
B) qornimga, qadrimga, ko'ngli, oltovlon, og'zidagin  
C) qornimga, ko'ngli, oltovlon, og'zidagin, ko'kdagini  
D) qornimga, yig'layman, ko'ngli, oltovlon, og'zidagin

215. Qaysi qatorda fe'l yasovchi va sifat yasovchi qo'shimcha ta'sirida ham asos, ham qo'shimchaniing tovush tarkibida o'zgarish ro'y bergan so'z qatnashgan gap berilgan?

- A) Radiodan o'ynoqi musiqa yangradi.  
B) Inson umrining hisobli ekanligini hamisha kech anglaydi.  
C) Qiynoqlarga chidamadi bardoshim.

D) Qizcha dumaloq ko'ptokchani qo'li bilan surib o'ynardi.

216. Quyidagi qaysi gap tarkibida ikkita fonetik hodisa yuz bergan?

A) Fevral oyining oxiriga kelib sovuqning shashti biroz pasayadi.

B) Birovning narsasini so'roqsiz olish gunohdir.

C) Dam olish kuni bog'ga ko'chat ekkani bordik.

D) O'zbekiston – Vatanim mening.

217. *Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.*

Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida nechta tovush o'zgarishi yuz bergan?

A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

218. Quyidagi qaysi yasama so'zlarda tovush ortishi hodisasi kuzatiladi?

A) parvoyi, sassiq, unga

B) sassiq, achchiq, obro'yim

C) bunday, issiq, shahrim

D) issiq, sassiq, achchiq

219. Tovush tushish hodisasi yuz bergan gapni toping.

A) Maktabda «O'tkir zehnililar» musobaqasi bo'lib o'tdi.

B) Idoraga bor, senga ham pul berishadi.

C) Hech bo'lmaganidan ko'ra kech bo'lgani yaxshi.

D) Qorong'u kechada kokka ko'z tikib Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.

220. *Musavvirning bo'yog'ida hayot chizgilari aniq ifodalangan edi.* Ushbu gap tarkibida qanday fonetik hodisalar yuz bergan?

A) tovush almashishi

B) tovush tushishi

C) tovush tushishi, tovush almashishi

D) tovush almashishi, tovush ortishi

221. *Sovuqni sovuq saqlar, issiqni issiq.* (Termos)

Ushbu topishmoqda nechta so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

A) 5 B) 4 C) 3 D) 1

222. *Negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan e'tibor susaydi.* Ushbu gapdagi yasama so'zlar tarkibida

qanday fuziya ko'rinishlari vujudga kelgan?

A) tovush tushishi va almashishi

B) tovush almashishi

C) tovush tushishi

D) tovush tushishi, almashishi, ortirilishi

223. Quyidagi gapda qo'llanilgan tovush o'zgarishining soni va turi qaysi javobda to'g'ri berilgan? *Hadisi sharifda shunday deyilgan: «Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa bo'ladi».*

A) 1 ta tovush ortishi, 2 ta tovush almashishi

B) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi

C) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

D) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi

224. *Mustafo Galatepaning chekkarog'ida, Ubaydullo Maxsumning hovuzi tarafga turtib chiqqan qir tumshug'ida yashaydi.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) 4 B) 5 C) 3 D) 2

225. *Otamday rozi bo'l, onamday sevgin,*

*Men ham senikiman, o'ksik qizingman.*

*Bag'ringda ming yillik toshlar to'sig'in*

*Yorib chiqayotgan bir ildizingman!*

She'riy parchada fonetik o'zgarishga uchragan nechta yasama so'z ishtirok etgan?

A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

226. *Bunim yo'q, unim yo'q, Uyimda unim yo'q.*

*Ishimda unum yo'q,*

*Aytishga unim yo'q.*

Misralardagi tovush o'zgarishi ro'y bergan tub so'zlar sonini toping.

A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

227. Quyida keltirilgan matndagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini aniqlang. *Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan tutish kerak.*

- A) 3      B) 5      C) 6      D) 4

228. Paronim juftiga ega bo'lgan, fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'zni aniqlang.

- A) unim                      B) tuzsiz  
C) o'tkaz                      D) sanat

229. So'zga qo'shilganida so'zlar imlosida tovush tushish hodisasi ro'y beradigan qo'shimchalar turini aniqlang.

1) fe'l nisbat shakli; 2) jamlovchi son shakli; 3) fe'l yasovchi; 4) egalik shakli; 5) kelishik shakli; 6) ravishdosh shakli; 7) sifat yasovchi.

- A) 2, 4, 5, 6                  B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7  
C) 2, 3, 4, 5, 6                  D) 2, 3, 4, 5, 7

230. Qaysi maqolda fonetik o'zgarishga uchragan so'z qo'llanmagan?

A) O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.  
B) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.

C) Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq yer.

D) Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq, qo'li ochiqning yo'li ochiq.

231. Tovush tarkibi o'zgargan so'z qatnashmagan gap qaysi javobda keltirilgan?

A) To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini indirar.

B) Agarda sening koinotga sig'mas kuching bo'lsa ham, zaiflarga ozor berma.

C) O'zbekistonning ravnaqi yildan yilga el og'ziga tushdi.

D) Odamning ko'ngli nozik.

232. Qaysi javobda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?

1) angla; 2) og'gach; 3) yig'la; 4) bitta; 5) sog'gin; 6) cholg'u; 7) boqqancha.

- A) 1, 2, 3, 4                  B) 1, 2, 3  
C) 1, 3, 4, 5, 7                  D) 1, 3, 4, 7

233. Qaysi maqolda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z qo'llangan?

A) Qalovini topsang, qor yonar.

B) Qarisi bor uyning parisi bor.

C) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.

D) Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qolar.

234. *Yigitga qo'yilgan ayblovlar shundan dalolat beradiki,*

*tergovchilar uning o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamaganini hisobga olmasdan xulosa chiqarishga shoshilgan.* Ushbu gapda qo'llangan ism asosli yasama so'zlarda qanday tovush o'zgarishlari sodir bo'lgan?

A) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi, 3 ta tovush almashishi

B) 1 ta tovush tushishi, 2 ta tovush almashishi

C) 4 ta tovush almashishi

D) 3 ta tovush almashishi, 1 ta tovush tushishi

235. Qaysi qatorda qo'shimcha fonetik yozuvda yozilgan?

A) Bahor – ko'chat o'tqazish fasli.

B) Chol qo'ylarini sanadi.

C) Quvnoq ko'nglim orom izlaydi.

D) Sigirni sog'gani ketdi.

236. Qo'shimcha qo'shilganida yetakchi morfemada bir keng unli boshqa keng unliga almashinishi bilan bog'liq tovush o'zgarishi sodir bo'lgan so'z qatnashgan gaplarning barchasi ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1. *Bobo paykalni oralab, dumaloq, sariq, qoramtir xoli bor qovunni ko'tarib chiqdi.* 2. *Ko'p ishlagan ko'p yashaydi.* 3. *Musiqa o'tirganlarning mudroq kayfiyatini*



tarqatib yubordi. 4. Mahbuslar og'ir qiynoqdan abgor bo'lishdi.

5. Yaltiroq toshlarni ajratib oldik.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5      D) 2, 3

237. Quyidagi so'zlardan qaysilarida affiksatsiya usuli bilan fe'l yasalganida fuziya elementlari namoyon bo'ladi?

1) o'yin; 2) o'rin; 3) ko'k; 4) qiyin; 5) qizil; 6) boy.

A) 1, 2, 4      B) 1, 4

C) 1, 2, 4, 5      D) 1, 2, 4, 5, 6

238. -q so'z yasovchi qo'shimchasi haqida berilgan to'g'ri hukmlarni toping.

1) ot va sifat yasaganida har doim a tovushi o ga aylanadi; 2) ayrim so'zlarga qo'shilganida i tovushi u ga aylanadi; 3) ot va sifat yasaganida ayrim so'zlarda a tovushi o ga aylanadi; 4) -q asosan ot va sifat yasaydi.

A) 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 2, 3      D) 1, 2

239. Sening tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilardim. Ushbu gapda nechta o'rinda tovush almashish hodisasi ro'y bergan?

A) 1      B) 2      C) 4      D) 3

240. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi. Ushbu gapda tovush almashish hodisasi so'zga qanday qo'shimcha(lar) qo'shilishi natijasida yuz bergan?

1) so'z yasovchi qo'shimcha; 2) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha; 3) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.

A) 1, 2      B) 1, 3

C) 2      D) 2, 3

241. Sog'lom zehnlilik bo'lib ulg'aygan bola hayotda qiynalmaydi. Fonetik qoida asosida yozilgan so'zlar miqdori qancha?

A) 2      B) 1      C) 3      D) 4

242. Tarixing bitmakka, xalqim, Mingta Firdavsiy kerak.

Chunki bir bor chekkan ohing Mingta osmon, o'zbekim.

Fonetik qoida asosida yozilgan so'zlarning soni qancha?

A) 2      B) 1      C) 3      D) 4

243. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir keng unli boshqa keng unliga almashadigan so'z qatnashgan gaplarni toping.

1. Yashash uchun kurashmoq kerakligini angladi. 2. Radiodan o'ynoqi kuy yangradi. 3. Issiqni issiq saqlar, sovuqni sovuq saqlar. 4. Negadir uning quvnoq davraga bo'lgan qiziqishi susaydi.

A) 1, 2, 4      B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 4      D) 1, 3, 4

244. Berilgan gaplardan qaysilarida tovush o'zgarishi qo'shimchada kuzatiladi?

1. Qishloqqa qachon borasiz?. 2. Ko'kka boqma, ko'pga boq. 3. Shovulladi tun bo'yi shamol. 4. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 3, 4

C) 1, 2, 3      D) 1, 2

245. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir portlovchi undosh boshqa portlovchi undoshga almashadigan so'z qatnashgan gapni toping.

A) Bir kelib keting qishlog'imizga.

B) Ot boqqaning uloqqa, qo'y boqqaning qo'noqqa.

C) Xalqimizning asriy tilagi tinchlikni saqlashdir.

D) Sanamay sakkiz demang.

246. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida portlovchi undosh sirg'aluvchi undoshga almashadigan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

A) Azim bobo yumshoq ajriq ustida hordiq chiqardi.

B) Men gilosman, quloq sol, topsang qo'shalog'imni, qulog'ingga taqib ol.

C) Hali bilagimda kuchim bor, ko'zlarimda nur bor.

D) Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytaradilar.

247. Qaysi qatordagi gapda bir lab undoshi boshqa lab undoshiga almashgan va tovush almashishi adabiy me'yor sanaladigan so'z qatnashgan?

A) Tanbal, ishyoqmaslar sanoqda bo'lmaydi.

B) Avtobuslar erta tongdanoq yo'lga chiqishdi.

C) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.

D) O'zingizni ko'pam qiynayvermang.

248. Qaysi gapda bir til oldi sirg'aluvchi boshqa til oldi sirg'aluvchiga almashgan so'z qatnashgan?

A) Osh totig'i tuz bilan.

B) Birovni so'kish kechirilmas gunoh sanaladi.

C) O'zi bitta, ko'zi mingta.

D) Eshik sassiz ochildi.

249. Qaysi gapda til oldi sirg'aluvchi til oldi portlovchiga almashgan so'z qatnashgan?

A) To'qlikka sho'xlik deganlari shu ekan-da.

B) Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

C) Dam olish kuni bog'ga ko'chat ekani bordik.

D) Axir sen bittasan yorug' olamda.

250. Qaysi gaplarda keng unli tushishi ro'y bergan so'z mavjud?

1. Beparvo bo'lsang o'z uyingda o'tgan sirdan ham voqif bo'lolmaysan. 2. Fevral oyiga kelib sovuqning shash-ti biroz pasaydi. 3. Shahrimiz qiyofasi mustaqillik yillarida keskin o'zgarib ketdi. 4. Bola ulg'aygach buyuk tabib bo'lib yetishibdi.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 3, 4      D) 1, 3

251. Qaysi gaplarda tovush tushishi faqat tor unli bilan bog'liq?

1. Saodat opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib yana bag'riga qaytdi. 2. Ayrim rotalarni o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi. 3. Gul edim, bulbulimdan ayrildim. 4. Singilimning yig'lab turgan o'g'li darrov uxlab qoldi.

A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 4

C) 2, 3      D) 1, 2, 3

252. *Yolg'on o'rmonga o'xshaydi: o'rmonga qanchalik kirib boraversang, undan chiqib olish ham shunchalik qiyinlashaveradi.* Ushbu gapda nechta so'z fonetik tamoyil asosida yozilgan?

A) 2      B) 5      C) 3      D) 4

253. *Saodat opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib yana bag'riga qaytdi.* Ushbu gapda nechta so'zda tor unli tushishi ro'y bergan?

A) 2      B) 1      C) 3      D) 4

254. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir tor unli boshqa tor unliga almashgan so'z qatnashgan gaplarni toping.

1. Fevral oyiga kelib sovuqning shash-ti biroz pasaydi. 2. O'rmonga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi. 3. Qo'shinning tarqoqligi mamlakatni zaiflashtiradi. 4. Sayroqi qushlarning chug'ur-chug'uri eshitildi.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 3      D) 1, 2

255. Berilgan maqollardan qaysi birida to'rt o'rinda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z mavjud?

A) Ilm – dilning chirog'i, maktab – ilm chorbog'i.

B) Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

C) Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, tepadagini endirar.

D) O'g'li borning o'rni bor, qizi borning qadri bor.

256. Eralik qo'shimchalari bilan bog'liq to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) *eralik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida asosda tovush almashishi mumkin*; 2) *eralik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida asosda unli tovush tushishi mumkin*; 3) *eralik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida so'zda bir tovush ortishi mumkin*; 4) *eralik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida jarangsiz undosh jaranglisiga almashishi mumkin*; 5) *eralik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida undosh tovush tushishi mumkin*.

- A) 1, 2, 5      B) 1, 2, 3  
C) 1, 2, 3, 4, 5      D) 1, 2, 3, 4

257. Balki, hamon tugamagan boshlangan doston,

Tanlariga tuproq emas, sog'inchlar botar.

Hamon Sibir sovug'iga ko'nikolmasdan

Ular bir-birini quchoqlab yotar.

Ushbu she'rdan nechta so'z fonetik o'zgarishga uchragan?

- A) 4 ta      B) 2 ta  
C) 1 ta      D) 3 ta

258. Qaysi so'zlarga ot yasovchi va shakl yasovchi qo'shimcha ketma-ket qo'shilganida yetakchi va ko'makchi morfemada fonetik hodisa ro'y beradi?

1) titra; 2) qiyin; 3) o'ta; 4) porla; 5) so'ra.

- A) 1, 4, 5      B) 1, 2  
C) 1, 3, 5      D) 1, 2, 3, 4, 5

259. Quyida keltirilgan gap tarkibidagi so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarish(lar) ro'y bergan? *Birovning narsasini so'roqsiz ravishda olish kechirilmas gunoh sanaladi.*

- A) tovush tushishi  
B) tovush almashishi

C) tovush orttirilishi

D) tovush tushishi va almashishi

260. Quyida keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish ro'y bergan? *O'zbekiston – Vatanim mening. Bunday ozod va obod mamlakatni bobolarimiz orzu qilishgan. O'zbekistonning jahondagi obro'yi kundan kunga oshmoqda.*

- A) 2      B) 1      C) 3      D) 4

261. *Sening tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetardi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilardim.* Ushbu gapda so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish ro'y bergan?

- A) 7      B) 6      C) 4      D) 5

262. *Sen bo'lmasang, so'zlarning Bag'ri ming tilim bo'lar.*

*Onajon, ona tilim,*

*Mening shohona tilim.*

(Barot Yarash)

Ushbu she'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan nechta so'z bor?

- A) 1      B) 3      C) 4      D) 2

263. To'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) ot va sifat yasovchi **-q** qo'shimchasi qo'shilganida asosda tovush almashishi mumkin; 2) ot va sifat yasovchi **-qi** qo'shimchasi qo'shilganida asosda tovush almashishi mumkin; 3) **-ay** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganida asosda bir emas, ikkita fonetik hodisa bo'lishi mumkin; 4) **-a** fe'l yasovchi qo'shimcha ta'sirida asosda tovush almashishi va tovush tushishi bo'lishi mumkin; 5) **-ar** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganida asosda tovush o'zgarishi kuzatilmaydi.

- A) 1, 2      B) 1, 3, 4  
C) 1, 4, 5      D) 1, 2, 3, 4, 5

264. Qaysi gapda yasalish asosi ot bo'lgan yasama ravishda tovush o'zgarishi bo'lgan?

A) O'quv yurtlarida telefonda foydalanish qat'iyan man etiladi.

B) O'zbekcha oshni yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz.

C) Kamol timoqcha o'zgarishni ham payqaydi.

D) Bulbul – sayroqi qush.

265. Quyidagi qaysi qo'shimchalar ayir so'ziga qo'shilganida tovush tushishi ro'y beradi?

1) -ish; 2) -il; 3) -ma; 4) -i; 5) -im.

A) 1, 2, 4, 5      B) 2, 3, 4, 5

C) 2, 4, 5      D) 1, 2, 5

266. Odamlarni zudlik bilan o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi. Ushbu gapdagi nechta so'zda tovush tushishi ro'y bergan va qaysi tovushlar tushgan?

A) 1 so'zda; i

B) 2 so'zda; i va a

C) 3 so'zda; i va u

D) 4 so'zda; a va i

267. Mening orzularim bir olam, ularning barini amalga oshirishga harakat qilish kerak. Berilgan gapda tovush o'zgarishining qaysi tur(lar)i ro'y bergan?

A) tovush tushishi

B) tovush ortishi

C) tovush almashishi

D) tovush tushishi va ortishi

268. Qaysi so'z talaffuzida jarangsiz tovush o'zidan keyin kelgan jarangli tovushni o'ziga moslashtiradi?

A) kelibdi      B) ketdi

C) zarur      D) maqsad

269. Malika opaning o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib, yana bag'riga qaytdi.

Ushbu gap tarkibidagi nechta so'zda fuziya hodisasi mavjud?

A) 2      B) 3      C) 4      D) 1

270. Kayfiyati yo'q, negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan

giziqish susaydi. Ushbu gapdagi so'zlarda fonetik o'zgarishlarning qaysi turi kuzatilmaydi?

A) tovush tushishi

B) tovush ortishi

C) tovush almashishi

D) fonetik o'zgarishlarning har uchala turi ham kuzatiladi

271. Dugonamning ancha ulg'ayib qolgan o'g'li yig'lab o'rnidan turdi-da, yana onasining bag'rida uxlab qoldi. Ushbu gapdagi nechta so'zda i unlisining tushishi kuzatiladi?

A) 2      B) 3      C) 5      D) 4

272. Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'irligini ko'rmassan. Ushbu gapda qanday fonetik o'zgarish kuzatilmoqda?

A) tovush tushishi

B) tovush almashishi

C) tovush ortishi

D) tovush tushishi va almashishi

273. O'rtoq va yoq (tomon) so'zlariga qaysi qo'shimcha(lar) qo'shilsa, asosda fonetik o'zgarish bo'ladi?

A) kelishik va egalik qo'shimchalari

B) egalik qo'shimchasi

C) kelishik qo'shimchasi

D) o'rtoq so'ziga egalik va kelishik, yoq so'ziga egalik qo'shimchasi

274. O'rtoq va yoq (tomon) so'zlariga qaysi qo'shimcha(lar) qo'shilsa, qo'shimchada fonetik o'zgarish bo'ladi?

A) kelishik va egalik qo'shimchalari

B) egalik qo'shimchasi

C) kelishik qo'shimchasi

D) o'rtoq so'ziga egalik va kelishik, yoq so'ziga egalik qo'shimchasi

275. Do'string senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu

*ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Ushbu matnda fonetik o'zgarishlarning qaysi turi kuzatilgan?*

- A) tovush tushishi, tovush ortishi
- B) tovush ortishi, tovush almashishi
- C) tovush tushishi, tovush almashishi
- D) tovush tushishi, tovush ortishi,

tovush almashishi

276. *Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra, shunda hamma narsa ayon bo'ladi. Shu ikkalasidan keyin ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, shirin jon bilan barobar tutish kerak. Ushbu matnda fonetik o'zgarishlar soni haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.*

A) tovush tushishi-1, tovush ortishi-2, tovush almashishi-2

B) tovush tushishi-2, tovush ortishi-1, tovush almashishi-2

C) tovush tushishi-1, tovush ortishi-2, tovush almashishi-1

D) tovush tushishi-2, tovush ortishi-2, tovush almashishi-1

277. *Qaysi so'zlarda tovush tushishi sodir bo'lgan?*

A) qo'shni, chinni, shinni

B) jinni, ayni, ma'ni

C) pasay, yarmi, burni

D) chayla, qayla, sag'ri

278. *Qaysi qatoridagi so'zlarda tovush almashishi sodir bo'lgan?*

A) shahri, o'g'ri, bo'yni

B) o'shanga, unga, bunga

C) o'roqqa, ishtirokim, noki

D) so'rog'i, keragi, tilagi

279. *Oktava – insonning hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan intilishi. Bu intilish kuch-qudratingizni,*

*buyukligingizni, yoshligingiz va salomatligingizni qanday timsolda ko'rsangiz, o'shanday bo'lishga intilishdir. Ushbu gapda nechta so'z fonetik yozuv qoidasi bo'yicha yozilgan?*

- A) 5
- B) 2
- C) 3
- D) 4

280. *Quyidagi qaysi qo'shimchalar qo'shilganda so'z asosidagi bir keng unli boshqa keng unliga almashadi?*

1) ot va sifat yasovchi **-q**; 2) fe'l yasovchi **-ar**; 3) sifat yasovchi **-qi**; 4) fe'l yasovchi **-a**; 5) shaxs oti yasovchi **-vchi**; 6) sifat yasovchi **-k**.

- A) 1, 2, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 5

- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- D) 1, 3, 4, 5

281. *Qaysi maqolda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z yasama so'z hisoblanmaydi?*

A) O'g'li borning o'rni bor, qizi borning qadri bor.

B) O'ylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.

C) Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

D) Burgaga achchiq qilib ko'rpangni kuydirma.

282. 1) G'afur G'ulom etagini silkitsa, kulgi ko'tarlardi; 2) U kirgan xonadonda bir hovli kulgi qolardi; 3) U har bir xonadonning ko'pdan kutgan aziz mehmoni edi; 4) Qayerga borsa, o'sha yerda atrofini yosh-u qari o'rab olardi; 5) Donolar davrasida dono edi; 6) Bedilni, Hofizni, Jomiyini sevib o'qirdi; 7) Ozarbayjon, tojik, turkman, uyg'ur, qozoq, tatar, qirg'iz tillarida bemalol gaplasha olardi; 8) U hozirjavob odam edi.

Berilgan matndagi qaysi gaplarda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar ishtirok etgan?

- A) 2, 3, 5, 6, 7
- B) 1, 2, 3, 4, 7

- C) 1, 2, 4, 6, 7
- D) 1, 2, 6

283. *Men titrog'imni bosolardim, yuragim o'ynab ketayotgan edi, suhbatdoshim esa mening bu*

*ahvolimga parvo ham qilmay, mudroq kayfiyat bilan o'tirardi.* Ushbu gapda nechta fonetik o'zgarish yuz bergan?

- A) 10    B) 8    C) 9    D) 7

284. Qo'shimcha qo'shilib asosda tovush o'zgarishi yuz beradigan so'zlarni toping.

- A) so'ra, ravnaq    B) qayir, qala  
C) past, qasd    D) o'rin, kuch

285. Qaysi so'zga fe'l yasovchi va ot yasovchi qo'shimcha ketma-ket qo'shilganida so'zda ikki xil fonetik hodisa kuzatilishi mumkin?

- A) yig'i    B) o'yin    C) qiyin  
D) hammasida kuzatiladi

286. Qaysi qatorida ketma-ket qo'shilgan ot yasovchi va shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida yetakchi hamda ko'makchi morfemada fonetik hodisa kuzatiladi?

- 1) titra; 2) qiyin; 3) o'ta; 4) porla; 5) so'ra.  
A) 1, 2    B) 1, 2, 3, 4, 5  
C) 1, 3, 5    D) 1, 3, 4, 5

287. *Zebi xola yarq etib Valiga qaradi:*

– *Sumalak yedingmi, o'g'lim? Qorning ochib qolgandir?*

– *Yedim, – dedi Vali sekin. U ham oyisining yig'laganini ko'rib o'pkasi to'lib turardi.*

– *Bo'lmasa, o'ynay qolinglar.* (O'Hoshimov)

Berilgan parchadagi fonetik o'zgarishlar haqidagi to'g'ri fikrni toping.

A) to'rt o'rinda tor unli, bir o'rinda keng unli tushgan

B) to'rt o'rinda tor unli, bir o'rinda o'rta keng unli tushgan

C) uch o'rinda tor unli, bir o'rinda keng unli tushgan

D) besh o'rinda tor unli tushgan

288. 1. Qorday oppoq, parday yumshoq. 2. Qat-qat quloq, dum-

dumaloq. 3. Qush emas, qanoti bor, chiroyli savlati bor, Unga lochin yetolmas, yengilmas quvvati bor. 4. G'it-g'it deydi, ishlaydi, yerga kukun tashlaydi. 5. Kelib og'zin ochar, tishlab qochar.

Berilgan topishmoqlarning qaysilarida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z(lar) mavjud?

- A) 1, 2, 3, 4, 5    B) 1, 3, 4, 5  
C) 1, 2, 4    D) 1, 2, 3, 5

289. *Qush emas, qanoti bor, chiroyli savlati bor,*

*Unga lochin yetolmaydi, chunki zo'r quvvati bor.*

Ushbu topishmoqda necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

- A) 2    B) 3    C) 4    D) 1

290. Berilgan gapda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini toping. *Unisi o'ziga bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qiligidan dard chekadi.*

- A) 3    B) 4    C) 2    D) 5

291. *Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson*

*Seni deyolmasin yaramas-yomon. Tanburning ovozi soz chiqib tursa,*

*Qulog'ini buramas sozchi hech qachon.* (Sa'diy Sheroziy)

Ushbu she'riy parchada nechta o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

- A) 4 ta    B) 3 ta  
C) 5 ta    D) 6 ta

292. Qaysi gap(lar)da ikkita tovush almashishi sodir bo'lgan?

1) O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir;  
2) So'z bilan o'ynovchilardan yuragim bezillaydi; 3) Musavvimning bo'yog'ida hayot chizgilari aniq ifodalangan edi;  
4) So'roq qilingan kishining ayblarini sanab berdik.

- A) 2, 4    B) 3, 4  
C) 2, 3, 4    D) 4

293. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'z asosidagi **l** tovushi **u** tovushiga almashadigan so'zlarni toping.

1) sovimoq; 2) qurimoq; 3) ilimoq; 4) og'rimoq; 5) qavimoq.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 2  
C) 1, 2, 4            D) 1, 2, 4, 5

294. O'zimcha hayronman: nega bu kishilar kitob o'qirkanmiz deb shuncha taraddudlanib o'tirishibdi? Hammasi o'zining uyida o'qiyvermaydimi? Ushbu parchadagi tovush o'zgarishlari haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) bir o'rinda yuqori tor unli tushgan; 2) bir o'rinda o'rta keng unli tushgan; 3) bir o'rinda portlovchi undosh ortgan; 4) bir o'rinda portlovchi undosh sirg'aluvchiga almashgan.

A) 1, 2, 3, 4            B) 1, 3, 4  
C) 2, 3                 D) 2, 3, 4

295. Mulla Muhammad Zohid domla bosiq bir shirador ovoz bilan dona-dona o'qir, ba'zan o'qigani-ning mazmunini tushuntirar, atrofdagilarning fikrini so'rardi, so'ng esa yig'ilganlar qizg'in bahsga kirishar, har bir so'zning mag'zini chaqishardi. Kamina lol bo'lib o'tirardim. Mana, kitobning mag'zini qanday chaqish kerak ekan! Ushbu parchada necha o'rinda tovush tushishi kuzatilgan?

A) 6      B) 5      C) 3      D) 4

296. Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolalikdagi o'ynoqi damlarni eslab quvnayman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalaman. Berilgan parchada fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar qaysi so'z turkumlariga mansub?

A) ot, sifat, ravish

B) ot, fe'l, sifat, olmosh

C) fe'l, olmosh

D) ot, olmosh

297. Birovning narsasini so'roqsiz olish kechirilmas gunoh sanalishini bilarding, ammo unga amal qilish lozimligini anglamaganing tufayli kulgilli vaziyatga tushib qolishingni his qilmaganding. Ushbu gapda fonetik o'zgarishlarning qanday turi uchraydi?

A) 3 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi

B) 3 ta tovush almashishi, 1 ta tovush tushishi

C) 2 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi

D) 4 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi

298. Shunisi xarakterliki, shimpanze oqqushni ko'rganida beixtiyor «suyuqlik» va «qush» ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga «kalit – ochish – ovqat» ishoralari bilan murojaat qilganligi aytiladi. Berilgan gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar miqdori nechta?

A) 3      B) 2      C) 4      D) 1

299. Qaysi so'zlar tarkibida qo'shimchalar ketma-ket qo'shilishi natijasida faqat ko'makchi morfemasida fonetik o'zgarishi bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.

A) sayroqi, o'ynoqi, yig'loqi

B) so'rog'i, tarog'i, bo'yog'i

C) sanoq, yamoq, quvnoq

D) shildirog'i, yaltirog'i, yarqirog'i

300. Yetakchi va ko'makchi morfemalarda tovush o'zgarishi yuz bergan qatorni aniqlang.

A) shildirog'i, yaltirog'i, yarqirog'i

B) dumalog'i, mudrog'i, titrog'i

C) qiynog'i, sayroqi, yig'loqi

D) qishloqqa, elakka, tilakka

301. *Yuzi nam yaltiroq o'tloqning betida yuk mashinasining behisob izlari ko'rinib turardi.*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z(lar)ning sintaktik vazifasini toping.

- A) aniqlovchi B) hol  
C) ega D) aniqlovchi, kesim

302. *Sanasak, faxr etadigan arzirli yutuqlar ko'p, ammo ular orasida eng muhimi hamma xalqqa suv va havo kabi zarur – eng ulug' ne'mat – tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog'iga talpinyapmiz.* Ushbu gapda nechta so'z so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarishga uchragan?

- A) 1 ta B) 2 ta  
C) 4 ta D) 3 ta

303. Otdan fe'l yasovchi va fe'ldan sifat yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush tarkibida 2 ta fonetik hodisa bo'lgan so'zlarni toping.

- 1) qiynoq; 2) yig'loq; 3) o'ynoq;  
4) sayroq.  
A) 2, 3 B) 1, 2, 3  
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 4

304. Qaysi so'z tarkibida fe'l yasovchi va sifat yasovchi qo'shimcha ta'sirida ikkita fonetik hodisa kuzatilgan?

- A) qiynoq B) sarg'aymoq  
C) yig'loq D) yumaloq

305. Qaysi so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganida talaffuzda so'zning asos qismida ham, qo'shimcha qismida ham tovush o'zgarishi yuz beradi?

- 1) quloq; 2) so'roq; 3) bog'; 4) pedagog;  
5) tok; 6) tog'.  
A) 1, 2 B) 3, 4, 6  
C) 3, 6 D) 1, 2, 3, 6

306. Qaysi so'zlarga ikkita so'z yasovchi morfema ketma-ket

qo'shilganda ikki xil fonetik o'zgarishni kuzatish mumkin?

- 1) taroq, 2) yig'i, 3) qiyin, 4) tarqa,  
5) o'yin, 6) sariq.  
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
B) 2, 3, 5, 6  
C) 2, 3, 5, 6  
D) 1, 2, 3, 4, 5

307. *Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi.* (Jek London)

Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida nechta so'z tarkibida fonetik o'zgarish yuz bergan?

- A) 1 ta B) 3 ta  
C) 2 ta D) 4 ta

308. Qo'shimcha qo'shilishi bilan o'zagida tovush o'zgarishi bo'ladigan so'zlar qatorini toping.

- A) so'ra, ravnaq B) o'rin, gurs  
C) qayir, qala D) past, qasd

309. *Seni menga bergan, mening xalqimga, Bandalari yo'qotolmas, tortib ololmas.*

Ushbu misralarda ro'y bergan fonetik o'zgarishlar haqidagi to'g'ri hukmni toping.

- A) 2 ta tovush tushish, 3 ta tovush almashish hodisasi ro'y bergan  
B) 2 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro'y bergan  
C) 3 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro'y bergan  
D) 4 ta tovush tushish, 2 ta tovush almashish hodisasi ro'y bergan

310. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir keng unlining ikkinchi bir keng unliga almashinishi kuzatilgan gapni toping.

- A) Sovuqning shashti pasayib, quyosh yana nur sochdi.  
B) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.



C) Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.

D) Mehnat qilsang, ko'nglingga yorug'lik tushadi.

311. *Tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yasholmasligingga sezardim, buni ham hammadan men juda yaxshi bilardim.*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlarda necha o'rinda sirg'aluvchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?

- A) 8 ta                      B) 7 ta  
C) 10 ta                     D) 9 ta

312. *Xalq og'zaki ijodida mard yigitlar bo'ynidagi mas'uliyat ular ulg'aygan sari ortib borishi haqida ham to'xtab o'tilgan.*

Ushbu gapdagi nechta so'zda tovush tushish hodisasi ro'y bergan?

- A) to'rtta                    B) beshta  
C) ikkita                    D) uchta

313. Qaysi gapdagi so'zlar imlosida bir o'rinda fonetik o'zgarish kuzatiladi?

A) Tabiatga bunday mehmi mening qalbinga onam solib qo'ydi va qalbidam go'zallikni sevish, xushfe'l bo'lish kabi xislatlar uyg'ondi.

B) To'polonda oyog'im lat yeganga o'xshaydi, shuning uchun darrov chiqolmadim.

C) Bolalik inson hayotining shunday poydevoridirki, umr binosining bo'y-basti, salobati unga bog'liq bo'ladi.

D) Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko'ylagiga qadaladigan o'n-o'n beshta tugma sochilib yotibdi. Shoshilish zo'riqishga olib keladi.

314. Qaysi maqolda ikkita so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) Ko'ngli qoraning yuzi qora.  
B) Achchiq bilan chuchukni tutgan bilar.  
C) Burgaga achchiq qilib, ko'rpangni kuydirma!

D) Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

315. *O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi.*

Ushbu gapdagi so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik hodisa kuzatilgan?

- A) 4 o'rinda                B) 1 o'rinda  
C) 3 o'rinda                D) 2 o'rinda

316. *Sening tug'ilib o'sgan shahringdan ayrilib yasholmasligingni bilardim, buni hammadan ham men juda yaxshi bilar edim.*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlarda necha o'rinda portlovchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?

- A) 5 ta                      B) 6 ta  
C) 7 ta                      D) 4 ta

317. Qaysi gapda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi tufayli fonetik o'zgarishga uchragan so'z(lar) ishtirok etgan?

A) Ona Vatanidan ayrilgan mirzo Bobur bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi, uni o'z she'rlarida tarannum etib yashadi.

B) Vatan osmoni ko'rpang, maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muattar bolishingdir.

C) Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi.

D) Og'zaki nutqingiz yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish sizga topshirildi.

318. *Dunyoda birinchi haydovchilik guvohnomasi Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan.*

Tovush o'zgarishiga uchragan so'z haqida to'g'ri fikmi aniqlang.

- A) portlovchi tovush tushgan  
B) jarangli undosh jarangsizga o'zgargan  
C) tor unli keng unliga o'zgargan

D) bir quyi keng unli boshqa keng unliga o'zgargan

319. Qaysi javobda noto'g'ri fikr berilgan?

A) -v, -q, -qi qo'shimchalari fe'lga qo'shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.

B) Sonning ma'no turini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganda fonetik hodisa kuzatiladi.

C) Asos tarkibidagi unli tovush tushishi faqat egalik qo'shimchalari qo'shilganda kuzatiladi.

D) Fe'l nisbati qo'shimchalari ta'sirida so'zda tovush tushishi mumkin.

320. Qaysi so'zlar tarkibida qo'shimchalar ketma-ket qo'shilishi natijasida faqat ko'makchi morfemalar tarkibi fonetik o'zgarishga uchragan?

A) quvnog'i, sanog'i, yaltirog'i

B) shildirog'i, yarqirog'i, bo'yog'i

C) shildirog'i, yarqirog'i, yaltirog'i

D) dumalog'i, o'tog'i, titrog'i

321. *Sifatli ashyolardan yasalgan buyumlar issiq va sovuqqa chidamliligi tufayli xaridorgir bo'ladi.*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelgan?

A) 2 o'rinda vositali to'ldiruvchi, 1 o'rinda sabab holi

B) 2 o'rinda vositali to'ldiruvchi

C) 1 o'rinda vositali to'ldiruvchi, 1 o'rinda sabab holi

D) 3 o'rinda vositali to'ldiruvchi

322. *Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan,*

*Qora qozon qolsa qaynovdan,*

*Ham ayrilib o'lja, ulovdan,*

*Qarzga botar bo'lsam birovdan,*

*Taskin berib onam yig'laydir,*

*Qolganlari yolg'on yig'laydir.*

(To'ra Sulaymon)

Ushbu she'riy parchadagi fonetik o'zgarishlar haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

A) 2 o'rinda tovush almashishi, 2 o'rinda tovush tushishi sodir bo'lgan

B) 3 o'rinda tovush almashishi, 2 o'rinda tovush tushishi sodir bo'lgan

C) 2 o'rinda tovush almashishi, 3 o'rinda tovush tushishi sodir bo'lgan

D) 1 o'rinda tovush almashishi, 3 o'rinda tovush tushishi sodir bo'lgan

323. *Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman.*

*Bolalikdagi o'ynoqi damlarni eslab quvnayman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalaman.*

Ushbu parchadagi tovush tarkibi o'zgargan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?

A) ot, olmosh

B) ot, fe'l, sifat, olmosh

C) ot, sifat, ravish

D) fe'l, olmosh

324. Qaysi gapdagi so'zlar imlosida tovush o'zgarishining ikki turi sodir bo'lgan?

A) Haqiqat daraxtini toshga o'tqazganda ham qurimas.

B) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.

C) Xullas, ana shunaqa gaplar, odamlar to'rtburchak elektron narsa ichida yashashlari mumkin ekan.

D) O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.

325. *O'lmaslikka ishora - o'langa oshiqligim,*

*Saodatga ishora - zamonga oshiqligim,*

*Teranlikka ishora - ummonga oshiqligim,*

*Go'zallikka ishora - bo'stonga oshiqligim -*

*Bahor, ketma mening bog'imdan.* (To'ra Sulaymon)

Ushbu she'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?

- A) 8      B) 6      C) 9      D) 7

326. Qaysi maqolda fonetik o'zgarishga uchragan so'z qo'llanmagan?

A) Buzgaga kuch qilib, ko'p bog'ni kuydirmal.

B) Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri so'zla!

C) Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r mingni yiqar.

D) Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin.

327. *Vatan xoinlari hech qachon kechirilmaydi. Bu xoinlikning eng og'ir gunoh sanalishini unutmang.*

Ushbu gapda faqat qo'shimcha qismida tovush o'zgarishi ro'y bergan so'zning sintaktik vazifasini toping.

A) to'ldiruvchi

B) aniqlovchi

C) hol

D) kesim

328. *"Yozuvchi sifatida bir narsani arfglab yetganman va bu qoidaga qat'iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini . . . tasvirlamog'i lozim. Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini bag'riga bosib o'qiydi".*

Ushbu parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar sonini belgilang.

A) 6 ta

B) 7 ta

C) 4 ta

D) 5 ta

329. *Shu xarakterliki, shimpanze oqqushni ko'rganda beixtiyor "suyuqlik" va "qush" ishoraviy belgisini qilganligi, sovuqxonadagi yemishga "kalit-ochish-ovqat" ishoralari bilan murojaat qilganligi aytiladi.*

Berilgan gapdagi ergash gap tarkibida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar haqida to'g'ri fikrni toping.

1. Fonetik o'zgarishlarning barchasi qo'shimcha tarkibida yuzaga kelgan.

2. Fonetik o'zgarishlarning ikkitasi qo'shimcha va bittasi asosda sodir bo'lgan.

3. Fonetik o'zgarishlarning barchasida so'z yasovchi qo'shimcha tarkibi o'zgaragan.

4. So'z yasovchi qo'shimcha qo'shish natijasida bitta o'zgarish sodir bo'lgan.

A) 1, 3, 4

B) 2, 3

C) 1, 2

D) 2, 4

330. Qaysi gap(lar)da fonetik o'zgarish faqat so'z yasovchi ta'sirida asosda sodir bo'lgan?

1. Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol bo'lishdi.

2. To'pidan ayrilganni bo'ri yer.

3. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.

4. Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zini ham anglaydi.

A) 4

B) 2, 4

C) 2, 3

D) 1, 4

331. *Inson tabiatning eng ong'li farzandi, uning boyliklarini asrovchi eng oliy xilqat sanaladi, shu bilan birga, inson bu boyliklarni ayovsiz sarflovchi, tabiatni tanazulga olib boruvchi xilqat ekanligini ham unutmaylik.*

Ushbu gapda ro'y bergan fonetik o'zgarishlar haqida berilgan to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) fonetik o'zgarishga uchragan so'z fonetik o'zgarishga uchragan so'zga bog'lanish holati kuzatiladi;

2) fonetik o'zgarishlar faqat yetakchi morfemalar tarkibida sodir bo'lgan;

3) fonetik o'zgarish bir o'rinda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida sodir bo'lgan;

4) fonetik o'zgarishlar faqat sifatlovchi aniqlovchi va vositasiz to'ldiruvchi tarkibida kuzatiladi.

- A) 1, 3, 4                      B) 1, 2, 3, 4  
C) 1, 2, 3                      D) 1, 3

332. *"Yozuvchi sifatida bir narsani allaqachon anglaganman va bu qoidaga qat'iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo, Inson bolasi-ning quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim, Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini bag'riga bosib o'qiydi"*. Ushbu parchada nechta so'zda tovush almashishi bo'lgan?

- A) 2 ta                              B) 5 ta  
C) 3 ta                              D) 4 ta

333. So'zga qo'shilganda so'z asosidagi lablanmagan tor unli tovushni lablangan tor unli tovushga aylantira oladigan qo'shimchalar ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) -vchi; 2) -q; 3) -qi; 4) -v; 5) -illa.  
A) 1, 2, 3, 4, 5                      B) 1, 2, 5  
C) 1, 4, 5                              D) 1, 2, 4

334. *Yuragimda ko'pdir alamli dardlar,*

*Mening qizim – sening singling, nomardlar.*

*Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,*

*Suyagimni yonar o'tga solasan.*

Keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida kuzatilgan fonetik o'zgarishlar soni va turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) 2 o'rinda tovush almashishi va 5 o'rinda tovush tushishi  
B) 2 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush ortishi  
C) 3 o'rinda tovush almashishi va 3 o'rinda tovush tushishi  
D) 3 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush tushishi

335. Noto'g'ri hukmni aniqlang.

- A) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v,

-q, -qi qo'shimchalari qo'shilsa, a unlisi o' aytiladi va shunday yoziladi

B) -dir fe'l nisbati hosil qiluvchi qo'shimcha jarangli va jamagsiz undosh bilan tugagan barcha bir bo'g'inli fe'llarga qo'shilishi mumkin

C) ayrim fe'llarga fe'l nisbatini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilsa, tovush tushish hodisasi kuzatilishi mumkin

D) jamlovchi sonni hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilganda asosda tovush tushishi kuzatilishi mumkin

336. *Ayriliq g'ussasi o'limdan yomon...*

*Qolmayin zarracha armon o'ynasin.*

Ushbu parchadagi yasama so'zlarning nechtasi fonetik o'zgarishga uchragan?

- A) 3 tasi                              B) 1 tasi  
C) 2 tasi                              D) 4 tasi

337. Qaysi qatordagi so'zlarga bir xil vazifani bajaruvchi qo'shimcha qo'shilganda ikki xil fonetik o'zgarish bo'ladi?

- A) tara, so'ra, son  
B) son, qiyin, yig'i  
C) buyur, qiyin, titra  
D) yig'i, o'yin, qiyin

338. Qaysi so'zlarga faqat sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilganda fonetik o'zgarish hodisasi kuzatiladi?

- A) ayir, qayir                      B) son, ong  
C) o'g'il, o'rtoq                      D) ikki, olti

339. *Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh, Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

*Oyog'ingga qo'yib yotay bosh, Jayron, nega ko'zing to'la yosh?*

Ushbu she'rda fonetik o'zgarishlarning nechtasi sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida bo'lgan?

- A) 2 ta                                      B) 1 ta  
C) 3 ta                                      D) 4 ta

340. *Chindan ham men uni hammadan qizg'anib rashk qilardim, uning quvnoqligi, o'zini*

*erkin tutishi bilan faxrlanardim. Nega shundayligini o'zim ham bilmagandim.*

Gapdagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar haqidagi noto'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) uch o'rinda tovush tushish hodisasi ro'y bergan;

2) uch o'rinda tovush almashish hodisasi kuzatilgan;

3) fonetik o'zgarishlar faqat yetakchi morfemada sodir bo'lgan;

4) yasalish asosi yasama sifat bo'lgan so'zda fonetik o'zgarish kuzatilgan;

5) tarkibida ikki xil fonetik o'zgarishlar kuzatilgan so'zlar miqdori ikkita.

- A) 1, 3, 4                      B) 3, 5  
C) 2, 4, 5                      D) faqat 3

341. *Chindan ham men uni hammadan qizg'anib rashk qilardim, uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Nega shundayligini o'zim ham bilmagandim.*

Gapda necha o'rinda fonetik o'zgarish kuzatilgan?

- A) 6 o'rinda                      B) 7 o'rinda  
C) 8 o'rinda                      D) 5 o'rinda

342. *Bunday kishilar ko'ngling-dagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham!*

Gapdagi fonetik o'zgarishlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) 2 o'rinda tovush ortishi, 2 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush almashishi

B) 2 o'rinda tovush ortishi, 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush almashishi

C) 1 o'rinda tovush ortishi, 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush almashishi

D) 2 o'rinda tovush ortishi, 2 o'rinda tovush tushishi, 2 o'rinda tovush almashishi

343. Qaysi qatordagi gapda uch o'rinda tovush tushish hodisasi bo'lgan?

A) Bu ish mening qo'limdan kelarmikan, eplay olarmikanman?

B) Ustingdagi ko'yilagingni yechsang bo'lardi, yuvib berardim.

C) Ba'zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverardik.

D) Sodiq degan katta o'g'li uylanishi bilan urushga ketgandi.

344. *Inson tabiatning eng ong'li farzandi, uning boyliklarini asrovchi eng oliy xilqat sanaladi, shu bilan birga, inson bu boyliklarni ayovsiz sarflovchi, tabiatni tanazzulga olib boruvchi xilqat ekanligini ham unutmaylik.*

Ushbu gapdagi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar sonini toping.

- A) 3 ta                              B) 2 ta  
C) 4 ta                              D) 5 ta

345. Berilganlardan nechta fikr to'g'ri?

1) asosi unli bilan tugagan sonlarga qo'shilgan jamlovchi son qo'shimchasi tarkibidagi unli tovush tushib qolishi mumkin;

2) -q qo'shimchasi bilan sifat yasalganda so'z asosidagi bir tor unli boshqa tor unliga almashishi mumkin;

3) fe'l yasalishida so'z asosida unli va undosh tovush tushib qolishini mumkin;

4) nisbat qo'shimchalari qo'shilishi natijasida so'z asosida tovush tushishi mumkin;

5) ot yasalishida so'z asosida tovush tushishi va almashishi kuzatiladi.

- A) 3 tasi                              B) 5 tasi  
C) 2 tasi                              D) 4 tasi

346. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin.*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allayin.*

*Dudog'ing guldani xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'ringa jajji boshginangni qo'y.*

Ushbu she'riy parchada gap bo'laklari bilan aloqaga kirishadigan gap bo'lagi vazifasini bajaradigan nechta so'zda tovush o'zgarishi kuzatilgan?

- A) 5 ta                      B) 6 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

347. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin.*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allayin.*

*Dudog'ing guldani xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y.*

Ushbu she'riy parchada nechta so'zda tovush almashishi bo'lgan?

- A) 5 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

348. So'z yasovchi qo'shimcha ta'sirida yasalish asosida tovush tushishi sodir bo'ladigan so'zlarni aniqlang.

1) qizil; 2) past; 3) qiyin; 4) ayir; 5) og'iz; 6) sariq; 7) o'rin; 8) ko'ngil.

- A) 1, 2, 3, 6  
B) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7  
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

349. *Shunda men ularni sanab sanog'iga yetolmagandim.* Ushbu gapda nechta o'rinda so'zlar imlosida tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

- A) 8 ta                      B) 5 ta  
C) 6 ta                      D) 7 ta

350. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin.*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allayin.*

*Dudog'ing guldani xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y.* Ushbu she'riy parchada gap bo'laklari bilan aloqaga kirishadigan gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlarda sodir bo'lgan tovush

o'zgarishlari soni va turini aniqlang.

A) 7 ta: 3 ta tovush almashishi, 1 ta tovush tushishi, 3 ta tovush ortishi

B) 4 ta: 1 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi, 1 ta tovush ortishi

C) 5 ta: 1 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi, 2 ta tovush ortishi

D) 6 ta: 3 ta tovush almashishi, 2 ta tovush tushishi, 1 ta tovush ortishi

351. Fe'l yasovchi qo'shimcha ta'sirida so'z asosida tovush tushishi sodir bo'ladigan so'zlarni aniqlang.

1) qizil; 2) qiyin; 3) past; 4) ulug'; 5) sariq; 6) ayir.

- A) 1, 2, 3, 4                      B) 2, 3, 4  
C) 1, 2, 3, 4, 5                      D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

352. *Shunda men ularni sanab sanog'iga yetolmagandim.* Ushbu gapda yasama so'zlarning asosida nechta tovush almashishi sodir bo'lgan?

- A) 2 ta                      B) 1 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

353. *Shunda men ularni sanab sanog'iga yetolmagandim.* Ushbu gapda necha o'rinda tovush almashishi sodir bo'lgan?

- A) 2 ta                      B) 5 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

354. *Shunda men ularni sanab sanog'iga yetolmagandim.* Ushbu gapda so'zlar imlosida sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlarning soni va turini aniqlang.

A) 6 ta: 3 ta tovush almashishi, 1 ta tovush ortishi, 2 ta tovush tushishi

B) 6 ta: 4 ta tovush almashishi, 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

C) 5 ta: 3 ta tovush almashishi, 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

D) 7 ta: 4 ta tovush almashishi, 1 ta tovush ortishi, 2 ta tovush tushishi

355. *Birdan uyning eshigi ochilib, uyga o'g'lim va o'rtog'ining sovuqdan qulog'i, burni qizarib kirib keldi.* Ushbu gapda ismlar guruhiga

mansub so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

- A) 5 ta                      B) 6 ta  
C) 7 ta                      D) 4 ta

356. *Birdan eshik ochilib, uyga o'g'lim va o'rtog'ining qulog'i, burni qizarib kirib keldi.* Ushbu gapda ismlar guruhiga mansub so'zlar imlosida necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

- A) 5 ta                      B) 6 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

357. Qaysi gap imlosida olti o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?

A) Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmadi.

B) Shunday bo'lmog'iga asos bor edi, chunki ular bir ko'chada yashab, o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.

C) Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o'xshash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi.

D) Bu falokatga yo'liqqan odamning jon achchig'idagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi.

358. Tarkibidagi barcha olmoshlar fonetik o'zgarishga uchragan gapni aniqlang.

A) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.

B) Birovning do'stlar-u xorijlari bor, Mening hech kimim yo'q – o'zingdan boshqa.

C) Shunday bo'lmog'iga asos bor edi, chunki ikkalasi bir ko'chada o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.

D) Anovi kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchig'landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o'shanga berdilar.

359. Qaysi gap imlosida fonetik o'zgarishlar faqat bir xil so'z turkumiga mansub so'zlar tarkibida yuz bergan?

A) Bolaning ko'ngli cho'kmasin deb yumshoq o'rindiqqa o'tqazdi.

B) Qushlar sovuq kunlar boshlanishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketarkan.

C) Oltin makre balig'ining go'zalligi uning ola-chipor, ko'kimtir suzgichlaridan tortib kemirchak tarog'ining ham oltin singari tovlanib turishidir.

D) Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo'ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig'ini chulg'ab oldi.

360. *Bodroq, yo'q* so'zlariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shilganida fonetik hodisa kuzatiladi?

A) faqat jo'nalish kelishigi qo'shimchasi

B) jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari

C) faqat egalik qo'shimchalari

D) *bodroq* so'ziga egalik va jo'nalish kelishigi, *yo'q* so'ziga egalik qo'shimchalari

361. Berilgan so'zlardan qaysilariga ayrim shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilganda ham, ayrim so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilganda ham tovush tushish hodisasi kuzatildi?

1) og'iz; 2) o'rin; 3) yig'i 4) o'yin; 5) ikki; 6) past; 7) ayir

A) 1, 2, 3, 5                      B) 1, 2, 3, 7

C) 1, 2, 4, 5, 6, 7                      D) 1, 2, 7

362. *Ko'zgumga berardim kechqurun sayqal,*

*Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal.*

*Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki,*

*Men o'zgalar aybini unutdim tugal.*

Ruboiyda so'zlar imlosida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatilgan?

A) 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush ortishi

B) 2 o'rinda tovush ortishi

C) 1 o'rinda tovush tushishi, 2 o'rinda tovush ortishi

D) 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush almashishi, 2 o'rinda tovush ortishi

363. *Sening mo'jaz yuraging mo'jizalarga to'la ekanligini birinchi bor uchragundayoq anglagan, his qilgan edim.*

Ushbu gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

1) ega; 2) kesim; 3) aniqlovchi; 4) to'ldiruvchi; 5) hol.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4, 5

C) 2, 3, 4      D) 1, 3, 4

364. Quyidagi qaysi gap(lar)da fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?

1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'!

2. Ko'rpaning guldor qavig'i hammani qiziqitirdi.

3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini targatdi.

4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rindan qo'zg'ab qo'ydi.

A) 3      B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 3      D) 4

365. Berilgan gapda munosabat shakllari ta'sirida fonetik o'zgarish asosida yozilgan nechta so'z ismlar guruhiga mansub?

*O'rnimdan turib uy eshigini ochsam, o'g'lim bilan o'rtog'i sovuqdan qulog'i, burni qizarib kirib keldi.*

A) 6 ta      B) 5 ta

C) 7 ta      D) 4 ta

366. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay oladi?

A) tanti-mard      B) adl-tik

C) ahl-totuv      D) qisim-siqim

367. Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) Tergovchilar bu qoidabuzarlik ayblanuvchining o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamagani sababli yuzaga kelganini hisobga oldilar.

B) Beshafqat shamol sovuqdan qalirayotgan daraxtning so'nggi yaprog'ini ham uchirib ketdi.

C) Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yo nihoyatda sovuq bo'ladi.

D) Tovushlarning shirin-achchig'i, Bordir hatto yumshoq-qattig'i.

368. *Ko'z gumga berardim kechqurun sayqal,*

*Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal.*

*Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki,*

*Men o'z galar aybini unutdim tugal.*

Ruboiyda so'zlar imlosida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatilgan?

A) 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush ortishi

B) 2 o'rinda tovush ortishi

C) 1 o'rinda tovush tushishi, 2 o'rinda tovush ortishi

D) 1 o'rinda tovush tushishi, 1 o'rinda tovush almashishi, 2 o'rinda tovush ortishi

369. *Biz ana shunday arslon haybatli, botir va qaynoq qalbli, dushman oldida aslo tiz cho'kmaydigan bobolarimizga farzand ekanligimizdan hamisha faxrlanamiz.*

Ushbu gapda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdori qancha?

A) 3 ta      B) 4 ta

C) 2 ta      D) 5 ta

370. Qo'shimcha qo'shilishi bilan asosida tovush almashishi bo'ladigan so'zlar qatorini toping.

A) past, terak      B) o'rin, gurs

C) qayir, qalb      D) tara, sovi

371. Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlarni belgilang.



1) yasha; 2) yayra; 3) yashna; 4) o'yna;  
5) ikkala; 6) uchala; 7) yamoq; 8) yong'oq;  
9) yig'loq; 10) o'yinchoq.

- A) 1, 4, 5, 7, 9      B) 1, 2, 3, 5, 6  
C) 5, 7, 9            D) 1, 5, 7, 9, 10

372. *Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. Bolalikdagi o'ynoqi damlarni sog'inaman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalaman.*

Ushbu parchada tovush tarkibi o'zgargan fe'ldan yasalgan yasama so'z(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) aniqlovchi, hol  
B) aniqlovchi  
C) aniqlovchi, kesim  
D) kesim

373. Berilgan misollardan nechtasida tovush tushishi faqat so'z yasovchi qo'shimcha ta'sirida sodir bo'lgan?

1. Sening ulug'liging,  
Bizni bilmaganga bo'lsin yorig'ing.
2. Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,  
Borayotir qalmoq elni so'roqlab...
3. Eliboylar bundan ko'chib boradi,  
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.
4. Dudog'ing guldan xushbo'y,  
yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'rimga jajji bosh-ginangni qo'y.

- A) to'rttasida      B) bittasida  
C) ikkitasida      D) uchtasida

374. Quyidagi gapda nechta so'z tarkibida tovush tushish hodisasi ro'y bergan?

*Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim.*

- A) 3      B) 2      C) 1      D) 4

375. Keltirilgan gapda qo'llangan tovush o'zgarishlarining soni va turi to'g'ri berilgan javobni toping.

*Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o'rindiqqa o'tqazdi.*

A) 3 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

B) 1 ta tovush tushishi, 2 ta tovush almashishi

C) 2 ta tovush tushishi

D) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

376. — Fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z qo'llangan gapni aniqlang.

A) O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir.

B) Saylovlar muqobillik asosida o'tkazilmoqda.

C) Qarisi bor uyning parisi bor.

D) Bayram yuqori saviyada o'tkazildi.

377. *Insoniyat yaralganidan buyon davom etib kelayotgan surunkali ofatlardan biri bu komil inson qadr-qimmatini vaqtida baholay olmaslikdir.*

Ushbu parchadagi yasama so'zlarning nechtasi fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) 1 tasi                      B) 3 tasi

C) 2 tasi

D) barchasi morfologik yozuv asosida yozilgan

378. *Xalqimizning o'ziga xos tabiati, lutfkorligi, urf-u odatlari hammamizga jon kabi aziz.* Berilgan gapdagi fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z(lar) haqida to'g'ri fikmi toping.

1) Fonetik o'zgarishlarning barchasi qo'shimcha tarkibida yuzaga kelgan.

2) Fonetik o'zgarishlarning bittasi asosda sodir bolgan.

3) Fonetik o'zgarishlarning barchasida so'z yasovchi qo'shimcha tarkibi o'zgargan.

4) Ushbu gapda fonetik o'zgarish bo'lmagan.

A) 1, 3

B) 2, 3

C) 3

D) 4

379. Keltirilgan gapda qo'llangan tovush o'zgarishlarining soni va turi to'g'ri berilgan javobni toping.

*Quloqlaring va og'zing o'rtasida ishni adolatli taqsimla. Qulog'ing ikkita, og'zing esa bitta. Demak, sen kam gapirib, ko'p eshitishing kerak.*

A) 3 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

B) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi

C) 2 ta tovush tushishi, 2 ta tovush almashishi

D) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

380. *Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan,*

*Qora qozon qolsa qaynovdan,  
Ham ayrilib o'lja, ulovdan,  
Qarzga botar bo'lsam birovdan,  
Taskin berib onam yig'laydir,  
Qolganlari yolg'on yig'laydir.*

Ushbu she'riy parchada tarkibida yuqori tor unli tushishi kuzatilgan yasama so'zlarning sintaktik vazifasini belgilang.

A) aniqlovchi, hol, kesim

B) kesim

C) hol, kesim

D) ega, kesim

381. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin,*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.*

*Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y.*

She'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar tarkibida sirg'aluvchi tovushlar necha o'rinda ishtirok etgan?

A) 5 B) 8 C) 7 D) 6

382. *Shaldiroq kishanlar hukmiga, Achinmay berarsan yoshliging.*

*Yuzlaring burishmas og'riqdan, Farog'at bag'ishlar ochliging.*

Ushbu she'riy parchada nechta yasama so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) 5 B) 3 C) 4 D) 2

383. Keltirilgan gapda qo'llangan tovush o'zgarishlarining soni va turi to'g'ri berilgan javobni toping.

*O'g'lining dardida sarg'aygan onaning oh-vohlariga chidab bo'larmikan.*

A) 2 ta tovush ortishi

B) 3 ta tovush almashishi

C) 1 ta tovush tushishi

D) 2 ta tovush almashishi, 3 ta tovush tushishi

384. *Yangidan o'zida kuch-g'ayrat tuyardi, kelajagiga, o'z maqsadlariga erishishiga umid uyg'onardi.* Berilgan gap tarkibida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar haqida to'g'ri fikrlarni toping.

1) Ushbu gap tarkibida fonetik o'zgarish bo'lmagan.

2) Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarda tovush tushgan va almashgan.

3) Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar soni 3 ta.

4) Fonetik o'zgarishga uchragan barcha so'zlarda tovush tushgan.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3

C) 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

385. Keltirilgan gapda qo'llangan tovush o'zgarishlarining soni va turi to'g'ri berilgan javobni toping.

*Bir yetimning boshini silasang, bir g'aribning mushkulini oson qilsang, bir bechoraning ko'ngliga malham bo'lsang, buning savobiga ne yetsin!*

A) 3 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

B) 2 ta tovush ortishi, 1 ta tovush almashishi

C) 1 ta tovush tushishi

D) 1 ta tovush ortishi, 1 ta tovush tushishi

386. Quyidagi qaysi gapda ikkita tovush o'zgarishi mavjud bo'lgan so'z qo'llangan?

A) Bola ichi bo'sh chelakka o'xshaydi.

B) O'zbekistonning kelajagi yorug', ertasi porloq.

C) Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi?

D) Vatan mening jon-u tanim, sajdagohimdir.

387. *Behbudiy tomonidan qilingan ishlarni sanay bersak, ularning adog'iga yetmaymiz: u o'z hovlisida bepul maktab ochib, xalq bolalarini o'qitdi.*

Ushbu gaplardagi fonetik o'zgarishlar miqdorini toping.

A) 1 ta tovush tushishi, 3 ta tovush almashishi

B) 2 ta tovush tushishi, 1 ta tovush almashishi

C) 3 ta tovush tushishi

D) 2 ta tovush almashishi

388. 1) o'g'lim; 2) quvonchim; 3) sarg'aymoq; 4) o'matmoq; 5) chanqoqni.

Berilgan so'zlarning qaysi birida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

A) 1, 3                      B) 1, 2, 5

C) 1, 2, 3, 4              D) 1, 3, 4, 5

389. Fonetik o'zgarish faqat lug'aviy shakl yasovchi ta'sirida sodir bo'lgan so'z ishtirok etgan gap(lar)ni aniqlang.

1. Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol bo'lishdi.

2. To'pidan ayrilganni bo'ri yer.

3. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.

4. Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zini ham anglaydi.

A) 2, 4                      B) 1, 4

C) 1, 2, 3                D) 4

390. Vazifasiga ko'ra 2 ta bir xil turdagi morfema qo'shilganda 2 xil fonetik o'zgarishni kuzatish mumkin bo'lgan so'zlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) tara; 2) yig'i; 3) qiyin; 4) o'yin; 5) sariq

A) 2, 3, 5                B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 2, 3, 4            D) 2, 3, 4

391. *Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin,*

*Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.*

*Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,*

*Kel, oppog'im, bag'ringa jajji boshginangni qo'y.*

She'riy parchadagi fonetik o'zgarishlar haqidagi noto'g'ri hukmlarni belgilang.

1. Ikki o'rinda portlovchi undosh tushgan.

2. Uch o'rinda portlovchi tovush sirg'aluvchi tovushga almashgan.

3. Ikki o'rinda portlovchi tovush ortgan.

4. Bir o'rinda tor unli tushgan.

A) 1, 4                      B) 1, 3

C) 2, 3                    D) 2, 4

392. *Eliboylar bundan ko'chib boradi,*

*Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.*

*Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,*

*Borayotir qalmoq elni so'roqlab.*

Keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida sodir bo'lgan fonetik hodisalar haqida berilgan fikrlardan nechtasi noto'g'ri?

1) bir o'rinda sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush tushgan;

2) ikki o'rinda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush almashgan;

3) ikki o'rinda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush tushgan;

4) bir o'rinda sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush ortgan.

A) ikkitasi                B) to'rttasi

C) uchtasi                D) bittasi

393. Berilgan gaplarning qaysi birida fonetik o'zgarishlarning faqat bir turi uchraydi?

A) Xalq ertaga yaxshiroq yashashni istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerakligini anglashi shart.

B) Ezilib yig'layotgan bolani ko'rib bolaligi esiga tushib ketdi va uning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o'rindiqla o'tqazdi.

C) Qishlog'im, taqdir toshi bizni sening bag'ringdan naqadar yiroqlarga, irg'itmasin, biz qanchalik rohat-farog'atda yashamaylik, o'sha noningning ta'mi og'zimizda turaveradi.

D) Tana taftidan issiq holga kelgan tuproqqa qo'li tegibdi va undan bir chimdim olib og'ziga tashlabdi.

394. *Eliboylar bundan ko'chib boradi,*

*Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.*

*Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,*

*Borayotir qalmoq elni so'roqlab...*

Keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlar soni va turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) 5 ta: tovush almashishi va tovush tushishi

B) 6 ta: tovush almashishi, tovush orttirilishi va tovush tushishi

C) 5 ta: tovush orttirilishi, tovush almashishi va tovush tushishi

D) 4 ta: tovush almashishi, tovush orttirilishi va tovush tushishi

395. Berilgan gaplardan nechtasida to'rtta so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

1. Sening ulug'liging, ,

Bizni bilmaganga bo'lsin yorlig'ing.

2. Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,

Botayotir qalmoq elni so'roqlab...

3. Eliboylar bundan ko'chib boradi,

Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb,

4. Dudog'ing guldun xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'ringa jajji boshginangni qo'y.

A) bittasida B) to'rttasida

C) ikkitasida D) uchtasida

396. *Yuragimda ko'pdir alamli dardlar,*

*Mening qizim – sening singling, nomardlar.*

*Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,*

*Suyagimni yongan o'tga solasan.*

Keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida kuzatilgan fonetik o'zgarishlar soni va turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) 3 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush tushishi

B) 3 o'rinda tovush ortishi va 3 o'rinda tovush tushishi

C) 2 o'rinda tovush almashishi va 5 o'rinda tovush tushishi

D) 2 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush ortishi

397. So'zga qo'shilganda so'z asosidagi lablanmagan tor unli tovushni lablangan tor unli tovushga aylantira oladigan qo'shimchalar ko'rsatilgan javobni toping.

1) -vchi; 2) -q; 3) -qi; 4) -v; 5) -illa

A) 1, 2, 5 B) 1, 4, 5

C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

397. *Shaldiroq kishanlar hukmiga Achimnay berarsan yoshliging.*

*Yuzlaring burishmas og'riqdan,*

*Farog'at bag'ishlar ochliging.*

Ushbu she'riy parchada nechta yasama so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) 4 B) 5 C) 2 D) 3

398. Birinchi qismida tovush o'zgarishi mavjud bo'lgan qo'shma so'zlarni aniqlang.

1) sovuqmijoz; 2) quruqlik; 3) atama-shunos; 4) buyruqbozlik; 5) achchiqtosh; 6) sassiqpopishak

A) 1, 5, 6                      B) 1, 3, 5

C) 1, 2, 3, 5                  D) 1, 4, 5, 6

399. Berilgan gaplarning nechtasida ham so'z yasovchi, ham shakl yasovchi qo'shimchalar ta'sirida fonetik o'zgarishlar sodir bo'lgan?

1. Sen duo qilsang bas – "Kam bo'lma, o'g'lim",

Tuprog'i ko'zimga to'tiyo, elim.

2. Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,  
Borayotir qalmoq elni so'roqlab..

3. Eliboylar bundan ko'chib boradi,  
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.

4. Dudog'ing guldani xushbo'y,  
yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'ringa jajji  
boshginangni qo'y.

A) to'rttasida                  B) bittasida

C) ikkitasida                  D) uchtasida

400. O'shanda qilinadigan ishlarning sanab sanog'iga yetolmagandim.

Ushbu gapda necha o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

A) 6    B) 8    C) 7    D) 4

401. O'shanda qilinadigan ishlarning sanab sanog'iga yetolmagandim.

Ushbu gapdagi yasama so'zlarning yetakchi morfemasida nechta fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

A) 2 ta                          B) 4 ta

C) 1 ta                          D) 3 ta

402. Seni jindek xushvaqt qilgani,  
Seni jindek xushbaxt qilgani,  
Tagsiz jarliklardan o'tolmaganim,  
Seni so'nggi yo'lga kuzatolmaganim,

Tog'day zil,

Abadiyatdek cheksiz armon  
bo'lib qoldi dilimda,

Onaginam...

Ushbu she'riy parchada necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

A) 2    B) 4    C) 3    D) 5

403. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy  
shu'lasini bir mayin,

Kel, oppog'im, kel, erkam, men  
seni allalayin.

Dudog'ing guldani xushbo'y,  
yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'ringa jajji  
boshginangni qo'y.

She'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar tarkibidagi yopiq bo'g'inlar sonini toping.

A) 10    B) 8    C) 7    D) 9

404. Mendan beso'roq qabul  
qilingan bunday shubhali  
qarorlaring nafaqat sening, balki  
ikkalamizning ham biznesdagi  
o'mimizga, mavqeyimizga salbiy  
ta'sir qilishi mumkinligini o'ylab  
ko'rdingmi?

Ushbu gapda necha o'rinda fonetik o'zgarish sodir bo'lgan?

A) 6                              B) 8

C) 7                              D) 5

## LEKSIKOLOGIYADAN SAVOLLAR

### SO'Z VA LEKSEMA. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR. MA'NO KO'CHISH TURLARI

1. Tilshunoslikning qaysi bo'limlarida so'z o'rganiladi?

- A) leksikologiya, morfologiya, sintaksisda
- B) fonetika, leksikologiya, morfologiyada
- C) leksikologiya va morfologiyada
- D) orfografiya va leksikologiyada

2. So'zning qanday tomonlari mavjud?

- A) 2 ta: moddiy va ma'no tomoni
- B) 3 ta: moddiy, ichki va ma'no tomoni
- C) 2 ta: tashqi va ichki tomoni
- D) 2 ta: zohiriy va botiniy tomoni

3. So'zning moddiy tomonini nimalar tashkil etadi?

- A) tovushlar ketma-ketligi
- B) harflar ketma-ketligi
- C) tovush yoki harflar ketma-ketligi
- D) unli va undoshlar miqdori, bo'g'in,

urg'u

4. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi ...

- A) gap
- B) fikr
- C) so'z
- D) jumla

5. Grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi ...

- A) so'z
- B) leksema
- C) ibora
- D) morfema

6. Qanday til birligiga nisbatan so'z atamasi qo'llanadi?

- A) leksik
- B) grammatik
- C) leksik, fonetik
- D) leksik, grammatik

7. Tilning lug'aviy ma'no bildiruvchi birligi ...

- A) so'z
- B) leksema
- C) ibora
- D) morfema

8. Lug'atlarda bosh so'z sifatida qanday til birligi beriladi?

- A) so'z
- B) leksema
- C) ibora
- D) morfema

9. So'zlar nutq tarkibidan ajratilganida uning qaysi ma'nosi namoyon bo'ladi?

- A) ko'chma ma'nosi
- B) o'z ma'nosi
- C) lug'aviy ma'nosi
- D) grammatik ma'nosi

10. So'zlar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanida uning qaysi ma'nosi namoyon bo'ladi?

- A) ko'chma ma'nosi
- B) o'z ma'nosi
- C) yondosh ma'nosi
- D) grammatik ma'nosi

11. So'z atamasi haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

1) nutq jarayonida har bir so'z leksik va grammatik ma'nolar uyg'unligidan tashkil topadi; 2) leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan so'z atamasi qo'llaniladi; 3) grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun so'z atamasi qo'llaniladi; 4) so'z morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi; 5) so'z leksema va grammatik qo'shimchalarga bo'linadi.

- A) 1, 2, 4, 5
- B) 2, 3, 5
- C) 1, 3, 4
- D) 1, 2, 3, 4, 5

12. Qaysi ma'no so'zning bosh ma'nosi sanaladi?

A) so'zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi

B) so'zning nutq tarkibida boshqa so'zlar yordamida anglatadigan ma'nosi

C) so'zning gap tarkibida anglatadigan ma'nosi

D) so'zning ko'chma ma'nolaridan biri

13. Yangi paydo bo'lgan so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?

A) ko'p ma'noli B) bir ma'noli

C) polisemantik D) A va C

14. Bir ma'noli so'zlarga qaysi so'zlar kiradi?

A) ilmiy atamalar

B) kasb-hunarga doir atamalar

C) neologizmlar

D) A, B, C

15. Bir ma'noli so'zlarga qanday til birliklari kiradi?

A) ilmiy atamalar

B) kasb-hunarga doir so'zlar

C) neologizmlar

D) hammasi kiradi

16. «Tosh» so'zining qaysi ma'nosi faollashib, toshbag'ir, bag'ritosh birikmalari paydo bo'lgan?

A) sovuqlik ma'nosi

B) qattqlik ma'nosi

C) silliqlik ma'nosi

D) A va B

17. «Ko'z» so'zining qaysi ma'nosini faollashtirish asosida daraxtning ko'zi ma'nosi kelib chiqqan?

A) qabariqlik

B) yorug'lik bilan ta'minlash

C) yumaloqlik

D) tiniqlik

18. «Ko'z» so'zining qaysi ma'nosini faollashtirish asosida derazaning ko'zi ma'nosi kelib chiqqan?

A) qabariqlik

B) yorug'lik bilan ta'minlash

C) yumaloqlik

D) tiniqlik

19. Ko'p ma'noli so'zlar haqida berilgan noto'g'ri hukmni aniqlang.

A) Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi

B) Ko'p ma'noli so'zlardan biri to'g'ri ma'no, qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi

C) Ko'p ma'noli so'zlarda ko'chma ma'no nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanida namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganida esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi

D) Ko'p ma'noli so'zlar yangi paydo bo'lgan so'zlarni, kasbiy atamalarni o'z ichiga oladi

20. Qaysi qatorida leksema berilgan?

A) gulchi

B) gullar

C) gulni

D) guldari

21. *Ishladik* so'zidagi leksemani toping.

A) ish

B) ishla

C) ishladi

D) ishladik

22. So'z va leksema haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri?

A) leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan leksema atamasi qo'llanadi

B) grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun so'z atamasi qo'llanadi

C) so'z – morfologiya birligi, leksema – leksikologiya birligi

D) so'zlar leksema va grammatik qo'shimchalarga bo'linmaydi

23. Nutq tarkibida so'zning boshqa so'zlar bilan bog'langanida namoyon bo'ladigan ma'nosi qanday ma'no hisoblanadi?

A) ko'chma ma'no

B) tub ma'no

C) yasama ma'no

D) bosh ma'no

24. Qaysi vositalar grammatik ma'no ifodalovchi hisoblanmaydi?

- A) so'z yasovchi qo'shimchalar
- B) shakl yasovchi qo'shimchalar
- C) so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar
- D) takrorlar

25. So'zning ko'chma ma'nosi deyilganda nima nazarda tutiladi?

- A) So'zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi
- B) Nutq tarkibidagi boshqa so'zlar yordamida anglashiladigan ma'nosi
- C) Morfologik yo'l bilan yasalgan so'zlar ma'nosi
- D) Sintaktik yo'l bilan yasalgan va harakat bildiruvchi so'zlar

26. *Uyga qarab yurdi.* Ushbu gapdagi qarab so'zining grammatik ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) fe'l, ravishdosh, holat ma'nosini anglatadi
- B) ravish, tarz ravishi harakatning qay tarzdaligini ifodalaydi
- C) yordamchi so'z, ko'makchi, harakat yo'nalishini ifodalaydi
- D) yuklama, kuchaytiruv ma'nosini anglatadi

27. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi qanday ataladi?

- A) leksema                      B) so'z
- C) bo'g'in                        D) morfema

28. Noto'g'ri hukmni belgilang.

- A) Tahlil jarayonida so'zlar leksema va grammatik qo'shimchalarga bo'linadi
- B) Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi
- C) Grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligiga nisbatan leksema atamasi qo'llanadi
- D) Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi leksema sanaladi

29. *Maslahat* so'zi qaysi so'z bilan birikib ko'chma ma'noni hosil qiladi?

- A) maslahat oldi    B) maslahat soldi

C) maslahat qildi    D) hammasi

30. *Toshmoq* so'zi qaysi so'z bilan qo'llansa faqat o'z ma'nosida keladi?

- A) suv                              B) ichi
- C) quvonchi                      D) zavqi

31. *Ochmoq* so'zi qaysi so'z bilan qo'llansa o'z va ko'chma ma'noda ishlatiladi?

- A) eshik                            B) ko'ngil
- C) yo'l                              D) hammasi

32. *Iliq* so'zi qaysi so'z bilan qo'llansa o'z ma'nosida qo'llaniladi?

- A) suhbat                        B) gap
- C) muomala                      D) ovqat

33. Qaysi so'z birikmasida ko'chma ma'nodagi so'z berilmagan?

- A) ishning boshi
- B) qushning boshi
- C) kungaboqar boshi
- D) tog'ning boshi

34. Quyidagi birliklarning qaysi biridan nutqda har gal tayyor material sifatida foydalanmaymiz?

1) so'z; 2) qo'shma so'z; 3) so'z birikmasi; 4) ibora (frazeologik birlik).

- A) 2, 3, 4                        B) 3, 4
- C) 1, 2, 3, 4                    D) 3

35. Bir ma'noli so'zlar qaysi qatorda berilgan?

- A) ko'z, qosh                    B) og'iz, bosh
- C) etak, oyoq                    D) chumchuq, ravish

36. Qaysi qatordagi xususiyat yordamchi so'z turkumlariga oid so'zlarga xos emas?

- A) grammatik ma'noga egalik
- B) lug'aviy ma'noga egalik
- C) grammatik vazifaga egalik
- D) biror gap bo'lagi vazifasida kela olmaslik

37. *Biz muzeyga bordik.* Ushbu gapdagi bordik so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

- A) fe'l
- B) I shaxs ko'plikda



C) kesim

D) lug'aviy ma'nosi berilmagan

38. Qanday so'zlar bosh va ko'chma ma'nolarga ega?

A) bir ma'noli so'zlar

B) ko'p ma'noli so'zlar

C) atamalar

D) barcha mustaqil so'zlar

39. Bir so'zning matn mazmunidan kelib chiqib bir necha ma'no ifodalashi qanday nomlanadi?

A) sinonimiya      B) antonimiya

C) omonimiya      D) ko'pma'nolilik

40. Quyidagi birliklarning qaysi biridan nutqda har gal tayyor material sifatida foydalanamiz?

1) so'z; 2) qo'shma so'z; 3) so'z birikmasi; 4) ibora (frazeologik birlik).

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 3

C) 1, 2, 4      D) 1, 4

41. Qaysi qatorda lug'aviy birliklar nomi sanalgan?

A) tovush, qo'shimcha, so'z

B) qo'shimcha, so'z, ibora, gap

C) ibora, gap

D) so'z, ibora

42. So'zlarning bir va ko'pma'noliligi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) fonetikada

B) frazeologiyada

C) leksikologiyada

D) uslubshunoslikda

43. Bir xil grammatik ma'noga ega so'zlar qatorini toping.

A) kitob, bahor, a'lochi, bog'

B) o'qimoq, orzu, bilim, erishmoq

C) qovun, gul, bola, qush

D) shirin, oqish, qor, yashil

44. Ammo yigit sevinib ketganidan hatto gapirolmay qolgan edi. Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?

A) 1 ta      B) 2 ta

C) 3 ta      D) 4 ta

45. Quyidagilarning qaysi biri tilning lug'aviy birligi hisoblanmaydi?

A) u      B) bosh qotirmoq

C) bir nafas      D) kelib qolmoq

46. Qaysi qatordagi birliklar lug'aviy birlik hisoblanmaydi?

A) frazeologik birikmalar, so'z birikmalari, gap

B) tovush, qo'shma so'z

C) so'z va frazeologik birikmalar

D) so'z birikmalari, gap

47. Quyidagi birliklardan qaysi biri nutqqa tayyor holda olib kiriladi?

1) so'z; 2) qo'shma so'z; 3) ibora; 4) birikma; 5) tasviriy ifoda; 6) gap.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 2, 3      D) 1, 2, 3, 5

48. Qaysi qatorda ko'chma ma'noli so'z berilgan?

A) Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsoldir.

B) Ko'ldagi suv jimirlab turar, silliq toshlarga ohista urilardi.

C) Elyoming vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.

D) Yomon odamni tanqid qil, yaxshi odamga taqlid qil.

49. Butun orqali bo'lakni ifodalash ma'no ko'chishining qaysi turiga xos?

A) sinekdoxa      B) metafora

C) metonimiya      D) vazifadoshlik

50. Narsalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik asosidagi ma'no ko'chirilishi qanday nomlanadi?

A) sinekdoxa      B) metafora

C) metonimiya      D) vazifadoshlik

51. Bir ma'noli so'zlar qatori toping.

A) sa'va, gulxayri, pazanda

B) yengil, mayin, yemoq

C) yutmoq, shirali, achitmoq

D) gavhar, girdob, yashnamoq

52. Yunonchadan olingan bo'lib, birgalikda anglash ma'nosini bildiradigan so'z qaysi?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa    D) kinoya

53. Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli qaysi?

- A) metonimiya    B) metafora  
C) vazifadoshlik    D) sinekdoxa

54. Ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud. Bunday turlarga bo'linishi nimaga asoslanadi?

- A) nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra  
B) shakl va ma'no munosabatiga ko'ra  
C) so'zning tashqi va ma'no tomoniga ko'ra  
D) hamma fikr to'g'ri

55. Burun so'zi «*tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi*» ma'nosini ifodalash bilan birgalikda «*yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi*» ma'nosini ham ifodalaydi. Bunda predmetlar o'rtasidagi qanday o'xshashlik birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan?

- A) shakliy o'xshashlik  
B) vazifaviy o'xshashlik  
C) tashqi o'xshashlik  
D) joylashish o'miga ko'ra o'xshashlik

56. «*Prezidentimiz adashganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib berdi*». Ushbu gapdagi to'g'ri yo'l birikmasida qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) sinekdoxa  
D) ma'no ko'chishi bo'lmagan

57. «*Tun o'z o'rnini tongga bo'shatib berdi*». Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) sinekdoxa  
D) ma'no ko'chishi bo'lmagan

58. *Beodob qizning so'zini onasi tekislab turdi*. Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) sinekdoxa  
D) ma'no ko'chishi bo'lmagan

59. *Do'st, yosh, nafis, yuz, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq*. Berilgan so'zlardan nechitasi ko'chma ma'noda ham qo'llanadi?

- A) 10 ta      B) 11 ta      C) 8 ta  
D) hammasi ko'chma ma'noda qo'llanadi

60. 1) *zarar yetkazdi*; 2) *zarar ko'rdi*; 3) *zarar qildi*.

Ushbu birliklarning qaysilarida metafora asosida ma'no ko'chgan?

- A) 1, 2, 3  
B) 1, 3  
C) 2, 3  
D) ma'no ko'chmagan

61. *To'rt egat palak ekdim*. Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) sinekdoxa  
D) ma'no ko'chishi bo'lmagan

62. Qaysi qatorda tashqi o'xshashlik asosidagi metaforaga misol berilgan?

- A) qozonning qulog'i  
B) tandimning og'zi  
C) itning dumi  
D) hammasi to'g'ri

63. *Sekinroq gapiring, aylanay, devorning ham qulog'i bor*. Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) vazifadoshlik  
C) sinekdoxa  
D) ma'no ko'chishi bo'lmagan

64. «Semurgʻ» «Soʻgʻdiyona»ni qabul qilib, raqiblar darvozasiga ketma-ket beshta toʻp kiritishga muvaffaq boʻldi. Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa     D) kinoya

65. Yigitning uylanayotganini eshitgan qizning qalbi yaralandi. Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa     D) kinoya

66. Odam qulogʻi va qozon qulogʻi birikmalari qaysi jihatdan oʻxshaydi?

- A) shakliy oʻxshashlik  
B) qayerda joylashishi boʻyicha oʻxshashlik  
C) tashqi oʻxshashlik  
D) A va C

67. *Mungli kuy yurakni timar edi.*

Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa     D) kinoya

68. 1. *Palak – maʼlum bir urugʻdan koʻkarib chiqib, yer yuzalab oʻsib, gullab hosil beradigan poliz oʻsimligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak.* 2. *Palak – polizchilar nutqida baʼzan qovun yoki handalak urugʻi tushunchasida ham qoʻllaniladi.* 3. *Palak – xalqimiz urf-odatiga koʻra qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi.* Ushbu gaplarning qaysi birida *palak* soʻzi bir soʻzning turli maʼnolarini ifodalaydi?

- A) hammasida bir soʻzning turli maʼnolari  
B) 1, 2      C) 1, 3      D) 2, 3

69. 1. *Soʻlgʻin palaklarda oʻsmay qolib ketgan xamaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib*

*koʻrinar edi.* 2. *Toʻrt egat palak ekdim.* 3. *Poyiga ipakdan palak soldilar, Soʻng yuksak bir taxtni etdilar tortiq.* 4. *Atrofdan boʻlayotgan voqealarga Moʻydingning parvoyi palak edi.* 5. *Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da.*

Ushbu gaplardagi «palak» soʻzini izohlang.

A) 1-, 2-, 5-soʻzlardagi palak soʻzi bir soʻzning turli maʼnolari, 3-, 4- gaplardagi palak soʻzi ularga nisbatan shakldosh

B) 1-, 2-soʻzlardagi palak soʻzi bir soʻzning turli maʼnolari, 3-, 4-, 5-gaplardagi palak soʻzi ularga nisbatan shakldosh

C) 1-, 5-soʻzlardagi palak soʻzi bir soʻzning turli maʼnolari, 3-, 2-, 4-gaplardagi palak soʻzi ularga nisbatan shakldosh

D) hammasida bir soʻzning turli maʼnolari

70. Metafora usuli bilan qoʻyilgan nomlarni toping.

- A) Boʻriboy, Qoplonbek  
B) Gulnora, Feruza  
C) hammasi metafora usuliga asoslangan  
D) Charos, Asaxon

71. *Navbatim sumka koʻtargan «jinsi»dan keyin.*

Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa     D) kinoya

72. *Ichak-chavogʻim tugadi, endi kalla sotaman.*

Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa     D) kinoya

73. *Olma guli gul emas, taqsam, chakkamda turmas.*

Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi sodir boʻlgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

74. «Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib kelmoq» birikmasida ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

75. «Sajda aylar zohid ul mehrob aro,

Men qilurman sajda egma qoshima».

Ushbu parchada ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

76. «Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi».

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

77. Guruhimizning birlashishi uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi.

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

78. Olimpiadada birinchilikni bu gal Buxoro olib ketdi.

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

79. Samolyotning qanoti o'ta pishiq materialdan ishlangan.

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

80. «G'ildirakni yurgizmoq» birikmasida ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

81. «Cho'lloqqa achinish bilan qaramoq» birikmasida ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

82. Qaysi so'zlar ham metafora, ham vazifadoshlik asosida ko'chma ma'noda qo'llana oladi?

A) chiroq, quloq, etak

B) oyoq, bosh, ko'z

C) qanot, qosh, ko'z

D) yurak, burun, og'iz

83. Qovun navlari nomidan qaysi biri tashqi o'xshashlikka asoslanib qo'yilgan?

A) obinovvot      B) umriboqiy

C) eskichopon      D) bo'rikalla

84. Quyida berilgan she'riy parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

*Tong otar chog'ida juda sog'inib,  
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.*

(G.G'ulom)

A) metonimiya      B) metafora

C) vazifadoshlik      D) sinekdoxa

85. Qaysi qatorda oyoq so'zida ma'no vazifadoshlik asosida ko'chgan?

A) Salim kelib bemoming oyog'iga o'tirdi.

B) Mahallamizda begona oyoqlar paydo bo'ldi.

C) Stolning oyog'i qiyshayib qolgan.

D) Hech birida ma'no ko'chmagan.

86. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chgan qatorni toping.

A) qozonning qulog'i

B) samolyotning qanoti

C) varrakning dumi

D) ishning ko'zi

87. Jo'shadi buloqning kumush yoshlari,

Ham mungli, ham shirin jildirashlari.

She'riy parchada ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?

A) metafora      B) metonimiya

C) vazifadoshlik      D) sinekdoxa

88. Quyidagi gapda qaysi usulda ma'no ko'chgan?

*Lola kun bo'yi tik oyoqda turdi.*

A) metafora

B) metonimiya

C) sinekdoxa

D) ma'no ko'chmagan

89. Qaysi ma'no ko'chish turi yunoncha so'z bo'lib, «qayta nomlash» degan ma'noni beradi?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

90. «Hojimatov damlasi» birikmasidagi damlamasi so'zi tushib qolsa, qanday ma'no ko'chishi kuzatiladi?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

91. *Yosh, yuz, mol, oyoq, bel, yengil, sana, uch, quloq*

Bu yerda nechta polisemantik so'z bor?

A) 8 ta      B) 7 ta

C) 6 ta      D) 9 ta

92. Quyidagilardan metonimiya asosida ma'no ko'chgan so'zlarni toping.

A) «Chorsu» (mehmonxona), Rentgen (apparat), Oltin vodi (poyezd)

B) devorning qulog'i, dutorning qulog'i, derazaning ko'zi

C) amarfuzin malhami, siyob olmasi, stolning oyog'i

D) hammasi to'g'ri

93. *Har odamning gullagan davri bo'ladi – umrning gurkiragan davri!*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi ifodalangan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

94. *Ildizimizning tiriklik zamiriga chuqur ketishi shu davrda, yoshlikda, gullashimiz, qanday*

*gullashimiz bilan bog'liq hodisa.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

95. «Lermontovni tashlamadim hech,

*So'ngra qo'lga oldim Hofizni.*

*Pushkin menga ko'rsatdi har kech*

*Yig'lab turgan bir cherkas qizni».*

Ushbu parchada ma'no ko'chishining qaysi biri qo'llangan?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

96. **Jayron**, nega ko'zing to'la yosh? **Jiyron** tog'dan tog'ga o'tib, qayerga borishini bilmasdi. Ajrati ko'rsatilgan so'zlar qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) jayron – ohuning bir turi, jiyron – tog' echkisi

B) jayron – tog' echkisi, jiyron – igna bilan qoplangan kemiruvchi hayvon

C) jayron – ohuning bir turi, jiyron – qizg'ish malla tusli ot

D) jayron – urg'ochi bug'u, jiyron – ohuning bir turi

97. *Voy, manavi bolaning shirinligini!*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chishini aniqlang.

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

98. *Saida o'n yillikni bultur tugatgan edi.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) kinoya

99. *Muqimiyani bir-bir varaqlab ichimda o'qiy boshladim.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa    D) kinoya

100. *Rost aytasiz, Maxsum aka, men axir maktabda ishlayman, boshlang'ich sinflar uchun «G'uncha» yaxshi.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa    D) kinoya

101. Quyidagi qaysi gapda sinekdoxa asosida ma'no ko'chgan so'z mavjud?

A) Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurishga otlandi.

B) Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la Bezamoq chog'idir umr daftarin.

C) Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting.

D) Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo'l ochadi.

102. Quyida keltirilgan gapda ma'no ko'chishining turini belgilang.

*Ikki kundan beri tuz totmagan edi.*

- A) metafora      B) metonimiya  
C) vazifadoshlik    D) sinekdoxa

103. Berilgan gapda tagiga chizilgan so'zda qaysi usulda ma'no ko'chgan?

*Onam qoshida tiz cho'kkan, qora qumg'on...*

- A) metafora      B) metonimiya  
C) vazifadoshlik    D) sinekdoxa

104. G'o'za uyasiga birlashadigan so'zlar berilgan qatomi aniqlang.

- A) g'o'za, paxta tolasi, texnika, ekin  
B) paxta, ip, moy, kunjara  
C) jun, ip, moy, sovun  
D) g'o'za, gazmol, texnika, chorva

105. So'z ma'nosi vazifadoshlik asosida ko'chgan so'z birikmasini belgilang.

- A) samolyot dumi    B) tandir og'zi  
C) devor qulog'i    D) rentgen apparati

106. Quyida keltirilgan gapda ma'no ko'chishining turini aniqlang.

*Men Farmonbibi xonadoniga radiodan keldim.*

- A) metafora      B) metonimiya  
C) vazifadoshlik    D) sinekdoxa

107. *Normatni bunchalik cho'kib qolgan deb o'ylamagandim.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) kinoya

108. «E, sizlar hukumat emasmi?» – deb yana shovqin soldi eshon.

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) kinoya

109. *Ehtiyot bo'lib gapir, bo'tam, axir oramizda quloqlar yo'q emas.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

- A) vazifadoshlik    B) metonimiya  
C) metafora        D) sinekdoxa

110. Sovuq odam, sovuq qish kabi birikmalardagi sovuq ma'nosiga ko'ra qanday so'z?

- A) ma'nodosh (sinonim)  
B) ko'p ma'noli so'z  
C) shakldosh (omonim)  
D) zid so'z (antonim)

111. *O'n qo'lma o'n bir uzuk Taqib qo'yinglar, qizlarim.*

*Zarli kovush chang bo'lmasin, Qoqib qo'yinglar, qizlarim.*

Ushbu xalq qo'shig'idan olingan birinchi misrada ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) vazifadoshlik    B) metonimiya  
C) metafora        D) sinekdoxa

112. Qaysi gapda *quloq* so'zi o'z ma'nosida qo'llangan?

A) Qozonchining erki bor, qaydan quloq chiqarsa.

B) Otang mirob bo'lsa ham, quloqning boshida bo'l.

C) Ota radioning qulog'ini buradi.

D) Qo'chqor qo'ng'iroqli quloqlarini erkalanib silkidi.

113. *Bo'ri so'radi: «Hoy qizil shapkacha, qayerga ketyapsan?» «Buvimnikiga», – javob berdi u.* Ushbu parchada ko'chimning qaysi turi qo'llangan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

114. Sinekdoxa usuli bilan ma'nosi ko'chgan so'z qatnashgan gapni toping.

A) Fuzuliyni oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.

B) Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib kelishdi.

C) Do'stlar suhbatini qizidi.

D) Eski buloqning ko'zi ochildi.

115. *Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurilishiga otlandi.*

Ushbu gapda ostiga chizilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) vazifadoshlik      B) metonimiya  
C) metafora      D) sinekdoxa

116. Quyidagi birikmalardagi tutmoq so'zining shakl va ma'no turlarini aniqlang.

1) qochoqni tutmoq; 2) parda tutmoq; 3) ro'za tutmoq; 4) suv tutmoq.

A) 1, 2, 3, 4 – shakldosh so'z

B) 1, 4 – ko'p ma'noli so'z, 2, 3 – shakldosh so'z

C) 1, 2, 3, 4 – ko'p ma'noli so'z

D) 1, 2, 3 – ko'p ma'noli so'z, 4 – shakldosh so'z

117. Predmetlarning joylashish o'rniga ko'ra so'z ma'nosi ko'chgan qatomi toping.

A) varrak dumi, samolyot dumi

B) tandır og'zi, g'or og'zi

C) devor qulog'i, qozon qulog'i

D) buloq ko'zi, uzuk ko'zi

118. 1) chiroqni o'chirmoq; 2) yong'inni o'chirmoq; 3) ovozni o'chirmoq; 4) yozuvni o'chirmoq.

Ushbu birikmalardagi o'chirmoq so'zi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

A) 1- va 2-birikmalardagi so'z 3- va 4-birikmalardagi so'zga shakldosh

B) to'rtta mustaqil so'zning shaklan mos kelishi

C) bir so'zning turli ma'nolari

D) 1-, 2-, 3-birikmalardagi so'z 4-birikmalardagiga nisbatan shakldosh

119. *Avtomobilning eshigini ochib do'stini chiqarib oldi.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) vazifadoshlik      B) metonimiya

C) metafora      D) sinekdoxa

120. *Askarlarimiz Vatan sarhadlarini ko'z bo'lib, quloq bo'lib tun-u kun sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) vazifadoshlik      B) metonimiya

C) metafora      D) sinekdoxa

121. *Bu xushxabarni do'stlarimga yetkazish uchun oyoq bo'lib yugurdim.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) vazifadoshlik      B) metonimiya

C) metafora      D) sinekdoxa

122. *Hozirgi yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) vazifadoshlik      B) metonimiya

C) metafora      D) sinekdoxa

123. *Ikki ko'zi har nav mollar bilan to'la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

- A) vazifadoshlik B) metonimiya  
C) metafora D) sinekdoxa

124. *Chorva desam deguday. Tuyoq'imiz ko'paysa ko'paydiki, kamaygani yo'q.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

- A) vazifadoshlik B) metonimiya  
C) metafora D) sinekdoxa

125. *Uzoq yurdim keksa tog' sari,*

*Goh odimlab, gohida chopdim.*

*Nuragan tosh, qoya tagidan*

*Go'yoki tog' ko'zlarin topdim.*

Berilgan she'riy parchadagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) vazifadoshlik B) metonimiya  
C) metafora D) sinekdoxa

126. *Tashqarida o'tlab yurgan qo'y-qo'zilarni ko'rib: «Qiziq, bu yerdagi tuyoqlar soni nechta ekan-a?» – deb so'radi.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

- A) vazifadoshlik B) metonimiya  
C) metafora D) sinekdoxa

127. *Bitta shu tuyoq bilan oltita bolani boqdim.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini izohlang.

- A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoxa D) ibora qo'llangan

128. Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi biri metonimik ma'no ifodalaydi?

A) U tarvuzning bir *pallasini* paqqos tushirdi.

B) Qishloq markazida *samovar* ochildi.

C) Derazaning singan *ko'ziga* plyonka tortib qo'yilgan.

D) Maktabning *biqinida* kasalxonaning bo'lishi gigiyenaga xilof.

129. *Daryoning cheti, chet mamlakat, chetdan tomosha qilib turmoq* birikmalaridagi *chet* so'zi ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z hisoblanadi?

- A) sinonim so'z B) antonim so'z  
C) omonim so'z D) ko'p ma'noli so'z

130. Qaysi qatordagi atamalar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?

A) taqlid so'z, jamlovchi otlar, nisbat yasovchi qo'shimcha

B) paronimlar, qo'shma gap, rasmiy uslub

C) aralash qo'shma gaplar, omonimlar, sifatlar

D) bog'lama, so'z birikmasi, kirish so'z

131. Metonimiya asosida ma'no ko'chish qoidasi qaysi javobda berilgan?

A) shaxs yo predmetning nomi o'rnida biror bo'lak orqali o'sha tushunchaning berilishi

B) shaxs-predmetni unga bog'liq bo'lgan boshqa nom bilan ifodalash

C) so'zni aks ma'noda qo'llash

D) biror predmet belgisining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish

132. *Urush ko'p odamlarning yostig'ini quritdi.*

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

- A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

133. So'zning o'z ma'nosidan ko'chishi qaysi uslublarda uchraydi?

- A) rasmiy, ilmiy  
B) publitsistik, ilmiy  
C) badiiy, so'zlashuv  
D) rasmiy, publitsistik

134. *O'n qo'li – o'n hunar* iborasida ma'no ko'chishining qaysi turi uchraydi?

- A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik



135. Musulmonlar ro'za tutadigan oy ham, shu oyda bolalar aytadigan qo'shiq ham «ramazon» deb yuritiladi. Bu ma'no ko'chishining qaysi turiga misol bo'la oladi?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

136. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zni toping.

- A) Egaming qoshi naqshdor edi.  
B) Hademay suruvda tuyoqlar ko'payadi.  
C) Bulbulning ishq – gulda.  
D) Qabr ustida butun Hirot yig'ladi.

137. Qaysi qatordagi so'zlar tarkibida shakl yasovchi qo'shimchalar qatnashgan?

- A) ochiq, o'roq, yoyiq  
B) qo'zichoq, bolalar, kelinchak  
C) toshqin, bog'bon, gulla  
D) o'tloq, sersuv, ishla

138. *Allaqanday qo'llar uni suyab-surgab amal kursisiga o'tqazib qo'ydi.*

Ushbu gapda qo'llangan qo'llar so'zida ma'no qanday yo'l bilan ko'chganini aniqlang.

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

139. Quyidagi o'xshatishlarning qaysi biri metafora yo'li bilan hosil qilingan?

- A) yong'oq (daraxt ma'nosida)  
B) xazon bo'lmoq (o'lmoq ma'nosida)  
C) oqsoqol (katta ma'nosida)  
D) besh qo'l (barmoq ma'nosida)

140. *Mehmon kelib kasalning oyog'iga o'tirdi.*

Ushbu gapdagi oyoq so'zida qanday ma'no ko'chishi sodir bo'lgan?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

141. Sinekdoxa yordamida ma'nosi ko'chgan gapni toping.

A) Yoshlarni fan cho'qqilarini egallashga undaydi.

B) Uning zehni juda o'tkir, o'zi tirishqoq edi.

C) Men ham timoqqa zor emasman.

D) Har bir kishining ko'zi cho'l tomonga tikilgan edi.

142. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zli birikmalar qaysi qatorda berilgan?

- A) non isi, harbiy xizmat, yoqimli hid  
B) hunarli kishi, ahil oila, yog'och qoshiq  
C) kumush osmon, shishaning og'zi, po'lat iroda  
D) ikki bola, shirin qovun, chuqur ko'l

143. *Rahmi kelib bulutning yig'lab to'kar yoshini,  
Qushlar qochar, majnuntol ko'taradi boshini.*

Ushbu misralarda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) sinekdoxa      B) metafora  
C) metonimiya      D) vazifadoshlik

143. Quyidagi gaplarning qaysi birida gul so'zi ko'chma ma'noda?

1. *Turmush go'zal va shirin, kundan kun yashnar gulday.*

2. *Yashnamoqda gul turmush, biz tinchlikni istaymiz.*

3. *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz.*

4. *Sen uy ichining cho'risi bo'lma, guli bo'l, guli.*

- A) 1, 4      B) 1, 3, 4  
C) 2, 4      D) 1, 2, 3, 4

144. Gaplarning qaysi birida ko'chma ma'noli so'z berilgan?

A) Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o'rgangan.

B) Oltin o'tda bilinar, odam-mehnatda.

C) Tabriklardan keyin majlisning rasmiy qismi tugadi.

D) Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz hunar.

145. *Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz faqat shul Otabekdir, - deb yozdi Yusufbek hoji.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi usuli qo'llangan?

- A) metonimiya    B) metafora  
C) vazifadoshlik    D) sinekdoxa

146. *Haybatli sharsharalar sochar kumush zarralar.*

Gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) ma'no ko'chish bo'lmagan  
D) sinekdoxa

147. *Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari tobora ko'payib borayotgan edi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora    B) metonimiya  
C) sinekdoxa    D) vazifadoshlik

148. Uslubiy betaraf so'zlarni belgilang.

- A) traktor, plug, mufta  
B) ega, gap, undosh  
C) futbol, kurash, shaxmat  
D) go'sht, gap, choyxona

149. *Tuzsiz she'rlarim deb shirindan shirin*

*Bolalarim yurar oyoq uchida.*

(M.Yusuf)

Ushbu satrda ma'no ko'chishining qaysi ko'rinishi bor?

- A) metafora    B) metonimiya  
C) sinekdoxa    D) vazifadoshlik

150. 1. *Samovarda osh yedik.*

2. *Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman.*

3. *«Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi?*

4. *Bulutlar orasidan quyosh kulib qaraydi.*

Ushbu gaplarda ma'no ko'chishining qaysi ko'rinishi bor?

- A) 1-, 4-metafora; 2-, 3-metonimiya  
B) 1-sinekdoxa, 2-, 3-metonimiya, 4-metafora

C) 1-, 2-, 3-metonimiya, 4-metafora

D) barchasi metonimiya

151. Ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaganida ko'plik va egalik qo'shimchasi qanday o'rinlashadi?

A) hurmat ma'nosini ifodalagan ko'plik shakli hamma vaqt egalik qo'shimchasidan oldin keladi

B) hurmat ma'nosini ifodalagan ko'plik shakli hamma vaqt egalik qo'shimchasidan keyin keladi

C) ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalaganida qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishiga ko'ra undan oldin yoki keyin kelishi mumkin

D) ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalaganida egalik qo'shimchasining qo'llanish-qo'llanmasligi ahamiyatga ega emas

153. *Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti.* (A.Qahhor)  
Ushbu gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) metonimiya  
C) sinekdoxa

D) ma'no ko'chishi kuzatilmaydi

154. *Kapalakday kelib, qoshingga qo'nib,*

*Ko'zingga termulib umrim o'tsaydi.* (M.Yusuf)

Mazkur gapda qoshingga qo'nib birikmasida ma'no ko'chishining qaysi turi kuzatiladi?

- A) o'xshatish    B) metafora  
C) metonimiya    D) sinekdoxa

155. *«Sajda aylar zohid ul mehrob aro,*

*Men qilurman sajda egma qoshima».* (Mashrab)

Baytda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

A) metafora      B) sinekdoxa

C) metonimiya      D) vazifadoshlik

156. So'zlarning boriqdagi ma'lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning qanday ma'nolari hisoblanadi?

A) lug'aviy ma'nolari

B) grammatik ma'nolari

C) morfologik ma'nolari

D) so'zlarning ko'chma ma'nolari

157. *Yumshoq non, yumshoq ovoz, yumshoq gapirmoq* birikuvlaridagi *yumshoq* so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) bir so'zning turli ma'nolari

B) bir xil shakldagi uchta so'z

C) bir xil ma'nodagi uchta so'z

D) o'zaro paronim so'zlar

158. Qaysi so'zlar o'zidan oldingi so'zning tarkibiy qismi sanaladi?

1) *ko'makchi fe'llar*; 2) *to'liqsiz fe'llar*; 3) *ko'makchilar*; 4) *bog'lovchilar*.

A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 4

C) 3, 4      D) 1, 2, 3, 4

159. *O'z jigariga ham rahm-shafqat qilmaydilar!*

Ushbu gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

A) metafora      B) metonimiya

C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

160. Gapning ko'chma – tag ma'nosi ifodalangan qatorni toping.

A) Bizni «homiy»lardan himoya qilg'il degan Sharq xalqida piching-duo bor. Xo'sh, janobi oliylari, qaysi sho'rtik xalq Sizning «himoyangizga» qolmish intizor?

B) Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz ... faqat shul Otabekdir.

C) – Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasmidi?!

– Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.

D) Barcha gaplarda tagma'no ifodalangan

161. Qaysi gapda metafora usuli bilan ma'no ko'chishi hosil bo'lgan?

A) Bahor kelinchakdek yasanib keldi.

B) Po'latjonning tili tanglayiga yopishib qolgandek gapirolmas edi.

C) Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.

D) Barcha gaplarda metafora usuli mavjud.

162. Ko'chma ma'noli so'z qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A) Bekorchidan bemaza gap chiqadi.

B) Qora kunda qul Tarlon qizga qayg'udosh keldi.

C) Qaddi rost shamning tilidan O'rtanur parvona ham.

D) barcha gaplarda ko'chma ma'noli so'z qo'llangan

163. Sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chgan gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Dunyoda tashvishlarni ko'p chekdi boshim.

B) Umrini ilmga bag'ishlagan odam abadiy umrga erishadi.

C) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.

D) Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.

164. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'z qaysi gapda mavjud?

A) – Xudovando! Bu na ko'rgilik? Endi netaman? To'qqiz og'izni qanday boqaman?

B) Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir, Sir kabi sermavjdir, Pomirday poydor.

C) Alining buvasi oppoq soqolli, har bir so'zini salmoqlab aytadigan odam edi.

D) Momom ko'zini yumib yotgan bo'lsa-da, butun vujudi sergak.

165. *Qon tomiri, daraxtning tomiri, falonchining tomiri* kabi birikmalardagi tomir ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z?

A) ko'p ma'noli so'z

B) shakldosh so'z

C) ma'nodosh so'z

D) zid ma'noli so'z

166. Predmetlar o'rtasidagi shakily o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan qatomi aniqlang.

A) samolyotning dumi

B) qozon qulog'i

C) ko'chaning boshi

D) elektr chirog'i

167. Nasrulla, siz Hasanboydan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasini so'rab yuribsiz, u bo'lsa «Darakchi»ni olib kelibdi.

Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish turini belgilang.

A) vazifadoshlik B) metonimiya

C) metafora D) sinekdoxa

168. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan? *Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi.*

A) metonimiya B) metafora

C) vazifadoshlik D) sinekdoxa

169. 1) Yurak yig'lar, aytishga iymanamiz; 2) Seni unsiz erkalaydi nigohim; 3) Karnay yig'lar, sunray yig'lar, nay yig'lar; 4) Yoqub cholga «Damas» berishmadi; 5) Arizalar yozib bersa, ko'rishmadi.

Berilgan gaplarning nechtasida metonimiya usulida ma'no ko'chgan?

A) 2 B) 1 C) 3

D) barchasida

170. *Lekin san'atimiz hozir o'smirlik chog'idayoq qudratli qanot paydo qilyapti.*

Ushbu gapdagi ma'no ko'chish turini belgilang.

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

171. Quyidagi gapda ko'chma ma'nodagi so'zni aniqlang.

*Mungli kuy yurakni timaydi.*

A) yurakni B) kuy

C) mungli kuy D) timaydi

172. Quyida berilgan gapdagi so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?

*Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi.*

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

173. Metafora usulida ma'no ko'chishi mavjud gapni toping.

A) Navoiyni qo'limga oldim

B) Olti so'mni yubor, uchi yoningda qolsin

C) Ikki juft ko'z bir-biriga tikilib qoldi

D) Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan

174. *Havoda ananas hidi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkiradi.*

Ushbu gapda tagiga chizilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?

A) metonimiya B) sinekdoxa

C) vazifadoshlik D) metafora

175. Qaysi qo'shma gapda ko'chma ma'noda sinonimlik hosil qilgan so'zlar mavjud?

A) O'qituvchining oldiga shartta kiraman-da, tez-tez gapirib tashlayman.

B) Meni yomon ranjitding, sendan qattiq xafaman.

C) Muyassar bo'lmasa gar visoli, balodan totlidir hijronning boli.

D) Ana, hech narsa bo'lmagandek, yayrab, quvnab, ochilib-sochilib yurishibdi.

176. Quyida berilgan she'riy parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

*Lermontovni tashlamadim hech, So'ngra qo'lga oldim Hofizni.*

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

177. Quyida berilgan gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud? *G'amgin qoyalar qilib qo'ygan gunohidan o'zi qo'rqib ketganday inqirab yubordi.*

- A) metafora      B) sinekdoxa  
C) vazifadoshlik      D) metonimiya

178. *Ona unga faqat kiydirish, yedirish uchun ona, xolos.*

Gapda atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar soni nechta?

- A) 2 ta      B) 4 ta  
C) 5 ta      D) 3 ta

179. *«Qalandar» muvaffaqiyat qozondi, hatto alohida yozuvchilar, tanqidchilar orasida bahs-munozaralarga sabab bo'ldi.*

Gapda ostiga chizilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora  
B) sinekdoxa  
C) metonimiya  
D) ma'no ko'chishi yo'q

180. Qaysi gapda sinekdoxa usulida ma'no ko'chgan?

- A) Oyim yuzimga uzoq termulib qoldi.  
B) Yurtimiz kundan kunga chiroy ochmoqda.  
C) Olov uchqun sachratib yonmoqda.  
D) Halima o'tkir pichoq bilan qo'lini kesib olibdi.

181. *Ishqingda qora boshim oqardi, Bir boqmadi ko'z qarog'i birla.*

Ajratib ko'rsatilgan so'zda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

182. Qaysi qatorda metafora usulida ma'no ko'chgan so'z qatnashgan?

- A) Qalam ushladimmi, demak, c'yin bas...  
B) Bu darddan qora boshim oqardi.  
C) Alisher Navoiy vafotini eshitib butun Hirot yig'ladi.

D) Yuragini ezib turgan tuyg'ular biroz chekinganday bo'ldi.

183. *Havoda ananas hidi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkiradi.*

Ushbu gapda tagiga chizilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?

- A) metonimiya      B) sinekdoxa  
C) vazifadoshlik      D) metafora

184. 1) Kirgan bo'lsa 19 – 20 larga kirgandir; 2) Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning toza havosi bilan ochila tushgan edi; 3) Olti so'mini yubor, uchi o'zingga qolsin; 4) Do'stlar, deya peshvoz chiqdi jingalaksoch; 5) Xonimchaga hozir eshitguvchi quloq kerak; 6) Ko'rpa sirg'alib yerga tushgan, derazadan kirgan yelvizak yelkasini yalab o'tmoqda edi.

Berilgan gaplardagi ma'no ko'chish turlarini aniqlang.

- A) 1, 3, 4 – metonimiya, 2, 6 – metafora, 5 – sinekdoxa  
B) 1, 4 – metonimiya, 2, 6 – metafora, 3, 5 – sinekdoxa  
C) 1, 3 – metonimiya, 2, 6 – metafora, 4, 5 – sinekdoxa  
D) 1, 3, 4, 5 – metonimiya, 2, 6 – metafora

185. Quyida berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

*Bir kosani simirdim.*

- A) metafora      B) metonimiya  
C) sinekdoxa      D) vazifadoshlik

186. 1. *Tun o'z o'rnini tongga bo'shatib berdi.*

2. *Navoiy ko'hna Sharqning ulug' mutafakkiri sifatida o'z asarlari bilan o'sha davr ijtimoiy masalalarini ham ko'tarib chiqdi.*

3. *Yigitning uylanayotganini eshitgan qizning qalbi yaralandi.*

Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?

- A) metonimiya, metafora
- B) sinekdoxa, metonimiya
- C) metafora
- D) vazifadoshlik

187. *Endi Zebi yor-yorni o'zi aytardi. Aravakash va uning yonidagi qizlar hammasi bir quloqqa aylangan edilar.*

Ushbu gapda qaysi ma'no ko'chishi yuz bergan?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) vazifadoshlik
- D) sinekdoxa

188. Quyida keltirilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

*Ehtiyot bo'lib gapir, bo'tam, axir oramizda quloqlar yo'q emas.*

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) vazifadoshlik
- D) sinekdoxa

189. Quyida keltirilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

*Shartmi ichmak har bir qadahni yo'q demay.*

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) vazifadoshlik
- D) sinekdoxa

190. 1) *Tuyaga minib uzoqni ko'zla;* 2) *Bu jang uzoqqa bormaydi;* 3) *Uzoq yondi.*

Berilgan gaplarning qaysi birida uzoq so'zi payt ma'nosini bildirgan?

- A) 1, 2
- B) 1, 2, 3
- C) 1, 3
- D) 2, 3

191. Quyidagi qaysi gapda metonimiya asosida ma'nosi ko'chgan so'z hol vazifasida kelgan?

- A) Rentgenning bu apparati meditsina sohasiga katta hissa qo'shdi.
- B) Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.
- C) «Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi?
- D) Stol oyog'i pishiq yog'ochdan qilingan.

192. *Darhaqiqat, Navoiyni tushunish uchun millat tilining*

*barcha shevalaridan xabardor bo'lmoq lozim.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi qatnashgan?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) sinekdoxa
- D) vazifadoshlik

193. *Kumush choyshab yopib dalalar*

*Qor qo'ynida uxlab yotadi.*

Parchadagi kumush choyshab birikmasida qanday ma'no ko'chishi bo'lgan?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) sinekdoxa
- D) vazifadoshlik

194. *G'afur G'ulom Bedil, Hofiz, Jomiyini sevib o'qirdi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi qatnashgan?

- A) sinekdoxa
- B) metafora
- C) metonimiya
- D) vazifadoshlik

195. *Shirin-shirin ashulalardan bo'lsin, opa.*

Ushbu gapda so'z ma'nosi qanday asosda ko'chgan?

- A) sinekdoxa
- B) metafora
- C) metonimiya
- D) vazifadoshlik

196. Quyidagi gapning qaysi birida so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

A) Go'zal qiz Oysuluvning basharasida ter ko'rindi.

B) O'zi xomush, yuzlari so'lg'in edi.

C) Xabami eshitib qizning chehrasi yorishdi.

D) Afting qursin deb qarg'adi kampir.

197. *Erta tongdanoq butun qishloq uyg'onadi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi sodir bo'lgan?

- A) sinekdoxa
- B) vazifadoshlik
- C) metafora
- D) metonimiya

198. *Kishilar o'rtasidagi iliq munosabat mehr-oqibat tuyg'usini tarbiyalaydi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi qatnashgan?

- A) metafora B) sinekdoxa  
C) vazifadoshlik D) metonimiya

199. **Ochmoq** so'zi qaysi gapda o'z ma'nosida qo'llangan?

A) Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo'l ochadi.

B) Olam sari ochib yangi ong Sekin-sekin yorishadi tong.

C) Eshik ochilib, xonaga Anzirat kirib keldi.

D) Bu qizginaning ham baxti ochilib qolar.

200. *Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay...*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi kuzatiladi?

- A) sinekdoxa B) vazifadoshlik  
C) metafora D) metonimiya

201. *Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi kuzatiladi?

- A) metafora B) metonimiya  
C) vazifadoshlik D) sinekdoxa

202. *Abdulla Qahhor qalami bilan ming-minglab o'quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi.*

Berilgan gapda ostiga chizilgan so'zda qaysi usulda ma'no ko'chgan?

- A) sinekdoxa B) metafora  
C) metonimiya D) vazifadoshlik

203. *Oyog'ingniz yugursa, maqsad-ingizga yetkazadi, tilingiz yugursa, boshingizga falokat keltiradi.*

Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?

- A) metonimiya B) vazifadoshlik  
C) metafora D) sinekdoxa

204. *To'g'ri gap tug'ganingga yoqmaydi.*

Ushbu maqolda ostiga chizilgan birikmadagi ma'no ko'chishining turini aniqlang.

- A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

205. 1. *Bu kosaga sho'rva suzma.*

2. *Suvda uzoqqa suzma.*

3. *Suzong'ich sigir bo'lsang ham, egangni suzma.*

Ushbu gaplarda qo'llangan suzma so'zi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) 1- va 2-gapdagi suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolarini ifodalovchi so'z bo'lib, ushbu so'zlar 3-gapdagi suzma so'ziga nisbatan shakldosh so'z hisoblanadi

B) 1-, 2-, 3-gapdagi suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolari sanaladi

C) 1- va 3-gapdagi suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolarini ifodalovchi so'z bo'lib, ushbu so'zlar 2-gapdagi suzma so'ziga nisbatan shakldosh so'z hisoblanadi

D) 1-, 2-, 3-gapdagi suzma so'zi o'zaro shakldosh hisoblanadi

206. Qaysi gapda ma'nosi sinekdoxa yo'li bilan ko'chgan so'z vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan?

A) Gunohi ne edi bu tilla boshning.

B) Tezroq g'ildirakni yurgizing, do'stim.

C) Sajda aylar zohid ul mehrob aro, Men sajda qilurman egma qoshima.

D) Sharaf sizga, yog'ar million dudoqdan kuchli olqishlar.

207. Qaysi gapda ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan so'z vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan?

A) Majlis qaror qiladi.

B) Pushkin bilan o'rtoq tutindim, Lermontovdan ko'mak o'tindim.

C) Tong chog'i juda sog'inib, Bedil o'qir edim.

D) Amarfuzindan kuniga uch mahal surasiz.

208. Ma'nosi sinekdoxa asosida ko'chgan so'zning undalma vazifasida kelishi qaysi gapda berilgan?

A) Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngil uyin.

B) Qaro ko'zum, kel-u mardumlig' emdi fan qilg'il.

C) Kel, oppog'im, kel, yumshog'im, men seni erkalayin.

D) Olma guli gul emas, taqsam chakkamda turmas.

209. *Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib keling.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi qatnashgan?

A) ikki predmet o'rtasidagi shakily o'xshashlik asosida ma'no ko'chish usuli

B) nomi "birgalikda anglash" ma'nosini beruvchi ma'no ko'chish usuli

C) narsa va hodisalar o'rtasida zamon va makondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chish usuli

D) narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy birxillik asosidagi ma'no ko'chish usuli

210. Quyidagi ismlar ma'no ko'chishining qaysi turi asosida vujudga kelgan?

**Yo'lbars, Bo'riboy, Qoplonbek, Feruza, Yoqutoy, Asalxon**

A) metonimiya B) vazifadoshlik

C) sinekdoxa D) metafora

211. Metafora usulida ma'no ko'chishi sodir bo'lgan qaysi birlikda paronim juftiga ega so'z qatnashgan?

A) sof yashamoq B) darz piyola

C) temir intizom D) tuz totmoq

212. Ko'chma ma'noli so'z berilgan qatomi toping.

A) Bo'yi va eni bir yarim metr keladigan g'or og'zi ochildi.

B) Sal o'tmay osmonga sutrang nur purkab chaqin chaqdi.

C) Nurmat tog'a ozoda odam bo'lgani uchun ayvonni guldek tutadi.

D) Yangi tug'gan sigiming sutidan og'iz tayyorlanadi.

213. Quyida berilgan nechta so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?

**samovar, ko'zoynak, zal, qadah**

A) 3 ta B) 2 ta

C) 1 ta D) 4 ta

214. *Tut pishig'ida ko'rishgandik.*

Berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

A) metonimiya B) metafora

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

215. *Qizlarning ichida shu egma qosh yoqadi.*

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarda qaysi usulda ma'no ko'chishi kuzatiladi?

A) sinekdoxa B) metonimiya

C) metafora D) vazifadoshlik

216. Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi narsa va hodisalar o'rtasida maken va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida ko'chgan?

A) Ko'ngliga qarayverib-qarayverib tug'ishganlarimdan ham begona bo'ldim.

B) Avtomobilning eshigini ochib do'stini chiqarib oldi.

C) Hammasiga mana shu kalondimog' yigit aybdor, – degan fikr o'tadi xayolidan.

D) Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning qo'li baland keldi.

217. *Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?

A) metonimiya, metafora

B) vazifadoshlik, metonimiya

C) sinekdoxa, metafora

D) faqat metafora

218. *Ey, mendan keyin bu gapni aytarsan.*

Ushbu gapdagi atash ma'nosiga ega bo'lgan birliklar sonini ko'rsating.



A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

219. *Bulutlar haydar shamol,  
Goh yog'ib o'tar yomg'ir.*

Ushbu she'riy parchada ma'no ko'chishning qaysi turi qo'llangan?

A) metafora B) sinekdoxa  
C) metonimiya D) vazifadoshlik

220. Qaysi gapda metafora usulida ma'no ko'chish uchramaydi?

A) Tun o'z o'rmini tongga bo'shatib berdi.

B) Yigitlar oltin davr – talabalik yillari haqida gaplashib o'tirishardi.

C) Yigitning uylanayotganini eshitgan qizning yuragi yaralandi.

D) Chanqab ketganimdan men ham bir kosani simirdim.

221. Metaforaga berilgan misolni toping.

A) O'z jigariga ham shavqat qilmaydilar.

B) "Rossiya"ga qanday borsam bo'ladi?

C) Asal bolalarim yugurib keldi.

D) Mabodo "Besh bolali yigitcha" kelmadimi?

222. Qaysi gapda metonimiya asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?

A) Bola onasining oldiga tushib, pildirab ketdi.

B) Mabodo, "Besh bolali yigitcha" kelmadimi?

C) Navbatim sumka ko'targan "jinsi"dan keyin.

D) Ular cho'loqqa achinish bilan qarashdi.

223. Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi metafora usulida ko'chmagan?

A) Och nazarim tushar suratga,  
Surat, surat! Nega sen tilsiz?

B) O'zi ancha yumshoq fe'lli yigit, - dedi Ikromjon.

C) Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

D) Bu ishni pishiq o'ylab, keyin bajar.

224. Qaysi gapda metonimiya va sinekdoxa usulida ma'nosi ko'chgan so'zlar mavjud?

A) Cho'loqning bundan xabari bormi?

B) Qaro ko'zum, kel-u mardumlug' emdi fan qilg'il.

C) Kechagi futbol musobaqasida O'zbekiston birinchilikni oldi.

D) Auditoriya birlashishi uchun unga bir bosh kerak edi.

225. Qaysi gapda so'zlarning ma'nosi metonimiya va sinekdoxa usulida ko'chgan?

A) Navoiyni kuzatishga butun Hirot yig'ildi.

B) O'smalar qo'ysam yarashadi qoshimga.

C) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?

D) "Ramazon" aytib keldik eshigingizga.

226. *Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.*

She'riy parchada ajratilgan so'zdagi ma'no ko'chish usulini aniqlang.

A) vazifadoshlik B) metafora

C) sinekdoxa D) metonimiya

227. Qaysi javobda sinekdoxa usulida ma'nosi ko'chgan so'z qatnashgan gap berilgan?

A) Uy to'riga palak osilgan.

B) Yaxshi qovun deb olsam, pirsildoq chiqib qoldi.

C) Kechalari chiroqlar shahrimiz ko'chalarini yop-yorug' qiladi.

D) Bizga chaqqon qo'llar kerak

228. Qaysi gapda sinekdoxa va metafora usulida ma'no ko'chgan?

A) Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurilishiga otlandi.

B) Uyimizda uchta tuyoq bor.

C) Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib keling.

D) Gunohi ne edi bu tilla boshning,  
Gunohi ne edi porloq quyoshning.

229. *Dasturxonga boqqan do'st emas.*

Ushbu gapda ma'nosi ko'chgan so'z qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) vositasiz to'ldiruvchi
- B) maqsad holi
- C) vositali to'ldiruvchi
- D) aniqlovchi

230. *Bunday gaplar faqat sinalgan, ishonchli og'iz orqali yetkaziladi.*

Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'zda ma'no qaysi usulda ko'chgan?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) vazifadoshlik
- D) sinekdoxa

231. Qaysi gapdagi so'zda lug'aviy ma'nosi "birgalikda anglash" ma'nosini bildiruvchi ma'no ko'chish usulida ma'nosi ko'chgan?

A) Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi.

B) Ichak-chavog'im tugadi, endi kalla sotaman. (qassobning nutqidan)

C) Olma guli gul emas, taqsam chakkamda turmas.

D) Navoiyni anglash uchun millat ruhini bilmoq kerak.

232. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy birxillik asosida ma'nosi ko'chgan so'z qaysi gap tarkibida uchraydi?

A) O'choq og'ziga qo'yilgan qumg'on qaynadi.

B) Shkafning oyog'i qiyshayib qolgan ekan.

C) Bizning eshikka ham keling, aylanay.

D) Sizlar litseyimizning qaldirg'ochlarisiz.

233. Ikki predmet o'rtasidagi joylashish o'miga ko'ra o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi qaysi gap tarkibidagi so'zda uchraydi?

A) Mayning to'qqizida gilos ham pishdi.

B) Hirot darvozasin bir qanotida She'riy lashkarini tizgan Alisher.

C) Ikki ko'zi har nav mollar bilan to'la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi.

D) Och nazarim tushar suratga.

234. Qaysi gapda ikki marta metonimiya asosida ma'no ko'chishi kuzatilgan?

A) Gunohi ne edi bu tilla boshning.

B) Og'ushimda zangori sezgi, Kiprigimda suyuq hayajon.

C) Eshikka kiring, achchiqqina mastava qilib qo'yganman.

D) Yanvaming o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurishga jo'nadi.

235. *U'choqda o'qiymiz biz lirik daftaring,*

*Kundalik emas, tundalik daftaring.*  
(M. Shayxzoda)

Ushbu parchada so'z ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?

A) metafora

B) metonimiya

C) vazifadoshlik

D) sinekdoxa

236. Qaysi gapda sinekdoxa asosida so'z ma'nosi ko'chgan?

A) Egatlarda so'ligan palaklar ko'zga tashlanardi.

B) To'rt egat palak ekdim.

C) Uyning devoriga palak ilingandi.

D) Bir palakdan har xil xamak chiqar ekan-da.

237. Qaysi gapda sifat turkumiga oid so'zning ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan?

A) O'g'il o'tkir o'roqda o't o'rdi.

B) Bay-bay-bay, hidi buncha shirin!

C) Achchiqni achchiq kesar.

D) Tilingda bo'tsa boling, kulib turar iqboling.

238. Qaysi gapda o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan so'z bor?

A) Mehmon qaynoq-qaynoq choydan ichdi, qaynoq-qaynoq sho'rvadan ho'pladi.

B) Issiq kiyim tanni ilitar, issiq so'z jonni ilitar.

C) Bunday sovuq muomala va sovuq suhbatdan Salimaning ko'ngli ranjidi.

D) Yumshoq kresloda o'tirib, yumshoq nonga asal surtib yedi.

# SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

1. Omonim so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) do'st, o'rtoq, birodar, og'ayni
- B) bosh, katta, kam, sog', tez
- C) yara, son, kul, soz, shim
- D) yig'lamoq, shirin, go'zal, nam

2. Qanday so'zlarga paronim so'zlar deyiladi?

- A) aytilishi bir-biriga yaqin, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar
- B) shakli bir xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar
- C) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar
- D) qarama-qarshi ma'noli so'zlar

3. Quyidagi hodisalarning qaysi biri faqat bir so'z turkumi doirasidagina vujudga keladi?

- A) ko'pma'nolilik hodisasi
- B) antonimlik hodisasi
- C) paronimlik hodisasi
- D) A va B

4. Bir so'z turkumi doirasida o'zaro omonimlik bo'lgan so'zlarga grammatik shakllar qo'shilganida ham omonimlik munosabatini saqlab qoladimi?

- A) saqlab qoladi
- B) grammatik shakllar qo'shilguncha omonimik munosabat saqlanadi
- C) grammatik shakllarda omonimlik munosabati bo'lmaydi
- D) o'zaro omonim munosabatda bo'lmaydi

5. Ikki va undan ortiq so'zning shakli munosabati va talaffuziga ko'ra o'zaro birlik hosil qilishi qaysi hodisalar uchun xos?

- A) sinonimlar uchun
- B) omonimlar uchun
- C) antonimlar uchun
- D) paronimlar uchun

6. «*Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur*».

Ushbu maqolda qo'llangan antonimlarning gapdagi sintaktik vazifasini belgilang.

- A) ega
- B) kesim
- C) ega, kesim
- D) aniqlovchi

7. Quyidagi bir sinonimik qatorga mansub so'zlarning qaysi biri so'zlashuv uslubiga xos?

- A) taxt
- B) tayyor
- C) hozir
- D) shay

8. Quyidagi sinonim so'zlarni qaysi so'z o'zaro bog'lab turibdi?

- A) tulki
- B) tullak
- C) ayyor
- D) shayton

9. *Yoz* (qalamda yozmoq), *yoz* (dasturxonada yozmoq), *yoz* (yoz fasli).

Uchala o'rinda qo'llangan *yoz* so'zining xususiyati to'g'ri izohlangan qatorni toping.

- A) bir xil shaklga ega bo'lgan yagona so'z
- B) bir xil shaklga ega bo'lgan uchta so'z
- C) bir xil shaklga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'z
- D) birgina so'zning uch o'rinda qo'llanilishi

10. Quyidagi yasama sifat va otlarning qaysi biri fe'lning bo'lishsiz shakli bilan omonimik munosabatda bo'ladi?

- A) qaynatma (sho'rva)
- B) sochma (o'q)
- C) suzma
- D) qo'llanma

11. Qanday so'zlar badiiy nutqda qo'llanib, tazod yaratish uchun xizmat qiladi?

- A) omonimlar
- B) sinonimlar
- C) antonimlar
- D) paronimlar

12. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

- A) gado – gadoy
- B) asta – ohista
- C) yuvundi – yuvindi
- D) battar – badtar

13. Qaysi qatorda yondosh o'mida uning paronimi qo'llangan?

- A) Yo'lga yondash anhor shovullab oqardi.
- B) Yaxshiga yondash, yomondan qoch.
- C) Masalaga to'g'ri yondashmoq kerak.
- D) Durdona dugonalariga yondashib soy bo'yiga yo'l oldi.

14. Paronim so'zlar qatorini toping.

- A) ko'ylak – ko'ynak
- B) vafo – jafu
- C) otalik – otaliq
- D) kabutar – kaptar

15. Quyidagi so'zlardan qaysi biri yaqin so'zi bilan sinonim bo'la oladi?

- A) darrov
- B) jadal
- C) tez
- D) hech biri sinonim bo'la olmaydi

16. Quyidagi ko'p ma'noli so'zlardan qaysi biri tez so'zi bilan antonim bo'la oladi?

- A) achchiq
- B) shirin
- C) og'ir
- D) hech biri antonim bo'la olmaydi.

17. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanish yo'qolishi natijasida omonim so'zlarning hosil bo'lishi qaysi qatordagi javobda berilgan?

A) sir (insonning siri), sir (idishning siri), sir (davlatning siri)

B) ot (hayvon), ot (harakat), ot (so'z turkumi), ot (ism)

C) yoz (fasl), yoz (harakat), yoz (yoymoq ma'nosidagi harakat)

D) dam (nafas), dam (bosqon), dam (hordiq)

18. Yasama so'z tub so'z bilan o'zaro sinonimlik hosil qilgan qatorni toping.

- A) kuch – qudrat, buyruq – amr
- B) his – sezgi, savol – so'roq
- C) uyatsiz – benomus, kishi – kimsa
- D) suluv – latofati, durust – yaxshi

19. Sintaktik sinonimlar berilgan qatorni toping.

A) kuz shamoli, kuzgi shamol; ishni boshlash, ishga kirishish; kitobni o'qish, kitobdan o'qish

B) kelyapti, kelayotir, ishlamoqda

C) esi chiqib ketdi – qo'rqdi; yog' tushsa yalagudek – top-toza; lom-mim demadi – gapirmadi

D) xat yozdim, xat yozildi

20. O't (olov), o't (o'simlik), o't (harakat) omonim so'zlariga grammatik qo'shimchalar qo'shilganida omonimlik munosabati saqlanadimi?

A) saqlanib qoladi

B) saqlanmaydi

C) faqat dastlabki ikki so'z orasida saqlanadi

D) birinchi va uchinchi so'z orasida saqlanadi

21. Qaysi qatorda omonim so'zlar berilgan?

A) asar, bahr, bo'lmoq

B) do'st, dunyo, bo'sag'a

C) ilgari, avval, qadim

D) kafsh, kashf, kavsh

22. Paronimlar berilgan qatorni toping.

A) bema'nilik – bema'nolik

B) jodi – jodu

C) algebra – aljabr

D) paronim so'zlar berilmagan

23. Lug'aviy sinonimlarning ma'nosiga ko'ra bo'linishi qaysi qatorda to'g'ri ifodalangan?

A) to'liq, ma'noviy

B) to'liq, noto'liq sinonimlar

C) lug'aviy, frazeologik sinonimlar

D) ot sinonimlar, sifat sinonimlar

24. Ma'noviy sinonimlar berilgan qatorni toping.

- A) doston, poema
- B) respublika, jumhuriyat
- C) ho'l, shalabbo
- D) tilshunoslik, lingvistika

25. Quyidagi qaysi so'zlar tilimizda o'z sinonimlariga ega?

- A) bug'doy, yetim
- B) qizil, arpa
- C) non, tanimoq
- D) qadam, tomchi

26. *Amr – farmon – buyruq* sinonimik qatori qaysi yo'l bilan hosil bo'lgan?

- A) turli shevadagi so'zlarning adabiy tilga o'tishi natijasida
- B) eskirgan va yangi so'zlar hisobiga
- C) so'zlarning ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik kasb etishi natijasida
- D) boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida

27. A.Oripovning «*Manglaying oq bo'lsin, yarqiroq bo'lsin*» misrasidagi birinchi so'zning doimiy sinonimini toping.

- A) toleying
- B) peshonang
- C) yo'llaring
- D) iqboling

28. Sinonim so'zlar qo'llangan gapni toping.

- A) Hunarli er xor bo'lmas, do'st-dushmanga zor bo'lmas.
- B) Gul g'unchaligida xor ilondur.
- C) Hidi kelsa, mast bo'laylik handalakning bo'yiga.
- D) Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.

29. Sinonimlar ichidan asl turkiy so'zni toping.

- A) ko'k
- B) osmon
- C) samo
- D) falak

30. Omonimlarga ega bo'lgan so'zni toping.

- A) tuban
- B) tuman
- C) tuyuq
- D) turoq

31. Quyidagi omonimlarning qaysi birlari o'zaro barcha grammatik shakllarda qo'shimchalar olganida ham omonimlik xususiyatini saqlaydi?

1) *suzmoq (ovqatni suzmoq), suzmoq (suvda suzmoq), suzmoq (shoxi bilan suzmoq)*; 2) *soch (sochni taramoq), soch (urug' sochmoq)*; 3) *qovoq (o'simlik), qovoq (ko'zning qovog'i)*; 4) *tush (tush ko'rmoq), tush (tush payti), tush (pastga tush)*.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 3

32. Qaysi so'z turkumlarida antonimlik munosabati umuman yo'q?

- A) ot, son, sifat
- B) ravish, fe'l, olmosh
- C) son, olmosh, modal so'zlar
- D) yordamchi so'zlar, ravish, son

33. Leksik omonimlar berilgan qatorni toping.

- A) chang, zang
- B) bezak, ziynat
- C) qosh, bel
- D) patefon, nurxona

34. Leksik sinonimlar qatorini toping.

- A) yonmoq, kuymoq
- B) ozg'in, eti suyagiga yopishgan
- C) qo'y, qo'zichoq, echki
- D) qaynoq, jo'shqin, qizg'in

35. Leksik antonimlar berilgan qatorni toping.

- A) xursand va dili siyoh
- B) yupqa va qalin
- C) oqko'ngil va ichiqora
- D) ishladi va ishlamadi

36. Quyidagi fe'llarning qaysi biri omonimlik xususiyatiga ega emas?

- A) yozmoq
- B) chalg'imoq
- C) chopmoq
- D) qoplamoq

37. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida omonim so'zlarning hosil

bo'lishi qaysi qatorda berilgan?

A) sir (insonning siri), sir (idish siri), sir (daviat siri)

B) ot (hayvon), ot (harakat), ot (ism)

C) chorak (to'rttdan bir ulush), chorak (yilning bir qismi)

D) gap (nutq birligi), gap (ziyofat, yig'in)

38. Ot sinonimlar berilgan qatomi toping.

A) odam – inson – kishi – kimsa – bashar

B) avval – ilgari – oldin – burun – qadim

C) hamma – barcha – bari – jami – butkul

D) uyatsiz – benomus – behayo – hayosiz – surbet

39. Qaysi qatorda ot antonimlar mavjud?

A) keldi – ketdi      B) savol – javob

C) oq – qora      D) o'y – xayol

40. Qaysi qatordagi so'zlarning omonimlarini topish mumkin?

A) qo'l, og'iz, quloq, qosh

B) qo'rqinchli, vahimali, dahshatti, mudhish

C) yovuzlik, ezgulik, yolg'onchi, rostgo'y

D) oq, un, yot, toy

41. *Hayoli, oriyatli, andishali, nomusli, iboli.*

Ushbu sinonimlarning qaysi biri asos so'z (dominanta) hisoblanadi?

A) hayoli      B) oriyatli

C) andishali      D) nomusli

42. Antonimlar berilgan qatomi toping.

A) kech, xayr, tuz, kul

B) qarash, boqish, nazar, nigoh

C) suyuq, quyuq, yirik, mayday

D) bahs, tortishuv, munozara, mubohasa

43. Qaysi javobda ko'p ma'noli so'zni shakldosh (omonim)lardan farqlovchi asosiy xususiyat berilgan?

A) ko'p ma'noli so'zlar ma'nosi gapda namoyon bo'ladi

B) ko'p ma'noli so'zlar gap bo'laklari bo'la oladi

C) ko'pma'nolilik mustaqil so'z turkumlariga xos

D) ko'p ma'noli so'zlar necha ma'noga ega bo'lmasin, ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi

44. 1) *bitmoq (tugamoq)*; 2) *bitmoq (hosil bermoq)*; 3) *bitmoq (yozmoq)*.

Ushbu shakldosh (omonim) so'zlarga -ir orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, shakldoshlik munosabati qay tarzda bo'ladi?

A) birinchi va ikkinchi so'zlar orasida shakldoshlik saqlanadi

B) ikkinchi va uchinchi so'zlar orasida shakldoshlik saqlanadi

C) har uch so'z doirasida o'zaro shakldoshlik saqlanadi

D) birinchi va uchinchi so'z orasida shakldoshlik saqlanadi

45. Qaysi qatordagi so'zlar o'zaro ma'nodosh (sinonim) emas?

A) sabil, ordona, zormanda

B) bo'lak, parcha, qisim

C) puxta, pishiq, chidamli

D) bahs, tortishuv, munozara, mubohasa

46. *Injimoq* so'zining ma'nodoshi (sinonim)ni toping.

A) ranjimoq      B) mijg'ovlanmoq

C) injiqlik qilmoq      D) ijirg'anmoq

47. 1. *Otasi bugun yana bir pand berib, nasihat qilmoqchi bo'lib kelgan ekan.*

2. *Yaxshidan qand yeysan, yomondan – pand.*

Ushbu gaplardagi pand so'zi ma'no va shakl munosabatiga ko'ra qanday so'z?

A) zid (antonim) so'z

B) bir so'zning ikki ma'nosi

C) ma'nodosh (sinonim) so'z

D) shakldosh (omonim) so'z

48. Qaysi qatordagi so'zlar o'zaro paronim emas?

A) dara – darra

B) ma'tal – matal

C) hosiyat – xosiyat

D) ma'tal – mahtal

49. Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi.

Ushbu maqolda qo'llangan nor so'zining ma'nodoshi (sinonim)ni toping.

A) tuya

B) raqib

C) do'st

D) pahlavon

50. O'zaro bir so'z turkumi doirasidagina shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlarni belgilang.

A) sir, bog'

B) soch, qo'y

C) ot, tush

D) ol, yoz

51. Qaysi gapda paronimlar bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

A) Otasi endi qarib kuchdan qolgan edi.

B) Gul o'tkazdim bog'imga.

C) Hayvonot bog'ida jayron ham bor.

D) Hirotda talaygina adiblar, mashshoqlar, rassomlar chiqibdi.

52. Berilgan qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Quدرات ko'cha aylanib kelib uyga kirsa, hech zog' yo'q.

B) Zilola yodsirab, qovog'ini solib, teskari burildi.

C) Milliard yillar sari yo'l olgan Avlodlarning ibtidosiman.

D) Anzirat xola o'z-o'zidan javrab, qorong'ida ivirsib yurar edi.

53. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Otabek hovlining o'rtasida, tut yog'ochning yoniga kelib to'xtagan va janubda kishi yo'qmi deb alanglar edi.

B) Mayin tong shabadasi rang-barang gullarni sekin tebratib, atirlarini har yoqqa sepadi.

C) Muhabbat juda oz yigitlargagina muyassar bo'ladigan yurak javharidir.

D) Doniyor shanba kuni bo'ladigan to'yga ko'mir, o'tin kabi yonilg'ilarni tayyorlab qo'ydi.

54. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham, qishi bitmas.

B) Qadr bilmas qarindoshdan qadr qilgan yod yaxshi.

C) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.

D) Har qadamda halqob bo'lib yotgan ko'lmaklar yerga singib, ariqlardagi loyqalar tina boshladi.

55. Qaysi gapda paronimlar noto'g'ri qo'llangan?

A) Yoriq joyni yamash uchun rosa harakat qildi.

B) Ularning hayoti shunchaki bir ro'zg'or tebratish taxlitida o'tdi.

C) Bir asrga tatigulik yillarni bosib o'tdik.

D) Qadr bilmas qarindoshdan qadr qilgan yod yaxshi.

56. So'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lgan gapni toping.

A) Qomatiga ishongan qaddini bukib ketadi, ko'pchilikka ishongan maqsadiga yetadi.

B) Shahidbek maxdumning mahalla ahillaridan bo'lib, Xudoyorxon zakotchilarining biridir.

C) Birpas bo'shadi deguncha kitob ustiga mukkalaydi.

D) Kumushning bu daqiqadagi holini qalam bilan chizib ko'rsatish, albatta, mumkin emas.

57. 1. Ko'ngildan ko'ngilga yo'l bor.

2. Nodir uni bir necha bor ko'zdan kechirdi.

3. Shunisi ham borki, keyingi vaqtlarda Azizbek Qo'qonning yorig' va farmonlarini itifotsiz qoldira boshladi.

Ushbu gaplarda qo'llangan **bor** so'zlari o'zaro ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar?

A) Birinchi va uchinchi gapdagi so'zlar o'zaro ko'p ma'noli, ular esa,

o'z navbatida, ikkinchi gapdagi so'zga nisbatan shakldosh so'zlar

B) Har uchala gapdagi so'zlar o'zaro shakldosh so'zlar

C) Har uchala gapdagi so'zlar bir so'zning turli ma'nolari

D) Ikkinchi va uchinchi gapdagi so'zlar o'zaro ko'p ma'noli so'zlar, ular esa birinchi gapdagi so'zga nisbatan shakldosh

58. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Tog'da don topolmay och qolgan kakliklar gala-galasi bilan daraga yopirilib tushgan.

B) Laziz yoqilg'i to'la bochkalarni birin-ketin dumalatib ayvon tagiga taxladi.

C) Yormat boshini ko'tardi, bir qo'lini yerga tirab yonboshladi.

D) Samarqand bilan yondosh Buxoroda xalqning amirlikka qarshi qudratli harakati yanada rivojlandi.

59. 1. *Kun qiyomdan og'di.*

2. *Shavla qiyomiga yetib pishgan edi.*

3. *Kampir o'ng qo'liga nonni oldida, piyoladagi qiyomga botirdi.*

Berilgan gaplarda qo'llangan qiyom so'zi haqida to'g'ri fikr qaysi javobda berilgan?

A) uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

B) uchala gapda shakldosh so'zlar qo'llangan

C) ikkinchi va uchinchi gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

D) birinchi va ikkinchi gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

60. 1. *Anvar ham muloyimgina kulimsirab olgach ... yana qalamini qoralab qog'oz ustiga bir-ikki kalima yozdi.*

2. *Bu bilan men Zokir ota bilan Ro'zimatni qoralab, o'zimni oqlamoqchi emasman.*

3. *Nizomov oltmishni qoralagan baqaloq kishi edi.*

Gaplarda qo'llangan qoralamoq so'zi haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

A) uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

B) uchala gapda shakldosh so'zlar qo'llangan

C) birinchi va ikkinchi gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

D) ikkinchi va uchinchi gapda shakldosh so'zlar qo'llangan

61. Qaysi qatorda zid ma'noli so'zlar birgalikda yangi so'z hosil qilgan?

A) yaxshi-yomon, yangi-eski, oq-qora

B) yosh-u qari, achchiq-chuchuk, uzoq-yaqindan

C) uzun-qisqa, kecha-kunduz, ozg'in-semiz

D) katta-kichik, urush-tinchlik, baland-past

62. Uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan gapni toping.

1. *Mashina devon tepasiga ko'tarildi.*

2. *Otning afzalini shayladi.*

3. *O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan.*

A) 1 B) 2

C) 3 D) 1, 2

63. 1. *O't ishi – qovurmoq.*

2. *Bitta ham yovvoyi o't qolmasin.*

3. *Ko'chadan o'tsang to'g'ri o't.*

4. *Qalbida ishq o'ti alangalandi.*

Ushbu gaplarning qaysilarida o't so'zi bir so'zning ko'p ma'nolari hisoblanadi?

A) birinchi va ikkinchi gaplarda

B) ikkinchi va uchinchi gaplarda

C) birinchi va to'rtinchi gaplarda

D) barcha gaplarda

64. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

A) obro' – obro'y

B) kabutar – kaptar



C) a'yon – ayon

D) a'zo – azo

65. Qaysi javobda faqat shakldosh so'zlar qayd etilgan?

A) savdo, rux, pilla

B) oqibat, rasta, savat

C) soch, baho, sayoz

D) sado, palata, rasta

66. Bir turkum doirasidagi shakldosh so'zlar qaysi javobda keltirilgan?

A) yoz, palla, rasta

B) palata, soch, nor

C) oq, savdo, oqibat

D) savag'ich, sandal, palla

67. Ot, sifat, fe'l so'z turkumi vazifasida qo'llanishi mumkin bo'lgan shakldosh so'zni toping.

A) terma B) to'r

C) qaynatma D) soch

68. 1. *Tilak bilan bitmagan bilim bilan bitar.*

2. *Omad kelsa, daraxtda ham non bitar.*

3. *Abdulla xatni chiroyli bitardi.*

Ushbu gaplarda qo'llangan *bitmoq* so'zlari ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z?

A) shakldosh so'z

B) ma'nodosh so'z

C) ko'p ma'noli so'z

D) so'zning turli ma'nolarda qo'llanishi

69. 1. *Xufton namozidan so'ng poychiroq yonida o'tirib Fuzuliy devonini varaqlar edi.*

2. *Ikkisi birga devonga kirdilar.*

3. *Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiyning hurmatiga g'imirlab qo'ydi.*

Berilgan gaplarda qo'llangan *devon* so'zi haqidagi to'g'ri fikmi belgilang.

A) uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

B) uchala gapda shakldosh so'zlar qo'llangan

C) birinchi va ikkinchi gapdagi *devon* so'zi uchinchi gapdagi *devon* so'ziga nisbatan shakldosh

D) ikkinchi va uchinchi gapdagi *devon* so'zi birinchi gapdagi *devon* so'ziga nisbatan shakldosh

70. *Tush ko'rmoq, tush payti, pastga tush* birikuvlaridagi *tush* so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) bir so'zning turli ma'nolari

B) bir xil shakldagi uchta so'z

C) bir xil ma'nodagi uchta so'z

D) o'zaro paronim so'zlar

71. Shakldosh so'zlarni aniqlang.

1) *hadis*; 2) *davr*; 3) *havo*; 4) *bosim*; 5) *vij-vij*; 6) *davlat*.

A) 2, 3, 4, 5, 6

B) 1, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 4, 6

D) barchasi shakldosh so'zlar

72. Quyidagi shakldosh (omonim) so'zlardan qaysi biri birgina so'z turkumi doirasida ham shakldoshlikni vujudga keltirishi mumkin?

1) *o'ta*; 2) *quymoq*; 3) *o'sma*; 4) *o'rmoq*; 5) *mushak*.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 5

73. Qaysi javobda ma'nodosh so'zlar to'g'ri berilgan?

A) ataylab, jo'rttaga, azza-bazza

B) subut, burd, tob

C) sevinch, surur, bahuzur

D) jang, muhoraba, qutqu

74. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik.

B) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi.

C) Yo'lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tkazdi.

D) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar ishtiroki boshladi.

75. Qishloqning husniga husn qo'shgan qaddi raso teraklar tik qomatlarini mag'rur ko'rsatib turadi. Ushbu gapda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar ishtirok etgan?

- A) ma'nodosh
- B) shakldosh
- C) paronim
- D) ma'nodosh va shakldosh

76. 1. *Nadomat komida qolganlar, ayting. (A. Oripov)*

2. *Seningsiz menga kom yo'qdir, Asal ichsam, zahar bo'lg'ay. (E. Vohidov)*

Berilgan gaplardagi kom so'zi o'zaro ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar?

- A) ma'nodosh so'zlar
- B) shakldosh so'zlar
- C) bir so'zning turli ma'nolari
- D) paronim so'zlar

77. Qaysi qatordagi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud emas?

A) Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.

B) Mashhur bog'bon Darvesh hoji shaftoli, olhirot ko'chatlarini o'tkazdi.

C) Salimning gapi borgan sari unga ko'proq nasha qilar edi.

D) Davraga dutor, tambur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib mashshoqlar kirib keldi.

78. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

1. *Besh asirkim nazmiy saroyni Titratadi zanjirband bir she'r.*

2. *Urish, noming o'chsin jahonda!*

3. *Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.*

4. *Og'zi kuygan qattiqni ham puflab ichadi.*

- A) 1, 3
- B) 2, 3
- C) 1, 2, 3
- D) 1, 2, 3, 4

79. Qaysi qatorda berilgan so'zlarning uchalasi ham shakldoshi (omonim)ga ega?

- A) mushak, kadr, chang
- B) karam, kuy, et
- C) davlat, oz, qil
- D) berilganlarning barchasi shakldosh so'zlar

80. Shakldosh so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) omil, chap, qir, past
- B) ravon, yoz, ranj, o'smoq
- C) oz, nor, palla, nota
- D) soch, pilla, otash, rux

81. Shakldosh so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) ravon, so'z, dunyo
- B) palata, oqibat, rasta
- C) oq, savdo, ravish
- D) soch, palla, otash

82. «Menga sen bo'lmasang, jon hojat ermas,

*Bihisht-u hur-u rizvon hojat ermas».*

Atoyining mazkur baytida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

- A) ko'p ma'noli so'zlar
- B) ma'nodosh so'zlar
- C) takroriy so'zlar
- D) zid so'zlar

83. «Visoli lazzatidin zavq topmoqlig' erur dushvor,

*Firoqi shiddatinda, yo'qsa, jon bermaklik osondur».*

Bobur qalamiga mansub ushbu baytda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

- A) ma'nodosh so'zlar
- B) zid so'zlar
- C) shakldosh so'zlar
- D) paronim so'zlar

84. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik.

B) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi.

C) Yo'lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tqazdi.

D) Quyosh hamal yulduzlar burjiga o'tishi bilan kunlar isiy boshladi

85. 1. *Do'sting uchun zahar yut.*

2. *Huvullab qolgan uyda yolg'iz yashash qiyin. Hovli yutaman deydi. (S.Ahmad)*

3. *Arslon degan bir yigit kurashda tengqurlarini yutdi.*

Ushbu gaplarda qo'llangan yutmoq fe'llari ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro qanday so'zlar hisoblanadi?

A) birinchi va ikkinchi gaplarda bir so'zning ikki ma'nosi, uchinchi gapdagi yutmoq fe'li birinchi va ikkinchi gaplardagi yutmoq fe'liga nisbatan shakldosh so'z

B) uchala gapdagi yutmoq so'zlari o'zaro shakldosh so'zlar

C) birinchi gapdagi yutmoq so'zi ikkinchi va uchinchi gapdagi yutmoq so'zlariga nisbatan shakldosh so'z, ikkinchi va uchinchi gapdagi yutmoq so'zi o'zaro bir so'zning ikki ma'nosi

D) uchala gapdagi yutmoq so'zi bir so'zning, ya'ni ko'p ma'noli so'zning uch xil ma'nosi

86. 1. *Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo. (A.Oripov)*

2. *Mana shu daryodan Mirzacho'l suv ichadi, ekin bitadi.*

3. *Katta Farg'ona kanali qirq besh kunda bitdi.*

Ushbu gaplarda qo'llanilgan bitmoq so'zining o'zaro ma'no munosabati qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) har uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari, ya'ni polisemantik so'zlar

B) har uchala gapda mustaqil uchta so'z, ya'ni o'zaro shakldosh so'zlar

C) birinchi gapdagi bitmoq so'zi ikkinchi va uchinchi gapdagi **bitmoq** so'zi bilan o'zaro shakldosh, ikkinchi va uchinchi gapdagi **bitmoq** so'zi o'zaro bir so'zning turli ma'nolari

D) uchinchi gapdagi **bitmoq** so'zi birinchi va ikkinchi gapdagi **bitmoq** so'zi bilan o'zaro shakldosh, birinchi va ikkinchi gapdagi **bitmoq** so'zi o'zaro bir so'zning turli ma'nolari

87. Quyidagi so'zlarning qaysilari shakldosh so'zlar hisoblanadi?

1) *bas*; 2) *band*; 3) *banda*; 4) *bal*; 5) *bog'*.

A) 1, 2, 5                      B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5                D) 2, 5

88. Bajarmoq so'zi quyidagi so'zlardan qaysi biri bilan ma'nodosh?

1) *ado etmoq*; 2) *o'tamoq*; 3) *bitirmoq*; 4) *o'rinlatmoq*; 5) *bajo qilmoq*.

A) 1, 2, 3, 4, 5                B) 1, 3, 5

C) 1, 2, 3, 5                    D) 3, 4, 5

89. Zid so'zlar qo'llangan gapni toping.

A) Sovuq shamol o'qtin-o'qtin esib to'qayni allaqanday vahimaga to'ldirdi.

B) Bir no'noqni bir epchil eplaydi.

C) Sherali qo'rqmas va kamtar, kangap va qaysar bir bola edi.

D) Yolg'onchining so'zi rost bo'lmas.

90. Qaysi qatorda ma'nodosh so'zlar ma'noni kuchaytirgan?

A) Gulshanda gullarni tebratar sabo, Adashgan yo'lchiday daydib yurar yel.

B) Minglab gulistonga, minglab chamanga Bahuzur ko'rk bo'lur undagi chiroy.

C) Yig'latdi meni demayki, siqtatdi meni.

D) Bir shirin so'z odamga asal bo'lib tuyular.

91. Qaysi javobda shakldosh so'zlar berilgan?

- A) elchilik, chars, sug'ur
- B) bez, farq, zor
- C) qon, zang, bo'ydor
- D) safar, palla, sor

92. Berilgan shakldosh so'zlarning qaysilari faqat bir so'z turkumi doirasida bo'ladi?

- A) shira, qayin, g'oz, dastalamoq
- B) shon, qadoq, yopiq, ko'klam
- C) gazak, o'rim, qotmoq, tuyg'un
- D) bog', qoplamoq, o'tin, qozon

93. Quyida berilganlardan ham omonimlik, ham ko'pma'nolilik xususiyatiga ega bo'lgan barcha so'zlar ko'rsatilgan javobni toping.

1) yosh; 2) tom; 3) bel; 4) tor; 5) gul; 6) quloq; 7) to'la; 8) nafis.

- A) 1, 4, 5, 7
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- C) 1, 2, 4, 7
- D) 1, 3, 5, 6, 7, 8

94. Quyida berilganlar orasidan barcha omonim so'zlarni ko'rsating.

1) ivimoq; 2) qiyiq; 3) bog'li; 4) zarb; 5) gul.

- A) 1, 2, 3, 5
- B) 1, 2, 3
- C) 2, 3, 4
- D) 1, 3, 5

95. Qaysi qatordagi uslubiy xato paronimlarni qo'llash bilan bog'liq?

A) O'zak va qo'shimchalar qanday aytilishidan qat'i nazar o'zgarmaydi.

B) Yarog' tuta oladigan qari-yu yosh jangga shay tursin.

C) Dugonajon, bugun menikiga tashrif buyurarsan.

D) Tambalga ish buyursang, otangdan yaxshi nasihatlar beradi.

96. O'zaro ma'nodosh bo'lgan so'zlarni toping.

1) tuzuk; 2) durust; 3) bir navi; 4) yaxshi; 5) zo'r; 6) a'lo; 7) gap yo'q; 8) mixdek.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 4, 7, 8

C) hammasi ma'nodosh

D) 1, 2, 4, 6, 7

97. «Boshqacha» so'zining ma'nodoshlarini toping.

A) o'zgacha, alomat, antiqa

B) ajib, ajoyib

C) g'alati, g'aroyib

D) A, B, C

98. Yuz so'zi salbiylik darajasining kuchayib borishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) aft, bet, bashara, nusxa, turq

B) bet, aft, bashara, turq, nusxa

C) bet, aft, bashara, nusxa, turq

D) bet, bashara, aft, nusxa, turq

99. Yuz so'zining salbiy ma'no bildiruvchi ma'nodoshlaridan qaysi birida salbiy bo'yoq bahosi kuchliroq?

A) bashara

B) turq

C) nusxa

D) aft

100. Unim yo'q, bunim yo'q,

Uyimda unim yo'q,

Ishimda unum yo'q,

Aytishga unim yo'q.

Ushbu misralarda asosi o'zaro shakldosh bo'lgan nechta so'z bor?

A) 2 ta

B) 3 ta

C) 4 ta

D) asosi shakldosh so'zlar berilmagan

101. Quyidagilarning qaysilari ham ko'chma ma'no, ham shakldoshlikka ega?

A) atlas, g'oz, tom, urg'u

B) til, soya, davlat, maqol

C) parcha, patir, xosiyat, shox

D) timoq, gazeta, tish

102. Quyidagilarning qaysilari paronimlarga ega?

A) dars, xirs

B) xosiyat, shox

C) qarz, uxla

D) hammasi ega

103. Qaysi shakldosh so'zda shakldoshlik uchta so'z turkumi doirasida kuzatiladi?

A) oq

B) uch

C) tosh

D) yoz

104. *Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib*

*Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.*

Ushbu baytda nechta shakldosh so'z bor?

- A) 1 ta                      B) 2 ta  
C) 3 ta                      D) 4 ta

105. Qaysi qatorda paronimlar berilmagan?

- A) ta'na – tana      B) she'r – sher  
C) a'yon – ayon      D) a'zo – azo

106. 1. *Otti narsa rohatda yashashga yordam beradi, shulardan biri haqiqiy do'sting bo'lmog'idir.*

2. *Bugungi kechamizga shoir Do'st Hamdam tashrif buyurgan.*

3. *Do'st!!! Yana bir juft qo'shiq bo'lsin!*

Ushbu gaplarda qo'llangan **do'st** so'zi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z?

- A) shakldosh so'z  
B) ma'nodosh so'z  
C) bir ma'noli so'z  
D) ko'p ma'noli so'z

107. *Do'st, yosh, nafis, yuz, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq.* Berilgan so'zlarda o'zaro omonimlik munosabati hosil qiladigan nechta so'z bor?

- A) 10 ta                      B) 11 ta  
C) 13 ta                      D) 12 ta

108. *Do'st, yosh, nafis, yuz, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq.* Berilgan so'zlardan nechtasi ham ko'pma'nolilik, ham shakldoshlik xususiyatiga ega?

- A) 10 ta                      B) 13 ta  
C) 12 ta                      D) 15 ta

109. Og'zaki nutqda tovush, yozuvda harflar tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'z va qo'shimchalarga ... deyiladi.

- A) sinonimlar  
B) paronimlar  
C) omonimlar  
D) ko'p ma'noli so'zlar

110. 1. *Hammang o'z aravangni o'zing tort.*

2. *Halimaxon dasturxon ustiga tort tortdi.*

Ushbu gaplarda qo'llangan *tort* so'zi haqidagi to'g'ri hukmni toping.

- A) sinonimlar  
B) paronimlar  
C) omonimlar  
D) ko'p ma'noli so'zlar

111. Boshqa tillardan so'z o'zlashishi natijasida tilda qanday hodisalar yuzaga kelishi mumkin?

- A) sinonimlik va antonimlik  
B) sinonimlik va ko'pma'nolilik  
C) sinonimlik va omonimlik  
D) sinonimlik, antonimlik va omonimlik

112. Qaysi so'zlar zakiylik san'atida muhim rol o'ynaydi?

- A) sinonimlar  
B) ko'p ma'noli so'zlar  
C) omonimlar  
D) antonimlar

113. Maxsus she'riy janr – tuyuqqa asos bo'lib xizmat qiladigan so'zlar qaysi?

- A) sinonimlar  
B) ko'p ma'noli so'zlar  
C) omonimlar  
D) antonimlar

114. So'zning ma'no jilolarini namoyish qiluvchi lisoniy hodisa qanday nomlanadi?

- A) sinonimlik      B) ko'pma'nolilik  
C) omonimlik      D) antonimlik

115. 1. *31-avgust sanasi hech qachon hech kimning yodidan ko'tarilmaydi.*

2. *Keltirilgan mollarni bir-bir sana.*

Ushbu gaplarda qo'llanilgan «sana» shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z?

- A) sinonim                      B) omonim  
C) paronim                      D) antonim

116. *Yuz* so'zining sinonimlari orasidan ijobiy bo'yoqqa ega bo'lganlarini toping.

- A) oraz, uzor, ruxsor, chehra  
B) oraz, uzor, chehra  
C) yuz, oraz, uzor, ruxsor, chehra  
D) yuz, oraz, uzor, chehra

117. *Yuz* so'zining qaysi sinonimlarida badiiy uslubga xoslanish belgisi mavjud?

- A) oraz, uzor, ruxsor  
B) oraz, uzor, chehra  
C) yuz, oraz, uzor, ruxsor, chehra  
D) yuz, oraz, uzor, chehra

118. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar qatoriga ...

- A) sinonimlar uyasi deyiladi  
B) ko'p manoli so'zlar deyiladi  
C) sinonimik qator deyiladi  
D) hamma javob to'g'ri

119. Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosiga ...

- A) uslubiy xoslangan so'z deyiladi  
B) salbiy bo'yoqdor so'z deyiladi  
C) ijobiy bo'yoqdor so'z deyiladi  
D) dominantada deyiladi

120. Quyidagi qaysi sonlar o'zaro omonimlikni yuzaga keltiradi?

1) qirq; 2) yuz; 3) to'rt; 4) uch; 5) o'n; 6) bir; 7) yetti.

- A) 1, 2, 4                      B) 3, 5, 6  
C) 1, 3, 5                      D) 1, 3, 7

121. Qaysi qatordagi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) Mashina dovon tepasiga ko'tarildi.  
B) Boburning Kobul devoni topilgan emas.

C) Ot afzalin shayladi, o'q-anjomin boyladi.

D) O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan.

122. Shakldosh (omonim) so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) talaffuz, muddat, xalq  
B) adash, to'q, dasta  
C) ko'r, shoir, biologiya  
D) to'r, qofiya, hosil

123. *Kechalar fig'onimdan tinmadi kavokiblar,*

*Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman.*

Ushbu baytda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llanilgan?

- A) ma'nodosh so'zlar  
B) paronim so'zlar  
C) shakldosh so'zlar  
D) zid ma'noli so'zlar

124. Qaysi so'zlar ham ko'chma ma'no, ham shakldoshlikka ega?

1) ko'z; 2) oltin; 3) og'iz; 4) tom; 5) uch; 6) oq.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6    B) 5, 6  
C) 3, 4, 5, 6        D) 4, 5, 6

125. Qaysi qatorda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Asil umring shu boyning eshigida o'tmasin deyman-da.

B) Men aytganlarni birma-bir qayd qiling.

C) Qancha-qancha insonlar vatanining bir qisim tuprog'iga zor.

D) Tamburning ovozi – yorimning sho'xchan nozi.

126. 1) to'lat (fe'l) – to'lat (fe'l);

2) kechik (ot) – kechik (fe'l);

3) oqish (fe'l) – oqish (sifat);

4) yasama (fe'l) – yasama (sifat).

Ushbu shakldosh so'zlardan qaysilarida asoslar ham o'zaro shakldosh so'zlar sanaladi?

- A) 2, 3                      B) 1, 2, 3  
C) 1, 2, 3, 4              D) 2, 3, 4

127. Quyidagi so'zlardan qaysilarida paronimlik ot turkumi doirasida yuzaga kelgan?

1) dars – darz; 2) barmoq – bormoq; 3) yod – yot; 4) sut – sud; 5) urish – urush; 6) qars – qarz; 7) da'vo – davo; 8) sof – sop; 9) palak – falak; 10) sa'va – sava.

A) 2, 3, 6, 7      B) 1, 3, 5, 10

C) 1, 4, 7, 9      D) 1, 4, 9, 10

128. *Ahli suxanlar ko'p juda, lekin bahsi mazmundin judo.*

Ushbu gapda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

A) omonim      B) antonim

C) sinonim      D) paronim

129. *Qo'lingdan kelganча chiqar yaxshi ot,*

*Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.*

*Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Ushbu she'rda qo'llangan shakldosh so'zlardan nechitasi ot so'z turkumiga mansub?

A) 2 ta      B) 3 ta

C) 4 ta      D) 5 ta

130. *Qo'lingdan kelganча chiqar yaxshi ot,*

*Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Ushbu she'rda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar mavjud?

A) omonim, antonim so'zlar

B) omonim, sinonim so'zlar

C) faqat omonim so'zlar

D) omonim, antonim, sinonim so'zlar

131. Qaysi qatorda paronimlar qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Ko'ylagi quyoshda tovlanib husnini yanada ochib yuborgandi.

B) Suv jimirlab, ko'zni quvnatib toblanardi.

C) Ochilov o'zini quyoshga toblab yotardi.

D) Yarqiraydi, doim tovlanar Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

132. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan quyidagi qaysi so'zlar omonim asosga omonim qo'shimcha qo'shilishidan hosil qilingan?

1) terma; 2) bo'g'ma; 3) kechik; 4) tilim.

A) faqat 3      B) 3, 4

C) 1, 3      D) 1, 2, 3, 4

133. Qaysi gaplar tarkibida faqat ko'makchi morfema orqali leksema omonimligi vujudga kelgan yasama so'z qo'llangan?

1. Baroning yigitча harakatlari, qo'rqmasligi ulami hayratga soldi.

2. Daryo bo'lsang oqqan hayqiriq, Kechik bo'lib qolar ekansan.

3. – Bu mening peshona terim, oyoqosti qilmang, – dedi unga qarab.

4. Bo'g'ma ilonlarning bu turi xavfli sanalib, cho'llarda, sahrolarda yashaydi.

5. Bir kuni tortma eshigini ocholmay rosa qiynaldi, shu sababli uni qullamaydigan bo'ldi.

A) 1, 2, 3      B) 4, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5      D) 1, 4, 5

134. Qaysi gapda yasama sifatning asosi omonimlik xususiyatiga ega?

A) Xalqimiz bejiz jisman emas, qalban ham uyg'oq bo'lmog'i lozim.

B) O'ymakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan eski eshikka kiramiz.

C) Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin jildirashlari.

D) Bilimdon o'z bilimi tufayli har qachon ofatlardan omon qoladi.

135. Qaysi qatorda uslubiy xato paronimlarni qo'llash bilan bog'liq?

A) Dugonajon, bugun menikiga tashrif buyurarsan?

B) Yarog' tuta oladigan qari-yu yosh jangga shay turardi.

C) Tambalga ish buyursang, otangdan yaxshi maslahat beradi.

D) O'zak va qo'shimcha qanday aytilishidan qat'i nazar o'zgarmaydi.

136. Yetakchi morfemasi ham, so'z yasovchi ko'makchi morfema ham omonim xarakterga ega bo'lgan yasama fe'l qatnashgan gapni aniqlang.

A) Kuz kelib, kunlar qisqardi.

B) Yo'lchi quyosh va dala shamoli bilan biroz qoraygan.

C) Uning gapi og'zida qolib, ko'zlari xiyol kengaygandi.

D) Ish doirasi toraydi.

137. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud gapni toping.

A) Asl maqsadingizni ayting.

B) Adl teraklar qishloqning husniga husn qo'shadi.

C) Yaxshiga yondash, yomondan qoch.

D) Amringizga muvofiq keldim.

138. Asosida faqat jarangsiz undosh qatnashgan, yetakchi morfemasi ham, ko'makchi morfemasi ham omonim xarakterda bo'lgan sifatni toping.

A) tuzsiz B) yasama

C) yozgi D) ochiq

139. Omonim so'zlar qatorini aniqlang.

A) o'rim, qavat, qala, ta'qib

B) qiyiq, taqa, qayiq, gul

C) bahr, bazm, bas, ivimoq

D) bog'li, bo'sh, arz, qayt

140. Quyida berilganlar orasidan barcha omonim so'zlarni belgilang.

1) ivimoq; 2) qiyiq; 3) bog'li; 4) zarb; 5) gul.

A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5

C) 1, 2, 3, 5 D) 2, 3, 4

141. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga ... so'zlar deyiladi.

A) shakldosh B) ma'nodosh

C) ko'p ma'noli D) zid ma'noli

142. Paronim so'z noto'g'ri qo'llangan gapni toping.

A) Ularning hayoti shunchaki ro'zg'or tebratish taxlitida o'tdi.

B) Qadr bilmas qarindoshdan qadr bilgan yod yaxshi.

C) Yoriq joyni yamash uchun rosa harakat qildi.

D) Bir asrga tatigulik yillarni bosib o'tdik.

143. Qaysi qatoridagi juft so'zlar sinonim so'zlardan tashkil topmagan?

A) kuch-quvvat B) hovli-joy

C) oziq-ovqat D) or-nomus

144. Asosan antonim so'zlar vositasida yaratiladigan san'at ...

A) tajnis B) istiora

C) tazod D) tashbeh

145. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar isiy boshlaydi.

B) Shahrimiz nufusi uch milliondan oshdi.

C) Tushga qolmay yukimiz ot-aravaga ortildi.

D) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.

146. Shakldosh so'zlardan qaysi biri bir so'z turkumi doirasida shakldoshlikni vujudga keltirishi mumkin?

1) kul; 2) quymoq; 3) o'sma; 4) o'rmoq; 5) mushak.

A) 3, 4, 5 B) 2, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5

147. Qaysi qatorida omonim so'zlar berilgan?

A) o'tkir, tugma B) biqin, soch

C) tuz, kadr D) egri, bo'lmoq

148. *Bunim yo'q, unim yo'q,*

*Uyimda unim yo'q.*

*Ishimda unum yo'q,*

*Aytishga unim yo'q.*

Ushbu she'riy parchada asosi shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkum (lar)ga tegishli?



- A) ot, olmosh, fe'l
- B) ot, olmosh
- C) ot
- D) ot, fe'l

149. Uch so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la oladigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) tush, zang, jo'r
- B) terma, tom, tik
- C) tik, bosh, til
- D) tom, yog', dog'

150. *Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. O'sha o'ynoqi damlarni eslab sog'inaman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalaman.*

Ushbu parchada nechta sodda yasama so'z omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zdan yasalgan?

- A) 3      B) 2      C) 4      D) 1

151. Qaysi qatordagi so'zlar ikki xil so'z turkumi doirasida shakldoshlik hosil qila oladi?

- A) til, yashirin      B) oqish, kiyin
- C) oqar, kechik      D) tilim, bura

152. Quyidagi qaysi so'zlar o'z paronimlari bilan bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi?

1) yod; 2) ham; 3) burch; 4) bob; 5) afzal; 6) eg.

- A) 1, 5, 6      B) 3, 6
- C) 2, 3, 6      D) 1, 2, 4, 5, 6

153. Qaysi qatordagi so'zlar ikki xil so'z turkumi doirasida shakldoshlik hosil qila oladi?

- A) botin, kiyin      B) yashirin, bura
- C) tilim, oqish      D) kechik, oqish

154. Bir turkum doirasida shakldoshlik hosil qila oladigan so'zlarni aniqlang.

- 1) karam; 2) soz; 3) yor; 4) bel; 5) sir.
- A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 5
- C) 1, 4, 5      D) 1, 2, 5

155. Qaysi qatordagi so'zlarning undosh tovushini juftiga almashtirilganda ma'no o'zgaradi?

- A) to'l, pol, tor, kul
- B) so'r, qor, toq, to'r
- C) ko'cha, tur, sog', kel
- D) hammasida ma'no o'zgaradi

156. Quyida berilgan so'zlardan qaysi birlari ham omonimlik, ham polisemantik xususiyatga ega?

1) tor; 2) tomoq; 3) yengil; 4) bel; 5) gul; 6) uch; 7) dunyo.

- A) 1, 4, 5, 6      B) 1, 3, 4, 5, 6, 7
- C) 1, 5, 6      D) 1, 5, 6, 7

157. Berilgan so'zlarning qaysi birida shakldoshlik uch so'z turkumida ro'y beradi?

1) oshiq; 2) tik; 3) uch; 4) kez; 5) qoq; 6) o'ch.

- A) 2, 3      B) 1, 2, 3, 5, 6
- C) 1, 2, 3, 5      D) 1, 2, 3

158. Qaysi qatorda uch turkum doirasida shakldoshlik hosil qiluvchi so'zlar berilgan?

1) oshiq; 2) tik; 3) uch; 4) qiziq; 5) qoq; 6) o'ch; 7) kez.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- D) 2, 3, 4, 6

159. *Ba'zi paytlarda yoshligimning unutilmas damlarini esga olaman. O'sha o'ynoqi damlarni eslab sog'inaman. Meni o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutilmay qiynalaman.*

Berilgan parchada yasaliş asosi ham, yasovchi vositasi ham omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan nechta yasama so'z bor?

- A) 3      B) 1      C) 4      D) 2

160. 1) terim; 2) bog'lar; 3) ko'zlar; 4) qaynatma; 5) qovurma.

Berilgan so'zlardan qaysilari ikki xil so'z turkumi doirasida qo'llana oladi?

- A) 2, 3, 4, 5      B) 1, 2, 4, 5  
C) 1, 2, 5      D) 1, 2, 3, 4, 5

161. Quyidagi birliklarning qaysi birida har ikkala so'zning ham shakldoshi mavjud?

- A) otni hayda      B) ko'kni quch  
C) o't och      D) oqpadar

162. *Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur.*

Berilgan gapda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar qatnashgan?

- A) sinonimlar      B) paronimlar  
C) omonimlar      D) antonimlar

163. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Bemor davo izlab hatto Moskvaga ham borib keldi.

B) Quyosh hamal burjiga kirishi bilan kunlar isiy boshladi.

C) Ko'kka bo'y cho'zgan adil teraklar shamolda tebranadi.

D) Gulnora yuvindini bir chetga to'kib, uyga kirdi.

164. Berilgan sinonim so'zlar orasidan dominant so'zni toping.

- A) jussali      B) gavdali  
C) barvasta      D) norg'ul

165. Berilgan sinonim so'zlar orasidan dominant so'zni toping.

- A) dovdiramoq      B) esankiramoq  
C) talmovsiramog      D) gangimog

166. Kimning fikricha, *har qanday ashynonng qimmatu ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridadir?*

- A) Abu Nasr Forobiy  
B) Jaloliddin Rumiy  
C) Al-Xorazmiy  
D) Beruniy

167. Qaysi qatorda ot turkumiga mansub ma'nodosh so'zlar berilgan?

A) qiyinchilik, mashaqqat, zahmat

B) kasallik, xastalik, bemor

C) oydin, ravshan, ochliq

D) kekxa, mo'ysafid, qari

168. Qaysi qatorda ma'nodosh so'zlar sifat turkumiga mansub?

A) vazifa, topshiriq, majburiyat

B) do'st, o'rtoq, birodar

C) shamol, to'fon, yel

D) ulug', buyuk, ulkan

169. O'zaro bir so'z turkumi doirasidagina shakldoshlik hosil qiladigan so'zni toping.

A) yoz      B) tosh

C) karam      D) tuz

170. Quyidagi so'zlardan qaysilarining paronim jufti yo'q?

A) urush, adib, azim

B) ahil, dars, adl

C) avlod, dahriy, lanj

D) burch, o'qish, nufuz

171. *Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan.* Ushbu gapdagi antonim so'zlar qaysi so'z turkum(lar)iga tegishli?

A) ot, fe'l      B) sifat, fe'l

C) ot, sifat      D) fe'l

172. *Tanbur, bob, yuz, tuzsiz, tub, shafqat, urush.*

Bu so'zlardan nechtasi paronim juftiga ega bo'lgan so'zlar sanaladi?

A) 5 tasi      B) 7 tasi

C) 4 tasi      D) 6 tasi

173. Qaysi qatorda har ikkala qismi ham omonim xarakterga ega qo'shma so'z berilgan?

1) toshqovoq; 2) belbog'; 3) oshqovoq; 4) qo'shog'iz.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3

C) 1, 2      D) 1, 2, 4

174. So'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud gaplar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1. Ular bir-biriga bir necha daqiqa qarab qolishdi va baravar javob berishga azim qilishdi.

2. Bunday jasur ajdodlarimiz qalbimizda adabiy yashaydilar.

3. Seni yotlar tugul, hatto qilurman rashk o'zimdanda xam...

4. Jodu ko'zlariningdan ummon rang olganga o'xshaydi go'yo.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3

C) 2, 3, 4      D) 1, 3

175. Ham omonimlik, ham polisemanlik xususiyatga ega so'zlar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) shox; 2) och; 3) to'q; 4) ustun; 5) ort; 6) til; 7) yondash.

A) 2, 5, 6

B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

176. Quyidagi qaysi so'zning paronimi ikki xil so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladi?

A) boq      B) yod

C) shox      D) oz

177. Qaysi javobda quyida keltirilgan tuyuqdagi bir xil so'z turkumiga kiruvchi omonimlar to'g'ri ko'rsatilgan?

*Charxi kajraftor elidin yozamen, Chiqmadim hijron qishidin yoza men.*

*Bir meni yorliq bilan yod etmas ul, Har necha ul shohga qulluq yozamen.*

A) 2- va 4-misralardagi «yozamen» so'zlari

B) 1- va 2-misralardagi «yozamen» so'zlari

C) 1- va 4-misralardagi «yozamen» so'zlari

D) 1-, 2- va 4-misralardagi «yozamen» so'zlari

178. Qaysi gapdagi barcha so'zlarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?

A) Bo'shagan qoplarni olib qo'ydim.

B) Yolg'iz otning changi chiqmas.

C) Shamol toy ekan, kuchga boy ekan.

D) O'z uyim – o'lan to'shagim.

179. Qismlari yasama so'zlardan tuzilgan antonim juftliklarni toping.

1) katta-kichik; 2) yaxshi-yomon; 3) issiq-sovuq; 4) mehnatkash-ishchan; 5) so'zladi-gapirdi; 6) achchiq-chuchuk.

A) 1, 2, 3, 6      B) 3, 4, 6

C) 3, 6      D) 1, 3, 6

180. Tarkibida ham asosi, ham qo'shimchasi shakldosh bo'lgan ikki so'z ishtirok etgan gapni toping.

A) Biz tomonlarda kuz sho'xligi shumlikka aylanib ketadigan paytlar ham bo'ladi.

B) Sen Mahmud akaning uyi oldida turgin.

C) Yaqinlashyapmiz – o'rmon tobora bo'y cho'zyapti.

D) Mozorda yotganlar, nazarimda, so'zlarimni eshitib bezovtalanayotganday edi.

181. Qaysi javobda keltirilgan gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) Sening vujudingda sirilikning mavjudligini birinchi bor uchratganimdayoq payqagan edim.

B) Podsho vazir-u ayonlari davrasida otdan tushib, tog' tomonga ketdi.

C) Shu chog' artilleriya qismlari og'ir to'plar bilan ota boshladi.

D) Qanotlaring mallarang, jussang kichikligidan ko'rinarkansan arang.

182. 1) -ish; 2) -a; 3) -ar; 4) -moq; 5) -ay; 6) -sa.

Berilgan qo'shimchalardan qaysilari bir turkum doirasida omonimlik hosil qila oladi?

A) 1, 3, 5, 6      B) 1, 2, 3, 5, 6

C) 1, 3, 4, 5      D) 1, 3

183. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'lik xato mavjud?

A) Gulnora yuvundini bir chetga to'kib, uyga kirdi.

B) Bemor davolab hatto Moskva-ga ham borib keldi.

C) Quyosh hamal burjiga kirishi bilan kunlar isiy boshladi.

D) Ko'kka bo'y cho'zgan adil teraklar shamolda fusunkor tebranadi.

184. Uch so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la oladigan so'zlar qatorini aniqlang.

A) tik, bosh, til

B) tush, zang, jo'r

C) tom, yog', dog'

D) terma, tom, tik

185. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

A) Mashina dovon tepasiga ko'tarildi.

B) Kampir bolalarga bir qisimdan mayiz ulashdi.

C) Bola ikki yoshligidan rovon gapira boshladi.

D) Lahm go'shtlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.

186. *Ko'zimda yosh bilan kularman men ham,*

*Tilasam muhabbat tilarman men ham:*

*Ishq bilan dunyoni olarman men ham,*

*Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.*

Ushbu parchadagi fe'llarning nech-tasi omonimlik xarakterga ega?

A) 2 tasi B) 5 tasi

C) 3 tasi D) 4 tasi

187. Paronim juftiga ega bo'lgan, fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zni toping.

A) o'tkaz B) unim

C) tuzsiz D) sanat

188. *Tanbal, tanbur, sof, yuzsiz, tuzsiz, tub, urush, toblanmoq.*

Berilgan so'zlarning nech-tasi paronim juftiga ega?

A) 4 tasining B) 3 tasining

C) 5 tasining D) 6 tasining

189. *Tanbal, tanbur, sof, yuzsiz, tuzsiz, tub, urush, toblanmoq.*

Bu so'zlardan nech-tasining paronim jufti yo'q?

A) 1 tasining B) 2 tasining

C) 3 tasining D) 4 tasining

190. Qaysi gaplarda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

1) Yosh yigitni tamburning sadolari maftun etardi;

2) Sizning bir so'zingiz tilladan afzal;

3) Saroy ayonlari podshoh huzurida bosh egardi;

4) Ilm-u odob bebaho ganch;

5) Yonilg'i to'la idishlar xavfsiz joyga qo'yildi.

A) 1, 3, 4 B) 1, 3

C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4, 5

191. Ham omonimlik, ham polisemantik xususiyatga ega so'zlar qatori to'g'ri berilgan qatorni toping.

1) davlat; 2) og'iz; 3) urush; 4) bo'lmoq; 5) bog'im; 6) dunyo.

A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 4, 6

C) 1, 2, 3, 4, 6 D) 1, 2, 4, 6

192. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lmagan, polisemantik xususiyatga ega so'zlar qatori to'liq berilgan javobni toping.

1) davlat; 2) og'iz; 3) urush; 4) bo'lmoq; 5) bog'im; 6) dunyo.

A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6

C) 1, 2, 3, 4, 6 D) 3, 5

193. Bir keng unli o'rnida boshqa keng unli so'z ma'nosini farqlashi mumkin bo'lgan so'zlar qatori to'liq berilgan javobni aniqlang.

1) undosh; 2) jiyron; 3) tong; 4) malik; 5) xom.

A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5

C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

194. Tarkibidagi bir tor unli boshqa tor unli so'z ma'nosini farqlashi mumkin bo'lgan so'zlar qatori to'liq berilgan javobni aniqlang.

1) urish; 2) so'qmoq; 3) uzik; 4) yumish; 5) malik; 6) jiyron.

- A) 1, 3, 4                      B) 1, 3  
C) 1, 3, 4, 6                D) 1, 3, 4, 5, 6

195. Bir keng unli o'miga boshqa keng unli so'z ma'nosini farqlashi mumkin bo'lgan so'zlar qatori to'liq berilgan javobni aniqlang.

1) undash; 2) jayron; 3) tang; 4) molik; 5) xam.

- A) 1, 2, 3, 4, 5                B) 1, 3, 5  
C) 1, 4, 5                      D) 1, 3, 4, 5

196. *Ortmoq, chaqmoq, atlas, gul, quymoq, bo'g'im, burun.*

Berilgan so'zlardan nechtasi ham omonimlik, ham ko'pma'nolilik xususiyatiga ega?

- A) 4                      B) 5                      C) 6                      D) 7

197. Uch o'rinda shakldoshlik hosil qila oladigan so'zlarni aniqlang.

1) chechak; 2) och; 3) to'p; 4) qon; 5) til; 6) chog'.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6                B) 2, 3, 5, 6  
C) 3, 6                          D) 2, 3, 6

198. Yetakchi morfemasi omonimlik xususiyatiga ega bo'lmagan so'z(lar)ni toping.

1) tilim; 2) qovurma; 3) kechik; 4) terim.

- A) 1, 2, 3, 4                      B) 2, 3  
C) 2                                D) 1, 2, 4

199. *Kelur sel, ko'kda bo'lsa goho chaqmoq,*

*Zarar qilg'ay danakni tishda chaqmoq.*

*Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida*

*Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq.* (Habibiy)

Ushbu she'rda qo'llangan **chaqmoq** so'zi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) har uchala so'z o'zaro shakldosh so'zlar

B) 2- va 3-misralardagi **chaqmoq** so'zi bir so'zning turli ma'nolari, 1-misradagi **chaqmoq** so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

C) 1- va 3-misralardagi **chaqmoq** so'zi bir so'zning turli ma'nolari, 2-misradagi **chaqmoq** so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

D) har uchala misrada bir so'zning turli ma'nolari qatnashgan

200. Uch turkum doirasida omonimlik hosil qila oladigan so'zni ko'rsating.

- A) qo'y                              B) yoz  
C) oshiq                            D) toy

198. *Nasihatim yod qilib ol, farzandim,*

*Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Ushbu parchadagi nechta so'zning asosi omonimlik xususiyatiga ega?

- A) 2                      B) 3                      C) 4                      D) 5

201. *Siz deysizkim, men ko'klarni o'ylaymen,*

*Yer betiga sira nazar solmaymen.*

*Yanglishasiz: men ko'klarga berkingan*

*Yer qizidan xayolimni olmaymen.* (Cho'lpon)

Ushbu she'rda shakl va munosabatiga ko'ra qanday so'zlar qatnashgan?

- A) sinonim va antonimlar  
B) antonimlar  
C) omonimlar  
D) antonim va omonimlar

202. *Kissasida yarimta o'chirg'ich qolgan ekan.*

Ushbu gapda tarkibidagi hamma morfemalari omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan so'z(lar) qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) ega, kesim                      B) to'ldiruvchi  
C) ega, aniqlovchi                D) ega

203. **Urish** so'zining paronimi bilan antonim bo'la oladigan so'zni toping.

- A) tinchlik                      B) bosqin  
C) osoyishta                    D) do'pposlash

204. Berilgan gaplarda ishtirok etgan **chaqmoq** so'zi haqidagi to'g'ri fikrni toping.

1. Chaqmoq chaqib osmon guldiradi.
2. Yaxshi emas birovni birovga chaqmoq.
3. Haydarali kinoyalar bilan chaqib ola ketdi.

A) har uchala gapda **chaqmoq** so'zi polisemantik so'z

B) 2- va 3- gaplardagi **chaqmoq** so'zi bir so'zning turli ma'nolari, 1-gapdagi chaqmoq so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

C) 1- va 3-gaplardagi **chaqmoq** so'zi bir so'zning turli ma'nolari, 2-gapdagi chaqmoq so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

D) har uchala gapda **chaqmoq** so'zi o'zaro shakldosh so'z

205. So'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan gaplarni toping.

1. Hush kelibsiz, mehmonlar, o'zbekning diyoriga.
  2. Mevasini ko'tarolmagan shoh qarsillab sindi.
  3. Navoiyning g'azallaridan birini yot oldim.
  4. Hunarli el hor bo'lmas, do'st-dushmanga zor bo'lmas.
  5. O'rtog'idan xol so'ragani kirdi.
- A) 1, 2, 3, 4, 5                    B) 1, 2, 3, 5  
C) 2, 3, 4, 5                    D) 2, 3, 4

206. *Taqdimi o'z qo'ling bilan yoz, (1)*

*Mehring bilan qishni qilgin yoz.*

(2)

*Erkinlikning osmonida uch, (3)*

*Maqsad sari qanotingni yoz. (4)*

(Hamid Nuriy)

Ushbu she'ming nechanchi misralarida fe'l turkumiga oid omonim

so'zlar qatnashgan?

- A) 1, 3, 4                      B) 1, 4  
C) 1, 2, 3, 4                    D) 1, 2, 4

207. *Taqdimi o'z qo'ling bilan yoz,*

*Mehring bilan qishni qilgin yoz.*

*Erkinlikning osmonida uch,*

*Maqsad sari qanotingni yoz.*

(Hamid Nuriy)

Ushbu she'rda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar qatnashgan?

- A) omonim so'zlar  
B) sinonim so'zlar  
C) antonim so'zlar  
D) omonim va antonim so'zlar

208. *Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un,*

*Chiqarma behuda sado hamda un.*

*Ko'r, quyosh tig'ida va tegimonda*

*Ezilib, so'ng aziz bo'ldi bug'doy – un. (A.Abdumalikov)*

She'ming nechanchi misrasida ma'nodosh so'zlar qo'llangan?

- A) 1                              B) 2  
C) 2, 4                        D) 1, 2

209. *Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un,*

*Chiqarma behuda sado hamda un.*

*Ko'r, quyosh tig'ida va tegimonda*

*Ezilib, so'ng aziz bo'ldi bug'doy*

*– un. (A.Abdumalikov)*

Ushbu she'rda nechta so'zning asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?

- A) 7                      B) 6                      C) 5                      D) 4

210. Qaysi gaplar tarkibida sinonim so'zlar qatnashgan?

1. Yuzi nam yalliroq o'tloqning betida yuk mashinalarining behisob izlari ko'rinib turardi.

2. Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko'rindi.

3. Yel keltirar mayin bir ohang. Yana olib ketar nariga. Saharlab turaman, qutlayman tongni, bo'yningga osilar subh shamoli.

4. Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2  
C) 1, 2, 3      D) 1, 2, 4

211. *Yemoq* so'zining ma'nodoshlari orasidan salbiy bahoga ega bo'lganlarini aniqlang.

- A) tanovul qilmoq, iste'mol qilmoq  
B) kavshamoq, g'ajimoq  
C) oshamoq, yemoq  
D) oshamoq, kavshamoq

212. *Sovg'a* so'zining ma'nodoshlarini toping.

- 1) hadya; 2) tortiq; 3) armug'on; 4) tuhfa.  
A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2  
C) 1, 2, 4      D) 2, 4

213. Qaysi qatorda ma'nodosh so'zlar berilmagan?

- A) noyob; kamchil, tanqis, taqchil  
B) sezgir, ziyrak, hushyor  
C) iliq, issiq, jazirama  
D) hammasi ma'nodosh so'zlar

214. *Oq kun – baxt-u saodat,*

*Qora kun – g'am, musibat.* (Tohir Qahhor)

Ushbu she'riy parchada so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday tur(lar)i uchraydi?

- 1) antonim; 2) sinonim; 3) omonim.  
A) 1      B) 1, 2  
C) 1, 3      D) 1, 2, 3

215. *Qish der: «Kumush qorim bor,*

*Qorbobo yasang!»*

*«Gulim ko'rkam, – der bahor, –  
Guldasta yasang!»*

*Yoz der: «Suvim beg'ubor,  
Suz baliq misol!»*

*Kuz der: «Mevam, bolim bor,  
Bari senga, oll!»*

*Demak, ona tabiat*

*Bizni der har vaqt!* (T.Xolmat)

Ushbu she'riy parchada asosi omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan nechta so'z bor?

- A) 7 ta      B) 8 ta  
C) 9 ta      D) 6 ta

216. Qaysi gap(lar)da paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

1. O'zim yoqtirgan she'rlarni yot olaman.

2. Yorqin darslarga yaxshi javop beradi.

3. Qaysi taom tussiz pishiriladi?

4. Yugurib kelgani uchun chuqur-chuqur napas olyapti.

- A) 1, 3, 4      B) 1, 3  
C) 1      D) 1, 2, 3, 4

217. 1. Sizning sha'ningizga she'r yozdim bugun.

2. Anzirat mehmonlarga quvona-quvona dasturxon yozdi.

3. Ko'cha yuzini ko'rasan, yozilib qaytasan.

Berilgan gaplarda qatnashgan yoz so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) har uchala gapdagi yoz so'zi bir so'zning turli ma'nolari

B) har uchala gapdagi yoz so'zi o'zaro shakldosh so'zlar

C) 2- va 3-gaplarda bir so'zning turli ma'nolari, 1-gapdagi yoz so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

D) 1- va 3-gaplarda bir so'zning turli ma'nolari, 2-gapdagi yoz so'zi ularga nisbatan shakldosh so'z

218. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan juft otlar ko'rsatilgan javobni toping.

1) ochko'z; 2) qo'y-qo'zi; 3) yor-do'st; 4) uzuq-yuluq; 5) gul-chechak.

- A) 3, 5      B) 1, 3, 4  
C) 2, 3, 5      D) 2, 4, 5

219. Quyidagilardan qaysi birining yetakchi morfemasi omonimlik xususiyatiga ega?

1) bormoq; 2) chopmoq; 3) savalamoq; 4) ivitmoq; 5) changimoq.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 3, 5            D) 1, 3, 4

220. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan qo'shma so'zlar ko'rsatilgan javobni toping.

1) toshqovoq; 2) belbog'; 3) yor-do'st; 4) tokqaychi; 5) qo'shog'iz; 6) bodomqovoq.

A) 4, 6                B) 2, 3, 6

C) 1, 2, 3            D) 1, 2, 5

221. *Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon,*

*Sarv-u sanobarmidur – soch bir yon, suman bir yon,*

*Sahar, subhi sodiqda mushk bir yon, mujgon bir yon,*

*Tun pardasin tortsa gar, oy bir yon, osmon bir yon.* (To'ra Sulaymon)

Ushbu she'riy parchada tagiga chizilgan so'zlardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega?

A) uchtasi            B) beshtasi

C) ikkitasi           D) to'rttasi

222. Uch o'rinda shakldosh bo'la oladigan so'zlar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) bog'; 2) til; 3) chog'; 4) qil; 5) to'p; 6) ort.

A) 2, 5                B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 5, 6            D) 2, 3, 5, 6

223. Qaysi gapda faqat so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Uyishiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi.

B) Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranch ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganch ila.

C) U avvaliga bir oz hayajonlandi-yu, ammo keyin rovon gapira boshladi.

D) Shunda shox adolati farmon chiqaribdi.

224. Qaysi javobda jarangli-jarangsizligiga ko'ra farqlanuvchi tovushlar orqali paronim juftlik hosil qila oladigan so'zlar ko'rsatilgan?

1) afzal; 2) adib; 3) hiyla; 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur.

A) 2, 4, 5, 6            B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 2, 4, 5            D) 2, 3, 4, 5, 6

225. Ot+ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma'nosini anglatuvchi, tarkibida undoshlar va og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan unilargina qatnashgan ot(lar)ni aniqlang.

1) ko'zoynak; 2) oshqovoq; 3) oybolta; 4) qo'yko'z; 5) toshbag'ir.

A) 1, 2, 3, 4, 5            B) 2, 3, 4, 5

C) 2, 3                D) 3

226. Quyida berigan so'zlardan nechtasi ham omonimlik, ham ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega?

**ortmoq, chaqmoq, atlas, burun, gul, quymoq, qorachiq**

A) 7      B) 4      C) 5      D) 6

227. Bir so'z turkumi doirasida ham, turli so'z turkumi doirasida ham omonimlik xususiyatiga ega bo'la oladigan so'zlar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) ort; 2) o'ch; 3) til; 4) suzma; 5) un.

A) 4, 5                B) 1, 4, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5            D) 1, 3, 4, 5

228. *Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga chiqsa, mushuk bir hamla bilan uni tutarkan.*

Ushbu gapda qaysi so'z turkumiga oid so'zlarning asosi turli turkum doirasida omonim bo'la oladi?

A) ot, fe'l, fe'l            B) sifat, fe'l, fe'l

C) ot, ot, fe'l            D) ot, sifat, fe'l



229. Qaysi gap(lar)da ham paronimlarni qo'llash bilan bog'liq, ham imloviy xatoliklar mavjud?

1) Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranch ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganch ila.

2) Ikki dugona mayizni bir qisimdan bolalarga ulashib chiqdi.

3) Anvar xalloslab yugurib ketdi.

4) U avvaliga bir oz hayajonlandi-yu, ammo keyin rovon gapira boshladi.

A) 1, 3, 4                      B) faqat 1

C) 1, 4                         D) 2, 3

230. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?

A) Kech bo'lsa ham uyda yolg'iz qolgan onaizorini bir ko'rib ko'nglini xotirjam qilib ketishga ahd qildi.

B) Birozdan so'ng hamma tinchib, tashqaridan tanbur ovozi yangradi.

C) Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx ayonlariga qarab: "Qilichni emas, aqlni ishga solmoq kerak", - dedi.

D) O'tmish merosimizni o'rganishga, ota-bobolarimizning boy tajribalarini ko'zdan kechirishga azm qildi.

231. O'zaro shakldosh birliklar ishtirok etgan juftliklar to'liq ko'rsatilgan javobni toping.

1) Chaqmoq ovozidan osmon gulduradi. Yaxshi emas birovni birovga chaqmoq.

2) Oyog'idagi tufisi bilan yong'oqlarni chaqishga harakat qildi. Ilon boshini baland ko'tarib, chaqishga tayyor turar edi.

3) Qaytar dunyo ekan-da, - dedi chol ko'zlarini yumib. Uni o'z fikridan qaytar, iltimos.

4) Bu yerga ko'nglini bo'shatish, yengil tortish uchun kelgan edi. Uning ko'nglini bo'shatish, rahmini keltirish uchun ko'p yolg'on gaplarni gapirdi.

A) 1, 2, 3, 4                      B) 1, 3, 4

C) 1, 2                         D) 1, 2, 4

232. Quyida berilgan qaysi maqoldagi fe'ning asosi omonim emas?

A) Oltin olma, olqish ol.

B) Zar qadrini zargar bilar.

C) To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.

D) Yer to'ydirar - o't kuydirar.

233. So'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lmagan gapni aniqlang.

A) Rovon yo'llar qarshimizda turibdi mushtoq.

B) Bu masalaga boshqacha yondoshish mumkin emas.

C) Nodirjon o'yinga alaxsib ketganidan kech kirganini bilmay qoldi.

D) Qassob go'shtning lahim joylarini kesib, suyaklarini alohida sotish uchun terib qo'ydi.

234. Qaysi javobda "dominanta"ga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) sinonimlar qatoridagi faqat ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'z

B) sinonimlar qatoridagi ma'lum bir uslubiy xoslanishga ega bo'lgan so'z

C) sinonimlar qatoridagi ijobiy va salbiy bo'yoq hammasidan ham kuchliroq ifodalangan so'z

D) sinonimlik qatoridagi uslubiy xoslanish va so'zlovchi bahosidan xoli bo'lgan so'z

235. Qaysi javobda har ikkala qismi ham bir xil so'z turkumi bo'lgan, faqat birinchi qismi omonim bo'lgan qo'shma so'z berilgan?

A) kamaygul                      B) qorbo'ron

C) belbog'                         D) bodomqovoq

236. Quyidagi berilgan qo'shma so'zlardan har ikkala qismi ham bir xil so'z turkumi bo'lgan, faqat ikkinchi qismi omonim bo'lganlarini toping.

1) kamaygul; 2) qo'ymijoz; 3) bodomqovoq; 4) nosqovoq; 5) boychechak; 6) achchiqtosh.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5, 6

C) 1, 3, 4 D) 1, 3, 4, 5

237. Tobe so'z o'rnida uning paronimi qo'llangan so'z birikmalarini aniqlang.

1) laxcha cho'g'; 2) lahm qazimoq; 3) tilla uzuk; 4) hiyla ozibdi; 5) adil terak.

A) 2, 5 B) 1, 4

C) 1, 3 D) 2, 4

238. Quyidagi qaysi so'zning sinonimi uch xil so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladi?

A) yugurmoq B) ozmoq

C) adil D) ko'k

239. Qaysi gap tarkibida qo'llangan fe'lining sinonimi to'rt o'rinda ot va fe'l so'z turkumi doirasida omonimlik hosil qiladi?

A) Qobil yugurib borib do'konxona eshigidan ko'chaga qaradi.

B) Anvar xatni juda chiroyli bitadi.

C) Salim ishlarini tamomlab, ko'chaga chiqdi.

D) Yaltiraydi, doim tovlanar, Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

240. *Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,*

*Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular...*

*Men seni esladim, entikib, yonib...*

Ushbu she'riy parchadagi sodda yasama so'zlardan nechtasining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?

A) 2 ta B) 1 ta

C) 3 ta D) 4 ta

241. *Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh (1),*

*Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh (2),*

*Yosh (3) kibi mashg'ulluq qilmoq nedur,*

*Har qachonkim suhbatingg'a yetti yosh (4).*

Ushbu tuyuqda qo'llangan yosh so'zlarining qaysi turkumga tegishli ekanligini toping.

A) 1, 2-ot, 3, 4-sifat

B) 1, 2, 4-ot, 3-sifat

C) 1-son, 2-ot, 3, 4-sifat

D) 1-son, 2, 4-ot, 3-sifat

242. Berilganlardan har ikkala qismi omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan qo'shma so'zlarni toping.

1) qirqquloq; 2) uchburchak; 3) toshmijoz; 4) otquloq; 5) guldasta; 6) qovoqari.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5, 6

243. Berilgan so'zlardan paronim juftiga ega bo'lganlarining barchasi ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) sut; 2) da'vo; 3) ham; 4) mehr; 5) qism.

A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 5

C) 1, 2 D) 1, 2, 3, 4, 5

244. Paronimi mavjud so'z berilgan javobni toping.

A) ta'qib B) fidoyi

C) qasd D) najot

245. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.

1) shoh; 2) asr; 3) soch; 4) rux; 5) sanat; 6) tus.

A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4

C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5

246. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) U sandiqdagi javohirlardan qisimiga sig'gancha oldi.

B) Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.

C) Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish ilinjida edilar.

D) Dushman turli xiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.

247. Metafora usulida ma'no ko'chishi sodir bo'lgan qaysi birlikda paronim juftiga ega so'z qatnashgan?

A) sof yashamoq B) darz piyola

C) temir intizom D) tuz totmoq

248. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?

A) tanti-mard

- B) ganch-boyik
- C) gangimoq-esankiramoq
- D) norg'ul-barzangi

249. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay olmaydi?

- A) qisim-bo'lak
- B) ganj-boyik
- C) dovdiramoq-esankiramoq
- D) savol-so'roq

250. *Unim yo'q, bunim yo'q.*

*Uyimda unim yo'q.*

*Ishimda unum yo'q,*

*Aytishga unim yo'q.*

Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?

- A) 1 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh
- B) 2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh
- C) 2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh, 1 o'rinda fe'l
- D) 2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh

251. Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakllari ham o'zaro omonim bo'la oladi?

1) soch; 2) shox; 3) sir; 4) tovon; 5) es; 6) bot.

- A) 4, 5, 6
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 3, 4, 5
- D) 1, 2, 3, 6

252. Quyidagi so'zlardan nechtasi ham bir turkum, ham turli turkum doirasida omonim bo'la oladi?

**tovon, savdo, o't, qon, ot**

- A) 5 tasi
- B) 2 tasi
- C) 3 tasi
- D) 1 tasi

253. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) U sandiqdagi javohirlardan qisimiga sig'gancha oldi.

B) Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.

C) Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish ilinjida edilar.

D) Dushman turli xiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.

254. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?

A) Boriq go'yo suv quyganday jimjit.

B) Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan afzal.

C) Usta cho'g'day temirni olovda toblab-toblab oldi.

D) Undan bir suratgina yodgor qolgan, xalos.

255. Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli, ham shakldosh so'z hisoblanadi?

A) chaqmoq, rasta, bardam

B) dunyo, asl, ilik

C) shox, tovon, es

D) yoq, to'da, asil

256. Quyida berilgan nechta so'z faqat bir turkum doirasida shakldoshlik xususiyatiga ega?

**shox, tovon, es, savdo, qon, in**

A) 5 ta

B) 3 ta

C) 2 ta

D) 4 ta

257. Quyidagi berilgan nechta so'z har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la boshladi?

**o'ch, band, bo'sh, maqom**

A) 2 ta

B) 4 ta

C) 3 ta

D) 2 ta

258. Qaysi qatordagi juftlik bir umumiy ma'noni ifodalay oladi?

A) ganch-boylik B) yaroqli-qurolli

C) xiyla-nayrang D) adil-tikka

259. *Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir.*

Ushbu gapdagi belgilangan so'zda ma'no qaysi usulda ko'chgan?

A) metafora

B) metonimiya

C) sinekdoxa

D) vazifadoshlik

260. *Kal ketaverdi, ketaverdi, charchab, suvsab bir daraxt soyasida yotib uxladi.* (Ertakdan)

Ushbu gap tarkibida asosi ham omonimlik, ham paronimlik xususiyatiga ega so'z necha o'ringa qatnashgan?

- A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

261. *Yaproqlar tebranar she'r maqomiga,*

*Chechaklar jimgina egib turar bosh.*

*Marmar sarhovuzning kumush jomiga*

*Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.*

Ushbu she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega?

- A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

262. *Unum(1) yo'q, bunim yo'q,*

*Uyimda unim(2) yo'q.*

*Ishimda unum(3) yo'q,*

*Aytishga unim(4) yo'q.*

Ushbu parchada raqamlar bilan ko'rsatilgan so'zlardan qaysilarining yetakchi morfemalari o'zaro omonim so'zlar hisoblanadi?

- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4  
C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4

263. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot so'z turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?

1) inmoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq

- A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5  
C) 3, 4, 5 D) 1, 5

264. O'zaro shakldoshlik hosil qilgan birliklar ishtirok etgan juftliklar to'liq ko'rsatilgan javobni toping.

1. Odinaxon dasturxonga meva-chevalarni qo'ydi. Bu hikoya kitobxonlarga yoqdi.

2. Oyog'idagi tuflisi bilan yong'oqlarni chaqishga harakat qildi. Ilon boshini baland ko'tarib chaqishga tayyor turar edi.

3. Hammang o'z aravangni o'zing-tort. Bu yerga ko'nglini bo'shatish uchun kelgan ekan, tezda aravasini tortib jo'nab ketdi.

4. Uning rahmini keltirish uchun ko'p yolg'on gaplarni gapirdi. Qalbida ishq o'ti yonmoqda edi.

- A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4

- C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2

265. Qaysi gaplarda paronimlar bilan bog'liq xatolarni kuzatish mumkin?

1. Yosh yigitni tanburning sadolari maftun etardi.

2. Sizning har bir so'zingiz bizga tilladan afzal.

3. Saroy ayonlari podshoh huzurida bosh egib turishardi.

4. Ilm-u odob – bebaho ganch.

5. Ko'cha yuzidagi adl teraklar shamolda tebranadi.

- A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5

- C) 3, 4, 5 D) 1, 3, 4

266. Ushbu birliklardan nechtasi shakldoshlik xususiyatiga ega emas?

1) shoxlamoq; 2) chog'lamoq; 3) ko'nglini ochmoq; 4) shar; 5) chakka; 6) uzuk; 7) tushunmoq; 8) ustun.

- A) 3 tasi B) 1 tasi

- C) 2 tasi D) 4 tasi

267. Qismlaridan faqat biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan qo'shma sifatni aniqlang.

1) mehmondo'st; 2) umumdavlat; 3) sofdil; 4) toshbaqa; 5) qo'ymijoz; 6) qorbo'ron.

- A) 1, 2 B) 1, 2, 5

- C) 2, 3, 5 D) 2, 4, 5, 6

268. Qaysi qatoridagi xatolik paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik emas?

A) Xalqimizda «Ko'l qurisa ham, nomi qurimaydi» degan naql bor.

B) Qanday aytilishidan qat'iy nazar bir hil yoziladi.

C) Bobosi u yoqqa borishni ta'qiqlab qo'ydi.

D) U hiyla uzoqroqda edi.

269. *Kengash qilgan el ozmas, keng bichilgan to'n to'zmas.*

Tagiga chizilgan soʻzning maʼnodoshi qatnashgan soʻz qaysi gapda qoʻllangan?

A) Boshida koʻpaydi sochlarning oqi, Kamaydi sochlarning oʻzi, darvoqe.

B) Yiqilgan emas, yiqilib qolgan yomon, bolam.

C) Chol oʻgʻlining oriqlagan chehrasidan koʻz uzib, atrofga alangladi.

D) Sahroda yoʻldan adashgan mahallarimda necha martalab meni oʻlimdan asrab qolding.

270. Metafora usulida maʼno koʻchishi sodir boʻlgan qaysi birlikda paronim juftiga ega soʻz qatnashgan?

A) qattiq tartib oʻrnatmoq

B) tuz totmoq

C) darz piyola

D) temir intizom

271. Oʻzaro shakldoshlik hosil qilgan birliklar ishtirok etgan juftliklar toʻliq koʻrsatilgan javobni toping.

1. Bilim kelinchakka oʻxshaydi: u xilvat va pinhoniylilikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozonolmaydi.

2. Qiziga qalamdon sotib oldi. Bilimdon va tadbirkor, raqobatbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi sanaladi.

3. Bilimli kishi kerakli soʻzni soʻzlaydi, keraksiz soʻzni koʻmib tashlaydi. Sabrli odam uzoq yashaydi.

4. Odam odamdan qutular, oʻz feʼlidan qutulmas. Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi.

A) 2, 4                      B) 1, 4

C) 2, 3, 4                  D) 1, 2

272. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro umumiy maʼnoga ega emas?

A) tanti, erka, bemaʼni

B) gavdali, barvasta, norgʻul

C) gangimoq, talmovsiramogʻ, kalovlanmoq

D) adolat, haqqoniylik, toʻgʻrilik

273. Qaysi qatordagi gapda asosi paronimiga ega boʻlgan soʻz koʻchma maʼnoda qoʻllangan?

A) Mungli kuy yurakni azoblar edi.

B) Salima tilla uzugini tortmaga soldi.

C) Xamir qattiq qonilgan ekan, koʻpchishi qiyin boʻldi.

D) Soatim kechgga borib yotib qolibdi.

274. Ikki xil soʻz turkumi doirasida omonim boʻla oladigan soʻzlardan yasalgan yasama soʻzlar berilgan qatorni aniqlang.

1) shartaki; 2) oqarmoq; 3) esli; 4) shox-lamoq; 5) shoxdor; 6) boʻgʻma

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6    B) 1, 2, 3

C) 1, 2, 3, 5            D) 1, 2, 3, 6

275. Quyidagi nechta soʻz oʻzi bilan bir soʻz turkumiga oid paronim juftiga ega?

**yaroqli, tuz, adl, surʼat, burj**

A) 3 ta

B) 2 ta

C) 4 ta

D) 5 ta

276. Omonimlik xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar koʻrsatilgan javobni belgilang.

1) qovoq; 2) shamol; 3) qalin; 4) kishan; 5) shoh; 6) qoqi.

A) 1, 3, 6

B) 2, 3, 5

C) 2, 3, 4, 5

D) 1, 3, 5, 6

277. Quyidagi soʻzlarning nechtasi uch oʻrinda omonim boʻla oladi?

**chogʻ, qur, bor, kul, toʻp, yoq**

A) 6 ta

B) 4 ta

C) 3 ta

D) 5 ta

278. Qaysi gapda paronimlarni qoʻllash bilan bogʻliq xatolik mavjud?

A) Oʻchoqdagi lahja choʻgʻ hali sovimagan.

B) Posbon uxlagach, Mirzo Ulugʻbekni Koʻksaroy tagidagi lahimdan olib chiqmoqchi edi.

C) Toshbaqa guldanda gulga qoʻnib yurgan kapalakka gʻashi keldi.

D) Esi past odamning dimogʻi baland boʻladi

279. Quyidagi fe'llardan nechtasining asosi boshqa turkumdagi so'zlar bilan shakldoshlik hosil qila oladi?

**ichmoq, yoqmoq, kulmoq, botmoq, kuymoq, ko'chmoq, tushunmoq**

A) 8 B) 6 C) 7 D) 5

280. Quyidagi nechta so'z o'z shakldoshi bilan bir xil so'z turkumiga mansub bo'la oladi?

1) chopmoq; 2) tovon; 3) qir; 4) devon;  
5) taxt; 6) qovoq; 7) bitmoq

A) 4 ta B) 6 ta

C) 3 ta D) 5 ta

281. Quyidagi so'zlarning nechtasi har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la oladi?

**qo'zi, oyoq, bel, taxt, yengil so'qmoq, bor, o'ch, burun**

A) 9 B) 8 C) 7 D) 6

282. Quyida berilgan so'zlardan turli so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladigan so'zlar to'liq ajratib ko'rsatilgan javobni ko'rsating.

1) bo'y; 2) o'y; 3) yoq; 4) tovon; 5) suzma;  
5) ko'ch

A) 2, 3, 5, 6 B) 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5, 6

283. Quyidagi so'zlardan nechtasi ham bir turkum, ham turli turkum doirasida omonim bo'la oladi?

**suzma, yoq, bel, yengil, gul, o'ch, tuy**

A) 4 tasi B) 2 tasi

C) 3 tasi D) 7 tasi

284. To'rt o'rinda omonimlik hosil qila oladigan so'zlar to'liq berilgan javobni aniqlang.

1) to'p; 2) chog'; 3) oshiq; 4) chaqmoq;  
5) ort

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4

C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

285. Ham omonimlik, ham polisemantiklik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni aniqlang.

1) tovon; 2) es; 3) quv; 4) ivitmoq;  
5) nufuz; 6) bo'y

A) 1, 2, 3, 4, 6 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 2, 4, 5, 6 D) 3, 5, 6

286. **tulki, yoq, qur, o'y, tomoq, burun, bardam**

Ushbu so'zlardan nechtasi ham omonimlik, ham polisemantiklik xususiyatiga ega?

A) 3 tasi B) 5 tasi

C) 6 tasi D) 4 tasi

